

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Qo‘qon DPI.
ILMIY XABARLAR.
2020- yildan nashr etiladi.
Yilda 4 marta chiqadi.**

**3 (7)-2022
Sentyabr**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ**

**издаётся с 2020 года
Выходит 4 раз в год**

УЎК 5/9(08)
КБК 72я5
Қ 99

MUASSIS:

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo'qon DPI.
ILMIY XABARLAR-
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ.

Jurnal bir yilda to'rt marta
chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiya
agentligida 2020- yil
9 - iyulda 1085 raqam bilan
ro'yxatga olingan.

Jurnaldan maqola ko'chirib
bosilganda, manba
ko'rsatilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi:

2021- yil 5 -may

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

Ofset bosma, Ofset
qog'oz.

Adadi: 100 nusxa
Buyurma № 149

Nashr uchun mas'ul:
V.Karimova, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Muqova dizayni va original
maket Qo'qon DPI
tahririyat - nashriyat
bo'limida tayyorlangan.
"Poliraf Super Servis"
MCHJ bosxonasida chop
etiladi.

Manzil: Farg'ona shahar,
Aviasozlar ko'chasi 2-uy.
"Qo'qon DPI. Ilmiy
xabarlar" ilmiy jurnali OAK
Rayosatining 2021- yil 31-
martdagi qarori bilan OAK
ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kimyo, biologiya, filologiya,
tarix fan tarmoqlari
bo'yicha milliy nashrlar
sifatida kiritilgan.

Tahririyat manzili: 150700,
Qo'qon shahar, Turon
ko'chasi, 23-uy.
Tel.: (0373) 542-38-38.
Сайт: www. kspi. uz
journal.kspi.uz

ISBN: 978-9943-7182-7-2

"CLASSIC"
nashriyoti 2022

Sh.Farmonov
Sh.Namozov
S.Rashidova
I.Asqarov
V.Xo'jayev
Sh.Abdullayev
I.Abdug'ofurov
S.Aripova
D.Altiboyeva
I.Eshmetov
A.Ibragimov
N.Vohidova
G'Ochilov
R.Rasulov
B.Samatov
D.Akbarov
M.Rahmatullayev
V.Isaqov
B.Kamolov
G'.Abdullayev
A.Batashov
H.Xonboboev

N.Karimov
A.S.Sagdullayev
O.Akimova
V.Borisova
I.Artyushkov
N.Mahmudov
Sh.Iskandarova
A.Qosimov
A.Sabirdinov
D.Nabiyeva
N.Uluqov
S.Mo'minov
H.Usmanova
M.Umarxo'jayev
D.Quronov
A.Ziyayev
D.Jamoliddinova
Z.Qobilova
M.Rasulova
O.Bozorov
G.Kislov
G.Abdullayev
T.Fayzullayev
A.Rasulov
R.Shamsiddonov
Z.Isomiddinov
X.Yunusova
O.Komilov
T.Haydarov
N.Babayeva
Y.Dorojkin
N.Erkaboyeva
O'.Asqarova
Z.Azimova
V.Qodirov
S.Alimsaidova
A.Abdurashidov
A.Tolibjonov
D.O'rinboyev
J.Azamov

BOSH MUHARRIR:

D. Sh. Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Mas'ul muharrir:
N.S.Jo'rayev, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Mas'ul muharrir yordamchisi:
O.Y.To'xtasinova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Tahrir kengashi:

ANIQ VA TABIIY FANLAR:

O'zR FA akademigi
O'zR FA akademigi
O'zR FA akademigi
kimyo fanlari doktori, professor
kimyo fanlari doktori, professor
kimyo fanlari doktori, professor
kimyo fanlari doktori, professor
kimyo fanlari doktori, professor
kimyo fanlari doktori, professor (Qirgizston)
kimyo fanlari doktori, professor
kimyo fanlari doktori, professor
kimyo fanlari doktori (DSc)
kimyo fanlari nomzodi, professor
fizika-matematika fanlari doktori, professor
fizika-matematika fanlari doktori, professor
fizika-matematika fanlari doktori
fizika-matematika fanlari doktori
biologiya fanlari doktori, professor
geografiya fanlari doktori, professor
biologiya fanlari doktori
biologiya fanlari doktori
texnika fanlari nomzodi, dosent

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR:

O'zR FA akademigi
O'zR FA akademigi
filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
filologiya fanlari doktori, professor
filologiya fanlari doktori, professor
filologiya fanlari doktori, professor
filologiya fanlari doktori, professor
filologiya fanlari doktori, professor
filologiya fanlari doktori, professor
filologiya fanlari doktori, professor
filologiya fanlari doktori, professor
filologiya fanlari doktori (DSc)
filologiya fanlari doktori (DSc)
filologiya fanlari doktori (DSc)
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
filologiya fanlari nomzodi
falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya)
falsafa fanlari doktori, professor
siyosat fanlari doktori, professor
tarix fanlari doktori, professor
tarix fanlari doktori, professor
tarix fanlari doktori, professor
tarix fanlari doktori, dotsent
iqtisod fanlari doktori, professor
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
pedagogika fanlari doktori, dotsent
pedagogika fanlari doktori, dotsent
pedagogika fanlari doktori, dotsent
pedagogika fanlari doktori, dotsent
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
yuridika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUNDARIJA

ANIQ VA TABIIY FANLAR

KIMYO, BIOLOGIYA

| | | |
|----|--|---------------------|
| 1 | V.U.Xo'jayev, D.B. Karimova, G.I. Zakirova Parfyumeriya vositalarining kimyoviy tarkibini gx-msd usulida o'rganish | 7 |
| 2 | G'.M.Ochilov, Sh.K.Kushnazarova - Go'sht mahsulotlarini takribidagi og'ir metall tuzlarining inson salomatligi uchun ta'siri | 13 |
| 3 | I.R. ASQAROV, S.X. MIXMANOVA "Askalsiy" oziq-ovqat qo'shilmasing antioksidantlik faolligi | 17 |
| 4 | Z.X.Misirov, H.S.Beknazarov, A.T.Jalilov PKA-1 markali korroziya ingibitorining 1m hcl muhitida po'latni ingibirlash mexanizmining elektrokimyoviy tadqiqoti | 21 |
| 5 | S.B.Samatov, S.S.Abduraxmanova, O.E.Ziyadullayev, A.Ikramov, L.K.Ablakulov, Ayrim karbon kislotalar va aromatik atsetilen spirtlarining eterifikatsiya reaksiyasi | 26 |
| 6 | X.E.Eshmurodov, X.X.To'raev, M.Abdullayeva, A.Xodjayev, G.Ruziboyeva Sh.A. Kuldasheva Azotli organik birikmalar va tetraetoksisilanning o'zaro reaksiyalarini o'rganish | 33 |
| 7 | R.J.Eshmetov, D.S.Salixanova, M.M.Muratov Neftlarni suvsizlantirish va tuzsizlantirish uchun deemulgatorlar kompozitsiyasi va ultratovushning ta'siri | 37 |
| 8 | M.M.Ismoilov, B.O.Maxmudov, Z.A.Abdusattorov Farg'ona neftidan dizel yonilg'i fraksiyasini oksidlanish jarayonida ishlab chiqarilgan sintetik kislotalar tarkibi.. | 41 |
| 9 | Z.X.Abduraimov 1`-karboksiferrotsen-n-metilol karboksamidning suvda eruvchan hosilalarini biostimulyatorlik xossasini o'rganish | 47 |
| 10 | G.I.Zakirova Oddiy rayhon o'simligining moyi tarkibidagi yog' kislotalarining iq va xromatomasspektroskopiya spektrolarining tahlili | 51 |
| 11 | Usmonova S.G., Ortikov I.S., Abdugafurov I. A., Madixonov N., Elmuradov B.J. 5-brom-2-propargiloksibenzaldegid va ayrim aromatik azidlar asosida - 1H-1,2,3-triazol hosilalari sintezi | 55 |
| | | TILSHUNOSLIK |
| 12 | D.A.Nurmanova Sintetik shakllar zidlanishining mo'tadillashuvi | 62 |
| 13 | Savaş EĞİLMEZ Emîr Timur'un taht mücadelesi ve gürcü politikasi throne struggle and georgian policy of tamerlane | 65 |
| 14 | D.A.Nurmanova Mo'tadillashuvchi a'zolar o'rtasidagi umumiylik va xususiylik | 72 |
| 15 | D.A.To'rayeva Shaxsiy yozishmalar lingvistik ekspertizasida metodika masalasi | 75 |
| 16 | H.Z.Iminjonova | 79 |

| | | |
|----|---|---|
| | Professor Nurmonovning sintaktik qarashlari haqida | |
| 17 | S.D.Nurmonova Qasamlar tasnifi | 83 |
| 18 | SH.X.Miralimova Internet muloqotida pretsedent birliklar | 87 |
| 19 | O.Yuldashev O‘zbek tili gemeronimlarining nominatsion-motivatsion tahlili | 92 |
| 20 | N.N.Atadjanova Rasmiy va norasmiy muloqot mansubligi | 98 |
| | ADABIYOTSHUNOSLIK | |
| 20 | N.Y.Xolmatova Dramada ma’naviy-axloqiy muammolarning ifodalanishi | 101 |
| 21 | E.J.Nasrullayev Navoiyshunos olim Y.Is’hoqovning ulug‘ shoirning maslak va suluklarga munosabati haqida | 105 |
| 22 | N.Muxammedova Mistik realizmning hikoyalarda ifodalanishi | 109 |
| | PEDAGOGIKA | |
| 23 | I.M.Boymatov, I.I.Qo‘qonboyev, S.Y.Qoraboyeva Ta’limda kreativ yondoshuv | 114 |
| 24 | G.N.Ibragimova O‘quvchi-yoshlarda ijodiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish | 119 |
| | TARIX , IQTISODIYOT | |
| 25 | A.A.Yuldashev Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda soliq tizimidagi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari | 123 |
| 26 | B.T.Ataxanov O‘zbekiston va Belarus hamkorlik munosabatlarida parlamentning o‘rni | 127 |
| 27 | A.Abdurasulov Turkistonda matbaachilikning vujudga kelishi tarixidan | 132 |
| 28 | M.S.To‘xtayeva Bolalik tepa rangtasvirining talqiniga doir | 139 |
| 29 | G.Sh.Zununova “Bazmi jamshidlar”: shohona ziyofatlarning ijtimoiy vazifalari | 147 |
| 30 | Z.Y.Hamroqulov Oliy ta’lim talabalarining huquqiy ongini yuksaltirishning pedagogik asoslari | 155 |
| | ILMIY AXBOROT | |
| | | ANIQ VA TABIIY FANLAR KIMYO, BIOLOGIYA |
| 31 | M.X.Koxxarov, O.K.Ergashev, H.Q.Madaminov, N.M.Esonqulova, A.Q.Matmusayev Calta seolitiga suvning adsorbsiya izotermasi va kinetikasi | 159 |
| 32 | U.J.Eshbayeva, A.M.Nishonov, A.A.Djalilov, F.To‘rayev | 162 |

| | | |
|----|--|-----|
| | Gofrlangan karton mahsuloti uchun tanlangan qog'ozlarning yuza g'adur- budurligini aniqlash | |
| 33 | D.B.Niyazov, M.M. Niyazova, S.M.Turabdjano, SH.M.Saydaxmedov Sintetik flokulyantni suvli eritmalaridagi flokulyatsion va fizik-kimyoviy xususiyatlari | 165 |
| 34 | D.B.Niyazov, M.M. Niyazova, S.M.Turabdjano, SH.M.Saydaxmedov F-3 seriyali flokulyantlarga n-geksan, benzol va toluol bug'lari sorbsiya izotermasi | 168 |
| 35 | M.X.Diyorova, F.S.Toylokova Tuproq va o'simliklarning texnogen ifloslanishi | 170 |
| 36 | Sh.K.Kushnazarova, H.V.Burhonov, M.U.Sodiqov Go'sht mahsulotlari namunalar tarkibidagi makro va mikroelementlarni avio 200 (ISP – OES) Induktiv bog'langan plazmali Optik emission spektrometr usulida aniqlash. | 173 |
| 37 | U.J.Eshbayeva, A.M.Nishonov Gofrlangan karton mahsulotning mustahkamligi (qattiqligini) aniqlash | 178 |
| 38 | SH.R. Toshmatova, M.Nabiyeva, O.Ismoilova Biozararlashning o'ziga xos xususiyatlari | 182 |

IJTIMOIY – GUMANITAR FANLAR

TILSHUNOSLIK

| | | |
|----|--|-----|
| 39 | D.O.Hasanova O'zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalashda lingvistik vositalarning ahamiyati | 185 |
| 40 | Г.Н. Давлятова Изучение канонів риторикі молодёжью: проблемы и решения | 188 |
| 41 | M. Ergashova Lokalizatsiya munosabatining so'z yasovchilar orqali ifodalanishi | 191 |
| 42 | Sh.S.Abduraimov Test topshiriqlarining solishtirma validligini aniqlashga doir | 194 |
| 43 | D.A.Pirnazarova Tilshunoslikda matn muammosining tadqiqi | 198 |
| 44 | N.Xalilova Qo'qon xonligi tarixnavisligidagi ba'zi antroponimik birliklar xususida | 200 |
| 45 | N.F.Tulyaganova, SH.P.Yusupova The principles of linguistic etiquette in languages | 203 |
| 46 | M.Xrojiddinova O'zbek tilida qizil va qora ranglarning salbiy va ijobiy atfenkalari | 205 |

ADABIYOTSHUNOSLIK

| | | |
|----|---|-----|
| 47 | G'.O.Xolbo'tayev Askiya janrining o'zbek folklorshunosligida o'rganilishi | 208 |
| 48 | F.I.Qurbonova Asarlarda psixologizm va majoz uyg'unligi | 210 |
| 49 | S.S.Xudoyev Jahon folklorida topishmoq janri va uning o'rganilish tarixi | 213 |

PEDAGOGIKA

| | | |
|----|--|-----|
| 50 | M.S. Abdullayeva Bo'lajak o'qituvchilarni o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish mehanizmlarini takomillashtirish usul va vositalari | 216 |
|----|--|-----|

| | | |
|----|---|-----|
| 51 | M.D.To`ranazarova Ta`limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish | 219 |
| 52 | F.Madvaliyeva, Z.Kimsanova, D.Haydarova Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirish | 223 |
| 53 | F.J.Yormatov Nuroniylar huquq va manfaatlarini ta`minlash doimo e`tiborda | 227 |
| 54 | M.M.QODIROV Mustaqillik yillarida Qo`qon shahri demografik holatining statistik ma`lumotlar asosida tahlili | 230 |

**PARFYUMERIYA VOSITALARINING KIMYOVIY TARKIBINI GX-MSD USULIDA
O'RGANISH
ИССЛЕДОВАНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ПАРФЮМЕРИИ МЕТОДОМ
ГХ-МСД
STUDY OF THE CHEMICAL COMPOSITION OF PERFUMERY USING THE
GC-MSD METHOD**

Xo'jayev Vaxobjon Umarovich
Qo'qon DPI, k.f.d., professor
Karimova Dilovar Batirovna
Qo'qon DPI, k.f.f.d. (PhD)
Zakirova Gulnora Ibroximjon qizi
Qo'qon DPI magistranti

Annotatsiya. Parfyumeriya vositalarining 3 xil namunasi mass-selektiv detektor orqali gaz xromatografik usulda tadqiq etilishi natijasida ularning sifat va nisbiy miqdor tarkibi aniqlangan. Mahsulot turiga qarab, namunalar tarkibida xushbo'y modda miqdorlari turlicha bo'lishi isbotlangan. 1 va 2 namunalar tarkibida allergen xossaga ega birikmalardan linalol, lillial, α -izometilionon va D-limonenlar borligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Parfyumeriya mahsulotlari, duxi, xushbo'ylantiruvchi duxi, xushbo'ylantiruvchi suv, mass-selektiv detektor.

Аннотация. Хроматографическое исследование 3 различных образцов парфюмерных продуктов было идентифицировано в результате газовых хроматографических детекторов и содержания их относительного количества. В зависимости от типа продукта, количество ароматов содержится в образцах будет отличаться. Образцы 1 и 2 изучаются из сочетания с аллергенными свойствами линальл, лилиал, α -изометилионон и д-лемоненов.

Ключевые слова: парфюмерная средства, духи, парфюмерная вода, туалетная вода, масс селективной детектор.

Annotation. A chromatographic study of 3 different samples of perfumes was identified as a result of gas chromatographic detectors and the content of their relative quantity. Depending on the type of product, the number of aromas contained in the samples differs. Samples 1 and 2 are studied from a combination with allergenic properties of linalal, lillial, α -izomethylionon and D-lemonen.

Key words: perfumery, perfume, eau de parfum, eau de toilette, mass of selective detector.

Parfyumeriya va kosmetika tushunchalari doimo birgalikda yuritiladi. Aslida parfyumeriya mahsulotlari insonlarga nafis hidlarni berish uchun qo'llanilsa, kosmetik vositalar insonlarning tashqi ko'rinishiga chiroy berish maqsadida foydalaniladi [1].

Parfyumeriya tovarlarining assortimenti xilma-xil bo'lib, bugungi kunda ularni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin [2]:

Duxi - bu spirtli yoki suv-spirtli xushbo'y hidga ega bo'lgan parfyumeriya kompozitsiyasining aralashmasi.

Xushbo'ylantiruvchi duxi - tarkibida xushbo'ylantiruvchi suvlarga nisbatan xushbo'y kompozitsiyaning miqdori ko'pligi va hidining uzoq saqlanishi bilan ajralib turadi.

Xushbo'ylantiruvchi suv - tarkibida 5-10% xushbo'y kompozitsiyalar bo'lib, duxi va odekolon o'rtasidagi oraliq hidga ega.

Odekolon - gul va xayoliy yo'nalishdagi xushbo'y hidli parfyumeriya kompozitsiyasining suv-spirtli aralashmasi bo'lib, tarkibida 2-6% gacha xushbo'y modda bo'ladi.

Parfyumeriya to'plami - yaxlit badiiy bezatilgan, qutilarga joylashtirilgan

parfyumeriya mahsulotlarining yig'indisidan iborat to'plamdir.

Parfyumeriya mahsulotlari turi, konsistensiyasi, xushbo'y hidi, asosiy hidning yo'nalishi, hidning kuchi, shuningdek foydalanuvchilar jinsiga qarab sinflanadi.

Barcha turdagi parfyumeriya mahsulotlarining asosiy kimyoviy tarkibini xushbo'y modda, etil spirt va suv tashkil etadi. Yordamchi mahsulot sifatida bo'yoq moddalar, fiksatorlar va boshqa qo'shimchalardan foydalaniladi [3].

Parfyumeriya mahsulotlarining sifati tarkibidagi xushbo'y moddalarga bog'liq bo'lib, ular olinish usuli bo'yicha tabiiy (o'simlik va hayvon) va sintetik turlarga bo'linadi. O'simliklardan asosan efir moylari, smola va balzamlar, hayvohlardan esa muskus, ambra, sabet, bobr ifori kabi xushbo'y moddalar ajratib olinadi [4]. Sintetik xushbo'ylantiruvchi moddalarga lialial, D-limonen, linalol va α -izometilionon kabilar kiradi.

Lialial (butil fenilmetilpropional) aslida sintetik aromatik aldegid bo'lib, atir-upa sanoatida yoqimli hid berish maqsadida qo'llaniladi. D-limonen sitrus hidga ega. U o'zi xavfsiz bo'lsada, atmosferada ozon bilan birikib, formaldegidni ajratadi. Shuning uchun ham allergik kasalliklarni qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. Yuqoridagi allergen birikmalarning miqdori yuvib bo'lmaydigan parfyumeriya-kosmetika vositalarida 0,001%dan ortsa, yorliqda ularning mavjudligi ko'rsatilishi lozim [5].

Hozirgi davrda parfyumeriya mahsulotlarining sifat va miqdor tarkibini tez va qulay usullarda aniqlash, fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlashning takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish, tarkibidagi komponentlarning inson organizmiga ta'sirini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda laboratoriyalarning zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanishi ilmiy tadqiqot ishlarining takomillashishiga sabab bo'lmoqda [6]. Bu esa xromato-mass-spektrometrik usulda parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarini sifat hamda miqdor jihatdan tahlil qilib,

ularning sifatini atroflicha baholash imkoniyatini yaratadi. Parfyumeriya vositalari tarkibidagi engil uchuvchan organik moddalarni aniqlash ishlari xromato-mass-spektrometrik usulda amalga oshirildi. Bu usulda elektronlar bilan urish orqali ionlanish qo'llaniladi. Chunki elektronlar bilan urish orqali olingan organik birikmalarning mass-spektrlari birinchi navbatda modda molekulasiining strukturasi haqidagi ma'lumotlarni saqlaydi, bundan tashqari natijalar yaxshi takrorlanadi. Mass-selektiv detektor orqali xromatografik usulda namunalarni tadqiq etish mahsulot tarkibidagi komponentlarning sintetik yoki tabiiyligini, uchuvchan moddalarni ajratish imkoniyatini beradi.

Namuna sifatida 3xil parfyumeriya mahsuloti tanlab olindi. Tadqiq etish uchun olingan namunalarning barchasi "Parfyumeriya suyuqlik mahsulotlari" 31678-2012 DST asosida ishlab chiqarilgan [7].

1-namuna: duxi - *Baccarat Rough 540. Maison Francis Kurkdjian* Fransiyada ishlab chiqarilgan hajmi 70ml.

2-namuna: xushbo'ylantiruvchi duxi - *Kaori "Parfyum-Stil"* Rossiyada ishlab chiqarilgan. Hajmi 100ml.

3-namuna: xushbo'ylantiruvchi suv - *Fawakeh. "AROMASQ INTERNATIONAL"* O'zbekistonda ishlab chiqarilgan. Hajmi 50ml.


Tadqiqot ishlari Agilent 8890 GC gaz xromatografida bo'linadigan va bo'linmagan kirish oqimida Agilent 5977B seriyali GX-MSD bilan SIM, SCAN va elektron ionlanish zarbasi rejimlarida bajarildi.

Tahlilni bajarish shartlari: o'lchami 30m x 250mkm x 0,25mkm HP-5ms Ultra Inert tahlil kolonkasiga 1mkl hajmda namuna kiritildi. Bo'linmagan oqimningbug'lanish harorati 280⁰S, gaz uzatuvchi-vodorod, doimiy oqim 1,2 ml/min bo'lganda, 1 daqiqa davomida 60⁰S, so'ngra 25⁰S dan 170⁰S gacha, har 10⁰S dan oshirib 310⁰S gacha 2 daqiqa davomida ushlab turildi.


Mass-spektrometr uchun erituvchining ushlanish samaradorligi 3,5 daqiqa,

daromad koeffitsienti 1,00, manba harorati 250^oS, kvadrupol harorati 150^oS qilib belgilab olindi. Olingan namunalar barchasi dastlab geksanda eritildi, so‘ngra GX-MSD usulda tekshirildi [8].


Olingan natijalarga ko‘ra, parfyumeriya mahsuloti namunalarining kimyoviy tarkibi 1-3-rasmlarda ko‘rsatilgan xromatogrammalarga ega.



1-rasm. “Baccarat” duxisining kimyoviy tarkibini mass selektiv detektorda olingan xromatogrammasi



2-rasm. “Kaori” (xushbo‘ylantiruvchi duxi) kimyoviy tarkibining mass selektiv detektorda olingan xromatogrammasi



3-rasm. “Fawakeh” (xushbo‘ylantiruvchi suv) kimyoviy tarkibining mass selektiv detektorda olingan xromatogrammasi

Namunalar tarkibidan ajratilgan moddalarning identifikatsiyasi ushlanish kattaliklari [9], struktur-guruh tashkil etuvchilarning parametrlari asosida hamda GX-MS [10]ning mass-spektrlar bazasi yordamida amalga oshirildi.

Parfyumeriya vositalari tarkibidagi organik moddalar xromatogrammalarining ushlanish vaqti, sifat va nisbiy miqdor tarkibi 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval

Parfyumeriya mahsulotlarining mass selektiv detektor orqali xromatografik tahlil natijalari

| Ushlanish vaqti | Modda nomi | Moddaning nisbiy miqdori | | |
|-----------------|---|--------------------------|----------|----------|
| | | 1-namuna | 2-namuna | 3-namuna |
| 3.747 3.749 | o-ksilol | 0.088 | 2.014 | 3.157 |
| 4.816 4.817 | Limonen | 0.114 | 0.425 | 0.768 |
| 5.043 | 2,6-dimetil 7-okten-2-ol | | 0.562 | |
| 5.225 5.226 | Linalol | | | 17.707 |
| 5.865 | 2-karen | | 0.322 | |
| 5.865 | 1,3,3-trimetil trisiklo[2.2.1.0(2,6)]heptan | | | 1.457 |
| 5.927 | Etilmaltol | 0.206 | | |
| 6.132 | 3,7-dimetil 2,6-oktadien-1-ol | | | 9.653 |
| 6.198 | 3,7-dimetil 1,3,7-oktatrien | | 1.542 | |
| 6.573 | 1,2-dimetil 1,5-siklooktadien | | | 7.913 |
| 6.739 | 3,10-dioksotrisiklo [4.3.1.0(2,4)]-7-yen, 1.α,2.α.,4.α.,6.α.) | | | 1.503 |
| 6.868 | 4-izobutil Siklogeksilasetat | | | 1.920 |
| 6.989 | Siklogeksen, 1-metil-4-(1- | | | 5.301 |

| | | | | |
|----------------------------|--|--------|--------|--------|
| | izopropen)- | | | |
| 7.182 | 3-karen | | 0.603 | |
| 7.708 | β -simen-7-ol | | 0.778 | |
| 7.999 | 1-(4- butil fenil) propanon-2 | | 0.735 | |
| 8.394 | α -izometilionon | | 5.252 | |
| 8.785 | 1,1,2,3,3-pentametil, 1,2,3,5,6,7-geksagidro-4H-indol-4-on | 0.929 | | |
| 9.012 9.014 | Lilial | | 4.697 | 1.356 |
| 9.454 | Bisiklo [7.2.0] undes-4-yen, 4,11,11-trimetil 8-metilen [1r-1r*,4z,9s*]) | | 0.752 | |
| 9.684 | 2-butanon, 1-(1,3-benzodioksol-5-y) | | 1.669 | |
| 10.072 | Dietil ftalat | | 10.294 | 2.100 |
| 11.059 | 2-(2-oktenil) siklopentanon | 0.038 | | |
| 11.246 11.147 11.134 | 3-okso-2-pentil-siklopentan sirka kislotaning metil efiri | 35.498 | 29.089 | 19.545 |
| 11.356 | Trietilsitrat | 16.546 | | |
| 11.360 | Siklononatrien-1,2,6 | | 1.037 | |
| 11.492 | 3-oksipentanol, 5-xloro, pentafluoropropionat | | 4.426 | |
| 11.831 | 1-metil bisiklo [3.3.0] oktan-3,7-dion | 0.150 | | |
| 11.958 | 2-metiladamantan | | 0.59 | |
| 12.121 | 2,4 digidro-3,6-dimetil benzoy kislotaning metil efiri | 8.982 | | |
| 12.435 | Trisiklo dekan [5.2.1.0(4,8)] | 0.080 | | |
| 12.561 | 2-fenilmetilen oktanal | | | 8.392 |
| 12.958 | Dodekagidro 3 α ,6,6,9 α tetrametil nafto [2,1-b] furan | 20.524 | | |
| 12.978 | 1-(2,3,4,7,8,8a-geksagidro-3,6,8,8-tetra metil-1H-3a,7-metanazulen-5) etanon | | | 2.480 |
| 13.267 | 2-etilgeksilsalisilat | 0.266 | | |
| 13.309 | 1,4-diaminbenzol | | 1.501 | |
| 13.396 | Pikrin kislota | | 0.806 | |
| 13.441 | 8-etil-4,6,6,8-tetrametil-3,4,6,7-tetragidro-1H-siklopenta(G)-2-benzofuran | | 0.943 | |
| 13.665 | 1-siklogeksil-gepten | | 0.610 | |
| 13.854 | 1,3,4,6,7,8-geksagidro, 4,6,6,7,8,8-geksametil siklopentan 2-benzofuran | | 12.805 | 3.692 |
| 13.939 | 4 α - geksagidro Bifenil morfolin | | 0.649 | |
| 14.452 | 1,1,4,4-tetrametil-6-etil-7-asetil tetralin | | 1.100 | |
| 16.642 | Benzoamin dixlorid | | 2.037 | |
| 17.425 | 3-(4-metoksifenil)-2-propan kislotaning 2-etilgeksil efiri | 1.469 | | |
| 18.937 | 2-gidroksi propiofenon | | | 0.669 |
| 20.176 | 2-[bis (metiltio) metilen]-1-fenilgidrazinning sirka kislotasi | 0.065 | | |

Parfyumeriya mahsulotlarining namunalari mass-selektiv detektor orqali xromatografik usulda tahlil qilinganda, barcha namunalar tarkibida o-ksilol, limonen va 3-okso-2-pentilsiklopentan sirka kislotaning metil efiri mavjud ekanligi aniqlandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 1-namuna tarkibidagi 16 ta asosiy komponent ichida 3-okso-2-pentil-siklopentan sirka kislotaning metilefiri (35.498), dodekagidrotetrametil (20.524), trietilsitrat (16.546) va 2,4-digidroksi-3,6-dimetilbenzoy kislotaning metil efiri (8.932), 2-namuna tarkibidagi 30 ta asosiy komponent ichida 3-okso-2-pentilsiklopentan sirka kislotaning metil efiri (29.089), 1,3,4,6,7,8-geksagidro, 4,6,6,7,8,8-geksametil siklopentan 2-benzofuran (12.805), dietilftalat (10.294) va α -metilionon (5.252), 3-namuna tarkibida esa 19 ta asosiy komponentdan 3-okso 2-pentil siklopentan kislotaning

metil efir (19.545), linalol (17.707), 2-fenil metilen oktanal (8.392) va butilsiklogeksen asetat (5.441) kabi moddalar nisbatan ko'proq tarqalganligi o'rganildi.

Xushbo'y modda miqdori bo'yicha namunalar o'zaro taqqoslanganda, duxi tarkibida 35,5%, xushbo'ylantiruvchi duxida 29% va xushbo'ylantiruvchi suvda 19% atrofida ekanligi tadqiq etildi.

Shuningdek, parfyumeriya mahsulotlari tarkibidagi allergen xususiyatga ega birikmalar tahlili ham amalga oshirildi. Unga ko'ra, 1 va 2 namunalar tarkibida allergen xossaga ega birikmalardan linalol, lillial, α -izometilionon va D-limonen, 3-namuna tarkibida lillial, D-limonen hamda dietilftalat borligi aniqlandi.

Shunday qilib, parfyumeriya mahsulotlarining kimyoviy tarkibini sifat va miqdor jihatidan tadqiq etishda mass-selektiv detektor orqali gaz xromatografik usuldan foydalanish tezkor va samarali aniqlash imkoniyatini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Яковлева Л.А., Кутакова А.С. Товароведение парфюмерно-косметических товаров: Учебник для вузов. — СПб: Издательство «Лань», 2001. —С. 256.
2. Asqarov I.R., Qirg'izov Sh.M., Karimqulov K.M., Abdug'aniev B.Yo., Jo'raeva A.M., Imomova M.Yo. Tovarlar kimyosi darslik. T.: -2019. —B.285.
3. Karimqulov K., Abdug'aniev B., Hamraqulov G'. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi. T.: Fan va texnologiyalar markazi. -2008. —B.17.
4. Паршикова В.Н. Товароведение парфюмерно-косметических товаров. Учебное пособие [Электронный ресурс]. Красноярск. —2013. —С. 159.
5. ГОСТ ISO 21148-2013. Продукция парфюмерно-косметическая Микробиология. Общие требования к микробиологическому контролю. 16с
6. Ульяновский Н.В., Косяков Д., Сокрышкин С.А., Боголицын К.Г., Ульяновская О.С. Изучение компонентного состава летучих веществ багульника болотного методом термодесорбционной газовой хромато-масс-спектрометрии. // Химия растительного сырья. —2014. — №4. —С. 153-161.
7. ГОСТ 31678-2012. Продукция парфюмерная жидкая
8. Каримова Д.Б., Хужаев В.У., Исаков М.Ю. Определение химического состава парфюмерной продукции методом ГХ-МС. // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. —2021. —№11 (89). —С. 81-85.
9. Мухамадиев Н.К., Хусаинов Х.Ш., Роженко И.Н., Сакодинский К.И. Структурно-групповые методы в газохроматографической идентификации органических соединений. // ДАН УзР. —1989. — № 4.-С. 42-44.
10. Тигунцева Н.П., Евстафьев С.Н. Сравнительное исследование состава летучих с паров соединений одуванчикалекарственного (TaraxacumOfficinale). // Вестник ИрГТУ. —2011. —№1. —С. 125-128

GO'SHT MAHSULOTLARINI TAKRIBIDAGI OG'IR METALL TUZLARINING INSON SALOMATLIGI UCHUN TA'SIRI.

G'.M.Ochilov QDPI Kimyo kafedrası professor, k.f.n
Sh.K.Kushnazarova QDPI Kimyo kafedrası o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada go'sht mahsulotlarining tarkibidagi og'ir metall tuzlarini tarkibini aniqlash va inson salomatligiga ta'siri haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Go'sht mahsulotlari, og'ir metal tuzlari og'ir metal tuzlarining inson salomatligiga ta'siri.

Аннотация В данной статье приведены сведения об определении содержания солей тяжелых металлов в мясных продуктах и их влиянии на здоровье человека.

Ключевые слова. Мясные продукты, соли тяжелых металлов Влияние солей тяжелых металлов на здоровье человека

Annotation. This article provides information on determining the content of heavy metal salts in meat products and their effects on human health.

Keywords. Meat products, heavy metal salts Effects of heavy metal salts on human health.

Oziq-ovqatlardagi barcha ozuqa moddalari tananing salomatligi uchun to'g'ri nisbatda va miqdorda bo'lishi zarur. Agar mahsulotda bu moddalar ko'p bo'lsa, zararli ta'sirlar paydo bo'lishi mumkin. Natijada inson tanasida mikrokomponentlar hosil bo'ladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo etishtirish, xom ashyoni saqlash hamda tayyor mahsulotlarni saqlash yoki ishlab chiqarish texnologiyasini buzilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida turli zararli moddalar xosil bo'lishiga olib keladi. Sanitariya qoidalari buzilishi natijasida zaxarli xususiyatiga ega bo'lgan moddalar (simob, qo'rg'oshin, kadmiy, mishyak, rux, mis, temir, qalay) xosil bo'ladi.

Oziq-ovqat xomashyosi va tayyor mahsulotlarni doimiy nazorat qilish oziq-ovqat sanoati mutaxassislarining vazifasi xisoblanadi. Qisqa muddatli saqlash uchun oldindan tayyorlangan tunika idishlar o'rniga shisha idishlarga o'tkazish tavsiya etiladi, chunki xavodagi turli gazlar ta'sirida tunika idishlar korroziyaga uchrashi oqibatida idish ichidagi mahsulot tarkibida og'ir metallar miqdori ortishiga olib keladi.

Simob (Hg) kuchli ta'sir qiluvchi zahar xisoblanadi u turli organizmlar xujayralarida yig'ilib uning funksiyasini buzadi, shuning uchun yosh hayvonlardan yirtqich baliqlarda (tuna, qilichbaliq, akula – 0.7 mg/kg) nisbatan ko'proq bo'ladi. Ratsionda yirtqich baliqlarni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi. Boshqa hayvon mahsulotlaridan simobning "akkumulyatori" hayvonlarning buyragi (xom shaklda) – 0.2 mg/kg gacha; buyraklar suv o'zgarishi bilan 2-3 soat davomida oldindan ivitib, pishirish vaqtida ikki marta qaynatilgani uchun qolgan mahsulotdagi simob miqdori deyarli 2 marta kamayadi. O'simlik mahsulotlaridan simob ko'pincha yong'oq, kakao, loviya va shokoladda (0.1 mg/kg gacha) bo'ladi. Boshqa ko'pchilik mahsulotlarda simob miqdori 0.01-0.03 mg/kg dan oshmaydi. Merkuriy bolalarning normal miya rivojlanishidagi o'zgarishlarni rag'batlantirishi va yuqori dozalarda kattalardagi nevrologik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Surunkali zaharlanish bilan mikromerkuralizm rivojlanadi, tez charchash, qo'zg'aluvchanlik, keyinchalik xotiraning susayishi, o'z-o'zidan shubha, asabiylashish, bosh og'rig'i, qo'l-oyoqlarning titrashi bilan namoyon

bo'ladigan kasallik.

Qo'rg'oshindan zaharlanish (Pb)

Qo'rg'oshin juda kuchli zahar hisoblanadi. Ko'pchilik o'simlik va hayvon mahsulotlarida uning tabiiy miqdori 0.5–1.0 mg/kg dan oshmaydi. Qo'rg'oshinning ozgina miqdori ham organizmni surinkali zaharlanishga olib keladi. Oziq-ovqat bilan birga 2–4 mg qo'rg'oshinning kunlik iste'moli bilan surunkali zaharlanish belgilari bir necha oydan keyin paydo bo'ladi. Organizmga kirgan qo'rg'oshin asosiy qismi suyaklarda to'planadi. Shuningdek, ba'zi hollarda (charchoq, ochlik, yuqumli kasalliklar) qo'rg'oshin tuzlari qonga o'tish yo'li bilan ham organizmda qo'rg'oshin miqdori ortishiga olib keladi. Qo'rg'oshin miqdorining ko'payishi, asosan, mis idishlar qopqog'iga qo'shimcha sifatida solininishi natijasida paydo bo'ladi. Ushbu idishda mahsulotning uzoq muddatli saqlash natijasida uning tarkibida qo'rg'oshin miqdori 3 mg/kg gacha ortishiga olib keladi. Bu esa sog'liq uchun zararli xisoblanadi, shuning uchun mahsulotni bunday idishlarda 5 yildan ortiq saqlamaslik kerak [5]

Qo'rg'oshin birikmalarining qonga ta'siri natijasida kamqonlik kelib chiqadi. Qo'rg'oshin fermentlarni o'chiradi, bolalarning aqliy rivojlanishini sekinlashtiradi, qon bosimini oshiradi va kattalarda yurak–qon tomir kasalliklarini keltirib chiqaradi. Asab tizimidagi o'zgarishlar bosh og'rig'i, bosh aylanishi, charchash, asabiylashish, uyqu buzilishi, xotiraning buzilishi, mushaklar gipotenziviyasi, terlash bilan namoyon bo'ladi. Qo'rg'oshin suyaklarda kalsiyni almashtirib, doimiy zaharlanish manbaiga aylanishi mumkin. Ayni paytda oziq–ovqat mahsulotlari qo'rg'oshin quyidagi maksimal darajasi tashkil etildi: sut; yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun mahsulotlar – 0.02 mg/kg; meva, sabzavot; qoramol, qo'y va cho'chqa, parranda go'shti; hayvon va parranda yog'i, o'simlik moylari; sut yog' – 0.1 mg/kg; kichik meva, olma va uzum; don, loviya, sharob – 0.2 mg/kg; qoramol, cho'chqa va parranda go'shti –

0.5 mg/kg

Kadmiydan zaharlanish (Cd) 1941 yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda insonlar orasida kadmiy bilan zaharlanish birinchi bor aniqlangan. Bular kadmiy bilan qoplangan idishlarda saqlangan limonadlar, kofe, vinoni iste'mol qilishlari natijasida kelib chiqadi.

1941 yilda AQShda, 1946 yili Fransiyada kadmiy bilan zaharlanish xodisasi 300 tani tashkil etgan. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, kadmiy bilan qoplangan alyuminiy idishlarda 1 sutka saqlangan limonad tarkibida 250mg/kg kadmiy xosil bo'lgan. Kadmiy odam organizmiga kam miqdorda kirishi natijasida markaziy asab tizimiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi va fosfor-kalsiy moddalar almashinuv jarayonini buzadi. Shuningdek kamqonlikka kasalligi paydo bo'lishiga olib keladi.

Kadmiyning yuqori konsentratsiyasi kakao kukuni, hayvon buyraklari va baliqlarda bo'lishi mumkin. So'ngi yillarda konservalar uchun tayyorlanayotgan idishlarga kadmiy qo'shish natijasida ular tarkibida bu modda miqdori ko'paymoqda, chunki u qo'rg'oshin kabi idishdan mahsulotga o'tadi. Shu bilan birga chiqindi sifatida tashlanayotgan konserva idishlari atrof–muhitda ham kadmiy miqdori ortishiga olib keladi. Bu holda, bir qator o'simliklar, jumladan donli ekinlar (birinchi navbatda bug'doy), sabzavotlar va mevali daraxtlar hosillarida uning miqdori ortib ketishiga olib keladi. Kadmiy organizmdagi bir qator biokimyoviy jarayonlarda rux o'rnini bosishi mumkin, bu esa organizmdagi turli biokimyoviy jarayonlar buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, qabul qilingan dozaning faqat 0,1% kuniga tanadan chiqariladi. Kadmiy zaharlanishining belgilari: siydikda oqsilning bo'lishi, Markaziy asab tizimining shikastlanishi, jinsiy a'zolar disfunktsiyasi, suyak og'rig'i. Kadmiy qon bosimiga ta'sir qiladi va tosh hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, go'sht– sut mahsulotlarining tarkibidagi og'ir metallarning miqdorini aniqlash dolzarb

vazifa hisoblanadi. Maqsad – mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilarning go'sht–sut mahsulotlari tarkibidagi rux, qo'rg'oshin va kadmiy elementlarini tahlil qilish DSEOM laboratoriyalarida amalga oshiriladi.

Margimush(As) quyidagi oziq–ovqat mahsulotlarda topilgan: oq va jigarrang guruch, olma sharbati, tovuq go'shti. Margimush ma'lum konsentratsiyasi uzoq muddat ta'sir, jigar, buyrak, qovuq, o'pka yoki prostata saratoni qo'zg'atadi. Margimush zaharlanish belgilari: diareya, o'tkir qorin og'rig'i, qusish, doza juda yuqori bo'lsa, tana oyoqlari, qo'llari, mushak kramplar va o'lim Margimush ichimlik suvi, oziq–ovqatda muntazam ravishda mavjud bo'lsa, muqarrar saraton yuzaga keladi yoki teri patologiyasi paydo bo'ladi. Quyidagi oqibatlar ham mumkin: yurak–qon tomir kasalliklari, diabet rivojlanishi. Kichik dozalarda muntazam margimushdan zaharlanish, pigmentatsiya, giperkeratoz bir o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi. Margimushdan zaharlanish oqibatida muqarrar teri saratoni kuzatiladi, (hiperkeratoz teri saratoning bir turi bo'lib, teri qatlami korneum ortiqcha qalinlashishi). Teri saratoni bilan bir qatorda, margimushning uzoq vaqt ta'siri ham siydik pufagi va o'pka saratoni, qon tomirlari zararlashining, va asab tizimini buzilishiga olib kelishi mumkin. Xalqaro saraton tadqiqotlari agentligi (IARC) oziq–ovqat va suvda margimush va margimush birikmalarini kanserogen moddalar sifatida tasnifladi. Homilador ayol organizmiga margimushning past darajada muntazam ta'sir qilishi rivojlanayotgan homilada nuqsonlariga olib keladi .[5]

Mis (Cu). Mis bir qator funksiyalar uchun organizm uchun zarur bo'lgan eng muhim elementidir – suyaklar va biriktiruvchi to'qimalarni shakllantirishdan tortib, to'ziga xos fermentlarni ishlab chiqarishgacha. JSST tavsiyasiga ko'ra, kattalar uchun misga bo'lgan kunlik talab 1.5 mg. Mis tananing barcha to'qimalarida mavjud, ammo uning asosiy zahiralari jigarda, miya, yurak, buyrak va oz miqdorda mushaklarda mavjud. Mis, temir

va rux inson tanasida 75–100 mg mavjud. Qondagi misning 90% ga yaqini temirni to'qimalarga tashuvchi birikmalarda bo'lib, uning oksidlanishini, ya'ni qayta ishlanishini, o'zlashtirilishini tezlashtiruvchi fermentlar vazifasini o'taydi. Shuning uchun ko'pincha temir tanqisligi belgilari (masalan, past gemoglobin) aslida mis tanqisligini anglatadi. Bundan tashqari, mis lizil oksidazaning tarkibiy qismi bo'lib, kollagen va elastin sintezida ishtirok etadigan ferment, suyak va biriktiruvchi to'qimalarda topilgan ikkita muhim tarkibiy oqsildir. Tirozinni melanin aylantiradigan eng muhim ferment tirozinaza, teri va sochlarga rang beruvchi pigment ham misni o'z ichiga oladi. Mis ham nervlarni himoyalovchi melanin qoplama qismi bo'lgan moddalarda topilgan. Misni ortiqcha iste'mol qilish qorin og'rig'i va sanchiq, ko'ngil aynishi, diareya, qusish, jigarga zarar olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi mutaxassislar, ayniqsa rux tanqisligi bilan yuqori mis darajalari shizofreniya, gipertoniya, ruhiy tushkunlik, uyqusizlik, erta qarish va premenstruel sindromi qo'zg'atadigan bir omil bo'lishi mumkin, deb taxmin qilishgan. Homiladorlik davrida mis tanada ikki barobar dozada to'planadi va uning darajasini normal darajaga kamaytirish uchun uch oygacha davom etadi [4; 27–30 b].

Ruhdan zaxarlanish (Zn). Zaharli elementlarning ortiqcha miqdori inson salomatligi uchun juda xavfli xisoblanadi. Rux tuzlarining ortiqcha miqdori oshqozon shilliq qavatida o'yuvchi ta'sir ko'rsatadi. Rux tuzlari saqlagan mahsulotlarni qabul qilinganidan 2–3 soat o'tgach o'z ta'sirini ko'rsatadi. Agar bu tuzlarlar mahsulot tarkibida konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, bir necha daqiqadan so'ng bemorlarda qusish, qorin og'rig'i va diareya boshlanadi. Og'izda metall ta'mi paydo bo'ladi .

Katta yoshdagi organizmdagi rux miqdori kichik–1.5–2 g. ruxga bo'lgan sutkalik ehtiyoj 10–15 mg. Rux sarfining yuqori ruxsat etilgan darajasi sutkasiga 25 mg qilib belgilanadi. Bu hujayra darajasida

bizning tanamizga ta'sir qiladi, metabolizmida bevosita ishtirok etadi: rux bu muhim element barcha vitaminlar, fermentlar va gormonlar tarkibiga kiradi, aslida barcha hujayralarimizning 98% ni egallaydi. Rux inson tanasining normal ishlashi va insonni normal hayotiy faoliyat ta'minlaydi. Aksincha, uning etishmasligi bir qator jiddiy muammolar olib kelishi mumkin: Rux parranda go'shti, pishloqlar, piyoz, kartoshka, sarimsoq, yashil sabzavotlar, grechka, yasmiq, soya, arpa uni, quruq qaymoq, selderey, qushqo'nmas, turp, non, sitrus mevalar, olma, anjir, xurmo, smorodina, malina, qora smorodina da ham mavjud [5].
Zaharli elementlar oziq-ovqat

mahsulotlariga xom-ashyodan va texnologik ishlov berish jarayonida tegishli texnologik ko'rsatmalar buzilgandagina insonlar uchun xavfli konsentratsiyalarda tushishi mumkin. Shunday qilib, o'simlik xom ashyosida simob, qo'rg'oshin, margimush kabi zaharli elementlarni o'z ichiga olgan pestitsidlardan foydalanish qoidalarini buzgan holda paydo bo'lishi mumkin. Sanoat korxonalariga yaqin hududda ishlab chiqarish chiqindilari bilan havo va suvni ifloslantiruvchi zaharli elementlarning ko'payishi mumkin. Jadvalda og'ir metallarning maksimal ruxsat etilgan konsentratsiyalari miqdori keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari og'ir metallar miqdori

| Mahsulotlar | Pb (mg) | Cd (mg) | As (mg) | Hg (mg) | Cu (mg) | Zn (mg) |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Sut va suyuq sut mahsulotlari | 0,1 | 0,03 | 0,05 | 0,005 | 1,0 | 5 |
| Yangi go'sht va parranda | 0,3 | 0,04 | 0,0 | 0,00 | 3,0 | 20 |
| Konservalangan go'sht va parranda tunuka idishda qadoqlangan | 1,0 | 0,1 | 0,1 | 0,00 | 5,0 | 60 |
| Yangi va muzlatilgan baliq | 1,0 | 0,2 | 1,0-5,0 | 0,3-0,6 | 10 | 40 |
| Konservalangan baliq | 1,0 | 0,2 | 1,0-5,0 | 0,3-0,7 | 10 | 40 |

Konsentrlangan go'sh-sut va undan tayyorlangan mahsulotlarida (quritiladi, muzlatiladi va hokazo.), og'ir metallarning

maksimal ruxsat etilgan konsentratsiyasi, odatda, boshlang'ich mahsulot bo'yicha aniqlandi [1; 485 b].

Faydalanilgan adabiyotlar.

1. Познековский В.М. Гигиенические основы питания: безопасность и экспертиза товаров 5 с изд исп и дон/граф м.о.и науки Р.Ф-Новосибирский университет изд-ва 2007-485с.
2. Современный инниоватсии химический науки №6(20)2017 36-37 бет.
3. Жидкин В.Н., Семушев А.М Экология загрязнение продвольственных товаров учебние пособие Саранское кон ин-в РУ Саранск принт издат 2013-80с
4. Биологическая безопасность пищевых продуктов: Учеб. пособие / А.И. Машанов, Е.А. Речкина, Г.А. Губаненко; Краснояр. гос. аграрный ун-т. – Красноярск, 2016. 27-30 б.
5. Go'sht-sut mahsulotlarini tovar nomenklaturasi bo'yicha tasniflash tizimini takomillashtirish. K.Sh. Kushnazarova dissertasiyasi 2022 y 53-59 betlar

“ASKALSIY” OZIQ-OVQAT QO‘SHILMASINING ANTIOKSIDANTLIK FAOLLIGI
АНТИОКСИДАНТНАЯ АКТИВНОСТЬ ПИЩЕВОЙ ДОБАВКИ “АСКАЛЬЦИЙ”
ANTIOXIDANT ACTIVITY OF FOOD ADDITIVES" ASKALTSIY"

I.R. Asqarov–kimyo fanlari doktori,
professor.
S.X. Mixmanova– tadqiqotchi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Askalsiy” oziq-ovqat qo‘shilmasining kimyoviy tarkibi, biologik faolligi va antioksidantlik faolligi haqida ma’lumot berilgan. Biz tomonimizdan yuqoridagi olimlar qo‘llagan metodlardan farqli ravishda “Askalsiy” oziq-ovqat qo‘shilmasining spirtli va suvli ekstraktlarining antioksidantlik faolliklarini spektrofotometrik tahlil usulida Cary 60 UV-Vis Agilet Technologies spektrofotometri yordamida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: “Askalsiy”, oziq-ovqat, tuxum po‘chog‘i, lazer nuri, Buyrak, shivit urug‘i.

Аннотация. В данной статье представлена информация о химическом составе, биологической активности и антиоксидантной активности пищевой добавки "Аскальций". В отличие от методов, используемых вышеуказанными учеными, антиоксидантная активность спиртового и водного экстрактов пищевой добавки "Аскальций" была изучена с использованием спектрофотометрии Cary 60 UV-Vis Agilet Technologies в методе спектрофотометрического анализа.

Ключевые слова: "Аскальций", еда, каша, яйцо, лазерный луч, почки, семена укропа.

Аннотация. В данной статье представлена информация о химическом составе, биологической активности и антиоксидантной активности пищевой добавки "Аскальций". В отличие от методов, используемых вышеуказанными учеными нами, антиоксидантная активность спиртового и водного экстрактов пищевой добавки "Аскальций" была изучена с использованием спектрофотометрии Cary 60 UV-Vis Agilet Technologies в методе спектрофотометрического анализа.

Annotasiya. This article provides information on the chemical composition, biologic activity and antioxidant activity of the food additive "Askaltsiy". In contrast to the methods used by other scientists, we studied the antioxidant activity of alcohol and aqueous extracts of the food additive "Askaltsiy" using Cary 60 UV-Vis Agilet Technologies method of spectrophotometric analysis.

Keywords: "Askaltsiy", food, egg, porridge, laser beam, kidney, seeds of dill.

“Askalsiy” oziq-ovqat qo‘shilmasining tarkibi. Askalsiy oziq-ovqat qo‘shilmasi lazer nuri ta’sirida faollashtirilgan tuxum po‘chog‘i bilan shivit urug‘idan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmasi bo‘lib, alohida biologik faollik namoyon qiladi Buyrak yallig‘lanish kasalligining asosiy kelib chiqish sabablaridan yana biri oziq-ovqat tarkibida minerallarning kam miqdorda bo‘lishi, ya’ni makro va mikro elementlarning organizm talab darajasida

etishmasligi deb ham hisoblash mumkin [1; 55-58-b].

Organizmdagi ko‘pgina patologik jarayonlar ion muvozanatining buzilishi bilan kechadi. Na⁺ ionlari suyuqliklarning kislota-asos muvozanati va osmotik bosimni saqlashda ishtirok etuvchi asosiy kationlardan biri hisoblanadi. Ca²⁺ ionlari ko‘plab fermentlarning ta’sirini faollashtiradi, qon ivishini ta’minlaydi va hujayra membranalarining

o‘tkazuvchanligini tartibga soladi [1; 55-58-b].

Tuxum po‘chog‘i tarkibi tuxum qobig‘i va qobiq membranalarining organik moddasi oqsillarini oz miqdorda uglevodlar va lipidlar bilan asosiy tarkibiy qismlar sifatida o‘z ichiga oladi [2; 510-514-b].

Tuxum po‘chog‘ining asosiy tarkibiy qismi kalsiy karbonatdir. Uning tarkibida 95 % CaSO_3 va 5 % kalsiy fosfat, magniy karbonat va eruvchan va erimaydigan oqsillarni tashkil etadi. Tuxum po‘chog‘i membranasi bioaktiv komponentlari osteoartrit kasalliklarida proinflammatsion sitokinlar, antibakterial, jigar fibrozi va qo‘shma og‘riqlarni kamaytirish kabi xususiyatlarga ega [2; 49-57-b, 3; 699-704-b].

Shivit urug‘i oshqozon va ichak kasalliklarida, dispepsiya, qovuq yallig‘lanishi, jigar kasalliklari, dispepsiya va uyqusizlik uchun ishlatiladi [4; 1-10-b].

Shivit urug‘ining efir moylari va ekstraktlari turli darajadagi antimikrob xususiyatga ega ekanligi bir qancha olimlar olib borgan tadqiqotlarida aniqlangan [5; 52-54-b, 2; 1-10-b].

Ma‘lumki, shu kungacha o‘simliklar ekstraktlarining antioksidant faolligini o‘rganishda olimlar turli hil metodlarni qo‘llagan. Chunonchi, Ye.L.Gerasimova boshchiligidagi Rossiyalik olimlar dorivor o‘simliklar ekstraktlarining antioksidantlik faolliklarini kaliy geksatsianoferrat (III) – qizil qon tuzi yordamida potensimetrik titrlash usulida aniqlashgan [6; 112b, 7; 60-63b].

Ye.I.Ryabinina boshchiligidagi olimlar guruhi esa 6 xil mahalliy dorivor o‘simliklarning suvli ekstraktlarining antioksidant faolliklarini adrenalinning ingibirlash reaksiyasiga asoslangan usul

yordamida aniqlashgan. Bu olimlar tomonidan antioksidant faolligini baholashda yangi vaqt mezoni taklif etilgan va adrenalinning ingibirlash reaksiyasida avtooksidlanishini tahlil qilishda induksiya davri o‘simlik ekstraktlarining antioksidant faolligini belgilaydigan qiymat sifatida qabul qilinishi isbotlab berilgan [7; 112b].

Biz tomonimizdan yuqoridagi olimlar qo‘llagan metodlardan farqli ravishda “Askalsiy” oziq-ovqat qo‘shilmalarining spirtli va suvli ekstraktlarining antioksidantlik faolliklarini spektrofotometrik tahlil usulida Cary 60 UV-Vis Agilet Technologies spektrofotometri yordamida o‘rganildi.

Bunda 0,2 M natriy-karbonat (Na_2CO_3 - NaHCO_3) $rN=10,65$ li buferidan 2,0 ml, adrenalin (epinefrin) gidroxloridning 0,18% eritmasidan 56 mkl olindi. 30 mkl antioksidant preparat (“Askalsiy”) solindi va 30 soniyadan 10 daqiqa oraligida 347 nm to‘lqin uzunligida spektrofotometrda (Cary 60 UV-Vis Agilet Technologies) tekshirildi. Tekshirilayotgan (eritmaning 1 ml dagi konsentratsiyasi 1 mg) miqdori standartsifatida ishlatildi. Nazorat sifatida 0,2 M li 2,0 ml bufer va 0.18% 56 mkl (5,46 mM) adrenalin ishlatildi.

Antioksidant faolligini adrenalinning avtooksidlanishini ingibirlanishiga ko‘ra quyidagi formula bilan hisoblandi.

$$AA\% = \frac{D_1 - D_2 \times 100}{D_1}$$

Bunda,

D_1 -buferga qo‘shilgan adrenalin gidroxlorid eritmasining optik zichligi;

D_2 -buferga qo‘shilgan tadqiq qilinayotgan ekstraktning va adrenalin gidroxloridning optik zichligi.

1-jadval.


| № | Tahlil qilinuvchi eritmalar | Nazorat(D ₁) | Tajriba(D ₂) | AA% |
|----------------------------|-------------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------|
| Askalsiy | | | | |
| 1 | Askalsiy– 10% suvda | 0,05 | 0,0043 | 91,4 |
| 2 | Askalsiy –20% suvda | 0,05 | 0,0036 | 92,8 |
| 3 | Askalsiy –30% suvda | 0,05 | 0,003 | 94,0 |
| 4 | Askalsiy –40% suvda | 0,05 | 0,0018 | 96,4 |
| 5 | Askalsiy –50% suvda | 0,05 | 0,00092 | 98,16 |
| Askalsiy –10% spirt | | | | |
| 1 | Askalsiy –10% spirt | 0,05 | 0,0018 | 96,4 |
| 2 | Askalsiy –20% spirt | 0,05 | 0,0015 | 97 |
| 3 | Askalsiy –30% spirt | 0,05 | 0,001 | 98 |
| 4 | Askalsiy –40% spirt | 0,05 | 0,00098 | 98,04 |
| 5 | Askalsiy –50% spirt | 0,05 | 0,00092 | 98,16 |
| Gliklazid | | | | |
| 1 | Gliklazid - (10%) 100 mg/ml | 0,02753 | 0,024 | 2,1 |
| 2 | Gliklazid - (25%) 250 mg/ml | 0,0392 | 0,033 | 2,9 |
| 3 | Gliklazid - (50%) 500 mg/ml | 0,06956 | 0,059 | 5,3 |
| 4 | Gliklazid - (75%) 750 mg/ml | 0,11867 | 0,1 | 8,3 |
| 5 | Gliklazid - (100%) 1000 mg/ml | 0,13899 | 0,1154 | 11,0 |
| Kversetin | | | | |
| 1 | Kversetin - (10%) 100 mg/ml | 0,111345 | 0,0978 | 8,2 |
| 2 | Kversetin - (25%) 250 mg/ml | 0,18786 | 0,1543 | 13,8 |
| 3 | Kversetin - (50%) 500 mg/ml | 0,27677 | 0,2356 | 20,8 |
| 4 | Kversetin - (75%) 750 mg/ml | 0,38432 | 0,3221 | 28,0 |
| 5 | Kversetin - (100%) 1000 mg/ml | 0,67546 | 0,5367 | 35,1 |

Yuqoridagi jadvaldan “Asdavo” “Askalsiy” va “Alkaman” oziq-ovqat qo‘shilmasining suvli va spirtidagi ekstraktlari orasida 1:50 massa nisbatda olingan suvli va spirtidagi ekstrakti boshqalarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi ko‘rinib turibdi. Bu esa, bemorlarga “Askalsiy” oziq-ovqat qo‘shilmasini 1:50 massa nisbatda qaynoq

suvga damlab iste‘mol qilishni tavsiya qilishga asos bo‘lib hizmat qiladi. Shuningdek, yuqoridagi jadvalda boshqalarga nisbatan 50%li spirtidagi “Askalsiy” ekstrakti yuqoriroq antioksidant faollikka ega ekanligini ko‘rish mumkin. Lekin, 50% li spirtli ekstrakti iste‘mol qilish noqulay. Chunki, yuqori

konsentratsiyali spirt eritmasi ovqat hazm qilish organlari shilliq pardasiga zarar etkazishi mumkin. Shuning uchun 30%li spirtli ekstrakdan foydalanish eng maqbul yo‘l deb topildi. Qolaversa, 30% li spirtli ekstraktning antioksidant faolligi 50%li spirtli ekstraktnikidan ko‘p farq qilmaydi.

“Askalsiy”ning tekshirilayotgan 5 xil ekstraktlari antioksidant AA faolligining konsentratsiyaga bog‘liqligi grafiklari tuzildi. Ushbu grafiklar “Askalsiy” namunalari uchun 1-rasmda keltirilgan.



“Askalsiy”ning antioksidant faolligi adrenalinning *in vitro* sharoitida autooksidlanish metodi bilan ham aniqlandi [8; 60-63b]. Natijalar yuqoridagi jadvalda keltirilgan natijalarni takrorladi. Bu esa, “Askalsiy” oziq-ovqat qo‘shilmalarining antioksidant faolligi to‘g‘ri aniqlanganligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda o‘simlik chiqindilari asosida tayyorlangan “Askalsiy” oziq-ovqat qo‘shilmalarining ekstraktlari orasida “Askalsiy” ning 1:50 massa nisbatda qaynoq suv yordamida tayyorlangan suvli ekstrakti, shuningdek, “Askalsiy” ning 50%li spirtli ekstrakti boshqalarga nisbatan eng yuqori antioksidant faollikni namoyon qiladi. Mazkur natijalar asosida bemorlarga “Askalsiy”ning 1:50 massa nisbatda tayyorlangan damlamasini, “Askalsiy” ning esa 50% li spirtli ekstrakti havfli bo‘lganligi uchun uning 30% li spirtli ekstraktini tavsiya qilish mumkinligi kelib chiqdi.

Olimlar tomonidan o‘rganilgan kversetin moddasining 1mg/ml antioksidant xususiyati 37.4% va gliklazid moddasining antioksidant xususiyati 10% ekanligi aniqlangan bo‘lib bu ko‘rsatkichga solishtirsa askalsiy oziq-ovqat qo‘shilmasining antioksidant xususiyati yuqorirok ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Olingan natijalar “Askalsiy” oziq-ovqat qo‘shilmasining antioksidant faolligi yuqori darajada ekanligini qo‘rsatdi. Bu antioksidant xususiyatlar askalsiy tarkibidagi mavjud bo‘lgan biologik faol moddalarga bog‘liq bo‘lishi mumkinligini bildiradi.

Xulosa qilib aytganimizda “Askalsiy” oziq-ovqat qo‘shilmasining 96%, 70% etanollik va suvli ekstraktining antioksidant xususiyatlari o‘rganilganda 70% etanollik ekstrakt antioksidantlik ta‘siri 96% etanol ekstrakti va suvli ekstraktiga nisbatan yuqori ekanligi namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Asqarov. Tabobat qomusi. Mumtoz so'z. Toshkent – 2019.
1. R. Asqarov. Sirli tabobat. – T: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi.
3. Окорочков А. Н. Лечение болезней внутренних органов: Практическое руководство. Том 2. Минск, 1997, 360 с.
4. Эрман М. В. Фитотерапия в лечении инфекции мочевой системы у детей // Эффективная фармакотерапия. 2014, № 2 (16), с. 18–22.
5. Скурихин И.М. и др. Химический состав пищевых продуктов.
6. Шварц Г. Я. Михаил Давыдович Машковский (1908—2002) Архивная копия от 25 ноября 2011 на Wayback Machine // Русский медицинский журнал.
7. Сапронов Н.Р. Технология сахарного производства: Учебник. –М.: Колос, 1999, 495 б.
8. Яровенко В.Л., Мариченко В.А., Смирнов В.А. и др. Технология спирта: Учебник. -М.: Колос, "Колос-пресс", 200

**PKA-1 MARKALI KORROZIYA INGIBITORINING 1M HCl MUHITIDA PO'LATNI
INGIBIRLASH MEKANIZMINING EKETROKIMOYOVIY
TADQIQOTI**

**ИССЛЕДОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ МЕХАНИЗМА ИНГИБИРОВАНИЯ СТАЛИ В
СРЕДЕ 1M HCl ИНГИБИТОРОМ КОРРОЗИИ МАРКИ PKA-1 МЕТОДОМ
ПОЛЯРИЗАЦИОННЫХ КРИВЫХ**

**STUDY OF DETERMINATION OF THE MECHANISM OF INHIBITING STEEL IN 1HCl
ENVIRONMENT OF PKA-1 BRAND CORROSION INHIBITOR BY THE METHOD OF
POLARIZATION CURVES**

Misirov Z.X-Termiz muhandislik-texnologiya instituti, katta o'qituvchisi
Beknazarov H.S- tex.fan.dok, professor Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot
institutini
Jalilov A.T-Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti, direktori, kimyo fanlari
doktori, professor, O'zR Fan akademigi

Annotatsiya. Ushbu maqolada polietilenpoliamin va krotonaldegid asosida olingan PKA-1 markali korroziya ingibitorining 1M HCl muhitida po'lat materiallarini ingibirlash mexanizimini qutblanish egri chiziqlari metodi yordamida o'rganilgan. Elektrokimyoviy tadqiqotlar 293 ± 1 temperaturada turli konsentratsiyadagi (200 mg/l, 400 mg/l, 600 mg/l, 800 mg/l va 1 g/l) eritmalarda o'rganildi. Qutblanish egri chiziqlari metodi orqali ingibitorning ingibirlash samaradorligi 91,56 % ni tashkil etdi.

Kalit so'zlar: polietilenpoliamin, krotonaldegid, korroziya ingibitor, gravimetrik metod, qutblanish egri chizig'i, HCl.

Аннотация. В данной статье методом поляризационных кривых исследуется ингибитор коррозии PKA-1 на основе полиэтиленполиамиона и кротонового альдегида. Электрохимические исследования проводились при температуре $293 \pm 1^\circ\text{C}$ в растворах различной концентрации (200 мг/л, 400 мг/л, 600 мг/л, 800 мг/л и 1 г/л). Эффективность ингибирования ингибитором методом поляризационных кривых составила 91,56%.

Ключевые слова: полиэтиленполиамин, кротоновый альдегид, ингибитор коррозии, гравиметрический метод, поляризационная кривая, HCl.

Abstract. In this article, the method of polarization curves is used to study the corrosion inhibitor PKA-1 based on polyethylenepolyamine and crotonaldehyde. Electrochemical studies were carried out at a temperature of $293\pm 1^\circ\text{C}$ in solutions of various concentrations (200 mg/l, 400 mg/l, 600 mg/l, 800 mg/l and 1 g/l). The efficiency of inhibition by the inhibitor by the method of polarization curves was 91.56%.

Key words: polyethylene polyamine, crotonaldehyde, corrosion inhibitor, gravimetric method, polarization curve, HCl.

At present, the major problem faced by oil and gas industries is the corrosion occurring in the transportation pipelines and various machinery. Generally, to safeguard the smooth and uninterrupted flow of oil and gas, the engineers and designers pay more attention to pipelines and fittings as they endure degradation due to corrosion. In this comprehensive review corrosion inhibitors for oil and gas industries are discussed [1,2].

Today, corrosion of metals is one of the processes that prevent us from maintaining the metal and its device in the most stable conditions. As a result, there is not only a moral, but also a sense of loss. As an example of an economic decision, the following figures can be cited: for example, an international study conducted by NACE (IMPACT 2016) showed that the annual economic damage from the occurrence in the world is 2.5 trillion dollars. If this figure is by country, then it is about 3.4% of the average gross domestic product (GDP) of each country[3]. Iso N, N, N', N'', N''-pentamethyldiethylamine-N,N''-di-[tetraethylammonium bromide] 14-2-N(CH₃)-2-14 from oligomeric steel materials against environmental corrosion used to protect [4], research on the synthesis of a monomer based on dodecane diamine (DDA), N, N-diallyl-N-propargyl-(12-N'-formal amino)-1-dodecyl ammonium chloride, homo- and copolymers, and the use of the synthesized chemical compound as a corrosion inhibitor [5].

One of the allyl groups copolymerizes with propargyl or another allyl group in a 4:1 ratio in higher yield than the other ratios. The inhibitory effect of the obtained copolymer on steel was determined by gravimetric and electrochemical methods

in acidic and saline media at a temperature of 60°C .

The inhibitor concentration was obtained at the level of 200 mg/l at various concentrations of hydrochloric acid; 81-99% in 1M HCl, 97-98% in 4M HCl, 87-93% in 7.7M HCl, 68% and 91% in 0.5M H₂SO₄, 84% in 3.5% NaCl - inhibition efficiency 92%[6]. The inhibitory properties of N,N-dipropynoxymethylamine trimethylphosphonate were studied using potentiometric polarization curves and electrochemical methods. At the same time, the temperature was studied in the concentration range from 298 K, 40 mg/l to 320 mg/l, which was attributed to mixed-type inhibitors. It has a mixed inhibitory mechanism and obeys the Frumkin adsorption isotherm [7,8].

2. MATERIALS AND METHODS

2.1. Sample preparation.

Metall samples of steel (St. 20) with a size of 15x20x1.9 mm and a steel sample containing the following: Fe 97,755-97,215%, C 0,17-0,24%, Si 0,17-0,37%, Mn 0,35-0,65%, Ni up to 0,3%, S up to 0,04%, P up to 0.035%, Cr up to 0.25%, Cu up to 0.3%, As up to 0.08%.

These samples were treated with 100, 200, 500, 1000 and 1500 grit sandpaper, degreased by washing with acetone, and rinsed with distilled water before sending the sample to the practical experiment.

2.2. Determination of corrosion rate using gravimetric method.

We determined the corrosion rate of the steel sample taken for the experiment over a period of 24 to 240 hours. To this end, experiments were performed to determine the corrosion rate of a steel electrode at different concentrations and known temperatures, and the experimentally related corrosion rate (K) and weight loss (X) in inhibitory and non-

inhibitory solutions were determined. based on the gravimetric method.

$$K = \frac{(m_1 - m_2) \cdot 1000}{S \cdot \tau_1} [g/m^2 \cdot a \text{ day}] \quad (2.1),$$

$$X = \frac{K_{\text{инг}}}{K_0} \cdot 100, \quad Z = 100 - X, \% \quad (2.2),$$

Where: m_1 is the initial weight of the metal sample, m_2 is the subsequent weight of the metal sample at exposure, S is the surface area of the sample taken for practical experiments, τ_1 is the exposure time, hours, days.

3. RESULTS AND ITS DISCUSSION

3.1. Determining the effectiveness of the corrosion inhibitor using the gravimetric method.

Table 1 shows corrosion rates and inhibition efficiencies obtained from tests based on the gravimetric method. The results showed that with an increase in the temperature of the medium, the weight loss of the test sample decreases. Similarly, when the concentration of the inhibitor is increased, the weight loss is reduced despite the increase in temperature.

Using blank samples (0.0 g/ml) as a reference to results with samples containing the inhibitor, it was seen that PKA-1 acts as an effective corrosion inhibitor on mild steel. The lower the corrosion rate, the higher the corrosion inhibition efficiency.

Table-1

Corrosion Rate and Inhibition Efficiency of PKA-1 Inhibitor

| Inhibitor concentration,mg/, | Temperatur, K | Corrosion rate g/m ² , a day | Inhibitor Efficiency,% |
|------------------------------|---------------|---|------------------------|
| 200 | 293 K | 0,005175 | 73.56 |
| | 313K | 0,004895 | 71.36 |
| 400 | 293K | 0.004125 | 77.92 |
| | 313K | 0,003765 | 74,99 |
| 600 | 293 K | 0,003117 | 82.53 |
| | 313K | 0,002171 | 78.76 |
| 800 | 293 K | 0.001125 | 87.13 |
| | 313K | 0,001156 | 84.86 |
| 1000 | 293 K | 0,001127 | 93.56 |
| | 313K | 0,001008 | 90.03 |

3.2. Electrochemical measurements

3.2.1. Curves of potentiodynamic polarization (PP).

Potentiodynamic polarization (PP) curves shown in Figure 1 were measured for St20 steel in 1M blank HCl solution and in the

same solution containing various concentrations of PKA-1 corrosion inhibitor




Fig. 1. Polarization curves for steel St20 recorded after 1 h immersion at 293 ± 1 K in 1 M HCl containing various concentrations of PKA-1.

Each increase in the PKA-1 concentration leads to a decrease in the current density both on the anode and cathode branches of the RI curves. However, the Tafel slopes and corrosion potential remained virtually unchanged. Obviously, PKA-1 acts as a mixed type inhibitor, simultaneously reducing the anodic contribution (metal dissolution) and cathodic contribution (hydrogen evolution) to the corrosion process. These results are consistent with an inhibition regime characterized by geometric blocking of the metal surface by adsorbed inhibitory species. The effect of geometric blocking mainly leads to a decrease in the reaction area.

Mansfeld proposed a precise analysis procedure to determine the polarization

resistance R_p and Tafel slopes from polarization data (E_{app}) measured in a small potential window around E_{corr} . First, R_p was obtained, as usual, to the Tafel regions of the polarization curve from the slope of the tangent at E_{corr} . Second, using the Mansfeld approach, the anodic (b_a) and cathodic (b_c) Tafel slopes were calculated through a non-linear least-squares fit of the polarization data in the form of $2.3iR_p v.s. (E_{app} - E_{corr})$ to the corresponding theoretical expression within the potential window ($E_{corr} \pm 30$ mV). Table 2 contains the results of this analysis of the polarization data along with the values of E_{corr} and corrosion current density j_{corr} [9,10].

Table-2

Results of analysis of potentiodynamic polarization curves for St20 steel in 1M HCl with different PKA-1 concentrations at 293 ± 1 K

| C, g/l | E _{corr} (mV) | J _{corr} ($\mu\text{A cm}^2$) | -bc (mV/dec) | b _a (mV/dec) | R _p Ωcm^2 | η % |
|--------|---------------------------|---|-----------------|----------------------------|------------------------------------|----------|
| 0,0 | -559 | 897 | 168 | 147 | 37,4 | - |
| 0,2 | -567 | 396 | 163 | 134 | 82,6 | 78.26 |
| 0,4 | -571 | 187 | 162 | 129 | 173,1 | 85.41 |
| 0,6 | -573 | 139 | 163 | 131 | 224,9 | 88.12 |
| 0,8 | -570 | 114 | 146 | 136 | 267,5 | 90.03 |
| 1,0 | -565 | 112 | 141 | 132 | 261,5 | 91,56 |

Thus, the effectiveness of corrosion inhibition of a nitrogen and phosphor containing corrosion inhibitor (PKA-1) on St20 steel was studied in an aggressive hydrogen chloride solution using potentiodynamic polarization. The polarization parameters at 1 g/L of the

corrosion inhibitor PKA-1 in 1M HCl have a significantly higher inhibition efficiency of 93.56 respectively, and the inhibition efficiency of the phosphorus-containing PKA-1 oligomer increases with increasing inhibitor concentration.

REFERENCES

1. Panchal J. et al. Comprehensive Review and Critical Data Analysis on Corrosion and Emphasizing on Green Eco-friendly Corrosion Inhibitors for Oil and Gas Industries // J. Bio- Tribo- Corrosion 2021 73. Springer, 2021. Vol. 7, № 3. P. 1–29.
2. Andrianov V.A.C. and A.P. Causes analysis of corrosion of galvanized pipes in hot water systems, S.O.K. // (Plumbing. Heating. Air Cond. 2018. № 1, 54–58 (in Russian).
3. Magerramov A.M. et al. Synthesis of co-oligomers of 2-propenylphenol with maleic anhydride and study of products of their transformations with amines as steel corrosion inhibitors // Russ. J. Appl. Chem. 2014 874. Springer, 2014. Vol. 87, № 4. P. 456–460.
4. Alehyen S. et al. Preparation of a New Oligomeric Surfactant: N,N,N',N'',N''-Pentamethyl Diethyleneamine—N,N''-Di-[Tetradecylammonium Bromide] and the Study of its Thermodynamic Properties // J. Surfactants Deterg. 2009 133. Springer, 2009. Vol. 13, № 3. P. 339–348.
5. K. Zhang, W. Yang, X. Yin, Y. Chen, Y. Liu J.L. and B.X. Amino acids modified konjac glucomannan as green corrosion inhibitors for mild steel in HCl solution // Carbohydr. Polym., 2018. № 181, P. 191–199.
6. Ali S.A. et al. Cyclopolymers from N,N-diallyl-N-propargyl-(12-N'-formylamino)-1-dodecylammonium chloride and their use as inhibitors for mild steel corrosion // Polym. Bull. 2012 694. Springer, 2012. Vol. 69, № 4. P. 491–507.
7. Du T., Chen J., Cao D. N,N-Dipropoxy methyl amine trimethyl phosphonate as corrosion inhibitor for iron in sulfuric acid // J. Mater. Sci. 2001 3616. Springer, 2001. Vol. 36, № 16. P. 3903–3907.
8. Beknazarov Kh.S., Jalilov A.T., Ostanov U.Yu. E.A. Inhibition of corrosion of carbon steel by oligomeric corrosion inhibitors in various media // Plastic Mass. 2013. № 8. P. C. 36-39.
9. T. Poornima, J. Nayak, A.N. Shetty, Corrosion of aged and annealed 18 Ni 250 grade maraging steel in phosphoric acid medium, Int. J. Electrochem. Sci. 5 (2010) 56.
10. L.Y.S. Helen, A.A. Rahim, B. Saad, M.I. Saleh, P.B. Raja, Int. J. Electrochem Sci., 9 (2014) 830.

AYRIM KARBON KISLOTALAR VA AROMATIK ATSETILEN SPIRTLARINING ETERIFIKATSIYA REAKSIYASI

РЕАКЦИЯ ЭТЕРИФИКАЦИИ НЕКОТОРЫХ КАРБОНОВЫХ КИСЛОТ И АРОМАТИЧЕСКИХ АЦЕТИЛЕНОВЫХ СПИРТОВ

REACTION ESTERIFICATION OF SOME CARBOXYLIC ACIDS AND AROMATIC ACYLENE ALCOHOLS

S.B.Samatov– Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
Fizika va kimyo fakulteti tayanch doktoranti

S.S.Abduraxmanova– O'zbekiston Milliy Universiteti,

Umumiy va neft-gaz kimyo kafedrasi kata o'qituvchisi, k.f.f.d (PhD)

O.E.Ziyadullayev– Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, k.f.d., dotsent

A.Ikramov– Toshkent-kimyo texnologiya instituti, Organik kimyo va asosiy organik sintez
texnologiyasi kafedrasi professori, t.f.d.

L.K.Ablakulov– Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
Fizika va kimyo fakulteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu ishda ilk bor molekulasida geteroatom saqlagan ayrim aromatik atsetilen spirtlarining aromatik, alifatik (to'yingan va to'yinmagan) va geterosiklik karbon kislotalar bilan eterifikatsiya reaksiyasi asosida biologik faolligi yuqori bo'lgan yangi avlod murakkab efirlari sintezi o'rganilgan. Reaksiyaning borishi va mahsulot unumiga tanlangan spirtlar va kislotalar molekulasining tuzilishi, tabiati va kimyoviy faolligi ta'siri tahlil etilgan. Sintez qilingan murakkab efirlar identifikatsiyalangan, ularning xususiy konstantalari, tuzilishi, tozaligi va tarkibi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida isbotlangan. Murakkab efirlarni sintez qilishning nisbiy samaradorlik qatori ishlab chiqilgan, eterifikatsiya jarayonining eng muqobil sharoitlari aniqlangan va reaksiya kinetikasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. aromatik atsetilen spirtlari, karbon kislotalar, murakkab efirlar, eterifikatsiya reaksiyasi, reaksiya mexanizmi, mahsulot unumi, katalizator.

Аннотация. В данной работе впервые осуществлен синтез нового поколения высоко биологически активных эфиров на основе реакции этерификации некоторых ароматических ацетиленовых спиртов с гетероатомом в молекуле ароматическими, алифатическими (насыщенными и ненасыщенными) и гетероциклическими карбоновыми кислотами. учился. Проанализированы ход реакции и влияние строения, природы и химической активности выбранных ароматических ацетиленовых спиртов и молекул угольной кислоты на выход продуктов. Синтезированные сложные эфиры идентифицированы, доказаны их удельные константы, структура, чистота и состав современными физико-химическими методами. Разработан ряд относительных эффективностей синтеза эфира, выявлены наиболее альтернативные условия протекания процесса этерификации, проанализирована кинетика реакции.

Ключевые слова. ароматические ацетиленовые спирты, карбоновые кислоты, сложные эфиры, реакция этерификации, механизм реакции, выход продукта, катализатор.

Annotation. For the first time, the synthesis of a new generation of highly biologically active ethers based on the esterification reaction of some aromatic acetylene alcohols stored in a molecule with a heteroatom with aromatic, aliphatic (saturated and unsaturated) and heterocyclic carbonic acids was studied in this article. The course of the reaction and the effect of the structure, nature, and chemical activity of the selected aromatic acetylene alcohols and carbonic acid molecules on the product yield were analyzed. Synthesized ethers have been identified, their specific constants, structure, purity and composition have been proven using modern physicochemical methods. A series of relative efficiencies of ester synthesis was developed, the most alternative conditions of the esterification process were identified and the reaction kinetics were analyzed.

Key words: aromatic acetylene alcohols, carbonic acids, esters, esterification reaction, reaction mechanism, product yield, catalyst.


Molekulasida uchbog', gidroksil guruhi, gidroksil guruhida harakatchan faol vodorod hamda turli xil tabiatga ega bo'lgan o'rinbosarlar va funksional guruhlar saqlagan aromatik atsetilen spirtlari kimyoviy jihatdan juda faol bo'lib, ular asosida kimyo, neft-gaz, to'qimachilik, rezina-taxnika va boshqa sohalarda turli maqsadlarda qo'llaniladi [1, 2]. Aromatik atsetilen spirtlari molekulasidagi gidroksil guruhi kuchli nukleofil reagentlar ta'siriga chidamsiz bo'lib, nukleofillar bilan to'g'ridan-to'g'ri almashinish reaksiyasi ketadi. Jumladan Lyuis kislotalari atsetilen spirtlari gidroksil guruhiga shiddatli hujum qilishi, ya'ni gidroksil guruhi elminatsiyasi natijasida elektronlari tanqis bo'lgan karbakationlar hosil qiladi. Ushbu karbkationlar esa nukleofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishib turli xil yangi turdagi organik birikmalarni sintez qilishga xizmat qiladi [3, 4]. M.G.Veliev rahbarligida ilk bor ayrim naften kislotalarini $C_{11}H_{21}COOH$ yoki $C_{12}H_{23}COOH$) gomogen va geterogen katalitik sistemalarda atsetilen spirtlari (propin-1-ol-3 va 3-metilbutin-1-ol-3) bilan eterifikatsiya reaksiyasi o'rganilgan bo'lib 52-92% unum bilan murakkab efirlar sintezi amalga oshirilgan. Bunda katalizatorlar sifatida ortofosfat, sulfat yoki

p-toluol sulfat kislotalardan foydalanilgan bo'lib, jarayonlar 60-360 minut davomida, 80-110 °C harorat intervallarida olib borilgan. Sintez qilingan murakkab efirlar motor moylari uchun antikorrozion qo'shimchalar sifatida ishlatilgan [5]. Z.Liu va uning ilmiy jamoasi tomonidan atsetilen spirtlarining CO_2 bilan $[Bu_4P][Triz]$ katalizatori yordamida besh bosqichli o-nukleofil birikish reaksiyasi asosida 24-93% unum bilan yangi turdagi α -gidroksi ketonlar sintezi amalga oshirilgan [6]. Katalizator kumush tuzlari ishtirokida propargil spirtlarini karboksillanish reaksiyasi o'rganilgan. Karboksillanish reaksiyasi toluol eritmasida olib borilganda siklik korbonatlar, dimetilformamid eritmasida olib borilganda esa [3,3] sigmatropis qayta guruhlanish reaksiyasi ro'y berishi natijasida enonlar sintez qilingan [7].

Karbon kislotalarning o'ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri ularning spirtlar bilan eterifikatsiya reaksiyasidir. Ushbu ishda ilk bor quyidagi aromatik atsetilen spirtlari– 1,3-difenilpropin-2-ol-1, 1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropin-2-ol-1, 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropin-2-ol-1, 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropin-2-ol-1, 1-(4-nitrofenil)-3-fenilpropin-2-ol-1, 3-fenil-1-p-tolilpropin-2-

ol-1, 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropin-2-ol-1 ning turli xil tabiatga ega bo'lgan benzoy, kapron, akril va nikotin kislotalari bilan eterifikatsiya reaksiyasi bo'yicha mos ravishdagi murakkab efirlar sintezi jarayoni tahlil qilingan. Jarayon benzol eritmasida konsentrlangan sulfat kislota

katalizatori ishtirokida olib borildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan aromatik atsetilen spirtlari va karbon kislotalarning eterifikatsiya reaksiyasi sxemasi adabiyot manbalari asosida quyidagicha taklif qilindi [8, 9].



| | | | |
|--------------------------|---------------------------|---|----------------------------|
| 1 (R= H, R'= Ph) | 8 (R= Cl, R'= Py) | 15 (R= Br, R'= Vi) | 22 (R= Me, R'= Pe) |
| 2 (R= H, R'= Pe) | 9 (R= F, R'= Ph) | 16 (R= Br, R'= Py) | 23 (R= Me, R'= Vi) |
| 3 (R= H, R'= Vi) | 10 (R= F, R'= Pe) | 17 (R= NO ₂ , R'= Ph) | 24 (R= Me, R'= Py) |
| 4 (R= H, R'= Py) | 11 (R= F, R'= Vi) | 18 (R= NO ₂ , R'= Pe) | 25 (R= OMe, R'= Ph) |
| 5 (R= Cl, R'= Ph) | 12 (R= F, R'= Py) | 19 (R= NO ₂ , R'= Vi) | 26 (R= OMe, R'= Pe) |
| 6 (R= Cl, R'= Pe) | 13 (R= Br, R'= Ph) | 20 (R= NO ₂ , R'= Py) | 27 (R= OMe, R'= Vi) |
| 7 (R= Cl, R'= Vi) | 14 (R= Br, R'= Pe) | 21 (R= Me, R'= Ph) | 28 (R= OMe, R'= Py) |

Aromatik atsetilen spirtlarining murakkab efirlarini sintez qilish uchun 200 ml hajmli uch og'izli kolbaga, mexanik aralashtirgich, tomizgich voronka, pastki qismiga lovushka o'rnatilgan qaytarma sovutkich (Libix sovutgichi) o'rnatib, unga 60 minut davomida aralashtirib turilgan holda 132 ml absolyut benzol va 0,7 ml (0,013 mol) konsentrlangan sul'fat kislotasi qo'shiladi. Keyin sistemadagi benzol/sul'fat kislotasi aralashmasiga 80 ° C haroratda 56,8 ml (0,3 mol) 1,3-difenilpropin-2-ol-1 va 9,25 ml (0,1 mol) benzoy kislotasi tomizgich voronka orqali 4 soat davomida qo'shiladi va muntazam ravishda aralashtirib turiladi. Bunda Dina-Starka kolbasiga yig'ilgan suv doimiy ravishda sistemadan ajratib olinadi. Jarayon to'xtatilgach hosil bo'lgan aralashma natriy karbonat yoki magniy sul'fat yordamida 24 soat davomida quritildi. Aralashma quritilgandan keyin fil'trlanadi, so'ngra dietilefir yordamida

ekstraksiya qilinadi. Ekstraksiya qilingan katalizat dastlab oddiy sharoitda, so'ngra vakuumda fraktsiyalarga ajratilib haydab olindi. Tajriba natijalariga ko'ra 86% unum bilan 1,3-difenilpropin-2-ol-1 benzoat sintez qilindi, hamda 4% boshlang'ich moddalar, 6% qo'shimcha mahsulotlar va 4% chiqindilar alohida ajratib olindi [10, 11].

Ushbu usul bo'yicha 1,3-difenilpropin-2-ol-1, 1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropin-2-ol-1, 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropin-2-ol-1, 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropin-2-ol-1, 1-(4-nitrofenil)-3-fenilpropin-2-ol-1, 3-fenil-1-p-tolilpropin-2-ol-1, 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropin-2-ol-1 larning benzoy, kapron, akril va nikotin kislotalari bilan eterifikatsiya reaksiyasi olib borildi va mos ravishdagi murakkab efirlar sintez qilindi. Jumladan 1,3-difenilpropinil-2 geksanoat (81%), 1,3-difenilpropinil-2 akrilat (84%), 1,3-difenilpropinil-2 nikotinat (82%), 1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (71%),

1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (65%), 1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropinil-2 akrilat (67%), 1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (66%), 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (65%), 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (57%), 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropinil-2 akrilat (62%), 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (60%), 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (68%), 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (63%), 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropinil-2 akrilat (66%), 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (64%), 1-(4-nitrofenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (59%), 1-(4-nitrofenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (52%), 1-(4-nitrofenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (56%), 1-(4-nitrofenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (54%), 3-fenil-1-*p*-tolilpropinil-2 benzoat (83%), 3-fenil-1-*p*-tolilpropinil-2 geksanat (77%), 3-fenil-1-*p*-tolilpropinil-2 akrilat (81%), 3-fenil-1-*p*-tolilpropinil-2 nikotinat (80%), 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (77%), 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (70%), 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropinil-2 akrilat (75%) va 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (72%) sintez qilindi.

Olingan natijalar tahlili

Karbon kislotalar molekulasidagi o'rinbosarlarning tabiati, tuzilishi (tarmoqlanishi) va uglerod atomlari soni jarayonning borishiga, reaksiya muvozanat konstantasiga va mahsulot

unumiga ta'sir etishi aniqlangan. Eterifikatsiya reaksiyasi qaytar jarayon bo'lib, jarayonning borishiga boshlang'ich moddalar tabiati va tarkibi, harorat, reaksiya davomiyligi, katalizator va erituvchi tabiatining ta'siri tizimli ravishda tadqiq qilindi.

Dastlab aromatik atsetilen spirtlari murakkab efirlari unumiga harorat ta'siri o'rganildi. Bunda eterifikatsiya reaksiyasi 5 soat davomida benzol eritmasida olib borildi. Katalizator sifatida sulfat kislotadan foydalanildi, boshlang'ich moddalar (kislota:spirt) miqdori 1:3 mol nisbatda olindi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Aromatik atsetilen spirtlarini karbon kislotalar bilan reaksiyasi 60-110 °C haroratlarda olib borilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki reaksiya 80 °C haroratda katalizator (H₂SO₄) jarayonni tezlashtirib, dastlab karbonil guruhidagi kislorod atomini protonlab stabillangan, spirtlar bilan oson reaksiyaga kirisha oladigan oraliq karbkation hosil qilishi natijasida mahsulot unumi eng yuqori chiqishi uchun qulay muhit yaratdi. Ammo haroratning 110 °C ga oshirilishi bilan reaksiyaning yo'nalishi o'zgarib ketishi, hosil bo'lgan murakkab efirlar qaytadan boshlang'ich moddalarga aylanishi yoki aromatik atsetilen spirtlari degidratlanishi natijasida efirlar, qisman eninlarga aylanishining mahsulot unumiga salbiy ta'sir etishi kuzatildi.

| AAS ME | Mahsulot unumi, % | | |
|--------|-------------------|-------|--------|
| | 60 °C | 80 °C | 110 °C |
| 1 | 80 | 86 | 44 |
| 2 | 75 | 81 | 39 |
| 3 | 79 | 84 | 42 |
| 4 | 76 | 82 | 40 |
| 5 | 69 | 71 | 35 |
| 6 | 60 | 65 | 29 |
| 7 | 63 | 67 | 33 |
| 8 | 62 | 66 | 30 |
| 9 | 57 | 65 | 27 |
| 10 | 50 | 57 | 21 |
| 11 | 55 | 62 | 24 |
| 12 | 54 | 60 | 23 |
| 13 | 63 | 68 | 32 |
| 14 | 55 | 63 | 26 |
| 15 | 60 | 66 | 30 |
| 16 | 58 | 64 | 28 |
| 17 | 54 | 59 | 24 |
| 18 | 45 | 52 | 19 |
| 19 | 50 | 56 | 23 |
| 20 | 47 | 54 | 20 |
| 21 | 80 | 83 | 41 |
| 22 | 73 | 77 | 36 |
| 23 | 76 | 81 | 40 |
| 24 | 75 | 80 | 37 |
| 25 | 74 | 77 | 38 |
| 26 | 66 | 70 | 32 |
| 27 | 72 | 75 | 36 |
| 28 | 70 | 72 | 34 |


1-jadval

**Aromatik atsetilen spirtlari
murakkab efirlari (AAS ME) unumiga harorat ta'siri**

Olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida aromatik atsetilen spirtlari molekular massasining ortib borishi yoki molekulaning tuzilishida uglerod atomlarining tarmoqlanish darajasining o'sib borishi bilan reaksiyaning faollanish energiyasining kamayishi, tarmoqlangan radikallarning jarayon borishiga fazoviy ta'sir etishi natijasida murakkab efirlarning unumida kamayish kuzatildi, ammo 1,3-

difenilpropin-1-ol-3 o'z molekulasida fenil radikali (o'rinbosarsiz) mavjudligi sababli uning murakkab efirining unumi nisbatan yuqori chiqishi aniqlandi. Ma'lumki organik kimyoda yuqori unum bilan kimyoviy birikmalar sintez qilishda reaksiya davomiyligining roli muhim ahamiyatga egaligini e'tiborga olgan holda eterifikatsiya jarayoni 1-7 soat chastotalar oralig'ida, 80 °C haroratda, benzol

eritmasida tadqiqotlar olib borildi. Eterifikatsiya reaksiyasi vaqti 1 dan 5 soatga oshirib borilishi mahsulot unumining ortishi kuzatildi.



1-Rasm. Aromatik atsetilen spirtlari murakkab efirlari unumiga reaksiya davomiyligi ta'siri (harorat 80 °C, erituvchi benzol, katalizator sulfat kislota, boshlang'ich moddalar (kislota:spirt) miqdori 1:3 mol nisbatda)

Reaksiya 5 soatda olib borilganda oraliq va qo'shimcha mahsulotlar kam miqdorda hosil bo'lishi, sintez qilinayotgan murakkab efirlarning polimerlanishi va boshlang'ich moddalarga kam aylanishi aniqlandi. Bundan tashqari reaksiyada ishlatilgan H_2SO_4 katalizatori protonlari karbon kislotalar karbonil guruhiga birikadi va karbonil guruhi bilan bog'langan uglerod atomidagi musbat zaryad qiymatini oshirdi. Bu esa spirtning C- nukleofil hujumini engillashtirdi. Yig'ilgan suv miqdoriga qarab, reaksiyaning borishi to'g'risida fikr yuritish mumkin. Reaksiya natijasida ajralgan suv benzol bilan azeotrop holda ajralib Dina-Stark probirkasida yig'ildi, natijada hosil bo'lgan murakkab efirlarning gidrolizlanishi kamayadi, ya'ni reaksiyaning muvozanati mahsulot hosil bo'lish tomonga siljishiga olib keldi.

Reaksiya 7 soatda olib borilganda H_2SO_4 ning protonlari aromatik atsetilen spirtlari gidroksil guruhining kislorodidagi taqsimlanmagan elektron juftiga birikib spirtning nukleofilini va katalitik faolligini

keskin kamaytirdi, bu esa o'z o'rnida qaytar jarayonning borishini tezlashtirdi, kutilgan mahsulotning esa yuqori unum bilan hosil bo'lishini qiyinlashtirdi. Reaksiyaga kirishmagan aromatik atsetilen spirtlari va kislotalarni qaytadan sistemaga berish orqali mahsulot unumini oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, bunday holatni amalga oshirishda ayrim murakkabliklarning kelib chiqishi aniqlandi. Reaksiyaga kirishmagan spirtlar va kislotalarni oraliq hamda qo'shimcha mahsulotlardan tozalab, qaytadan sistemaga berish orqali murakkab efirlar sintez qilindi va qisman unumdorlik oshirildi, ammo mahsulot tan-narxini oshishiga olib keldi.

Xulosalar

Sintez qilingan aromatik atsetilen spirtlari murakkab efirlari tozaligi, tarkibi, tuzilishi va xususiy xossalari zamonaviy IQ-, 1H -YMR, ^{13}C -YMR, br- YMR, apt- YMR spektroskopiya, mass spektrometriya, xromatografik (YQX, KX), kvant-kimyoviy, biologik va boshqa tadqiqot usullari yordamida tadqiq qilindi.

Molekulasida alkil, alkiloksi, galogenlar va nitro guruhlar saqlagan aromatik atsetilen spirtlarining alifatik (to'yingan va to'yinmagan), aromatik va geterosiklik karbon kislotalar bilan eterifikatsiya reaksiyalarining eng muqobil sharoiti topildi. Unga ko'ra benzol eritmasida, katalizator sulfat kislotada ishtirokida, 5 soat davomida, 80 °C haroratda eterifikatsiya reaksiyasi olib borilgan mahsulot unumi eng maksimum chiqishi aniqlandi.

Ilk bor ayrim aromatik atsetilen spirtlarining quyidagi murakkab efirlari – 1,3-difenilpropinil-2 benzoat (86%), 1,3-difenilpropinil-2 geksanat (81%), 1,3-difenilpropinil-2 akrilat (84%), 1,3-difenilpropinil-2 nikotinat (82%), 1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (71%), 1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (65%), 1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropinil-2 akrilat (67%), 1-(4-xlorfenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (66%), 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (65%), 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (57%), 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropinil-2 akrilat (62%), 1-(4-ftorfenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (60%), 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (68%), 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (63%), 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropinil-2 akrilat (66%), 1-(4-bromfenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (64%), 1-(4-

nitrofenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (59%), 1-(4-nitrofenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (52%), 1-(4-nitrofenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (56%), 1-(4-nitrofenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (54%), 3-fenil-1-*p*-tolilpropinil-2 benzoat (83%), 3-fenil-1-*p*-tolilpropinil-2 geksanat (77%), 3-fenil-1-*p*-tolilpropinil-2 akrilat (81%), 3-fenil-1-*p*-tolilpropinil-2 nikotinat (80%), 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropinil-2 benzoat (77%), 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropinil-2 geksanat (70%), 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropinil-2 akrilat (75%) va 1-(4-metoksifenil)-3-fenilpropinil-2 nikotinat (72%) sintez qilindi.

Tanlangan karbon kislotalarning tabiati (alifatik, aromatik, geterosiklik) ga ko'ra aromatik atsetilen spirtlar bilan reaksiyaga kirishishining samaradorligi kapron kislotada < nikotin kislotada < akril kislotada < benzoy kislotada qatori bo'yicha ortib borishi aniqlandi.

Tanlangan aromatik atsetilen spirtlarining molekulasining tuzilishi, ulardagi o'rinbosarlar va funksional guruhlarining tabiati hamda holatga ko'ra karbon kislotalar bilan eterifikatsiya reaksiyasining selktivligi 18 < 20 < 19 < 17 < 10 < 12 < 11 < 9 < 14 < 16 < 15 < 13 < 12 < 6 < 8 < 7 < 5 < 26 < 28 < 27 < 25 < 22 < 24 < 23 < 21 < 2 < 4 < 3 < 1 qatori bo'yicha ortib borishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matthew N. Pennell Gold Catalysed Reactions of Propargylic Alcohols / In partial fulfillment of the requirements for the award of the degree of Doctor of Philosophy, London, 2017, 234 p.
2. Xian-Rong Song, Ruchun Yang, Qiang Xiao Recent Advances in the Synthesis of Heterocyclics via Cascade Cyclization of Propargylic Alcohols // *Advanced Synthesis & Catalysis*, 2020. Volume 4, pp. 363-368.
3. Rashmi Roya and Satyajit Saha Scope and advances in the catalytic propargylic substitution reaction // *The Royal Society of Chemistry*, 2018. Volume 8. pp. 31129-31193.
4. Wen-Ya Lu, Yong You, Ting-Ting Li, Zhen-Hua Wang, Jian-Qiang Zhao, Wei-Cheng Yuan Cu-Catalyzed Decarboxylative Thiolation of Propargylic Cyclic Carbonates/Carbamates to Access Allenyl Thioethers // *Journal Organic Chemistry*, 2021. Volume 9. pp. 6711-6720.
5. M.G.Veliev, O.A.Sadygov, N.A.Mamedova, S.A.Mustafaev Esterification of Petroleum Naphthenic Acids with Acetylenic Alcohols // *Petroleum Chemistry*, 2009. Volume 49, No. 3, pp. 229-234.
6. Y. Zhao, Z. Yang, B. Yu, H. Zhang, H. Xu, L. Hao, B. Han, Z. Liu. Task-specific ionic liquid and CO₂-cocatalysed efficient hydration of propargylic alcohols to α -hydroxy ketones // *Chemical Science Journal*, 2015. Volume 6, pp. 2297-2301.
7. Zhen Zhang, Long Shi, Chuang Liu, Tong Yang, Yan-Bo Wang Sequential carboxylation/intramolecular cyclization reaction of *o*-alkynyl acetophenone with CO₂ // *Organic Chemistry Frontiers*, 2014. Volume 1, pp. 275-289.

8. Doa F. Alkhaleeli, Kevin J. Baum, Jordan M. Rabus, Eike B. Bauer Etherification reactions of propargylic alcohols catalyzed by a cationic ruthenium allenylidene complex // Catalysis Communications, 2014. Volume 47, pp. 45-48.
9. Katsuki Ohta, Eri Koketsu, Yuya Nagase, Nami Takahashi, Hiroyasu Watanabe, Mitsuhiko Yoshimatsu Lewis Acid-Catalyzed Propargylic Etherification and Sulfanylation from Alcohols in MeNO₂-H₂O // Chemical & Pharmaceutical Bulletin, 2011. Volume 59, pp. 1133-1140.
10. Ziyadullaev O.E., Yusupova L.A. Aromatik asetilen spirtlarining to'yinmagan karbon kislotalar bilan eterifikatsiya reaksiyasi // Kimyo va kimyo texnologiyasi, 2013, № 2. 26-30 b.
11. Ziyadullaev O.E. Synthesis of Aromatic Acetylenic Alcohols and their Vinyl Esters // International Journal of Chemical and Physical Sciences, 2015. Volume 4, pp. 1-8.

**AZOTLI ORGANIK BIRIKMALAR VA TETRAETOKSISILANNING O'ZARO
REAKSIYALARINI O'RGANISH**
**ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОРГАНИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ АЗОТА С
ТЕТРАЭТОКСИСИЛАНОМ**
**STUDY OF INTERACTIONS OF ORGANIC NITROGEN COMPOUNDS AND
TETRAETHOXYSILANE**

Eshmurodov Xurshid Esanberdiyevich-Termiz davlat universiteti dotsent.
To'rayev Xayit Xudaynazarovich -Termiz davlat universiteti
k.f.d., prof

Abdullayeva Maxliyo Jo'ra qizi - Termiz davlat universiteti magistranti
Xodjayev Akbarali Axmedovich- Termiz davlatuniversiteti magistranti

Ruziboyeva Guzal Sultonaliyevna - Termiz davlatuniversiteti magistranti
Kuldasheva Shaxnoza Abdulazizovna - bosh ilmiy xodim, k.f.d., prof., O'zFA Umumiy va
noorganik kimyo instituti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida tetraetoksilan va monoetanolamin asosida kremniy va azotni o'z ichiga olgan sopolimerlarni sintez qilish, ularning xususiyatlarini o'rganish va ulardan foydalanish bo'yicha natijalar keltirilgan. Olingan sopolimerlarning tarkibi IQ-spektrda o'rganildi va ular modifikator sifatida karbamid-formaldegid smolasi asosidagi elimga qo'shib qamish qirindili plitalar tayyorlangan. Tayyor plitalarning fizik-mexanik, suvni singdirish va ollovga chidamlilik xususiyatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Monoetanolamin, tetraetoksilan, sopolimer, suv hamomi, karbamid-formaldegid smolasi, qamish pilita, indikator, IQ-spektroskopiya tahlili.

Аннотация. В данной работе проводились исследования по синтезу кремний- и азотсодержащих сополимеров на основе тетраэтоксилана и моноэтаноламина, их свойствам и применению. Состав полученных сополимеров проверяли по ИК-спектру и путем добавления клея на основе карбамидоформальдегидной смолы в качестве модификатора готовили тростниковую стружку. Исследованы физико-механические, водопоглощающие и огнестойкие характеристики готовых плит.

Ключевые слова: Моноэтаноламин, тетраэтоксилан, сополимер, водяная баня, карбамидоформальдегидная смола, тростниковая пластина, индикатор, ИК-спектроскопический анализ.

Annotation. This article presents the results of synthesis of copolymers containing silicon and nitrogen based on tetraethoxylan and monoethanolamine, studying their properties and using them. The composition of the obtained copolymers was checked by IR spectrum, and cane shavings were prepared by adding an adhesive based on urea-formaldehyde resin as a modifier. The physical-mechanical, water-absorbing and fire-resistant characteristics of finished boards have been studied.

Keywords: Monoethanolamine, tetraethoxysilane, copolymer, water bath, urea-formaldehyde resin, cane plate, indicator, IR spectroscopic analysis.

Kirish. Kremniy organik birikmalarni sintez qilishdagi yutuqlardan biri olingan polimer mahsulotlari va ular asosidagi materiallarning qimmatli xossalari ularni ishlab chiqarish va xalq xo'jaligining ko'plab tarmoqlarida qo'llashning jadal rivojlanishiga xizmat qildi. Organokremniy birikmalari issiqlikka chidamli, yuqori sifatli elektr izolyasiyalangan materiallar, kabellar, generatorlar, elektr mashinalari va boshqa elektr jihozlarini ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi [1-2].

Azotli kremniy-organik birikmalar uzoq vaqtdan beri olimlarning e'tiborini tortdi. [3-6]

Gidrid- va organoklorosilanlarni "to'g'ridan-to'g'ri sintezi" dan farqli o'laroq, Si-O va Si ni o'z ichiga olgan birikmalarni "to'g'ridan-to'g'ri sintezi" jarayonlarining fizik-kimyoviy asoslari (adsorbsiya, kinetika va boshqalar). -N obligatsiyalari hali ham etarlicha o'rganilmagan [7].

Elektrotexnika sohasida kremniyorganik birikmalardan foydalanish mashina va asbob-uskunalarining ishonchligini keskin oshirish, ularning og'irligini kamaytirish, materiallar sarfini kamaytirish imkonini beradi va yangi, ilg'or elektr mashinalari, apparatlari va boshqalarni yaratish imkoniyatini oshiradi. -60 dan +550°C gacha bo'lgan haroratlarda ishlashga imkon beruvchi, metallar uchun issiqlikka chidamli korroziyaga qarshi qoplamalar sifatida, sovuqqa va issiqqa chidamli plastmassalar, qatlamli dielektriklarni ishlab chiqarish uchun katta ahamiyatga ega [8].

Kremniyorganik birikmalarni modifikator sifatida ishlatish, kremniyning bog'lanish energiyasi 432 kJ/mol bo'lgan energetik jihatdan barqaror polisiloksan

bog'lanishlarini hosil qilish xususiyati bilan bog'liq.

Poliorganosiloksanlarning ko'rsatilgan xususiyatlari ma'lum tarkib va tuzilishdagi ikkala o'zaro bog'langan uch o'lchovli polimer matritsalarini, shuningdek, uglerod zanjiri va geterozanjirli polimerlar bilan reaksiyasi paytida tarmoqlangan sopolimerlar hosil bo'lishini ta'minlaydi [9-10].

Ushbu tadqiqot ishida monoetanolin va tetraetoksisilan asosida modifikator sintez qilindi va karbamid-formaldegid smolasini qo'shib qamishli plitalar uchun kley sifatida qollanildi. Ularning tarkib va xususiyatlari o'rganildi. Olingan smolaning IQ-spektroskopiya tahlili usullarida tadqiq qilindi.

Tadqiqotning maqsadi tetraetoksilan va azotni o'z ichiga olgan organik monomerlar asosida yangi modifikatorlar olish va ularni yog'och polimer kompozitlarida qo'llash orqali ularning fizik-mexanik, suvni singdirish va yonuvchanlik xususiyatlarini yaxshilash.


Tadqiqot usuli va vositalari. Ushbu tadqiqot ishida tetraetoksisilan va monoetanolin asosidagi modifikator, karbamid-formaldegid smolasi va maydalangan qamish ishlatilgan. Olingan yog'och kompozit plitalar namunalarning fizik-kimyoviy, suvni sindirish va yonuvchanlik xususiyatlari o'rganilgan, IQ-spektroskopiya va taqqoslash usullari tahlil qilingan.

Tetraetoksisilan - o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik, molyar massasi 208,33, suyuqlanish harorati 82°C, qaynash harorati 169°C; inert organik erituvchilarda eriydi. Alkoksilanlarga xos kimyoviy xossalarga ega.

IQ-spektroskopiya – ushbu tadqiqot ishi natijalari "RTracer-100" spektrofotometrida olingan tahlil

natijasidan foydalanildi. Ushbu tahlilda nurlanish moddadan o'tkazilganda molekularning tebranish harakatlari yoki ularning alohida qismlari uyg'onadi. Bunday holda, namuna orqali uzatiladigan yorug'lik intensivligining zaiflashishi kuzatiladi. Biroq, yutilish tushayotgan nurlanishning butun spektrida emas, balki energiyasi o'rganilayotgan molekularidagi tebranishlarni qo'zg'atish energiyasiga to'g'ri keladigan to'lqin uzunliklarida sodir bo'ladi.

Tajribaviy qism. Tetraetoksisilan va monoetanolamin asosidagi modifikatorni olish uchun asosan suv hamomi, aralashtirgich nay, issiqlikka bardoshli kolba va olchov stakani kerak bo'ladi. Dastlab o'lchov stakaniga 10 ml tetraetoksisilan o'lchab olindi. so'ngra unga 20 ml monoetanolamin qo'shiladi. Tayyor bo'lgan eritma 70-80° C da suv hamomida 2 soat davomida qizdiriladi. Reaksiya natijasida etil spirti ajralib chiqadi. Etil spirti nay orqali ajratib olinadi.




Jarayon unumi 90% ni tashkil etdi.

1-rasm. Reaksiya mahsulotining IQ- spekteri.

Olingan mahsulotning fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganildi. IQ-spektroskopiya usuli va taqqoslash usulida tahlil qilindi.

Olingan yangi mahsulotning IQ-spektrlarida –C-H guruhga tegishli bo'lgan yutilish chastotalari 2868,15 sm^{-1} sohada kuzatildi. 1541,12 sm^{-1} sohada N-H guruhga tegishli bo'lgan yutilish chastotalari mavjud. 1363,67 sm^{-1} sohada –C-N 1022,27 sm^{-1} sohada –C-O guruhga tegishli bo'lgan yutilish chastotalariga tegishli ekanligi qayd etilgan.

Hosil bo'lgan mahsulotni kimyoviy formulasi quydagicha bo'ladi.




Olingan mahsulot oq rangli gelsimon polimer ko'rinishida bo'lib uning muhiti lakmus qog'ozi yordamida o'rganildi.

Bunda muhit kuchsiz ishqoriy ekanligini aniqlandi.

Olingan modifikator yordamida elim tayyorlash uchun kolbaga 307,5 g 36,9% (pH=3,6) formalin va 12,6 g 26,9% li ammiak eritmasi qo'shiladi. 10 daqiqa aralashtirishdan keyin 180 g karbamid qo'shiladi va karbamid to'liq eriguncha (pH = 9,1) yana 20 daqiqa aralashtiriladi. Aralashtirganda eritmani 80-90°C haroratda yana 1,5 soat qizdiriladi so'ngra silikat modulining zichligi 1,08 ($r = 1,474 \text{ g/sm}^3$) bo'lgan natriy silikatning 7,5 g suvli eritmasi qo'shildi. Reaksiya aralashmasi (pH = 8,2) aralashtirish paytida 70°C ga sovitiladi. Keyin 27 g modifikator va yana 36 g karbamid qo'shildi va aralashma 40 daqiqa davomida 60-65°C da saqlanadi. Keyin u 30 ° C haroratgacha sovitiladi.

Tayyorlangan elimning IQ-spektri quyidagicha bo'ladi.



2-rasm. Tayyorlangan elimning IQ-spektri

Olingan yangi mahsulotning IQ-spektrlarida –N-H guruhga tegishli bo'lgan yutilish chastotalari $3332,99 \text{ cm}^{-1}$ sohada kuzatiladi. $1622,19 \text{ cm}^{-1}$ sohada O-H guruhiga tegishli bo'lgan yutilish chastotalari mavjud. $1134,14 \text{ cm}^{-1}$ sohada –C-N, $1242,16 \text{ cm}^{-1}$ sohada –C-O-, $775,38 \text{ cm}^{-1}$ sohada –C-H guruhga tegishli bo'lgan yutilish chastotalariga tegishli ekanligi qayd etilgan.

Tayyorlangan elim va ezilgan qamishdan $150 \times 150 \text{ mm}$, 16 mm qalinlikdagi taxta tayyorlandi va sinovdan o'tkazildi. Plastinka termopressda 8 daqiqa davomida 2 MPa bosim ostida, 180° S da tayyorlangan. Tayyorlangan plitaning zichligi 850 kg / m^3 .

Olingan plitalar namunalarning fizik-mexanik xususiyatlari GOST 10634-78, GOST 10635-78, GOST 10636-78 bo'yicha aniqlandi. Yonuvchanlik "Olovli quvur" usuli bo'yicha yonishdagi massa yo'qolishi asosida, suvni yutish va o'tkazuvchanlik qalinligining foizi sifatida aniqlandi..

Namunalarning mustahkamligini aniqlash uchun ularning perpendikulyar kuchlanishga chidamliligi 24 soat davomida sovuq suvda namlangandan keyin sinovdan o'tkazildi. Modifikatorning miqdori elim massasiga nisbatan 5 %

bo'lganda uning fizik-kimyoviy xossalari eng optimal bo'ladi.

Xulosa. Monoetanolamin va tetraetoksisilanning o'zaro reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan modifikator yangi turdagi elim tayyorlashda qo'llash iqtisodiy samaraga egaligi aniqlandi. Bundan tashqari modifikator qilingan elimdan tayyorlangan plitalar fenol-formaldegid va karbamid-farmaldegidan olingan elimdan qolishmaydi. Eng muhimi inson organizmi uchun zararli mahsulotlar ajralib chiqarmaydi. Mustahkamligi, suv va ollovbardoshlik xususiyatlarini oshiradi. Bunday plitalardan foydalanish ham samarali ham iqtisodiy jihatdan foydalidir.

Olingan kremniy organik birikma va suyuq shishadan har xil nisbatlarda foydalanish olingan mahsulotning mustahkamligi turlicha bo'lishiga olib keladi. Kremniyorganik birikmalardan foydalanishda elimning massasiga nisbatan 20% qo'llanilsa eng samarali modifikator olinadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib shuni takidlash mumkinki, ekologik xavfsiz yog'och qirindilaridan plitalar ishlab chiqish uchun kremniyorganik birikmalardan foydalanish kelajakda bu sohani rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Докучаев А. А. Синтез и химические превращения кремнийорганических соединений с фрагментами Si-N и Si-C-N: Автореф. дис. канд. хим. наук.- М., ГНИИХТЭОС, 1999.- 24 с.
2. Гаврилова А. В., Коробова Е. А., Белова Л. О., Кирилин А. Д. // Международная научно-техническая конференция «Наука и образование-2007»: Тез. док.- Мурманск.- 2007.- С. 413-416.
3. Лосев В.Б. Кремнийорганические амины // Химическая промышленность за рубежом. 1967.- № 8.- С. 17-30.
4. Лукевич Э. Я., Либерт Н. И., Воронков М. Г. Кремнийорганические производные аминоспиртов // Успехи химии.- 1970.- Т. 39.- № 11.- С. 2005-2024.
5. Эйлет В. Д. Соединения содержащие кремний и азот / Синтез неорганических соединений.- Т. 2.- М.: Мир, 1967.- С. 140-192.
6. Козюков В. П. Получение, свойства и применение в органическом синтезе азотсодержащих соединений кремния: Автореф. дис. докт. хим. наук.- М., ГНИИХТЭОС, 1986.- 54 с.
7. Горбунов, А. И. Каталитические процессы прямого синтеза мономерных соединений кремния / А.И. Горбунов // Катализ в промышл. – 2001. – № 1. – С. 32–38
8. Демидова В.М. Применение и основы получения кремнийорганических полимеров “Молодой учёный”. № 26 (264) . Июнь 2019 г.
9. Eshmurodov X.E., Toʻrayev X.X., Djililov A.T., Geldiev Yu.A. “Kremniyorganik birikmalar bilan modifikasiyalangan smolalar olish” “Actual problems of modern science and innovation in the Central Asian region” xalqaro konferensiya materiallari. Jizzax. 2020. 31-bet.
10. Eshmurodov X.E., Toʻrayev X.X., Geldiev Yu.A. “Kremniy saqlovchi sopolimerlar sintezi va tadqiqoti” International scientific and technical conference of the theme: “Innovative issues in the field of technical and technological sciences” Termez 2020. 214-bet

**NEFTLARNI SUVSIZLANTIRISH VA TUZSIZLANTIRISH UCHUN
DEEMULGATORLAR KOMPOZITSIYASI VA ULTRATOVUSHNING TA’SIRI
СОСТАВ ДЕЭМУЛЬГАТОРОВ ДЛЯ ОБЕЗВОЖИВАНИЯ И ОБЕССОЛИВАНИЯ
НЕФТИ И ВОЗДЕЙСТВИЯ УЛЬТРАЗВУКА.
COMPOSITION OF DEMULSIFIERS FOR OIL DEHYDRATION AND DESALTING
AND ULTRASOUND EXPOSURE**

Eshmetov Rasulbek Jumyazovich – yetakchi ilmiy xodim, t.f.d.
Salixanova Dilnoza Saidakbarovna – bosh ilmiy xodim, t.f.d., prof.
Muratov Mirtoxir Mirxalil oʻgʻli – magistr.
*Oʻz R FA Umumiy va noorganik kimyo instituti
OʻzMU kimyo fakulteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy xomashyolardan sintez qilingan deemulgator kompozitsiyalarining taʼsiri va deemulgirlash jarayoni jadallashtirish maqsadida ultratovush tebranishlari (UTT) turgʻun suvneft emulsiyalarini parchalashga taʼsiri oʻrganilgan. Aniqlanishicha, ultratovush taʼsirining (UTT) turgʻun suv neft emulsiyalariga SNE taʼsir ettirishda qarama-qarshi ultratovush taʼsiri eng samaralisi boʻlib, unda suv globulalariga kavitatsiya effektini ikki barobar oshiradi. Bunda ultratovushning turgʻun SNE suvli neft emulsiyasiga taʼsir ettirishning eng maqbul chastotasi, yaʼni 15-20 mGs, deemulgator sarfi 100 g/t boʻlib, bunda qoldiq suvning eng kam miqdoriga ($0,10 \pm 0,12$ %) va mineral tuzlarning (72 ± 80 mg/dm³) tushishiga erishilgan.

Kalit so'zlar: deemulgator, glitserin, cuvneftli emulsiya, parafin, mineral tuzlar, ultratovush, suvsizlantirish, tuzsizlantirish

Аннотация. В данной статье изучено влияние композиций синтезированных на основе местного сырья и ультразвуковых колебаний (УК) интенсифицирующий процесс деэмульгирования. Установлено, что из рассмотренных схем воздействия ультразвука на устойчивые ВНЭ наиболее эффективным считается противоточное УЗВ, которое удваивает влияние эффекта кавитации на глобулы воды. При этом наиболее рациональной частотой УЗВ на устойчивую ВНЭ является 15-20 мГц, а расход деэмульгатора 100 г/т, где достигаются наименьшие значения по остаточному количеству воды (0,10÷0,12 %) и минеральных солей (72÷80 мг/дм³).

Ключевые слова: Водонефтяная эмульсия, парафин, минеральный соль, ультразвук, обезвоживание, обессоливание, глицерин, деэмульгатор.

Annotation. This article is about the study of the effect of compositions synthesized based on local raw materials and ultrasonic vibrations (AC), intensifying the process of demulsification. It has been established that of the considered schemes of ultrasound action on stable VNEs, the most effective is counter-current USI, which doubles the effect of cavitation on water globules. In this case, the most rational frequency of recirculation for a stable VNE is 15-20 MHz, and the consumption of demulsifier is 100 g/t, where the lowest values of the residual amount of water (0.10 ÷ 0.12%) and mineral salts (72 ÷ 80 mg/dm³).

Keywords: Water-in-oil emulsion, paraffin, mineral salt, ultrasound, dehydration, desalting, glycerin, demulsifier.

Konlardan neftlarni quduqlar yordamida qazib chiqarish jarayonida, ular qatlam suvlari bilan aralashadi va suvneftli emulsiya (SNE) yoki neftsuvli emulsiyalarni (NSE) hosil qiladi. Emulsiyaning turg'unlik darajasi asosan neft tarkibidagi tabiiy sirt faol moddalar (SFM), parafin, asfalten, smola, mexnik aralashmalar, quduqlarni texnologik parametrlari va ishlatish usuliga bog'liq. Bundan tashqari neft tarkibida qatlam suvlari bilan birgalikda turli xil tuzlar ham mavjud bo'ladi, bu tuzlardan tozalash maqsadida neftlar chuchuk suv yordamida yuviladi. Quduqlardan qazib olingan neftlarning tarkibidagi qatlam suvlarining ma'lum bir qismi erkin holatda bo'lib, bu suvlar neftni tindirish yoki qizdirish orqali ajratib olinadi. Ammo hosil bo'lgan suvning neftdagi teskari emulsiyasi juda barqaror bo'ladi, chunki neft tarkibidagi qatronlar, naften kislotalari, parafin, yog' kislotalari va mexanik zarrachalar tabiiy emulgator vazifasini bajaradi. Shu sababli, yangi qazib olingan neft tashish hamda qayta ishlashga jo'natishdan oldin konlarda hamda keyinchalik neftni qayta ishlash

zavodlarida suvsizlantiriladi va shu bilan birga suvda eruvchan tuzlardan tozalash maqsadida tuzsizlantiriladi [1].

Hozirgi paytda Respublikamizda qazib olinayotgan neftlarni deemulgirlash uchun asosan chet davlatlardan import qilinayotgan deemulgatorlar ishlatiladi. Ular qatorida Dissolvan-4411, K-1, Diproksamin-157 va boshqalar kiradi.

Mahalliy ishlab chiqarish chiqindilari va ikkilamchi xom ashyolari asosida import o'rnini bosuvchi deemulgatorlar olish mumkin, chunki ular faol funksional guruhlarni saqlashi sababli, ular asosida olingan mahsulotlar sirt-faollik xossasini namoyon qilib, deemulgatorlik funksiyasini bajarishi mumkin.

Tadqiqot usullari va ob'ekt. Glitserin og'ir metallar oksidlari bilan reaksiyaga kirishib glitseratlar hosil qiladi, ya'ni glitserinning kislotali xossasi bir atomli spirtlarga nisbatan kuchliroq namoyon bo'ladi. Shunga o'xshash dietilenglikol, monoetanolamin, geksametilentetramin (GMTA), dietanolamin va boshqalar yaxshi reaksiyaga kirishish xususiyatini namoyon qilishi mumkin. Bundan tashkari

yog'-moy korxonalaridan chiqadigan paxta soapstoklarini ham keltirishimiz mumkin.

Natijalar va ularni muhokama qilish. Shularni inobatga olgan holda, glitserin hamda GMTA o'rtasida reaksiyalarni 5:1, 3:1, 1:1 nisbatida, harorat 120, 130, 140 °S, vaqtini 2, 3, 4 soat davomida reaksiya olib bordik. Reaksiyaning maqbul sharoiti sifatida reaksiya nisbatini 5:1, harorati 140 °S, vaqtini 2 soat qilib olindi. Sintez qilingan moddani GD-1 deb nomladik. GD-1 ning kolloid kimyoviy va deemulgirlik xossalarini o'rganildi. GD-1 ning deemulgirlik xossasini yanada kuchaytirish maqsadida sovunlantirilgan paxta soapstoki (SPS) bilan kompozitsiya qilindi. Buning uchun dastlab yog'-moy korxonada ikkilamchi xomashyosi bo'lgan paxta

soapstokini natriy ishqorining 5 % eritmasi bilan sovunlantirish jarayonini amalga oshirildi [4-5].

GD-1 va SPS ni 1:1, 1:2, 1:3 nisbatlarida kompozitsiyalar olindi. Kompozitsiya qilishimizdan maqsad deemulgator neftlarning tarkibidagi suvneft emulsiyalarni parchalasa, SPS neftlarning tarkibidagi mexanik aralashmalarni cho'ktirishga yordam beradi [2].

Kompozitsiyalarni ta'sirini o'rganish maqsadida deemulgatorning miqdorini avvalgi aniqlangan [6] 1 tona neftga 100 g. colib, vaqt birligi davomida 60 °S haroratda emulsiyadan ajralib chiqqan suvning miqdori aniqlandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval-1

60°S haroratda emulsiyadan ajralib chiqqan suvning miqdoriga vaqtning ta'siri, ml


| № | Kompozitsiyalar nomi | vaqt, min. | | | | | | | | |
|-------------|----------------------|------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| | | 5 | 10 | 15 | 20 | 25 | 30 | 60 | 90 | 120 |
| Ko'kdumaloq | | | | | | | | | | |
| 1 | GD-1:SPS (1:3) | 1,2 | 2,5 | 4,0 | 5,0 | 6,5 | 7,0 | 7,8 | 8,6 | 9,0 |
| 2 | GD-1:SPS (1:2) | 1,5 | 2,5 | 4,5 | 6,0 | 7,0 | 7,5 | 8,0 | 8,4 | 9,0 |
| 3 | GD-1:SPS (1:1) | 1,6 | 3,0 | 5,5 | 7,5 | 8,2 | 8,8 | 9,0 | 9,2 | 9,5 |
| 4 | Dissolvan-4411 | 1,6 | 3,1 | 5,4 | 7,7 | 8,4 | 9,0 | 9,2 | 9,5 | 9,7 |
| Jarqo'rg'on | | | | | | | | | | |
| 1 | GD-1:SPS (1:3) | 0,5 | 1,0 | 1,5 | 2,2 | 3,5 | 4,2 | 6,5 | 7,4 | 8,2 |
| 2 | GD-1:SPS (1:2) | 1,0 | 2,2 | 4,0 | 5,5 | 6,2 | 7,1 | 7,8 | 8,1 | 8,6 |
| 3 | GD-1:SPS (1:1) | 1,2 | 2,5 | 4,5 | 6,3 | 7,1 | 7,5 | 8,2 | 8,8 | 9,3 |
| 4 | Dissolvan-4411 | 1,3 | 3,0 | 4,6 | 6,7 | 7,4 | 8,1 | 8,5 | 9,1 | 9,6 |

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, GD-1:SPS (1:1) kompozitsiyasi neftlarni suvsizlantirishdagi eng samarasi ekanligi va Dissolvan-4411 deemulgator natijalariga ancha yaqin ekanligi aniqlandi. Shu sababli, SNE suvsizlantirish va tuzsizlantirish uchun import o'rnini bosuvchi GD-1:SPS (1:1) kompozitsiyalarni qo'llash imkoniyati asoslandi.

Yuqori qovushqoqlikka ega bo'lgan suvneftli emulsiyalarni suvsizlantirish va tuzsizlantirish jarayoni uzoq vaqt

sarflanishi va jarayonni jadallashtirish maqsadida ultratovush ta'sir (UTT) ettirish mumkin. Chunki ultratovush emulsiyalarni parchalashi yoki emulsiya hosil qilishi mumkin. Shularni inobatga olgan holda SNElarga kompozitsiyalar va ultratovushning ta'sirini qo'llashga maqsad qildik [3].


Kompozitsiyalarga ultratovushning har xil kGs larda ta'sir ettirildi. Dastlab Ko'kdumaloq neftining SNE larga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-Rasm. Ko'kdumaloq neftining SNE lariga kompozitsion deemulgatorlar va UTT 1- GD-1:SPS (1:1), 2- GD-1:SPS (1:2), 3-GD-1:SPS (1:3)

Olingan natijalarda asosida UTT chasotasi 15 kGs va deemulgatorning sarfi 100 gr bo'lganda suv ko'p miqdorda ajralgani ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari yuqori qovushqoqlikka ega bo'lgan Djarqo'rg'on neftiga UTT o'rgandik. Olingan natijalar 2-rasmda keltirilgan.



2-Rasm. Djarqurg'on neftining SNE lariga kompozitsion deemulgatorlar va UTT 1- GD-1:SPS (1:1), 2- GD-1:SPS (1:2), 3-GD-1:SPS (1:3)

Keltirilgan natijalardan xulosa qilib, Djarqo'rg'on neftida UTT 20 kGs bo'lganda ko'p miqdorda suv ajralganligini ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib, Kokdumaloq va Djarqo'rg'on neftlarining SNE lariga deemulgatorning

sarfi 100 gr/t va UTT Kokdumaloq konlari neftlari tarkibida barqaror emulsiya hosil qiladigan asfalten, parafin va smolalar miqdori kamligi uchun 15 kGs, Djarqo'rg'on konlari neftlari yuqori qovushqoqlikka ega bo'lganligi uchun esa

20 kGs etarli ekanligi va bunda neft | darajagacha kamayganligini ko'rishimiz
tarkibidagi suv va tuz miqdorini minimal | mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Земенков Ю.Д., Маркова Л.М., Прохоров А.Д., Дудин С.М. Сбор и подготовка нефти и газа. Учеб. ВУЗов. М.: Академия, 2009. – 160 с.
2. Р.Ж. Эшметов., Д.С. Салиханова. «Вероятный механизм разрушения водонефтяной эмульсии при совместном использовании композиции деэмульгаторов и ультразвукового воздействия» UNIVERSUM: Химия и биология: электрон научный журнал. - Россия, 2018. - № 2(44).
3. Практикум и задачи по коллоидной химии. Поверхностные явления и дисперсные системы: учебное пособие / под ред. Назарова В.В., Горского А.С.-М.: Академия, 2007-374 с.
4. R.J. Eshmetov. Mahalliy ishlab chiqarish yarim mahsulotlari asosida import o'rnini bosuvchi deemulgatorlar olish O'zbekiston kimyo jurnali «Специальный выпуск» Ташкент., 2011. С. 245-248.
5. R.J. Eshmetov. A.A.Alimov, S.S.Xamrayev Deemulgirovaniye vodoneftyanых emulsiy kompozitsiyey polielektrolit-poverxnostno-aktivnoye veshchestvo O'zbekiston kimyo jurnali 2012. №2 Tashkent., S. 10-12.
6. R.J. Eshmetov, F.M.Yusupov, G'.B.Bekturdiyev, A.A.Alimov, S.S.Xamrayev Import o'rnini bosuvchi noinogen neft deemulgatorning sintezi va xossalari O'zbekiston kimyo jurnali 2013. №5 Tashkent., S. 12-14.

FARG'ONA NEFTIDAN DIZEL YONILG'I FRAKSIYASINI OKSIDLANISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRILGAN SINTETIK KISLOTALAR TARKIBI.

СОСТАВ СИНТЕТИЧЕСКИХ КИСЛОТ, ПОЛУЧАЕМЫХ В ПРОЦЕССЕ ОКИСЛЕНИЯ ДИЗЕЛЬНОЙ ТОПЛИВНОЙ ФРАКЦИИ ИЗ ФЕРГАНСКОЙ НЕФТИ.

COMPOSITION OF SYNTHETIC ACIDS PRODUCED IN THE PROCESS OF OXIDATION OF DIESEL FUEL FRACTION FROM FERGANSK OIL.

Ismoilov Mo'minjon Yusupovich- Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedراسи dotsenti,
Maxmudov Boburjon Omonjonovich-Farg'ona davlat universiteti kimyo yo'nalishi
magistranti,
Abdusattorova Zulayxo Abduqunduz qizi-Farg'ona davlat universiteti kimyo yo'nalishi
magistranti.

Annotatsiya: Maqolada sintetik naften kislota (SNK-D) ni olingan, infraqizil spektri yordamida ularni tarkibini tahlil qilingan, aralashmalardan tozalangan, oksikislotalar izooktan bilan cho'ktirilgan, fizik kimyoviy xossalari ni o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqotlar natijasida, 50 °C yuqori qaynayotgan SNK-D (2) kislotalarda alifatik kislotalar miqdori 40% gacha, monosiklik kislotalar 10% gacha kamayishi, ammo bisiklik va trisiklik kislotalarning miqdori ortishi, agar SNK-D(1) da 64% monotsiklik naften kislotalar, 28% bisiklik bo'lsa va 8% trisiklik kislotalar, keyin SNK-D(2) da bisiklik va trisiklik kislotalarning ulushi mos ravishda 50 va 28% ni tashkil qilishi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Sintetik naften kislota, fraksiya, oksikislota, izooktan, sovunlanmaydigan, kalonkali xromatografiya, monosiklik, bisiklik, trisiklik, tetrasiklik, pentasiklik naften kislota, aromatik.

Аннотация: В статье получена синтетическая нафтенная кислота (СНК-Д), проанализирован ее состав с помощью инфракрасного спектра, проведена ее очистка от примесей, осаждение оксикислот изооктаном, изучены ее физико-химические свойства. Также в результате исследований количество алифатических кислот в СНК-Д (2) снижается до 40%, моноциклических кислот до 10%, а количество бициклических и трициклических кислот увеличивается, если в СНК-Д(1) нафтенных кислот 64 % моноциклических, а в СНК-Д(2) 28 %

бициклических и 8 % трициклических кислот, то изучено процентное содержание бициклических и трициклических кислот в СНК-Д(2) 50 и 28 % , соответственно.

Ключевые слова: Синтетическая нафтенная кислота, фракция, оксикислота, изооктан, неомыляемый, колоночная хроматография, моноциклическая, бициклическая, трициклическая, тетрациклическая, пентациклическая нафтенная кислота, ароматическая.

Abstract: Synthetic naphthenic acid (SNK-D) was obtained, its composition was analyzed using the infrared spectrum, it was purified from impurities, precipitation of hydroxy acids with isooctane, and its physicochemical properties were studied in this article. Also, as a result of the research it has been identified that, the amount of aliphatic acids in SNK-D (2) is reduced to 40%, monocyclic acids to 10%, and the amount of bicyclic and tricyclic acids increases if in SNK-D (1) naphthenic acids are 64% monocyclic, and in SNK -D(2) 28% bicyclic and 8% tricyclic acids, then the percentage content of bicyclic and tricyclic acids in SNK-D(2) was 50 and 28%.

Key words: Synthetic naphthenic acid, fraction, hydroxy acid, isooctane, unsaponifiable, column chromatography, monocyclic, bicyclic, tricyclic, tetracyclic, pentacyclic naphthenic acid, aromatic.

Kirish. Sintetik naften kislota (SNK-D) ni olish uchun 60-65%, naftenik - 26-30% va aromatik - 5-10% miqdorida kerosin uglevodorodlarini o'z ichiga olgan 220-360 °C gacha bo'lgan fraksiya tanlangan. Dizel yoqilg'isi distillati 140-145°C haroratda bir xil katalizator ishtirokida atmosfera kislorodi bilan oksidlanishga uchraydi. Olingan mahsulotda karbon kislotalarning miqdori 8%, oksikislotalar - 22%, sovunlanmaydigan komponentlar - 10%.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Sintetik kislotalarning tarkibini o'rganishdan oldin ular aralashmalardan tozalanadi, oksikislotalar izooktan bilan [110] usulda cho'ktirildi, so'ngra sentrifugalash yo'li bilan cho'ktiriladi, buning uchun 1 g oksidat qaynayotgan 300 sm³ izooktandagi eritildi. Namuna 1 soat tinch qoldirilib, 5 daqiqa sentrifuga qilindi. So'ngra karbon kislota tutgan sentrifugat dekantatsiya qilindi. Cho'kma 3 marta izooktan bilan yuvilib, sentrifugat suyuq fazadan ajratildi. Har safar suyuqlik fazasi asosiy sentrifugatga qo'shilganda, tarkibida sintetik karbon kislotalar va sovunlanmaydigan komponentlarning izooktandagi eritmasi bilan ta'sirlashadi.

Izooktan chiqarilgandan so'ng, sintetik kislotalar Spitz va Honig usulida o'yuvchi kaliy va silikagelli kalonkali xromatografiya

bilan sovunlanmaydigan komponentlardan tozalandi.

Tozalangan sintetik kislotalar quyidagi xususiyatlarga nomoyon qildi:

kislota soni - 261,3 mg KOH / g, sovunlanmaydigan tarkib - 0,5% massa, solishtirma og'irlik, $^{20}_4d = 0,9877$, sindirish ko'rsatkichi, $^{20}_D n = 1,4610$, sintetik kislotalar tarkibidagi sovunlanmaydigan komponentlar miqdori α -bromonaftalinning sinishini o'zgartirish orqali ekspress usuli bilan aniqlandi [145]. Usulning mohiyati α -bromonaftalin yordamida ilgari sovunlangan kislotalar aralashmasidan sovunlanmaydigan moddalarni olishdir. Ekstraksiyadan oldin va keyin α -bromonaftalinning sinish ko'rsatkichini o'zgartirish orqali sovunlanmaydigan moddalar miqdori aniqlanadi.


Karboksil guruhining mavjudligini tasdiqlash uchun - izolyatsiya qilingan SNK-D da 900-3400 sm⁻¹ sohada IQ spektri olindi, (1-rasm). 2940, 2870 va 1468 sm⁻¹ sohada metil va metilen guruhlaridagi C-H bog'iga cho'zilgan tebranishlarini bildiradi. 1715 va 945 sm⁻¹ sohadagi yutilish zonolari karboksil guruhining C=O va OH bog'lanishlarining cho'zilgan tebranishlari bilan bog'liq, 1190 sm⁻¹ chastotali soha COOH guruhining mavjudligini ko'rsatadi. Chastotasi 1250 sm⁻¹ bo'lgan sohada kislotalarda olti a'zoli naftenik halqa borligini ko'rsatadi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA. Izolyatsiya qilingan sintetik kislotalar SNK-D ikkiga bo'lingan fraktsiyalar: SNK-D(1) - qaynash nuqtasi 80-130°C, 1,3 · 10⁻⁴MPa bo'lgan kislotalarning mahsulot ulushiga to'g'ri keladi, 130-180°C, 1,3 · 10⁻⁴MPa haroratda qaynaydi, SNK-D(1) ning unumi 80,9%, SNK-D(2) esa 19,1% ni tashkil qiladi.

SNK-D(1) va SNK-D(2) kislotalar trimetilsilil kislota efirga aylantirildi.


Ularning tarkibi massa-spektr usuli bilan o'rganilganda SNK-D(1) kislotalar asosan ham normal, ham tarmoqlangan tuzilishli alifatik kislotalar ekanligi aniqlandi. Mass-spektral tahliliga ko'ra, ularning tarkibi 58,5 og'irlik% ni tashkil qiladi va R - COOH molekulasidagi radikal uzunligi 7 dan 18 uglerod atomiga teng. Alifatik kislotalar qatoridagi maksimal konsentratsiya uzun kislotalarga to'g'ri keladi CH₃ - (CH₂)₁₀ - COOH 27,5%. Ushbu sinfning boshqa kislotalari orasida molekulasida 11, 13 va 14 uglerod atomiga ega kislotalar sezilarli miqdorda - mos ravishda 15, 17 va 8,5% mavjud. 11 dan kam yoki 14 dan ortiq uglerod atomini o'z ichiga olgan kislotalarning konsentratsiyasi ancha past va 0,7 dan 6,2% gacha.

Farg'ona neftining dizel fraktsiyasini oksidlanish jarayonida, alifatik kislotalar naftenik va aromatik kislotalarga aylanadi. Naften kislotalari keltirilgan monosiklik, bisiklik va trisiklik kislotalar, ularning tarkibi mos ravishda taxminan 18,8 va 2% ni tashkil qiladi. Shuningdek, tetratsiklik naften kislotalar ham mavjudligi, lekin ularning konsentratsiyasi trisiklik naften kislotalarning konsentratsiyasidan kamroq bo'ladi. Monotsiklik naften kislotalar molekulalarini zanjir uzunligi alifatik kislotalarga qaraganda kaltaroq va quyidagi gomologlardan iborat (1): Bu erda; 2 ≤ n ≤ 11




Ushbu turdagi kislotalarning gomologlarining molekulyar og'irlik taqsimotining maksimal miqdori alifatik

kislotalarga nisbatan bitta metilen guruhiga siljiydi va formulaning (2) kislotasiga to'g'ri keladi.




Kislotalar tarkibida muhim miqdorda alkil zanjiri 5, 7 va 8 metilen guruhlarini o'z ichiga olgan. Tarkibi 8% bo'lgan bisiklik naften kislotalarda maksimal molekulyar massa taqsimoti molekulasida 14 ta uglerod atomi bo'lgan kislotalarga to'g'ri keladi va gomologlar quyidagi tuzilish bilan ifodalanadi (3).

Bu erda; 0 ≤ n ≤ 8



Aromatik kislotalar asosan benzoy kislota gomologlaridan iborat. Ularning tarkibi og'irligi 14% dan oshmaydi va maksimal miqdori C₆H₅ - (CH₂)₃ - COOH Z = 8 kislotasiga to'g'ri keladi (4). Vodород darajasiga ega bo'lgan sikloaromatik kislotalar uchun to'yinmaganlik Z=10



SNK-D(1) kislotalarning to'liq guruhi va gomologik tarkibi 1-jadvalda keltirilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 50 °C yuqori qaynayotgan SNK-D (2) kislotalarda alifatik kislotalar miqdori 40% gacha, monosiklik kislotalar 10% gacha kamayadi, ammo bisiklik va trisiklik kislotalarning miqdori ortadi. Agar SNK-D(1) da 64% monotsiklik naften kislotalar, 28% bisiklik bo'lsa va 8% trisiklik kislotalar, keyin SNK-D(2) da bisiklik va trisiklik kislotalarning ulushi mos ravishda 50 va 28% ni tashkil qiladi. SNK-D(2) da sikloaromatik va disikloaromatik kislotalarning sezilarli miqdori to'plangan. 2-jadval. Sintetik kislotalarning tarkibini ko'rsatadigan (SNK-D(2), kislotalarning gomologlari o'rtacha, ular SNK-D (1) kislotalarning gomologlariga qaraganda bir molekulada 2 ta ko'proq uglerod atomiga ega. 1 va 2-jadvaldagi ma'lumotlarga

asoslanib, Farg'ona neftining dizel fraksiyasini oksidlanish jarayonida hosil bo'lgan 80-180 °C, $1,3 \cdot 10^{-4}$ MPa fraksiyali sintetik kislotalarning tarkibi olindi. Belgilangan kompozitsiya 3-jadvalda keltirilgan.

1,2 va 3-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish. Farg'ona neft mahsulotidan ajratilgan neft kislotalari tarkibi haqidagi ma'lumotlar bilan solishtirganda, quyidagilarni ko'rsatadi: dizel fraksiyasini oksidlash natijasida olingan sintetik kislotalarning tarkibi tabiiy neft kislotalaridan sezilarli darajada farq qiladi; tabiiy neft kislotalari 80% naften kislotalardan iborat bo'lsa, neft mahsulotidan ajratilgan SNK-D fraksiyasida 30% ni tashkil qiladi; SNK-D tarkibidagi aromatik kislotalarning tarkibi tabiiy neft kislotalariga qaraganda taxminan 3 baravar yuqori.

SNK-D kislotalarining tarkibini o'rganishga asoslanib, tarkibi jihatidan tabiiyga yaqin sintetik kislotalarni olish uchun tarkibida parafinli va aromatik uglevodorodlardan sovunli xomashyo tayyorlash, monosiklik va bisiklik naftenlar esa mutanosib miqdorda bo'lishi kerak.

Farg'ona neft mahsulotidan ajratilgan neft kislotalari tarkibi haqidagi ma'lumotlar bilan solishtirganda, quyidagilarni ko'rsatadi: dizel fraksiyasini oksidlash natijasida olingan sintetik kislotalarning tarkibi tabiiy neft kislotalaridan sezilarli darajada farq qiladi; tabiiy neft kislotalari 80% naften kislotalardan iborat bo'lsa, neft mahsulotidan ajratilgan SNK-D fraksiyasida 30% ni tashkil qiladi; SNK-D tarkibidagi aromatik kislotalarning tarkibi tabiiy neft kislotalariga qaraganda taxminan 3 baravar yuqori.


1-jadval.

Sintetik kislotalarning tarkibi SNK-D (1) fraksiyalari 80-130°C, $1,3 \cdot 10^{-4}$ MPa, $C_nH_{2n-Z}O_2$

| Kislotalarni turini nomi. | Massa miqdori, % | Kislotalarni molekuladagi uglerod atomlari bo'yicha taqsimlanishi. | | | | | | | | | | | |
|---|------------------|--|------|------|------|------|------|------|------|------|------|-----|-----|
| | | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 |
| Alifatik, Z=0 | 58,7 | 2,5 | 3,4 | 6,1 | 14,6 | 27,7 | 16,9 | 8,7 | 7,2 | 6,8 | 3,7 | 1,8 | 0,6 |
| Monosiklik naftenlar, Z=2 | 17,3 | - | - | 1,9 | 5,5 | 12,7 | 24,6 | 18,5 | 13,6 | 9,4 | 6,6 | 4,8 | 2,4 |
| Bisiklik naftenlar, Z=4 | 7,7 | - | - | - | 2,6 | 7,4 | 13,2 | 25,5 | 17,1 | 13,7 | 10,9 | 5,8 | 3,8 |
| Trisiklik naftenlar, Z=6 | 2,0 | - | - | - | - | 4,1 | 7,4 | 18,7 | 31,8 | 21,6 | 11,5 | 4,9 | - |
| Tetratsiklik va aromatik naftenlar, Z=8 | 13,3 | 8,4 | 17,8 | 19,8 | 13,6 | 11,0 | 8,8 | 6,7 | 5,6 | 3,6 | 2,5 | 1,7 | 0,5 |
| Sikloaromatik naftenlar, Z=10 | 1 | - | - | - | 1,9 | 5,5 | 14,7 | 26,5 | 22,8 | 14,2 | 8,8 | 5,6 | - |

2-jadval.

Sintetik kislotalarning tarkibi SNK-D(2) fraksiyalari 130-180°C, $1,3 \cdot 10^{-4}$ МПа,




| Kislotalarni turini nomi. | Massa miqdori, % | Kislotalarni molekuladagi uglerod atomlari bo'yicha taqsimlanishi. | | | | | | | | | | | |
|---|------------------|--|------|------|------|------|------|------|------|------|-----|-----|-----|
| | | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 |
| Alifatik, Z=0 | 40,4 | 2,4 | 6,5 | 10,1 | 12,5 | 32,3 | 16,4 | 8,2 | 4,7 | 3,4 | 1,5 | 1,6 | 0,4 |
| Monosiklik naftenlar, Z=2 | 10,2 | - | 2,1 | 6,2 | 10,3 | 18,7 | 22,2 | 15,4 | 10,6 | 5,9 | 4,3 | 3,1 | 1,2 |
| Bisiklik naftenlar, Z=4 | 19,6 | - | - | - | 5,7 | 11,7 | 17,8 | 24,2 | 14,6 | 10,7 | 7,8 | 5,6 | 1,9 |
| Trisiklik naftenlar, Z=6 | 9,3 | - | - | - | 2,3 | 5,4 | 14,6 | 25,6 | 18,5 | 13,9 | 9,7 | 6,8 | 3,2 |
| Tetratsiklik va aromatik naftenlar, Z=8 | 12,7 | 5,3 | 15,2 | 27,3 | 19,7 | 11,6 | 6,7 | 5,2 | 3,3 | 2,4 | 1,6 | 1,2 | 0,5 |
| Sikloaromatik naftenlar, Z=10 | 4,4 | - | - | - | 5,4 | 10,8 | 18,9 | 25,2 | 15,8 | 10,3 | 7,1 | 5,2 | 1,3 |
| Disikloaromatik naftenlar, Z=12 | 3,4 | - | - | - | - | 9,3 | 17,4 | 31,8 | 15,5 | 11,7 | 7,2 | 4,9 | 2,2 |

3-jadval.

Sintetik kislotalarning tarkibi SNK-D fraksiyasi 80-180°C, $1,3 \cdot 10^{-4}$ МПа, $C_nH_{2n-z}O_2$

| Kislotalarni turini nom. | Kislotalarni turini nomi | Massa miqdori, % | Kislotalarni molekuladagi uglerod atomlari bo'yicha taqsimlanishi. | | | | | | | | | | | | | |
|---------------------------|---------------------------|------------------|--|-----|-----|------|------|------|------|------|------|------|-----|-----|-----|-----|
| | | | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 |
| Alifatik, Z=0 | Alifatik, Z=0 | 54,9 | 1,9 | 3,2 | 5,5 | 14,1 | 25,4 | 17,2 | 10,3 | 8,5 | 7,2 | 3,5 | 2,2 | 0,7 | 0,3 | - |
| Monosiklik naftenlar, Z=2 | Monosiklik naftenlar, Z=2 | 16,2 | - | - | 1,7 | 5,2 | 11,7 | 23,2 | 18,5 | 14,6 | 10,1 | 7,2 | 4,6 | 2,7 | 0,4 | 0,1 |
| Bisiklik naftenlar, Z=4 | Bisiklik naftenlar, Z=4 | 10,2 | - | - | - | - | 1,7 | 4,4 | 10,5 | 20,1 | 16,4 | 12,4 | 7,6 | 5,4 | 2,1 | 0,7 |
| Trisiklik naftenlar, | Trisiklik naftenlar | 3,1 | - | - | - | - | - | 2,1 | 4,5 | 11,6 | 25,4 | 14,7 | 9,3 | 5,1 | 3,3 | 1,5 |

| Z=6 | , Z=6 | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|------|-----|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|-----|-----|-----|
| Tetratsiklik va aromatik naftenlar, Z=8 | Tetratsiklik va aromatik naftenlar, Z=8 | 13,2 | 7,2 | 14,8 | 17,6 | 14,3 | 12,9 | 11,1 | 7,1 | 5,8 | 3,8 | 2,9 | 1,6 | 0,7 | 0,2 | 0,1 |
| Sikloaromatik naftenlar, Z=10 | Sikloaromatik naftenlar, Z=10 | 1,7 | - | - | - | 1,9 | 5,1 | 14,2 | 24,7 | 22,5 | 14,4 | 8,3 | 6,2 | 2,3 | 0,4 | - |
| Disikloaromatik naftenlar, Z=12 | Disikloaromatik naftenlar, Z=12 | 0,7 | - | - | - | - | - | - | 9,4 | 17,3 | 31,9 | 15,4 | 11,8 | 7,1 | 4,8 | 2,3 |



1-rasm. Sintetik kislotalarning IQ spektri SNK-D

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Мустафаев С.А. Разработка способов получения очищенных нефтяных кислот из щелочных отходов с одновременной регенерацией едкого натра. // Азербайджанское нефтяное хозяйство, № 6, 2002, 34-41 с.
2. Велиев М.Г., Мустафаев С.А., Мамедова Н.А. Синтез и свойства ацетиленовых эфиров нефтяных нефтяных кислот. // Азербайджанский химический журнал, 2004, № 4, с. 63-69.
3. Мустафаев С.А. Ненасыщенные и голоидсодержащие эфиры нефтяных нефтяных кислот. // Азербайджанский химический журнал, 2000, № 4, с. 103-110.

**1`-KARBOKSIFERROTSEN-N-METILOL KARBOKSAMIDNING SUVDA ERUVCHAN
HOSILALARINI BIOSTIMULYATORLIK XOSSASINI O'RGANISH
ИЗУЧЕНИЕ БИОСТИМУЛИРУЮЩИХ СВОЙСТВ ВОДОРАСТВОРИМЫХ
ПРОИЗВОДНЫХ 1'-КАРБОКСФЕРРОЦЕН-N-МЕТИЛОЛКАРБОКСАМИДА
STUDY OF THE BIOSTIMULATORY PROPERTIES OF WATER-SOLUBLE
DERIVATIVES OF 1`-CARBOXYFERROCENE-N-METHYLOL CARBOXAMIDE**

Abduraimov Z.X.

Andijon davlat universiteti kimyo kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada diazotirlash metodi bo'yicha ferrotsenkarbon kislotasi va tiomochevina asosida 1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamid sintezi amalga oshirilganligi, ushbu moddaning suvda eruvchan hosilalari olinib laboratoriya sharoitida chigitni unuvchanligiga ta'siri o'rganilganligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ferrotsenkarbon kislotasi, tiomochevina, diazotirlash, 1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamid, MAKSIT-1, ADUMAX-1.

Аннотация: В данной статье представлен синтез 1`-карбокCIFерроценилтиокарбоксамидна основе ферроценкарбоновой кислоты и тиомочевины методом диазотирования и изучено влияние этого вещества на всхожесть семян в лабораторных условиях путем получения водорастворимых продуктов.

Ключевые слова: ферроценкарбоновая кислота, тиомочевина, диазотирование, 1`-карбокCIFерроценилтиокарбоксамид, МАКСИТ-1, АДУМАХ-1.

Abstract: This article describes the synthesis of 1`-carboxyferrocenyl thiocarboxamide based on ferrocenecarbonic acid and thiourea by the diazotization method, and the study of the effect of this substance on seed germination in laboratory conditions by obtaining water-soluble products.

Key words: ferrocenecarbonic acid, thiourea, diazotization, 1`-carboxyferrocenyl thiocarboxamide, MAKSIT-1, ADUMAX-1.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash, qishloq xo'jaligida ilmiy-

tadqiqot, ta'lim va maslahat xizmatlarini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish ustuvor vazifadir [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.05.2018 yildagi 405-sonli qarorida Qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarning tarqalish maydonlarini aniqlash, va ularga qarshi kurashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tariflarini shakllantirish metodologiyasini nazarda tutuvchi tavsiya ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

Shunday ekan o'simliklarni turli tuman kasalliklar hamda zararkunandalardan himoya qilish, qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan kimyoviy moddalar sintezi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirish, ekinlarni unuvchanligi va hosildorligini oshiruvchi hamda zararkunandalarga qarshi kurashishda foydalaniladigan preparatlar yaratishga, laboratoriya va dala sinovi tajribalari o'tkazishga katta e'tibor berilib kelinmoqda [2].


Bugungi kunda o'simliklarni himoya qilishni va hosildorlikni orttirishning kimyoviy va biologik usullardan samarali foydalanish, noan'anaviy qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish va etishtirish, qishloq xo'jaligini kimyolashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida ferrotsen asosida yaratilgan biologik faol

moddalar kimyosi jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda. Ma'lumki, temir saqlovchi biologik faol moddalar to'qimalar orqali nafas olish jarayonlari, hujayralar ichida moddalar almashinuviga katta ta'sir ko'rsatib, o'simliklarni har xil kasalliklarga chidamliligini oshirish, hosilni erta etilishi, va hosildorlikni bir necha barobar yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Ferrotsenning eng muhim hosilalaridan biri bo'lgan ferrotsenkarbon kislotasi asosida olingan birikmalari turli xil kasalliklar, modda almashinuvining buzilishi oqibatida kelib chiqadigan xastaliklarni davolashda hamda qishloq xo'jaligida yaxshi natijalar berishi aniqlangan.

Ferrotsenkarbon kislotaning metil efiri asosida uning gidrazidi sintez qilingan. Hosil bo'lgan gidrazidga turli xil aldegidlar ta'sir ettirib tegishli gidrazonlar olingan




Olingan birikmalar bakteritsid va fungitsid xossalariga egaligi, gidrazonlari esa xemosensor sifatida ishlatilishi mumkinligi ta'kidlangan [3].

Ferrotsenning biologik faol birikmalaridan yana biri 1'-(p-oksifenil) ferrotsenkarbon kislotasi bo'lib, suvda juda kam eruvchan moddadir. Ushbu moddani suvda

eruvchan lityli, natriyli, kaliyli tuzlari tegishli karbonat tuzlari ta'sir ettirib sintez qilingan [4].

Ikki almashingan tuzlari esa tegishli ishqor eritmalari ta'sir ettirib olingan. Umumiy tarzda reaksiya quyidagi sxema bo'yicha olib borilgan:




Ferrotsenkarbon va 1`-(p-oksifenil) ferrotsenkarbon kislotalarining kalili tuzlari biostimulyatrolik xossasini kuchliroq namoyon etganligi tajribalar asosida isbotlandi [5].

Qishloq xo'jaligida tarkibida azot saqlagan biologik faol moddalarning ahamiyati katta bo'lib, xususan mochevina va uning bir qator hosilalaridan keng foydalanib kelinmoqda. Tiomochevina (tiokarbamid) mochevinaning oltingugurt saqlagan analogi bo'lib, kuchli biologik faollikka ega. Tiomochevina o'g'it va o'simliklarning o'stiruvchi stimulyatori yoki ba'zi o'simliklar

urug'larining unib chiqishi uchun stimulyator sifatida ishlatilishi mumkin. Tiomochevina qishloq xo'jaligida qo'llanilishi uning patogen mikrofloraga tez ta'siri bilan bog'liq, bundan tashqari, bu modda piyoz va kartoshkani turli xil kasalliklardan to'liq davolash xususiyatiga ega.

Tiomochevina va m-ferrotsenilbenzoy kislota asosida 1`-(3-karboksi- fenil)-1-ditioamidferrotsen g'o'zani o'stiruvchi stimulyatorlar sintez qilingan. Ushbu reaksiya diazotirlash metodi yordamida amalga oshirilgan [6].




Andijon davlat universiteti qoshidagi «Tovarlar kimyosi» ilmiy laboratoriyasida ferrotsenkarbon kislota asosida yangi biostimulyatorlar sintez qilish borasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Natijada Ferrostimulyator, MAKSIT-1, ADUMAX-1 preparatlar yaratilib, bu preparatlar g'o'zaning unib chiqishi,

o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi biostimulyatorlar sifatida amaliyotga qo'llash uchun ruxsat etilgan [7].

Biz ferrotsenkarbon kislota tiomochevina bilan reaksiyasini diazotirlash usuli bo'yicha amalga oshirdik.

Reaksiya sxemasi quyidagicha:



Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, 1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning natriyli va kaliyli tuzlarini biostimulyatorlik xossasini chigitlarni unib chiqishiga ta'sirini laboratoriya sharoitida Kalinkevich metodi bo'yicha o'rganildi.

Preparatlarning 3 xil konsentratsiyadagi (0,01%, 0,001%, 0,0001%) suvli eritmalari tayyorlab olindi. Etalon sifatida qahrabo kislotasining ayni konsentratsiyalardagi (0,01%, 0,001%, 0,0001%) suvli eritmasidan foydalanildi. Nazorat uchun distillangan suv olindi, laboratoriya sinovlari 23–25°C temperaturada o'tkazildi. Preparatlarning 3 xil

konsentratsiyalari eritmalaridan 100 ml tayyorlab olindi va chigitlardan 100 donadan, eritmalarga solinib, 2 soat vaqt mobaynida ivitildi. So'ngra urug'lar Petri kosachasiga joylandi.

Har bir eritmaning biologik faolligini aks ettiruvchi o'rtacha natija 5 ta (100 donadan chigit) parallel tajribalar asosida olindi. Eksperimentning standart chetlanishi va 95 foizli ishonchlilik chegarasidagi tasodifiy xatosi eng kichik kvadratlar usulida hisoblandi.

Tajriba bir hafta muddat oralig'ida amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda o'tkazilgan laboratoriya tahlillarining o'rtacha olingan natijalari keltirilgan.

1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning suvda eruvchan kaliyli va natriyli hosilalarining laboratoriya sharoitida chigitning unuvchanligiga ta'sirini o'rganish natijalari.

jadval

| Variant № | Preparat nomi | Eritma konsentratsiyasi % | Urug' lar soni (dona) | O'rtacha qiymat | Unuvchanlik, % | |
|-----------|---|---------------------------|-----------------------|-----------------|--------------------|-------------------|
| | | | | | Chetlanish | |
| | | | | | Nazoratga nisbatan | Etalonga nisbatan |
| 1. | C ₁₂ H ₁₀ FeKO ₂ NS | 0,01 | 100 | 87±2,0 | -2 | +3 |
| | | 0,001 | 100 | 92±1,6 | +3 | +4 |
| | | 0,0001 | 100 | 96±1,5 | +7 | +6 |
| 2. | C ₁₂ H ₁₀ FeNaO ₂ NS | 0,01 | 100 | 88±2,0 | -1 | +4 |
| | | 0,001 | 100 | 90±1,7 | +1 | +2 |
| | | 0,0001 | 100 | 91±1,5 | +2 | +1 |
| 3. | Qahrabo kislota (etalon) | 0,01 | 100 | 84±1,8 | -5 | 0 |
| | | 0,001 | 100 | 88±1,7 | -1 | 0 |
| | | 0,0001 | 100 | 90±1,9 | +1 | 0 |
| 4. | Nazorat -H ₂ O | - | 100 | 89±1,8 | 0 | -1 |

* Tajriba xatoligi ±2 % dan oshmaydi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ferrotsenkarbon kislota hosilasi bo'lgan 1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning kaliyli tuzining 0,0001% li eritmasi bilan ishlov berilgan chigitlarning unuvchanligi etalon va taqqoslash uchun olingan suv bilan ishlov berilgan urug'larga nisbatan 6-7% yuqori bo'lgan.

O'tkazilgan tajriba natijalari asosida quyidagicha xulosalar qilindi:

Olingan natijalarga ko'ra 1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning suvda eruvchan hosilalarining laboratoriya sharoitida chigitlarni sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish natijasiga ko'ra yuqori ko'rsatkich 1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning kaliyli tuzining

0,0001% li eritmasi o'rganilgan variantda kuzatildi, bunda olingan natija 1'-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning natriyli tuziga nisbatan 5% ga, Etalon sifatida foydalaniladigan qahrabo kislotasiga nisbatan 6% ga, nazoratga nisbatan esa 7% ga ortgan. Tahlillardan shuni ko'rish mumkinki 1'-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning kaliyli tuzining biostimulyatorlik xossasini boshqa hosilalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi isbotlandi.

Tajribalar davomida olingan natijalarga ko'ra 1'-karboksiferrotsenil

tiokarboksamidning suvda eruvchan hosilalari, qishloq xo'jaligi ekinlari uchun qo'llanilganda, o'simliklarning kasallikka chidamliligi ortadi va hosildorlikni oshirishga yordam beradi.

Biostimulyatorlik xossasini namoyon etuvchi 1'-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning suvda eruvchan hosilalaridan samarali foydalanilsa, qishloq xo'jaligi sohasida iqtisodiy samaradorlik oshib ijobiy natijalarga erishiladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019- yil 23- oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030- yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-sonli farmoni.
- 2.Madumarov T.A., Asqarov I.R., Qirg'izov Sh.M., Isayev Yu.T., To'lakov N.Q. Ekologik toza biostimulyatorlar//Ilmiy xabarnoma -Научный ветник, 2010. -№2.
- 3.Куликов В.Н., Никулин Р.С., Родионов А.Н., Белоусов Ю.А. Синтез ферроценнилгидразонов// VI Молодежная конференция ИОХ ... 132 страницы
- 4.To'lakov N.Q. Maksit-1 preparati sintezi va biostimulyatorlik xossasini o'rganish.// "Kon-metallurgiya majmuasi: muammolari va rivojlantirishning zamonaviy istiqbollari". IX xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman materiallari. Navoiy 2017.
- 5.N.To'lakov, I.Asqarov, Y. Isayev, Q. Otaxonov. Ferrotsenkarbon kislotaning ayrim xosilalari sintezi va ularni TIF TN asosida sinflash. FarDU ilmiy xabarnoma 2018№4 11- bet
- 6.Реакция м-ферроценнилбензойной кислоты с тиомочевинной/Отахонов К .К., Аскарлов И. Р.,Исаев Ю. Т.,Хожиматов М. М.// UNIVERSUM технические науки 2018 декабрь №12.
- 7.To'lakov N.Q. Ferrotsenkarbon kislotaning ayrim hosilalari sintezi va ularni sinflash: kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi-Farg'ona 2018

ODDIY RAYHON O'SIMLIGINING MOYI TARKIBIDAGI YOG' KISLOTALARINING IQ VA XROMATOMASSPEKTROSKOPIYA SPEKTORLARINING TAHLILI ИК- И ХРОМАТОМАС СПЕКТРОСКОПИЯ АНАЛИЗ ЖИРНЫХ КИСЛОТ В РАСТИТЕЛЬНОМ МАСЛЕ БАЗИЛИК IR AND CHROMATOMASS SPECTROSCOPY ANALYSIS OF FATTY ACIDS IN COMMON BASIL PLANT OIL

Zakirova Gulnora Ibrohimjon qizi- Qo'qon DPI tadqiqotchisi

Annotatsiya. Dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan o'simlik moyining yog' kislotalarining tarkibi va miqdoriy ko'rsatkichlari olingan IQ va xromatomasspektri qiyosiy tahlili o'tkazildi. Tarkib va miqdor orasidagi bog'liqlik jadvalda keltirildi.

Kalit so'zlar: efir moyli o'simliklar, yog' kislotalar, infraqizil spektr, xromatomaspsekr.

Аннотация. Методом ИК и хроматоспектрального сравнительного анализа получены состав и количественные показатели жирных кислот растительного масла с лечебными свойствами. Соотношение между содержанием и количеством приведено в таблице.

Ключевые слова: эфиромасличные растения, жирные кислоты, инфракрасный спектр, хроматоспектр.

Annotation. The composition and quantitative indicators of fatty acids of vegetable oil with medicinal properties were obtained by IR and chromatogram comparative analysis. The relationship between content and quantity is given in the table.

Keywords: essential oil plants, fatty acids, infrared spectrum, chromatogram.


Bugungi kunda kimyoviy reaksiyalar natijasida olingan dori-darmon vositalariga nisbatan dorivorlik xusiyatiga ega bo'lgan o'simliklardan olingan turli preparatlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu esa tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini o'rganishga bo'lgan ilmiy ishlarning ko'lamini yanada oshirishni taqozo etadi.

Dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini o'rganishda turli fizik-kimyoviy usullardan (UB-, IQ-, YAMR-spektroskopiyalar, rentgenstruktur usul) foydalanish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlashda kam vaqt talab etishi va yuqori aniqlikka ega ekanligi bilan kimyoviy usullardan ajralib turadi.

Shu sababli Respublikamizda aholi xonadonlarida o'stiriladigan Oddiy rayhon (*Ocimum basilicum*) o'simligining efir moyi infraqizil va xromatomas spektrlarini o'rganish asosida yog' kislotalari kimyoviy tarkibining qiyosiy tahlili o'tkazildi.

Tahlil uchun olingan Rayhon moyi IQ spektorlari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Markaziy Bojxona laboratoriyasida *Agilent technology Cary 630* infraqizilspektrometri yordamida olindi.

Olingan natijalar turli adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga taqqoslanib o'rganilganda, moylar tarkibida quyidagi funksional guruhlar borligi aniqlandi: metil (-CH₃) hamda metilen (-CH₂-) guruhlar chastotasi 2800-2900 sm⁻¹, karbonil guruh (-C=O) va qo'shbog' tutgan (C=C) guruhlar chastotasi 1500-1800sm⁻¹, efir bog' (C-O-C) guruhining chastotasi 1000-1200 sm⁻¹, tsis-xolatdagi dien qo'shbog' tutgan guruhning chastotasi 650-750 sm⁻¹ da ko'rish mumkin. Shuningdek (=CH-) 1300-1500^{sm-1}, uglerod galogen bog'lanish (C-HI) 650-750^{sm-1} spektorlarining mavjudligi hamda boshqa adabiyotlarga taqqoslangan holda tadqiq etildi. (Rayhon moyining spektri 1-rasmda keltirilgan).



1-rasm. Rayhon moyi

Natijalarga aniqlik kiritish hamda moylar tarkibidagi yog' kislotalarning sifat va miqdoriy tarkibini o'rganish maqsadida namuna ustida Gaz-xromato mass-spektr tahlili amalga oshirildi.

Gaz-xromatomass-spektr taxlilini amalga oshirishda foydalanilgan materiallar va usullar.

Moyning yog' kislota tarkibini aniqlash. Yog' kislotasining geksanli ekstraktini ozroq miqdor suvsiz Na₂SO₄ yordamida suvsizlantirildi. Erituvchini bug'latish yo'li bilan chiqarildi va yog' kislotalarning metil efirlari (ME-FA) [1] metodika bo'yicha tayyorlandi. 50 mg moy tarkibida 0,4 M KOH tutgan 3 ml metanolda eritildi. Ishqor-metanol emulsiyasi aralashtirgichda 10 min davomida 60-65 °C haroratda aralashtirildi va reaksiyon aralashma sovitilgandan so'ng teng hajimdagi suv qo'shib suyultirilgan konsentrlangan H₂SO₄ ning tegishli miqdori bilan neytrallandi. Yog' kislotasining metil efiri reaksiyon aralashmadan 1 ml geksan qo'shib ekstraksiya qilindi. Geksan qatlami birlashtirildi, Na₂SO₄ yordamida suvsizlantirildi va quruq holga kelgunicha bug'latildi. Quruq ME-FA 1ml geksanda eritildi va 2 mkl olingan massa GX-MS ga 1:20 nisbatta analiz uchun yuklandi. GX-MS o'tkazishda GX-modulida GX 8890 bilan MCD 5977 (Agilent, AQSH)

birgalikda foydalanildi. 5HP-MS (30 m nisbat 0,3 mm) qo'zg'almas fazali qutublangan kapilyar kalonnadan GX ajratgich uchun quyidagi sharoitdan foydalanildi:

Ijektor: 180 °C;

Tashuvchi: He 1,5 ml/min;

Thermostat: ishga tushurishda har bir minutda 100 °C, so'ng har minutida 10°C dan 180 °C gacha, keyin har besh minutda 6 °C dan 230 °C gacha oshirib borildi.

Umumiy vaqt: 22,33 min;

Detektor: 250 °C;

Ionlash: 70 eV da elektron biriktirish;


MS da belgilash har 4 minutda (vaqt oralig'i erituvchi pikigacha) m/z chegarada 10-500;

Yog' kislotasi masspektori etalon bibratekasidan (Wiley va NIST ning birlashgan bibratekasi [3]) foydalanib identifikatsiya qilindi. Tekshirilayotgan moy namunasining yog' kislotali tarkibi TIC-xromatogramma bo'yicha hisoblandi: TIC maydoni, mavjud yog' kislotalarning metil efirlari pikida FA ga mos keluvchi miqdorda % sifatida qabul qilinadi.


O'simlik moyini KOH-metanol bilan tog'ridan-to'g'ri transmetillash FA derevikatsiya qilishning, metil efiri kabi (FA-ME) oson va samarali usuli sifatida tanlab olingan.

FA-ME ning to'liq identfikatsiya qilish GS-MS yordamida amalga oshirildi. Kinoa urug'i FA-ME moy TIC (total ion chromatogram)-xromatogrammasi 2-rasmda keltirilgan. Yog' kislotalarning

tarkibini aniqlashda pislarni identfikatsiyalashdan avval NIST va Willey etalon masspektorlar bibratekasidan foydalanildi.



2-rasm. Turli moylardan olingan FA-ME TIC-xromatogrammasi, ko'k bilan to'yingan yog' kislotalarning pislari, pushti bilan to'yinmagan yog' kislotalari pislari berilgan.



3-rasm. Rayhon moyi namunasining gazxromatomass spektri. Gazxromatomass spektri tahlili natijasida olingan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Gidrolizatsiyadan keyingi moy tarkibidagi yog' kislotalar miqdori (% da)

| Kislota nomi | Rayhon |
|---|-----------|
| Miristin kislota (C _{14:0}) | 0.67±0.03 |
| Mristolein kislota (C _{14:1}) | ≤0.1 |

| | |
|--|------------|
| Palmitin kislota (C _{16:0}) | 13.54±0.30 |
| Palmitolein kislota (C _{16:1}) | 0.19±0.01 |
| Stearin kislota(C _{18:0}) | 8.92±0.05 |
| Olein kislota(C _{18:1}) | 21.95±0.70 |
| Linol kislota (C _{18:2}) | 33.98±1.80 |
| Linolein kislota (C _{18:3}) | 8.62±0.05 |
| Araxidon kislota (C _{20:0}) | 0.25±0.02 |

Foydalanilgan adabiyotlar

- [<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/oziq-ovqat-texnologiyasi/yog-larning-tarkibi-va-sifatini-analiz-qilish>]
- PN-EN ISO 659:1999, Oilseeds – Determination of oil content (Reference method), PKN, Warsaw 1999.
- R. Wirasnita, T. Hadibarata, Y.M. Novelina, A.R. Mohd Yusoff, Z. Yusop. A Modified Methylation Method to Determine Fatty Acid Content by Gas Chromatography. Bull. Korean Chem. Soc. 2013, Vol. 34, No. 11 3239-3942.
- <http://eu.wiley.com/WileyCDA/WileyTitle/productCd-1118143949,miniSiteCd-STMDB2.html>

**5-BROM-2-PROPARGILOKSIBENZALDEGID VA AYRIM AROMATIK AZIDLAR
ASOSIDA - 1H-1,2,3-TRIAZOL HOSILALARI SINTEZI**

**СИНТЕЗ ПРОИЗВОДНЫХ 1Н-1,2,3-ТРИАЗОЛА НА ОСНОВЕ 5-БРОМ-2-
ПРОПАРГИЛОКСИБЕНЗАЛЬДЕГИДА И НЕКОТОРЫХ АРОМАТИЧЕСКИХ
АЗИДОВ**

**SYNTHESIS OF 1N-1,2,3-TRIAZOLE DERIVATIVES BASED ON 5-BROMO-2-
PROPARGYLOXYBENZALDEHYDE AND CERTAIN AROMATIC AZIDES**

Usmonova S.G- O'zbekiston Milliy universiteti
Ortikov I.S-O'zRFA O'simlik moddalari kimyosi instituti
Abdugafurov I. A- Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Madixonov N- Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Andijon viloyati
Elmuradov B.J- O'zRFA O'simlik moddalari kimyosi instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-brom-2-propargiloksibenzaldegidni mis (I) galogenidlari katalizatorligida fenilazid va para-bromfenilazidlar bilan o'zaro 1,3-dipolyar siklobirikish reaksiyalari yoritilgan. Reaksiya natijasida yuqori unum bilan 1N-1,2,3-triazol hosilalarining 1,4-izomerlari hosil bo'lishi aniqlangan. Olingan yangi moddalarni samarali sintezi, tozalash usuli, xromatografik tadqiqot natijalari va shuningdek ayrim fizik kattaliklari IQ-, H1YaMR- spektr tahlillari keltirilgan. Maqolada reaksiya mahsulotining unumiga katalizatorlarning ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: 1,4-izomerlar, 5-brom-salitsil aldegid, para-bromfenilazid, biologik faollik, azid-alkin siklobirikish, 5-brom-2-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)-benzaldegid

Аннотатсия. В статье изложена реакция 1,3-биполярного циклического присоединения 5-бром-2-пропаргилоксибензальдегида с фенилазидом и пара-бромфенилазидами в присутствии катализатора галогенида меди (I). В результате этой реакции было получено 1,4-изомеры производных 1Н-1,2,3-триазола с высоким выходом. В статье изложены эффективный синтез новых веществ, метод очистки, результаты хроматографического анализа, ИК-, ¹НМР-спектрометрического анализа, некоторые физические параметры. Также в статье приведены результаты изучения влияния катализатора на выход продукта реакции.

Ключевые слова: 1,4-изомеры, 5-бром-салициловый альдегид, пара-бромфенилазид, азид-алкин циклоприсоединения, 5-бром-2-((1-фенил-1Н-1,2,3-триазол-4-ил) метокси)-бензальдегид

Annotation. The article describes the reaction of 1,3-bipolar cyclic addition of 5-bromo-2-propargyloxybenzaldehyde with phenylazide and p-bromophenylazides in the presence of a copper (I) halide catalyst. As a result of this reaction, 1,4-isomers of 1Н-1,2,3-triazole derivatives were obtained in high yield. The article describes the effective synthesis of new substances, the purification method, the results of chromatographic analysis, IR, ¹H NMR spectrometric analysis, and some physical parameters. The article also presents the results of studying the effect of the catalyst on the yield of the reaction product.

Keywords: 1,4-isomers, 5-bromo-salicylic aldehyde, para-bromophenylazide, azide-alkyne cycloadditions, 5-bromo-2-((1-phenyl-1Н-1,2,3-triazol-4-yl)methoxy)-benzaldehyde


Kirish. Soʻnggi vaqtlarda nufuzli jurnallarda chiqayotgan maqolalar tahliliga koʻra, geteroxalqali birikmalar orasida triazol hosilalari asosida olib borilayotgan tadqiqotlar qoʻp uchramoqda [1]. Buning sababi besh aʼzoli uchta azot atomi saqlovchi triazol birikmalari orasida qoʻplab farmakologik va biologik faollik namoyon qiluvchi moddalar aniqlanmoqda [2-3]. Triazol tuzilishi jihatdan asosan ikki sinfga, 1,2,3- hamda 1,2,4-triazollarga boʻlinadi. Ikkala sinf birikmalari ham, sintez qilish usuli qulayligi, biologik faolligi yuqoriligi, kam zaxarliligi bilan hozirgi vaqtgacha kimyogarlarni oʻziga jalb qilib kelmoqda [4].

1,2,3-Triazol qishloq hoʻjaligida gerbitsid sifatida, farmosevtikada isitmani tushiruvchi, ogʻriq qoldiruvchi, rakka qarshi [5-6], metallurgiya sanoatida korroziyaga qarshi ingibitorlar sifatida ishlatiladi [7]. Bundan tashqari 1,2,3-triazollar biologik faol xususiyatga ega masalan: mikroblarga, yalligʻlanishga, leyshmaniyaga va diabedga qarshi faollikka ega [8-9]. Shu sababli hozirgi

kunda jahonda 1Н-1,2,3-triazollar sintezi va biologik faolligi jadal suratlar bilan oʻrganilmoqda.


Biz ham oʻz tadqiqotlarimizni 1,2,3-triazol hosilalarini sintez qilish, kimyoviy va biologik faolliklarini oʻrganishga bagʻishladik. 1,2,3-Triazol sintez qilishning turlicha usullari boʻlib, ulardan biri uch bogʻ saqlagan organik moddalar va organik azidlarning oʻzaro siklobirikishidir. Ushbu sintez usuli Xyusgen reaksiyasi deyiladi. Reaksiyaning asosiy mohiyati uch bogʻ yoki ikki bogʻ tutgan organik moddalarda dipolyar siklobirikish boʻlib, 1,2,3-triazollarda azid-alkin siklobirikish reaksiyasi deyiladi. Xyusgen reaksiyasining hozirgi vaqtdagi katalitik takomillashgan usuli Xyusgen-Mendal-Sharples reaksiyasi ham deyiladi. Biz obyekt sifatida propargiloksi-benzaldegidlarni va ayrim aromatik azidlarni tanlaganmiz. Oldingi ishlarimida para-oksibenzaldegid va salitsil aldegid asosidagi sintezlarni amalga oshirgan edik [10-13]. Bu safar biz tadqiqotlarimizni 5-brom-2-oksibenzaldegid bilan olib bordik.

Mazkur ishda 5-brom-2-propargiloksibenzaldegidni sintezi va fenilazid hamda 4-bromfenilazidlar bilan katalizator Cu₂Gal₂ (mis (I) galogenidlar) ishtirokidagi 1,3-dipolyar siklobirikish reaksiyasi amalga oshirildi. Sintez qilib olingan 5-brom-2-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il) metoksi) benzaldegid va 5-brom-2-((1-(4-bromfenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegidlarining zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari bilan tasdiqlandi.



Biz uchun kerakli bo'lgan organik azidlar: fenilazid, para-bromfenilazidlar adabiyotda keltirilgan usulda sintez qilib olindi [12].

Olingan propargiloksibenzaldegid va tegishli azidlar asosida o'zaro azid-alkin



R= 3 H; 4 Br; Gal = Cl; Br; I.

Biz oldingi ishlarimizda halqalanish reaksiyasiga erituvchilar ta'sirini o'rgangan edik va eng muqobil erituvchi sifatida toluol tanlab olingan edi [13]. Bu safar reaksiya asosan toluol erituvchiligida olib borildi. Katalizator sifatida Cu₂Cl₂, Cu₂Br₂, Cu₂I₂ lar ishlatildi. Dastlab reaksiyalar katalizator ta'sirida toluol eritmasida xona haroratida olib borib ko'rildi. Bunda reaksiya mahsulotning unumi uch kun ya'ni 72 soatdan so'ng 15-20 % ni tashkil qildi. So'ngra reaksiya toluolni qaynash haroratida olib borildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Biz o'z tadqiqotlarimizni 5-brom-2-gidroksibenzaldegidni (5-bromsalitsilaldegid) propargilbromid bilan propargil-lashdan boshladik. Reaksiya tegishli aldegid va propargilbromidlarni 1:1 mol nisbatdagi aralashmasini potash, tetrabutylammoniy bromid (TBAB) sistemasida atsetonitril erituvchiligida qizdirib olib borildi. Natijada yuqori unum bilan (94%) 5-brom-2-propargiloksibenzaldegid sintez qilib olindi:

dipolyar siklobirikish reaksiyasi olib borildi. Reaksiya mis (I) galogenidlari katalizatorligida olib borildi. Erituvchi sifatida asosan toluol ishlatildi.

Reaksiya har yarim soatda yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX) yordamida kuzatib borildi. Tajribada mahsulotni maksimal hosil bo'lish unumi va vaqtga qarab katalizatorlarning aktivligi solishtirildi (1-jadval). Hosil bo'lish unumi yupqa qavatli xromatografiya orqali tekshirildi. Katalizatorlarning quyidagi qatori bo'ylab: Cu₂Cl₂ < Cu₂Br₂ < Cu₂I₂ 3,4 moddalarning unumi ortib borishi va reaksiya davomiyligi kamayib borishi kuzatildi

1-jadval.

Mahsulotning hosil bo'lish unumini katalizator turlari va vaqtga bog'liqligi

| Birikma nomeri | Katalizator | Reaksiya Tugash vaqti | Reaksiya harorati | Reaksiyada 1,4-izomer hosil bo'lish unumi, % |
|----------------|-------------|-----------------------|-------------------|--|
|----------------|-------------|-----------------------|-------------------|--|



| | | (soat) | | |
|---|---------------------------------|--------|--------|----|
| 3 | Cu ₂ Cl ₂ | 9 | 110 °C | 64 |
| 4 | Cu ₂ Cl ₂ | 9 | 110 °C | 63 |
| 3 | Cu ₂ Br ₂ | 7 | 110 °C | 78 |
| 4 | Cu ₂ Br ₂ | 7 | 110 °C | 77 |
| 3 | Cu ₂ I ₂ | 6 | 110 °C | 90 |
| 4 | Cu ₂ I ₂ | 6 | 110 °C | 86 |

- 18.Şâmî, *Zafernâme*, 258-259; Yezdî, *Zafernâme*, (Çev. Ahsen Batur), 336-337; Abdurrezzâk Semerkandî, *Matla'-ı Sa'deyn*, I/II, 828; Ca'ferî, *Târih-i Kebîr*, 11; Mîrhând, *Ravzatu's-Safâ*, I/4-6, 1096; Hândmîr, *Habîbü's-Siyer*, III, 486; Hurşah el-Hüseynî, *Târih-i Kutbî*, 195-196; İsfahân-i Kazvînî, *Huld-i Berîn*, 276-277; Allen, *A History of The Georgian People*, 124; Simnânî, *Timurleng*, 224-225; H. R. Roemer, "Timur in Iran", *The Cambridge History of Iran*, VI, Cambridge 2006, 75; Berdzenişvili-Canaşia, *Gürcüstan Tarihi*, 200; Paydaş, "Timur'un Gürcistan Seferleri", 428-429; Yılmaz, *Celayirliler*, 209.
- 19.Şâmî, *Zafernâme*, 339; İbn Arabşah, *Acâibu'l-Makdûr*, 342; Yezdî, *Zafernâme*, (Çev. Ahsen Batur), 418; Mîrhând, *Ravzatu's-Safâ*, I/4-6, 1113.
- 20.Şâmî, *Zafernâme*, 340-341; Yezdî, *Zafernâme*, (Çev. Ahsen Batur), 419; Mîrhând, *Ravzatu's-Safâ*, I/4-6, 1113; Hândmîr, *Habîbü's-Siyer*, III, 518; Berdzenişvili-Canaşia, *Gürcüstan Tarihi*, 201; Karamanlı, "Gürcistan", 313.
- 21.Aşurbeyli, *Şirvanşahlar Dövleti*, 279.
- 22.İbn Arabşah, *Acâibu'l-Makdûr*, 342-345; Minorsky, *A History of Sharvan and Darband*, 137; Aşurbeyli, *Şirvanşahlar Dövleti*, 279; Sâlihî-Gulîzâde, "Berresi-ye Revâbet-i Hâricî Şirvânşâhân-ı Derbendî", 70.
- 23.Altın Orda Devleti, Timurlular ve Ak-Koyunlular tarafından kullanılan gümüş sikkeye verilen isimdi. 25 tenge, 2 Osmanlı akçesine eşitti. Bugün Kazakistan'ın millî para birimidir. Bkz. Oğuz Tekin, "Sikke", *DİA*, 37, 182.
- 24.Altın, gümüş gibi değerli eşyaların tartılmasında kullanılan ağırlık ölçüsü ve para birimidir. Bkz. J. Allan, "Miskal", *İA*, VIII, 373; Cengiz Kallek, "Miskal", *DİA*, 30, 182.
- 25.âmî, *Zafernâme*, 341; Mîrhând, *Ravzatu's-Safâ*, I/4-6, 1113; Hândmîr, *Habîbü's-Siyer*, III, 519; Berdzenişvili-Canaşia, *Gürcüstan Tarihi*, 202.
- 26.Aka, *Timur ve Devleti*, 31-33.

MO'TADILLASHUVCHI A'ZOLAR O'RTASIDAGI UMUMIYLIK VA XUSUSIYLIK

ЧАСТНОЕ И ОБЩЕЕ МЕЖДУ ЧЛЕНАМИ-МОДЕРАТОРАМИ

GENERAL AND SPECIAL BETWEEN MEMBERS-MODERATORS

Dilfuza Abduhamidovna Nurmanova.
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Ma'lumki, har qanday til hodisalari zamirida dialektik kategoriyalar yotadi. Ana shunday kategoriyalardan biri umumiylik-xususiylik kategoriyasidir. Mazkur

maqolada mo'tadillashuv hodisasi hamda mo'tadillashuvchi a'zolar o'rtasida umumiylik-xususiylik dialektikasining nimoyon bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Mo'tadillashuv, til birliklarining ziddiyatli munosabati, invariant-variantlilik, amaliy (empirik) bilish, ratsional (nazariy) bilish.

Аннотация: Известно, что в основе любых языковых явлений лежат диалектические категории. Одной из таких категорий является категория сущности и явления. В данной статье рассматривается вопрос о нейтрализации и проявлении диалектики сущности и явления между нейтрализуемыми членами.

Ключевые слова. Нейтрализация, оппозитивные отношения языковых единиц, инвариант-вариантность, практическое (эмпирическое) знание, теоретическое (рациональное) знание.

Paradigma a'zolari o'rtasidagi zidlanishning mo'tadillashuvi bevosita nutqiy jarayon bo'lib, ma'lum umumiyliklarning konkret nutqiy jarayonda reallashuvchi xususiyliklar bilan uzviy bog'liq. O'zbek tilshunosligida bu muammo bir qator asarlarda bayon qilingan[2; 3; 8]. Biz o'zimizni qurshab turgan obyektiv olamni dastlab sezgi uzvlarimiz orqali hissiy bilib olamiz. Olamni hissiy bilish faqat insonga xos emas, balki butun jonzotga xos bo'lgan xususiyatdir. Moddiy borliqdagi narsalarni har qanday jonzot sezgi uzvlari orqali bevosita amaliy hayot tajribasida bilib boradi. Nimani iste'mol qilish mumkin, nimani iste'mol qilish mumkin emas, buni ajrata oladi. Shu bilan birga insonning hayvonot olamidani farqi shundaki, u bevosita kuzatayotgan narsalarni umumlashtirish, ularning o'rtasidagi o'xshash va noo'xshash belgi xususiyatlarini ajratish, o'xshash belgilari asosida ma'lum guruhlarga, sinflarga birlashtirish imkoniyatiga ega. [7, 25] Shunday qilib umumlashtirish, invariant tasavvur inson hayotida katta ahamiyat kasb etadi [5,21]. Umumlashtirish jarayonida muayyan sinfga mansub bo'lgan narsalarning nomuhim, ikkinchi darajali belgilari nazardan soqit qilinadi va sinfga birlashtirish uchun muhim belgilari ajratiladi.

Bevosita kuzatish jarayonida bizning sezgi organlarimizga alohidaliklar, xususiyliklar beriladi. Alohida narsalarning belgilarini ajratamiz. Bu belgilar ichida shunday belgilar bo'ladiki, barqaror, har bir alohidadagi takrorlanish xususiyatiga ega bo'ladi. Ana shu barqaror, har qaysi alohidadagi takrorlanuvchi belgi bu

alohidalikni ma'lum umumiylikka, muayyan sinfga birlashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, bevosita kuzatishda daraxtning xilma-xil ko'rinishlari, milliardlab tuplari bor. Lekin ana shu milliardlab tuplarni «daraxt» sinfga birlashtirish uchun asos bo'ladigan, ularning har qaysisida istisnosiz takrorlanadigan belgilari bor. Bu umumiy belgilarni inson bevosita kuzatishdan, amaliy bilish bosqichidan ratsional bilish bosqichiga o'tish jarayonida alohidaliklarni bir-biriga qiyoslash natijasida ajratishga erishadi. «Daraxtlik» umumiy belgisini ajratish uchun inson uni boshqa bir umumiylikka – butaga fikran zidlaydi. Zidlash asosida har ikki sinfning farqli belgilari aniqlanadi. «Tanasi balandlik», «ko'p yillik» belgisiga ega o'simliklar «daraxt» sinfga; «tanasi past», «ko'p yillik» belgisiga ega bo'lmagan o'simliklar «buta» sinfga birlashtiriladi. Lekin «daraxt» va «buta» sinflariga mansub bo'lgan, bizning sezgimizga bevosita beriladigan alohida daraxtlar yuqoridagi belgilardan tashqari yana bir qancha belgilarga ega. Bu belgilar ichidan sinfga xos eng muhim belgilar ajratilgan holda qolgan belgilari tushirib qoldiriladi. Predmetlarni bunday bilishni predmetlarning invariant umumlashgan obrazi deb hisoblash mumkin [4.26]. Obyektiv olamni bilishimizda sintezlash, umumiyliklarni aniqlay olish qobiliyatining mavjudligi juda katta ahamiyatga ega. Agar shunday bo'lmaganda, biz amaliy hayotimizda bironta yangi narsa, hodisalarni belgilay olmagan bo'lar edik. Chunki har bir yangi narsa va hodisa ilgari bilgan, o'zlashtirgan narsa va hodisalarga qiyoslash,

solishtirish, umumiy va farqli tomonlarini belgilash asosida aniqlanadi. Shunday qilib, har qanday umumiylik yangi narsalarni bilishimizning asosiy vositasi sifatida foydalaniladi.

Olamdagi narsalarning barcha belgilarini inson xotirasi to'la saqlay olmaydi. Shu sababdan uning umumiy belgilarini amaliy ehtiyoj tufayli ajratadi, xususiy belgilari esa nazardan soqit qilinadi.

Shunday qilib, obyektiv olamni bilishimiz ikki bosqichda olib boriladi. Narsalarni sezgi organlarimiz orqali bevosita bilish amaliy bilish yoki empirik bilish hisoblanadi. Bunday bilish narsalarni bevosita his qilish orqali amalga oshiriladi. Amaliy bilish doimo bizga narsa va hodisalar haqida to'g'ri ma'lumot beravermaydi. Chunki bizning sezgilarimiz ko'pincha aldanishi mumkin. Masalan, bevosita kuzatishda ko'zimizga Quyosh yer atrofida aylanayotganga, tog'lik joyda suv pastdan tepaga oqayotganga, ko'prik ustida turganimizda suv emas, ko'prik harakatlanayotganga o'xshaydi. Shuning uchun bunday bilim ba'zan yolg'on bilim bo'ladi.

Obyektiv olam haqida biz hissiy, amaliy bilimlarimiz orqali olgan ma'lumotlar asosida narsa va hodisalarning umumiy belgilarini boshqa xudi shunday narsa va hodisalarning umumiy belgilariga solishtirish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, bir sinfga mansub bo'lgan narsalarning bevosita kuzatishda berilmagan, yashirin ichki aloqalarini topish orqali ratsional, nazariy bilimga erishiladi. Narsa va hodisalar haqida nazariy bilimiga ega bo'lganimizdagina biz ma'lum ilmiy haqiqatni qo'lga kiritgan bo'lamiz.

Barcha fanlar singari tilshunoslikda ham empirizmdan nazariy, ratsional bilim farqlanadi. Garchi bu ikki bilim bosqichi tasavvuf falsafasida juda yaxshi farqlangan va har qanday ilmiy haqiqat idrokiy (nazariy) bilim asosida erilishi mumkinligi bayon qilingan bo'lsa ham, tilshunoslikda bu ikki bilim o'rtasidagi farq V.Gumboldt tomonidan ko'rsatildi va F.de

Sossyur tomonidan izchil bayon qilib berildi.

Yuqoridagi tilshunoslar har qanday nutqiy aloqa umumiylik va hususiylik dialektikasini o'zida namoyon etuvchi til-nutq munosabati asosida ro'y berishini ta'kidlaydilar. Til muayyan ijtimoiy guruhning aloqa vositasi sifatida imkoniyat tarzidagi ijtimoiy-ruhiy umumiyliklar bo'lsa, uning bevosita ma'lum shaxslar tomonidan voqeyelanishi, talaffuz etilishi va eshitalishi nutqidir. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bizning sezgi organlarimizga bevosita nutq birliklari beriladi. Ularni biz kuzatish jarayonimizda amaliy (empirik) bilamiz. Bir qancha nutqiy birliklar zamirida yotgan va ularning har qaysisida takrorlanish xususiyatiga ega bo'lgan umumiy belgilar majmuasi til birliklari sanaladi. Demak, til birliklari nutq birliklarini kuzatish, ularning tuzilishini aniqlash va bir-biriga qiyoslash orqali belgilanadi. Boshqacha aytganda, til birliklari nazariy bilish bosqichida idrok orqali inkor etiladi. Til birliklari ayrim mualliflar tomonidan invariant deb ham yuritiladi. Invariant variantga qarama-qarshi qo'yiladi.

Invariant va variant muayyan sinfga mansub bo'lgan predmetlarning, belgi-xususiyatlarning ziddiyatli, ikkilangan xususiyatini aks ettiradi.[6,28] Har qanday narsa va hodisa tarkibida ziddiyat bo'lganligi uchun ham yashovchanlikka ega bo'ladi. Har qanday o'zgarish, har qanday harakat ham ziddiyatning o'zidir. [1,115]

Invariant-variant zidlanishida invariantlilik xususiyati ma'lum narsani shunga o'xshash boshqa narsada ham mavjud bo'lgan umumiy xususiyatni ko'rsatadi. Variantlilik esa invariant xususiyat bilan bir sinfga birlashgan predmetlardan faqat bittasi uchun xos xususiyatni namoyon qiladi. Demak, har qanday variant ikki belgini o'zida mujassam etadi. Biri bu variantni muayyan sinfga mansub ekanligiga ishora qiluvchi belgi. Bu belgi shuning uchun ham birlashtiruvchi belgi hisoblanadi. Ikkinchisi esa shu variantgagina xos, boshqasida mavjud bo'lmagan belgisi bo'lib, bu belgi orqali bir

variant boshqasidan ajralib turadi. Shuning uchun ham bu belgi farqlovchi belgi sanaladi. Anglashiladiki, har qanday variant birlashtiruvchi va farqlovchi belgilardan iborat bo'ladi. Biri sinfga mansubligini, ikkinchisi sinf tarkibida o'ziga xosligini ko'rsatib turadi. Shuning uchun ham tilshunoslarning vazifasi bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hodisalarni tahlil qilish orqali til birliklarining til sistemasidagi qimmatini

aniqlash, til birliklarining o'z ichida va o'zaro ziddiyatli munosabatlarini ochib berish bo'lmog'i kerak. Til birliklari o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar – oppozitsiyalar va bu oppozitsiyaga kirishgan a'zolarning ma'lum sharoitda, muayyan nutqiy vaziyatda zidlanish belgisining yo'qolishi – mo'tadillashuvi (neytralizatsiyasi) ana shu asosda aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Гегель. Сочинения. Том 5. – М.: Госоцэкономиздат., 1957. -715 с.
- 2.Nabiyeva D. O'zbek tilida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabati. Filol.fanlari nomzodlik dissertatsiyasi. –Toshkent, 1998. – 164 b.
- 3.Nurmonov A.N. Tilda umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishi. // O'zbek tili va adabiyoti. – 1995, №5. – В.35-38.4.Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. – М.: Наука, 1973. –314 с.
- 5.Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. – М.: Наука, 1970. –602 с.
- 6.Овсянников М.Ф. Философия Гегеля. – М.: Наука, 1959. – 304 с.
- 7.Сычев Н.И. Диалектический путь познания объективной реальности. – М.: Высшая школа, 1975. – с 25.
8. Shahobiddinova Sh. O'zbek tili morfologiyasi umumiylik-xususiylik dialektikasi talqinida. – Andijon: Nashriyotsiz, 1995. – 69 b.

SHAXSIY YOZISHMALAR LINGVISTIK EKSPERTIZASIDA METODIKA MASALASI

ПРОБЛЕМА МЕТОДОЛОГИИ В ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЕ ЛИЧНОЙ ПЕРЕПИСКИ

PROBLEM OF METHODOLOGY IN LINGUISTIC EXAMINATION OF PERSONAL CORRESPONDENCE

To'rayeva Dildora Anvarovna,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvistik ekspertizaning yuzaga kelish sabablari, jamiyatdagi jinoiy muammolarga tilshunoslikka aloqador bilimlarning zarurligi, hududiy xoslangan birliklarning lingvistik va dialektologik tahlil asoslari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik ekspertiza, huquqshunoslik, areologiya, dialektologiya, tovar belgisi, plagiatlik, intellektual mulk

Аннотация В данной статье рассматриваются причины возникновения лингвистической экспертизы, необходимость лингвистических знаний, относящихся к криминалистическим проблемам в обществе, основы лингвистического и диалектологического анализа территориально обусловленных единиц.

Ключевые слова: лингвистическая экспертиза, Юриспруденция, ареология, диалектология, товарный знак, плагиат, интеллектуальная собственность

Annotation. This article discusses the causes of linguistic expertise, the need for linguistic knowledge related to criminalistic problems in society, the basics of linguistic and dialectological analysis of geographically determined units.

Keywords: linguistic expertise, Jurisprudence, areology, dialectology, trademark, plagiarism, intellectual property

So'nggi yillarda mamlakatimizda jamiyatning barcha sohalarining hamkorligi o'sib bormoqda. Jinoyat belgilari va so'z orqali sodir etilgan huquqbuzarliklar keng avj olganligi sababli so'z orqali sodir bo'layotgan jinoyatlar, og'zaki va yozma nutqqa aloqador ishlar tobora sud muhokamasining faktiga aylanib bormoqda. Shu sababli ham, amaliy tilshunoslik va huquqiy bilimlar integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan lingvistik ekspertiza yo'nalishining taraqqiyoti qator muammoli maslalarining yechimiga sabab bo'ladi. Ushbu yo'nalishning paydo bo'lishi uchun matni lingvistik tekshirishga oid quyidagi sabablar mavjuddir:

1. O'zbek tilining pokligi, ommaviy axborot vositalari va rasmiy hujjatlarda o'zbekcha so'zlar va iboralarni ishlatishning to'g'riligi va aniqligi uchun milliy tilni tadbiiq etishga doir harakat;
2. Insoniyat sha'ni, qadr-qimmatini va ishbilarmonlik obro'sini himoya qilish uchun yuzaga kelgan ko'plab murojaat va da'volarni ko'rib chiqish;
3. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, plagiat va soxta bosma manbalarning yuzaga kelishiga qarshi kurashish;
4. Haqorat va tuhmat, jinoiy ta'qib, inson qadr-qimmatini kamsitish, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash asosida jamoatchilikning tomonidan ehtiyotkorlikka chaqirilishi;
5. Saylovlar paytida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlariga qarshi uyushtirilgan turli shakldagi da'vatlarga qarshi kurashish;
6. Giyohvandlik va psixotrop vositalarni jamoatchilik targ'iboti uchun olib borilgan har qanday shakldagi nutqiy murojaatlarga nisbatan ma'muriy jazo joriy etish [1.112];

Lingvistik ekspertiza doirasida quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

- munozarali matn, so'z yoki til belgisini semantik taribini o'rganish maqsadida tadqiq qilish (masalan, hujjat, maqola, teleko'rsatuv, tovar nomi, savdo belgisi va boshqalar.);
- munozarali matnni o'rganish, so'z yoki lingvistik belgi janr, gapning sintektik va semantik qurilishi yoki leksiko-grammatik shakli nuqtai nazaridan ifodalash;
- tijorat nomlari (tovar nomlari, tovar belgilari) ning o'ziga xosligini aniqlash yuzasidan tadqiqotni amalga oshirish;
- hozirgi o'zbek tilining me'yorlarini qo'llash qoidalarini hisobga olgan holda professional lingvistik bilimlar asosida tushuntirish bahsli matnni funksional va uslubiy jihatdan tahlil qilish kabilar [2.56].

Yuqoridagi jihatlarni e'tiborga olgan holda anonim yozishmalarda hududga aloqador nutqiy birliklarni ajratish, saralash va areologik jihatdan tahlilni amalga oshirish ham tilshunoslik bilimlarini talab etadi. Xususan, o'zbek tili ko'p shevalikka asoslangan va me'yor sifatida belgilangan har bir so'z ham o'z ekvivalentiga ega. Nutqiy faoliyatni ixcham, ravon, tez va tushunarliroq ifodalash uchun, albatta, bu variantlardan foydalaniladi. Shunda so'zlovchi o'zi bilmagan holda nutqda adabiy me'yordan chekinish holatlariga duch keladi. Lisoniy birliklarning bunday ko'rinishi tilshunoslikda noadabiy unsurlar (leksik, grammatik, fonetik) nomi bilan yuritiladi. Jahon tilshunosligida Y.V.Fomenko, L.P.Demidenko, L.I.Skvotsov, S.N.Zeitlin, F.P.Sergeyev, V.A.Grigorev noadabiy unsurlar haqida tadqiqot ishlari olib borganlar[3.50-56]. Ular grammatik

qoidalarining buzilishini "substandart" deb atashdi[4.14]. V.P.Korovushkinning fikriga ko'ra, "substandart" atamasi XX asr 30-yillarining o'rtalarida ingliz tilida mustahkamlangan va "adabiy bo'lmagan til" sifatida qaralgan. O'zbek tilshunosligida gazeta matnlarida leksik me'yorning buzilishi haqida A.Abdusaidov, talaba yoshlar nutqida noadabiy unsurlarning voqelanishi haqida N.Azizova, noadabiy leksik unsurlardan shevalar va uning adabiy me'yorga mosligi yuzasidan Sh.Shoabdurahmonov va M.Mirzayev, gazeta tilida noadabiy leksik unsurlar masalasida G'.Karimov, I.Rasulov, N.Qodirova kabi olimlar tadqiqot ishlari olib bordilar. Shuningdek, noadabiy leksik unsurlar masalasida jahon tilshunosligi lingvistik ekspertiza sohasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Nutqda noadabiy stilistik unsurlar masalasida B.I.Viktorovna, insonning shaxsini obro'sizlantirish, omma oldida haqorat qilish masalalarining lingvistik tadqiqi yuzasidan K.I.Brinev, A.N.Baranov, M.B.Varashova; Facebook, MySpace, Twitter ijtimoiy tarmoqlaridagi yozishmalarning punktuatsiya, imlo va noadabiy unsurlarini lingvistik tahlil qilish yuzasidan K.C.Migell kabi olimlar tadqiqot olib borishgan. Ushbu tadqiqotlarda inson omili asosida jamiyat uchun manfaatli bo'lgan ilmiy yangiliklar haqida mulohaza yuritiladi.

Noadabiy leksik unsurlar nasrda va nazmda yozuvchi, shoirlar nutqida ham aks etadi. Ba'zan ular tomonidan asarga kiritilgan noadabiy leksik unsur ko'pchilikning ichida ommalashib me'yor sifatida qabul qilinadi va bu o'zbek adabiy tilining boyishiga xizmat qiladi. Ba'zan bu nutqning soxtalashishiga olib keladi. Matndagi til birliklarining omma tomonidan qabul qilinmagan, hamma uchun tushunarli bo'lmagan qismini noadabiy unsur deya baholash mumkin. Noadabiy leksik unsurlar mahalliy dialekt tarkibida emas, balki ijtimoiy dialektga mansubdir. To'g'ri, unda ham mahalliy dialekt qisman aks etadi, ammo ma'lum ijtimoiy qatlamga xos bo'lganligi, muayyan guruhdagi shaxslarning umumxalq tilidagi so'zlarga

o'z manfaatlaridan kelib chiqib o'zgacha ma'no kasb etishlari yoki muayyan sohaga oid kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o'zlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi.

Ma'lumki, nutqda noadabiy leksik unsurlarning uchrashi o'zbek milliy tili uchun xos. O'zbek milliy tili va o'zbek adabiy tili turli tushunchalardir. O'zbek milliy tili kengroq, ya'ni u nutq faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Ammo o'zbek adabiy tili o'zining uslubi, dialekti, kasbiy jargoni kabilarni o'z ichiga oladi. Milliy til turli xil ijtimoiy guruhlarining argo to'plamidir va uning qat'iy me'yorlashgan varianti davlat tuzumining adabiy tili sifatida qaraladi[5.231]. O'zbek adabiy tili milliy tilning me'yorlashgan va kodifikatsiyalashgan shaklidir. To'g'ri ma'noda, adabiy til uchun milliy til nutq birliklarining ombori vazifasini bajaradi. Adabiy tilning me'yorlashishi, odatda, ma'lum bir davrda va ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan eng barqaror, an'anaviy tarzda muqaddaslashtirilgan til vositalari va ulardan foydalanish qoidalari majmui sifatida tushuniladi. Milliy til adabiy til me'yorlarini belgilash uchun asosdir. Shu tarzda til me'yorlarini belgilash, uni nutq vaziyatiga ko'ra baholash, ilmiy adabiyotlarga kiritish va ommaviy axborot vositalarida aks ettirish kodifikatsiya jarayoni deyiladi. O'zbek adabiy tilining kodifikatsiya manbalari lug'atlar, umumiy grammatika va darsliklardir. Har bir ziyoli kishining vazifasi til nuqsonini aniqlash, uni to'g'ri baholash va takomilga etkazib rivojlantirish, nutqda parazit so'zlar kirib kelishining oldini olish orqali ularning lisoniy immunitetini mustahkamlashdan iborat. Zotan, til madaniyatini yuqori darajada saqlash, adabiy tildan foydalanishda me'yorlarga rioya qilish davlat tili siyosatining eng muhim vazifasidir.

Bir qator tilshunoslar: E.G.Azimova, V.S.Vinogradova, V.G.Gaka, Y.N.Retskera, L.I.Skvortsova adabiy me'yordan chetga chiqishning ikki turini farqlaganlar:

1) adabiy bo'lmagan, ammo har qanday xususiy normaga mos keladigan birliklar (dialektlar, umumiy nutq, jargon, varvarizm, va boshqalar);

2) umuman olganda, har qanday me'yorlarga doimiy bo'ysunmaslik xususiyatiga ega nutq ko'rinishlari (okkazionalizm, bolalar nutqi, chet ellik shaxs nutqi).

S.I.Vlaxov va S.Florinning tadqiqotlariga ko'ra, birinchi turi adabiy me'yordan jamoaviy tarzda chetga chiqish deb ataladi, ya'ni ular jamiyatning turli qatlamlari doirasida ishlatilganligi uchun o'ziga xos xususiy belgilariga ega va ikkinchi tur nutqi odamlar bilan bog'liq emas, balki insonlarning umumiy faoliyati, hududiy mansubligiga ko'ra yuzaga keladi[6.324]. Shu qatorda, individual normadan chetga chiqish atamasi ishlatiladi. O'zga tilli shaxs boshqa bir milliy tilning me'yorlaridan, tabiiyki, bexabar bo'ladi va shunga ko'ra uning talaffuzida noadabiy unsurlar ko'p

1.2.1. jadval

uchraydi. Shuningdek, yosh bolalar nutqida ham bu jarayon kuzatilishi mumkin. Bu ham jamoaviy tarzda emas, balki har bir yosh bola o'zining intellektual salohiyati, yoshi, jinsiga ko'ra leksik boylikdan foydalanadi.

Nutqning sofligiga putur etkazadigan lisoniy unsurlar, ya'ni noadabiy leksik qatlamlarga dialektizmlar, varvarizmlar (chetdan kirgan so'zlarni noo'rin, haddan tashqari ko'p ishlatish), vulgarizm, kanselyarizm va parazit so'z kabilar kiradi.

Ushbu leksik qatlamning inson nutqida aks etishi ikki yo'nalish bo'yicha tahlil qilinadi:

1. Dialektologiya faniga oid tahlil;
2. Kriminalistikaga oid tahlil[7.16].

Ammo ushbu ikki sohaning inson nutqiy hosilalariga nisbatan qarashlari bo'lakchadir. Jadval asosida qiyoslang:

| Dialektologik tahlil | Lingvistik ekspertiza |
|---|--|
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Noadabiy leksik unsurlarni leksik boylik sifatida o'rganadi va bu adabiy til lug'at boyligining oshishiga xizmat qiladi; 2. Hududiy chegaralangan birliklarni yig'ish va tasniflash; 3. So'zning va birikmalarning etimologiyasini o'rganish; 4. Adabiy tilga oid birliklarning ekvivalentlarini aniqlash; 5. So'zlarning tarixiy taraqqiyotini qiyosan o'rganish. | <ol style="list-style-type: none"> 1. Leksik qatlamni o'rganish pirovardida insoniyatning huquqiy manfaati asosiy o'rinda turadi; 2. Hududiy xoslangan so'z va birliklarni o'rganish; 3. So'z va birliklarning semantik blokklarini tashkil etish; 4. So'zlarning nutq vaziyatiga xosligini o'rganish; 5. Birliklarning psixik ta'sir kuchini aniqlash; 6. So'z va birliklarning jinsga ko'ra mansubligini o'rganish; 7. So'z va birliklarning shaxs-yosh xususiyatlariga ko'ra xosligini o'rganish; 8. Ijtimoiy qatlamga xos so'zlarni o'rganish; 9. So'z va birliklarning qo'llanish yo'nalishini aniqlash: da'vat, tahdid, tahqirlash, ekstremizm, obro'sizlantirish, kamsitish kabi munosabatlar. |
| Umumiy jihati | |
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Har bir nutq birligining semantik-sintaktik xususiyatlarini o'rganish; 2. Adabiy va noadabiy unsurlarni farqlash; 3. Birliklarning hududiy xosligini aniqlash; | |

4. Lingvistik usullar asosida so‘z va birliklarni o‘rganish va tasniflash[8.105].

Fanda har ikki sohaning ham o‘rni bo‘lak. Dialektologik tahlil so‘zga leksik boylik sifatida qarab, so‘zlardagi turli fonetik xususiyatlarni atroflicha tahlil qiladi. Va bu orqali so‘zlar taraqqiyotining takomiliga katta hissa qo‘shadi. Dialektologiya sohasining yana bir yutug‘i adabiy til lug‘at boyligining oshishiga xizmat qiladi. Lingvistik ekspertiza sohasida esa, asosan, insonning qadr-qimmatini, sha‘ni, obro‘yi kabi huquqiy manfaatlarini etakchi o‘rinda turadi[9.7-15].

Bu soha leksik-grammatik qatlamning semantik ifodasi, psixofiziologik, pragmatik xususiyati, nutq vaziyatiga ko‘ra ta‘sir yo‘nalishi kabilar bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, inson manfaatini himoya qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Yozishmalarda yuqoridagi ikki sohaning tahlil usullari bir-birini to‘ldiradi, ya‘ni ular hamkorligidagi harakat amalga oshirilishi ekspertizaning to‘la-to‘kis amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Как провести лингвистическую экспертизу спорного текста? Памятка для судей, юристов СМИ, адвокатов, прокуроров, следователей, дознавателей и экспертов [Текст] / под ред. проф. М.В. Горбаневского. – 2-е изд., испр. и доп. – М. : Юридический Мир, 2006. – 112 с.
2. Как провести лингвистическую экспертизу спорного текста? Памятка для судей, юристов СМИ, адвокатов, прокуроров, следователей, дознавателей и экспертов [Текст] / под ред. проф. М.В. Горбаневского. – 2-е изд., испр. и доп. – М. : Юридический Мир, 2006. – 112 с.
3. Фоменко Ю.В. О типологии речевых ошибок // Рус. яз. в школе. № 2 – Новосибирск, 1987. – С. 50-56.;
4. Александрович З. Д. Особенности перевода отклонений от литературной нормы (на примере романа З. Смит «Белые Зубы»). Выпускная квалификационная работа. – Челябинск, 2017. – С. 14.
5. Елистратов В.С. Арго и культура [Текст]. – М., 1995. – С. 231.
6. Влахов С. Непереводимое в переводе [Текст] / Влахов С. Флорин С. – М., 2006. – 324 с.
7. Ярошук И.А., Жукова Н.А., Долженко Н.И. Лингвистическая экспертиза: Учебное пособие / – Белгород : ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 16 с.
8. Mengliyev B.R., To‘rayeva D.A. Methods of linguistic examination by anonymous letters in the uzbek language // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. <http://berlinstudies.de/index.php/berlinstudies/article/view/29/29> Volume 1, Issue 1.2, – Berlin, 2021. Pages: 101-105.
9. To‘rayeva D.A. O‘zbek tilidagi anonim xatlarining milliy korpus asosidagi tahlili, o‘rni, ahamiyati// International journal of world languages. <http://www.ejournals.id/index.php/IJWL/article/view/177/163>. Volume 1, No. 2, –Polsha, 2021. Pages: 7-15.

PROFESSOR NURMONOVNING SINTAKTIK

QARASHLARI HAQIDA

О СИНТАКСИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДАХ ПРОФЕССОРА А.НУРМАНОВА

PROFESSOR NURMANOV'S SYNTACTIC VIEWS

H.Z.Iminjonova (Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi)

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilshunosligining vakillaridan A.Nurmonovning sintaktik qarashlari, jumladan, gapni bo‘laklarga ajratish, gap bo‘laklari o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: gap bo'laklari konsepsiyasi, munosabat logikasi, argument, aktant, predikat, propozitsiya, valentlik, shakliy tuzilish, mazmuniy tuzilish, predikativ asos, deskripsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются синтаксические взгляды представителя узбекского языкознания А. Нурманова, в том числе о членение на части речи, синтаксические отношения между частями речи.

Ключевые слова: концепция о частях речи, реляционная логика, аргумент, актант, предикат, пропозиция, валентность, формальная структура, семантическая структура, предикативная основа, дескрипция.

Annotation. The article discusses the syntactic views of A. Nurmonov, a representative of Uzbek linguistics, including the division of speech into parts, the syntactic relationship between parts of speech.

Keywords: concept of parts of speech, relational logic, argument, actant, predicate, proposition, valence, formal structure, semantic structure, predicative basis, description.

An'anaviy tilshunoslikda har qanday gap tarkibida ega-kesim munosabati yotadi, ega - kesim ifodalagan belgining tashuvchisi, kesim esa eganing belgisini bildiruvchi bo'lak deb hisoblanadi. Bu yo'nalish tarafdorlari ega va kesimdan boshqa bo'laklarni ikkinchi darajali bo'laklar sifatida belgilaydilar va bosh bo'laklardan biriga bog'lanib, gapdan ifodalangan mazmuni kengaytirib kelishlarini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi mavqei bir xil emasligi, shu bilan birga, har qaysi bo'lak o'z ichida mayda bo'laklardan tashkil topgan nisbiy butunlik ekanligini tushuntirib bera olmaydi.

A.Nurmonovning ta'kidlashicha, XIX asrning yarmidan boshlab vujudga kelgan munosabat logikasiga ko'ra, hukm asosida faqat predikat turadi. Munosabat logikasi ta'sirida tilshunoslikda gaplarning bir cho'qqili nazariyasi vujudga keldi. Bunga ko'ra, gapning konstitutiv elementi predikat, qolganlari shu predikat valentliklarini reallashtiruvchi, grammatik jihatdan unga tobe bo'lgan bo'laklar - argumentlar yoki aktantlar hisoblanadi. Ega ham predikat aktanti sifatida daraja jihatdan to'ldiruvchilar qatorida turadi[6,41].

Har qanday gap predikat ifodadan tashkil topganiga qaramay, har qanday predikat ifoda gap bo'la bermaydi. Uning gap sifatida shakllanishi uchun predikativlik bo'lishi muhim. Predikativlikning asosida esa predikat joylashadi. Professor A.Nurmonovning

ta'kidlashicha, predikativlikni o'zida aks ettirgan har qanday predikatning o'zi eng kichik gap hisoblanadi. Predikatning moddiy shakli faqat fe'llardangina iborat bo'lmaydi. Otlar ham predikat bo'lishi va predikativlik shaklini olib gapning kesim vaziyatini egallashi mumkin.

Predikatlar fe'l bilan ham, fe'l bo'lmagan so'z shakllari bilan ham ifodalanishi mumkin va har qanday holda ham propozitsiyaning markaziy elementi hisoblanadi. Gapning shakliy tuzilish tomonini tilshunoslikda sintaktik tuzilish termini bilan ham yuritiladi. Demak, gapning sintaktik tuzilishi deyilganda, uning shakliy tomoniga e'tibor beriladi.

Gapning sintaktik tuzilishini tashkil etgan unsurlar an'anaviy tilshunoslikda gap bo'laklari atamasi bilan o'rganiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, gapning sintaktik tuzilish unsurlari bilan gap bo'laklari teng emas. Shunday sintaktik tuzilish birliklari borki, ular gap bo'laklari tarkibiga kiritilmaydi. Anglashiladiki, gap bo'laklari gapning hamma sintaktik tuzilish birliklarini qamrab ololmaydi [5,58]. Bu nuqtai nazardan, gapning sintaktik tuzilishi tushunchasi gapning bo'laklari tushunchasiga nisbatan kengroq.

Turkiy tillarda kesim gap tarkibida etakchi rol o'ynaydi. Kesim gapning predikativlik belgisini tashuvchi axborot markazi bo'lish bilan birga, uning valentligini (bo'sh o'rinlarini) to'ldirib keluvchi unsurlarning sintaktik vaziyatda kelishini taqozo etuvchi uyushtiruvchi markaz hamdir. Gapda kesimning bo'lmasligi mumkin emas.

Gapning bosh bo'laklarini ajratishda xilma-xil qarashlar mavjud bo'lganidek, gapning ikkinchi darajali bo'laklarini ajratishda ham tilshunoslar o'rtasida bir xillik yo'q. Ikkinchi darajali bo'laklarni belgilashda barcha tilshunoslar faqat bir masalada birlashadilar. Ularning hammasi gap bo'lagi bo'lishi yoki bo'lmasligini belgilash uchun tobelanish munosabatiga kirishadimi yoki yo'qmi degan masalaga tayanadilar. Tobelanish munosabatiga kirishsa, gap bo'lagi, ya'ni ikkinchi darajali bo'lak, kirishmasa gap bo'lagi emas, deb hisoblaydilar.

Ikkinchi darajali bo'laklarning ichki bo'linishidagi har xillik ham tilshunoslarning asosga ko'ra tasnif qilishidan kelib chiqadi. Tilshunoslarning bir guruhi ikkinchi darajali bo'laklarni tasnif qilishda ularning hokim bo'lakka bog'lanish usuliga tayanadilar. Bunga muvofiq, ikkinchi darajali bo'laklar uch guruhga bo'linadilar: moslashuvchi bo'lak, boshqaruvchi bo'lak, bitishuvchi bo'lak.

Ikkinchi guruh tilshunoslar qanday ikkinchi darajali bo'lak ekanligini tacniflashda ularning moddiy asosi bo'lgan so'z turkumlari va ularning shakllariga asoslanadilar.

Ayrim olimlarning fikricha, ot o'zaro qarama-qarshi qo'yilgan ikki shaklga bosh kelishik va vosita kelishiklarga; fe'l ikki shaklga - shaxsli va shaxssiz shakllarga ega. Bunday so'z sinflari o'zlarining shakllari bilan gap bo'laklarining moddiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Fe'lning shaxsli shaklidan ifodalangan gap bo'lagi - kesim, bosh kelishikdagi otdan ifodalangan bo'lak - ega, vosita kelishiklaridagi otdan ifodalangan bo'lak - to'ldiruvchi, ravishdan ifodalangan bo'lak - hol va shaxssiz fe'ldan ifodalangan bo'lak - ikkinchi darajali, tobe qism sanaladi[6,43].

Professor A.Nurmonovning «Gap haqidagi sintaktik nazariyalar» asarida quyidagilar bayon qilingan edi: «An'anaviy tilshunoslikdagi gap bo'laklariga va ularning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishdagi xilma-xillik gapni bo'laklarga ajratishning ob'ektiv mezonlaridan kelib chiqadi. Bunda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning

differensial belgisi ularning predikativ asosga kirish kirmasligi, predikativ asosni hosil qilishda qatnashish -qatnashmasligi hisoblanadi»[6,41].

Predikativ asosda predikatlar markaziy o'rinni egallaydi. Ular fe'llar va fe'l bo'lmagan (keng ma'noda otlar yoki belgi bildiruvchi so'zlar) so'z shakllari orqali ifodalanadi. Shuning uchun predikatlar o'zbek tilshunosligida A.Nurmonov tomonidan fe'l predikatlar va ot predikatlariga bo'linadi.

Gap bo'laklarini darajalarga ajratishda gapni tashkil etgan a'zolarining predikativ asosga munosabatiga tayanish, bizning nazarimizda, katta ahamiyatga ega. Predikativ asosni tashkil etuvchilar gapning markaziy bo'lagi hisoblansa, predikativ asos tarkibiga kirmaydigan, unga qandaydir yo'l bilan bog'langan bo'laklar ikkinchi darajali bo'lak hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan an'anaga ko'ra to'ldiruvchi, hol atamasi bilan yuritiluvchi bo'laklar bilan aniqlovchilar bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi. To'ldiruvchi va hollar fe'l predikatlarining ob'ekt, o'rin, miqdor, sabab, payt singari valentliklarini to'ldirib, shu predikatga nisbatan to'ldiruvchi va hol pozitsiyasini egallaydi.

Ikkinchi darajali bo'laklardan hisoblangan aniqlovchi va izohlovchi yuqoridagi ikkinchi darajali bo'laklardan tubdan farq qiladi. Birinchidan, aniqlovchi doimo ot predikatlariga bog'lanadi, boshqacha aytganda, aniqlovchi bo'lakning bo'lagi sifatida bevosita ot predikatlariga dahldordir. Chunki u ot predikatlar bilan sintagmatik munosabatda bo'ladi, ot predikatlarining belgi valentligini to'ldiradi. Shuning uchun ham aniqlovchi haqida fikr yuritganda, uning aniqlanmishi vazifasida keluvchi ot predikatlar haqida bahs yuritishga to'g'ri keladi. O'zbek tilida predikatlarining tasnifi va uning o'ziga xos xususiyatlari olimning shogirdi O.Tojiev tomonidan monografik planda maxsus o'rganilgan. Uning ta'kidlashicha, predikat otlar ot, sifat, son, olmosh, ravish kabi so'z turkumlari orqali ifodalaniib, sintaktik sathda predikativlik shakliga ega bo'lib, kesim vaziyatida kelishi mumkin[9,12].

Kesimlik shaklini olish-olmasligidan qat'i nazar, predikatlar har qanday holatda ham, temporallik, kvantitativlik, qarashlilik valentliklarini to'ldirib keluvchi aniqlovchilar bilan kengayish imkoniyatiga ega. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, gap bo'laklariga ajratish va uni darajalarga bo'lish yuzasidan hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar yo'q emas. Shu bilan birga, gap bo'laklarini faqat bosh va ikkinchi darajali bo'laklar bilan cheklab qo'yish ham etarli ilmiy asosga ega emas. Ana shundan kelib chiqib, gapning struktur markazini kesim deb belgilagan holda, u bilan bevosita sintagmatik munosabatda bo'lgan sintaktik birliklarni gapning bo'laklari, kesimning argumentlarining bo'sh o'rinlarini to'ldirib keluvchi sintaktik birliklarni ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Professor A.Nurmonov aniqlovchining argumentning argumenti ekanini 80-yillardayoq ko'rsatib o'tadi: «turkiy tillarda gap predikat va uning argumentlari birligi sifatida qaralar ekan, uning sintaktik strukturasi ham xuddi shu predikat asosida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Bu vaqtda gap sintaktik strukturasi elementlarga ajratishning uch etapi bo'ladi: «birinchi etapida gap tarkibidagi predikatlarni (kesimni) ajratish; ikkinchi etapida uning argumentlarini ajratish; uchinchi etapida argumentlarning o'z ichki argumentlarini belgilash».

Demak, gapning markaziy birligi sifatida belgilangan kesimga nisbatan unga tobe gap bo'laklari ega, hol va to'ldiruvchi hisobga olinadi, so'ngra aniqlovchi ushbu bo'laklarning kengaytiruvchisi tarzida

bo'lakning bo'lagi hisoblanadi. Aniqlovchilar gap kesimi bilan to'g'ridan to'g'ri munosabatga kirishmaydi, balki kesimga bog'lanib kelayotgan bo'laklarning belgisini bildiradi va gap bo'laklarini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Aniqlovchi gapni bo'laklarga ajratishning uchinchi darajasini tashkil etadi. Chunki aniqlovchilar predmetga tobelanib, u bilan zich bog'lanadi va shu predmetning murakkab nomini hosil qiladi. Aniqlovchi-aniquanmish munosabatidagi qurilmalar gap kesimiga bir butun holda bog'lanadi va gapda bir vaziyatni egallaydi, aniqlovchining o'zi butun gap tuzilishi uchun nofunktsional pozitsiyada turadi, uning mavqei aniquanmishning mavqei asosida belgilanadi.

Gapning struktur sxemasini kesim va uning «bo'sh o'rin»lari nuqtai nazaridan belgilash aniqlovchi va izohlovchilarga mutlaqo boshqacha yondashuvni talab qiladi. Chunki bu bo'laklar kesimning «bo'sh o'rinlarini to'ldirib, unga nisbatan muayyan sintaktik pozitsiyada keluvchi bo'laklarni kengaytirib, ular bilan birga butunlik, ya'ni deskripsiyani hosil qiladi. Bu esa sodda gapni mazmun va grammatik tomondan murakkablashtiradi. Aniqlovchilar gap predikati bilan bilvosita aloqaga kiruvchi unsurlar bo'lib, ular predikat argumentlari sifatida amal qiluvchi (to'ldiruvchi, ega, hol) gap bo'laklari uchun kengaytiruvchi argument sanaladi. Bu narsa aniqlovchini bo'lakning bo'lagi sifatida e'tirof etish uchun imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamatov R.A. O'zbek tilida gap bo'laklarining noamaliy mavqei masalasi. Filol. fanl. nomz. ...diss. avtoref. Samarqand, 1994.
2. Ganieva, Sh. "O'zbek frazeologizmlarning struktur tadqiqi." (2013).
3. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv //Toshkent: Fan. – 2007. – T. 152.
4. Iskandarova Sh. Mazmuniy struktura va so'zlovchi shaxs masalalari // Ilm sarchashmalari. UrDU ilmiy xabarlari. Urganch, 2018. № 12.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. -Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. Nurmanov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi //Toshkent: Fan. – 2008.
7. Nurmonov A.N. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. -Toshkent: ToshDU, 1988.
8. Nurmonov A.N., Mahmudov K., Ahmedov A., Solixojaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -Toshkent: Fan, 1992.

9. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildli. Toshkent: Akademnashr, 2012.
10. Usmonova H.Sh. Deskripsiya (murakkab nom) va uning gap tuzilishidagi o'rni. Filol. fanl. nomz. ...diss. avtoref. -Toshkent, 1994.
11. Iskandarova S. M. Gnoseology and the Linguistic Landscape of the World //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 8. – С. 19-22.
12. Ganieva S. A. Syntagmatics of Phraseologisms and their Time Valency //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 8. – С. 232-236.

QASAMLAR TASNIFI

КЛАССИФИКАЦИЯ ПРИСЯГ

CLASSIFICATION OF OATHS

S.D.Nurmonova

Andijon davlat universiteti, tilshunoslik kafedrası tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqola nutqiy janrlardan biri bo'lgan qasam nutqiy janri, qasam leksemasining semantikasi va uning tasnifiga bag'ishlangan. Nutq vaziyatiga ko'ra qasamlar ichki va tashqi qasamlarga ajratilgan, misollar bilan tushuntirilgan. Qasamlar gender belgisiga ko'ra ajratilib, ularning uch turi ko'rsatilgan. Bundan tashqari qasamlar xususiyatiga ko'ra diniy, soha va xalqona qasamlarga ajratilgan.

Kalit so'z: kommunikatsiya, antinomiya, ritorik, fatik, informativ, nutqiy akt, ont, qasam, qasamyod, ichki qasam, tashqi qasam.

Аннотация. В данной статье изучается речевой жанр присяги, который является одним из речевых жанров, семантика лексемы присяга. По речевой ситуации присяги делятся на внутренние и внешние присяги, поясняемые примерами. Клятвы разделены по признаку рода, и указаны их три вида. Кроме того, по характеру клятв они делятся на религиозные, отраслевые и народные клятвы.

Ключевые слова: общение, антиномия, риторика, фатика, информативность, речевой акт, присяга, внутренняя присяга, внешняя присяга.

Abstract. This article examines the speech genre of oath, the semantics of the lexeme oath. According to the speech situation, oaths are divided into internal and external oaths and examples are provided. Oaths are divided according to the sign of gender, and their three types are indicated.

In addition, according to the nature of oaths, they are divided into religious, industry and folk oaths.

Key words: communication, antinomy, rhetoric, phatic, informative, speech act, oath, internal oath, external oath.

Inson o'z hayotiy faoliyati davomida turli sharoitlarda kommunikatsiyaga kirishadi, nutqiy faoliyat turlarining xilma-xilligi esa nutqiy janrlar ko'lamini kengaytiradi. Chunki inson faoliyati, qaysi jabhada bo'lmasin, diplomatik aloqalar, biznes, diniy jarayonlar, internet, media, davlat va jamiyat boshqaruvi, hunarmandchilik kabi hayotning barcha sohalaridagi faoliyati nutqiy voqelanish, so'zlashish asosida kechadi. Insonning o'z fikrini

bildirish maqsadining nutqiy voqelanishi o'ziga xos vaziyat, shu vaziyatga tegishli atamalar, maxsus grammatik qurilmalarning nutqiy janrda aks ettirilishi bilan xarakterlanadi. Masalan, har bir sohada bir nechta masalalarga oydinlik kiritish, tahlil qilish va yakuniy xulosaga kelish uchun majlis (yig'ilish) nutqiy janridan keng foydalanadi. Majlisning soha bo'yicha har xil turlari Oliy Majlisning yalpi yig'ilishi, Oliy ta'lim muassasining Ilmiy Kengash yig'ilishi,

qurilish tashkilotidagi yig‘ilish (planirovka), tibbiyot muassasidagi yig‘ilish (pyatiminutka), maktabning Pedagogik kengash yig‘ilishi yoki bog‘chadagi yig‘ilishi kabi turlari mavjud.

Demak, nutqiy janrlar inson faoliyati bilan bog‘liq ravishda vujudga keladi. Ta‘kidlash kerakki, inson faoliyatining turli jabhalarini o‘rganuvchi fan sohalarining o‘zida ham nutqiy janrlarning ichki subjanrlari kuzatiladi. Masalan, pedagogika sohasidagi ilmiy asarlar, konferensiyalar, dissertatsiyalar, seminar, dars kabilar. Demak, nutqiy janrni turli fan sohalarida tadqiq qilish uning xilma-xilligini o‘rganish demakdir. Bu o‘rinda nutqiy janr va adabiyot, nutqiy janr va din, nutqiy janr va publitsistika, nutqiy janr va media, nutqiy janr va internet, nutqiy janr va biznes, nutqiy janr va falsafa kabilarni aytib o‘tish joiz. Mazkur sohalarining ichida ham nutqiy janrning ichki subjanrlari mavjud.

Nutqiy janrlardan biri qasamlardir. Qasamlar nutqda reallashganda nutqiy aktga aylanadi. Qasam matni o‘qilganda esa qasamyodga aylanadi. Shunga ko‘ra, qasam ichiladi, qasamyod qilinadi. Eski o‘zbek tiliga oid ilmiy-tarixiy manbalarda *bay‘at*, *ant*, *and*, *qasam*, *qasamyod* kabi so‘zlar “qasamyod” ma‘nosini ifodalaganligi qayd etilgan. Xorazm yodgorliklarida *bay‘at* so‘zi “qasamyod” ma‘nosida qo‘llanganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar uchraydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi *ont* so‘zi eski o‘zbek tilidagi *ant* va *and* so‘zlarining til taraqqiyotida shakliy o‘zgarishga uchragan ko‘rinishi bo‘lib, hozirda uning o‘rniga arab va fors-tojik tilidagi *qasam*, *qasamyod* so‘zlari tantanavorlik, ko‘tarinkilik, qat‘iylik va keskinlik ifodasi uchun faol qo‘llanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *qasamyod* so‘zi “qat‘iy va‘da, ont” (a), “sodiqlik haqida rasmiy va‘da, qasam” (b), *qasam* so‘zi “o‘zining haqligi, so‘zining to‘g‘riligi va sh. k.ni tasdiqlash, unga boshqalarni ishontirish uchun muqaddas narsalar, kimsalar nomini og‘izga olib aytiladigan

mas‘uliyatli so‘z, ont (a), “sodiqlik haqida rasmiy ravishda beriladigan tantanali va‘da, qasamyod (b)” *ont* so‘zi esa “muqaddas narsalar yoki kimsalarning nomini aytib, ularni o‘rtaga qo‘yib berilgan qat‘iy va‘da” ma‘nolarini bildirishi qayd qilingan.

Qasamlar tasnifiga kelganda, o‘z-o‘zidan, umumiy va xususiy qasam turlariga ajratiladi. Falsafada bo‘lganidek, umumiylik va xususiylik orasida alohidalik ham mavjuddir. Masalan, umumiy qasamlar barcha lingvomadaniyatlarda (Masalan, Prezident qasami, harbiylar qasami), xususiy qasamlar esa bir til yoki bir til oilasi bo‘lgan lingvomadaniyatlarda mavjud bo‘ladi (Masalan, xalqona qasamlar). Alohidalik esa ma‘lum sotsial guruh qasamlari uchun tegishli bo‘ladi (Masalan, soha qasamlari).

Umumiy qasamlar turiga kirgan Prezident qasamlari (inauguratsiya) personal qasamyod turiga kirishi, qasam rekvizitlari mavjudligi (masalan, Qur‘on, Bibliya yoki Konstitutsiya, bayroq, gerb), tantanavor qasamyod qilinishi (retual) bilan umumiylikni tashkil qiladi. Masalan, quyidagi qasamyodlarni ko‘rib chiqaylik:

Turkiya Prezidenti qasamyodi: *Davlatning mavjudligi va mustaqilligini, mamlakat va millatning ajralmas yaxlitligini, millatning mutlaq suverenitetini himoya qilishga, qonun ustivorligiga, demokratik va dunyoviy respublikaga, Otaturk tamoyillari va islohatlariga sodiq qolishga; jamiyatda tinchlik va farovonlik, milliy hamjihatlik va adolat, Konstitutsiyaga sodiqlik tushunchalari asosida har kim inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanishga haqli ekanligi haqidagi idealdan chetga chiqmaslikka buyuk Turk millati oldida sha‘nim va butunligimga qasamyod qilaman.*

Misr Arab Respublikasi Prezidenti qasamyodi: *Qodir Tangri nomiga qasamyod qilamanki, respublika tuzumini mustahkam saqlashga, Konstitutsiya va qonunlarni hurmat*

qilishga, xalq manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga, millat mustaqilligi va uning hududiy yaxlitligini himoya qilishgan. Avstraliya Prezidenti qasamyodi: *Men (ism), qirolicha ikkinchi Yelizavetaga, qonunga muvofiq merosxo‘rlari va vorislariga sodiq bo‘lishga qasamyod qilaman. Shunday ekan, Xudoyim menga yordam ber!*

Yuqoridagi Turkiya, Misr va Avstraliya mamlakatlari Prezidentlari qasamyodini ko‘rib chiqsak, ularning tematik mavzusi umumiy, ya‘ni Vatanga, Konstitutsiya va qonunlarga, xalqqa xizmat qilishdir.

Nutq vaziyatga qarab ikki xil bo‘lishi mumkin: ichki nutq va tashqi nutq. Ichki nutq hali reallashmagan imkoniyat tarzidagi kishi ongida hosil bo‘lgan nutqdir. Nutq organlarining harakati natijasida aniq tovushlar orqali yuzaga keladigan nutq tashqi nutq deyiladi. Ichki nutq so‘zlovchidan boshqa kishi eshitmaganligi uchun passiv nutq, tashqi nutq esa faol nutq deb hisoblanadi. Nutq janrlaridan biri bo‘lgan qasam ham shu tarzda ikkiga bo‘linadi:

1. Ichki qasam.

2. Tashqi qasam.

Ichki qasamning o‘ziga xosligi shundaki, u faqat so‘zlovchining o‘ziga ayon bo‘ladi, ya‘ni o‘ziga o‘zi qasam ichadi:

Ikromning ishi, - dedi u o‘ziga-o‘zi gapirib, - shundan boshqa hech kim Qosimning uyini yoqib yuborishga jur‘at qilolmaydi. Endi o‘zingdan ko‘r, valakisalang, onangdan tug‘ilganingga pushaymon qilmasam, otimni boshqa qo‘yaman. (N. Ismoilov. Iblis saltanati)

Yo‘q, aka, men ozgina dam olmoqchiman. Hali ishlash niyatim yo‘q. Agar taklif qilayotganingiz tansoqchilik bo‘lsa, unda uzr. Men bunaqa ishni boshqa qilmayman, deb o‘zimga-o‘zim qasam ichganman. (N. Ismoilov. Jaholat qurbonlari)

Ko‘rinadiki, ichki qasam ma‘lum vaziyatda boshqa kishilarga ham ochiq qilinishi mumkin. Faqat qasam

ichilgan vaqtida o‘ziga ayon bo‘ladi, xolos.

Odamning ustidan kulish qanaqa bo‘lishini hali senlarga ko‘rsatib qo‘yaman, - u o‘ziga-o‘zi gapira boshladi. - Kichkina deb, bilganlaringni qilmoqchisanlar-da. Ko‘ramiz. Uzoqqa borolmaysanlar. Bittama-bitta kallangni olmasam, otimni boshqa qo‘yaman. Hamma qilmishi uchun javob beradi! (N. Ismoilov. Iblis saltanati).

Ushbu misolda keltirilgan ichki qasam insonning ichki his-tuyg‘usini bildirib, ichki norozilik, g‘azab, tahdid ma‘nolarini bildiryapti.

Chunki o‘zimga – o‘zim qasam ichgandim: “Endi birovning burnini qonatmayman”, deb. (N. Ismoilov. Jaholat qurbonlari)

Bu qasamda esa teskari ma‘no ifodalanmoqda. Birinchi misolda tahdid mazmunida bo‘lsa, ikkinchi misolda qilgan ishlaridan pushaymonlik, endi birovga zarar etkazmaslik haqidagi qasam keltirilgan, ya‘ni qasamlar orasida ham ziddlik munosabati mavjud bo‘ladi.

Qayiqqa o‘tirib, so‘nggi bor quvonchu qayg‘ularimga maskan bo‘lgan orolga qaradim. Sheriklarimni birma-bir esladim. Ko‘z yoshga to‘ldi. Tirik qolsam, ular uchun qasd olishni ko‘nglimga tugdim. (N. Ismoilov. Baxtning olis manzili).

Shoshma xali peshonangdan ottirmasam, odam bolasi emasman. (Oybek. Qutlug‘ qon)

Yuqoridagi misollarda ham tahdid, qasd olish, g‘azab kabi his-tuyg‘ular ifodalangan. *Ko‘ngliga tugdim* ham ichki qasamni bildiradi.

Adam xaqiqatdan xam jannati odam edilar, - deb o‘yladi o‘zicha ariq labida o‘tirgan Zuhra. – Potiy, sen ham jannatda bo‘lasan. Oyimlar o‘shatta bo‘lsalar kerak. Bolalarning rohatini ko‘rmay ketganlar jannatda bo‘ladi, deyishadi. Ular jannatdalar. Potiy, bilaman, sen ularni darrov topasan. Birga bo‘lasizlar. Faqat men bu yoqda yolg‘izman. Sen bilan, sizlarning

yoningizda bo‘lishni qanchalik istayotganimni bilsang edi!... Endi qanday yashayman? Lekin yashashim kerak. Agar men ketsam, hech qanday iz qolmaydi. Bilaman, to‘g‘ri deyapsan. Bizdan iz qoldir. Odamlar Fotima-Zuhralarni bilishsin, ularning ot-onalarini bilishsin. Barakalla, shunday yaxshi odamlar bor ekan, deyishsin. Otasiga rahmat. Onasiga rahmat, deyishsin, deyapsan. Topdimmi, Potiy? Aytganingni qilaman. Agar men hozir orqalaringdan ketsam, seni zo‘rlaganlar, adamning qotillari chapak chalishadi. Sizlarning o‘chingizni olaman. Ko‘rasan, ular hali ko‘p pushaymon eydi. (O‘lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra)

Ushbu misolda ichki qasam ichki nutqning xulosasi sifatida reallashmoqda.

Tashqi qasam esa faol nutq hisoblanib, inson nutqiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, asosan, so‘zlovchining o‘z xatti-harakati, so‘zlariga tinglovchini ishontirish yoki ahd, va‘da qilish jarayonida yuzaga keladi:

Xudoy ko‘rsatmasin, Asfandiyor sulton yurt olsa erkagingizni o‘ltirur va urg‘ochingizni abulxon va manqishloq turkmaniga buyurur. Ul o‘lja qilib olib ketar. Agar mening bu so‘zimda yolg‘on bo‘lsa tangrining kalomi ursin meni. – teb har kishining oldinda qur‘ondin ont ichibdur. (Abulg‘oziy. shajarai turk).

Demak, tashqi qasam biror voqea, hodisa haqida berilgan axborotning to‘g‘riligiga ishontirish uchun yoki biror topshiriqni, vazifani aniq bajarish yuzasidan aytiladi.

Qasamlar gender belgisiga (jinsiy xoslanishga ko‘ra) quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Betaraf qasamlar.
2. Erkaklarga xos qasamlar.
3. Ayollarga xos qasamlar.

Betaraf qasam turlari har ikki jins turiga xos bo‘ladi. Masalan,

“Xudo haqqi, ...” “Qur‘on ursin, ...” kabi birliklar betaraf qasam turlarida

ishlatiladi, ya‘ni erkaklar nutqida ham, ayollar nutqida ham ishlatiladi.

Xudo haqqi, men xizmatimga bir narsa bering, deb so‘ramayman. (Oybek. Qutlug‘ qon.)

Erkaklarga xos qasamlar, bu qasamlarda faqat erkak kishilar ishlatadigan qasam birliklari mavjud bo‘ladi. Masalan,

Aytganingni bajarmasam, yubka kiyib yuraman. (N.Ismoilov. Iblis saltanati)

Xo‘jayin jonni so‘rang, bermagan nomard, - dedi qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib Egamqul. (N.Ismoilov. Iblis saltanati)

Yolg‘on aytayotgan bo‘lsam, yolg‘iz farzandimga ota bo‘lmay... (Said Ravshan. Tungi chinqiriq).

Ushbu misollardagi “yubka kiyib yuraman”, “bermagan nomard”, “yolg‘iz farzandimga ota bo‘lmay” kabi qasam birliklari bu faqat erkaklarga xosdir.

...Sizning kitoblaringizda tuhmatchini nima deyishadi? Tuhmatchining tilini kesish kerakmi?

Astag‘firulloh! Tuhmat qilayotgan bo‘lsam kalomullo ursin!(Tohir Malik. Shaynanat)

Ushbu misol ham erkaklar nutqidan olingan. Unda ishlatilgan “kalomullo ursin” kabi birliklar ham ko‘proq erkaklar nutqida uchraydi.

Ayollarga xos qasamlar, bu qasamlarda faqat ayollar ishlatadigan qasam birliklari mavjud. Masalan,

Ikrom aka! Akajon, til tortmay o‘lay, birorta erkakning yaqiniga yo‘lagan bo‘lsam... (N.Ismoilov. Iblis saltanati)

Oyijon, – dedi qiz peshonasidagi to‘zg‘igan sochlarini to‘g‘rilab qo‘yar ekan, – u bolaga tegolmasdim, shuning uchun... Oyijon, ahmoqlik qilayotganimni keyin sezib qoldim...

Balki men o‘lsam...

Yo‘q... yo‘q, oyijon, undan ko‘ra men o‘lay, bir marta bunday ishni qildim, ikkinchi marta... ko‘zim ko‘r, oyoqlarim shol bo‘lib qolsin... Sizning aytganingiz bo‘ladi... Nima desangiz, hammasiga roziman. (N.Ismoilov. Iblis saltanati).

Ushbu misollardagi “til tortmay o'lay”, “ ko'zim ko'r, oyoqlarim shol bo'lib qolsin” kabi birliklar ayollarga xosdir.

Biz qasamlarning xususiyatlarini hisobga olib, ularni uch turga ajratishni ma'qul ko'rdik:

1. Diniy qasamlar.
2. Soha qasamlari.
3. Xalqona qasamlar.

Har bir qasam turi o'z ichida yana subjanrlarga bo'linadi.

Qasamlar nutqiy janrlardan biri bo'lib, ular umumiy (lingvomadaniyatlarda mavjud bo'lgan Prezident qasami, xarbiylar qasami) va

xususiy (bir til oilasi bo'lgan lingvomadaniyatlarda mavjud bo'lgan xalqona qasamlar) qasam turlariga ajratiladi.

Qasamlar gender belgisiga quyidagi turlarga ajratiladi: betaraf qasamlar, erkaklarga xos qasamlar, ayollarga xos qasamlar. Qasam xususiyatlarga ko'ra: diniy qasamlar, soha qasamlari, xalqona qasamlarga bo'linadi. Diniy qasamlar deganda Qur'oni Karim oyatlarida keltirilgan qasamlarni tushunamiz. Bu qasamlar eng oliy, mo'tabar, ulug' qasamlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ismoilov N. Iblis saltanati. Sarguzasht detektiv roman: [III tomlik] —T.: VEKTOR-PRESS, 2009. Kitob 1. — 304 b
2. Рабенько Г. Клятва как фидеистический речевой жанр. Вестник Челябинского государственного университета. №13(194). Филология. Искусствоведение. Вып.43. - Челябинск, 2010
3. Said Ravshan. Tungi chinqiriq.
4. Tohir Malik. Shaytanat.
5. Xasanova F. Ingliz va o'zbek tillarida qasamyod nutqiy janrining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Fil.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. -Toshkent, 2019.
6. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. – Ташкент, 1966. – С. 180.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 5-jild. – Toshkent.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 256.
8. O'lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra
9. <http://lex.uz/docs/54458>

INTERNET MULOQOTIDA PRETSEDENT BIRLIKLAR

ПРЕЦЕДЕНТНЫЕ ЕДИНИЦЫ В ИНТЕРНЕТ-КОММУНИКАЦИИ

PREVIOUS UNITS IN INTERNET COMMUNICATIONS

Miralimova Shaxzoda Xasanboevna,
Andijon davlat chet tillar instituti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada pretsedent birliklarning kommunikativ funksiyasi, uning ichki turlarga bo'linishi, diskursiv vaziyatga mos tarzda o'ziga xos talqin qilinishi, Internet muloqotida ta'sirchan ifoda vositasi vazifasini bajarishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kommunikativ makon, Internet diskursi, erkin muloqot, polikodli matn, so'z o'yinlari, semiotik siljish, pretsedentlashuv jarayoni.

Annotation: this article analyzes the communicative function of precedent units, their division into internal types, their specific interpretation in accordance with the discursive situation, as well as their role as an effective means of expression in Internet communication.

Key words: communicative space, Internet discourse, free communication, polycoded text, word games, semiotic shift, precedentization process.

Аннотация: в данной статье анализируется коммуникативная функция прецедентных единиц, их деление на внутренние типы, их специфическая интерпретация в соответствии с дискурсивной ситуацией, а также их роль как эффективного средства выражения в интернет-коммуникации.

Ключевые слова: коммуникативное пространство, интернет-дискурс, свободная коммуникация, поликодированный текст, словесные игры, семиотический сдвиг, процесс прецедентализации.

Internet tarmog'ining kommunikativ makonga aylanishi bilan uning o'ziga xos diskursiv amaliyotini kuzatish va tahlil qilish ehtiyoji paydo bo'ldi. Virtual makon muloqoti yoki internet diskursi deb ataladigan mustaqil diskurs turi shakllandi. Internet muloqotining o'ta keng ko'lamli imkoniyatlari va o'ziga xos sotsiopsixolingvistik omillari tillarning funktsional jihatlarini yangi o'zanga burib yubordi. Virtual muloqotning anonimlik tabiati va bilvosita munosabatlarga asoslanganligi uning real muloqotga nisbatan ancha erkin va spontanlik jihatini kuchaytirdi. Ya'ni kommunikantlar o'zaro yuzma-yuz munosabatdagi ma'lum bir muloqot xulqi me'yorlaridagi cheklovlar, nutqiy etiket talablaridan holi vaziyatda psixologik to'siqlardan xalos bo'ladilar va natijada birmuncha erkin muloqotga kirishadilar. Bu esa til birliklaridan istagancha foydalanish, so'z o'yinlari, qochirim va kinoya usullarini keng qo'llash imkonini beradi.

T.V.Marchenkonig fikriga ko'ra, elektron manbalar va uzatish kanalining texnik imkoniyatlari vositachiligidagi mediamatn verbal, audio va vizual kodlarning yaqinlashishi potentsialini ochib beruvchi polimodal hodisa sifatida ishlaydi. Integrativlik va polikod Internet muloqotining intertekstualligini belgilaydi [1, 143-150] va bizningcha, aynan, mana shu holat pretsedentlik hodisasiga keng yo'l ochadi.

Pretsedentlik murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni o'rganishga kompleks yondashuvni talab qiladi. "pretsedent matn" atamasi birinchi marta Yu.N.Karaulov tomonidan qo'llangan. Olim pretsedent matnlar masalasini lisoniy shaxs nazariyasi doirasida ko'rib chiqdi,

ulardan foydalanishni birinchi navbatda kommunikativ faoliyat bilan izohlaydi.[2, 215]

Pretsedent birliklar bilan tanishuv lisoniy shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida sodir bo'ladi. Olimning ta'kidlashicha, pretsedent matnlar mavjud bo'lishining asosiy jihatlaridan biri ularning semiotikligi bo'lib, parcha keltirish, havola berish, eslatish orqali asl matnga ishora qilinadi va shu tariqa muloqot jarayoniga yo butun matn, yoki nutqiy vaziyat bilan mazmunan aloqador alohida parchalar olib kiriladi; bu holda butun matn yoki uning muhim qismi belgilash birligi sifatida yangi talqinda aktuallashadi. [2, 216]

Yu. N. Karaulovga ko'ra, pretsedent matnlarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- 1) emotsional va kognitiv jihatdan ahamiyatli;
- 2) mavjudlik doirasi keng, taniqli;
- 3) takroriy yangilanish (takroriylik);
- 4) qayta talqin qilish imkoniyati (og'zaki so'zlashuvdan tashqari, san'atning boshqa turlarida ham gavdalanir);
- 5) xronotopik belgilash (pretsedent matnlar ma'lum bir davr va madaniyatga tegishli);
- 6) mavjudlikning semiotik usuli. [2, 216]

Sanab o'tilgan xususiyatlar pretsedent birliklarni boshqa turdagi matnlardan aniq ajratish imkonini beradi.

D.Xudoyberganova o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib pretsedent birliklarni ilmiy muhohasaga olib kirdi va shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida qayd etilishini ta'kidlaydi.[3, 87]

Kuzatishlarimiz asosida shuni aytib o'tmoqchimizki, nafaqat shaxs nomlari, balki umuman, onomastik nomlarning

hamma turlari ham pretsedent birliklarga aylanishi mumkin.

Qulay kommunikativ makon o‘laroq, Internet muloqoti yangi-yangi nutqiy ifodalarning pretsedentlashuvi, ya‘ni tez fursatda til tashuvchilari orasida ommalashib, semiotik siljish orqali turli ma‘no variantlari shakllanishiga hissa qo‘shmoqda.

Java taxallusini qo‘llagan havaskor qo‘shiqchi “Dunyo sening tog‘angmas” nomli kichik hajmli klip-qo‘shig‘ini ijtimoiy tarmoqning “YouTube” kanaliga joyladi. Mediamatnning noan‘anaviy, g‘ayritabiiy dizayni, ya‘ni ijrochining yuz-ko‘zini doka bilan o‘rab olgan holda kuylashi favqulodda tomoshabinlar e‘tiborini tortdi va u qadar mazmunli bo‘lmagan qo‘shiq matnining, xususan, “*Dunyo sening tog‘angmas*” jumlasining tez ommalashuviga sabab bo‘ldi.

“Facebook” foydalanuvchilaridan birining yozishicha, ijroning kuzatuvchilari uch haftada 5 million kishidan ortgan. “*Sizlarni bilmadimu, ertadan bolalarimga nasihatni huddi shunga o‘xshash qo‘shiq bilan boshlab ko‘rmoqchiman! Yo ostidan, yo ustidan. Nasihatimni olishsa o‘zlariga, olishmasa yutubga qo‘yvoraman, oqibatda mashhur bo‘lganim qoladi, 🙄🙄🙄🙄*”-deya kinoya qiladi u. Retsipientlar ushbu postga turlicha talqindagi fikrlarini yozib qoldirganlar:

- Nonvoy seni tog‘angmas (du

nyo so‘ziga taqlidan)

- *Dunyo sani ammanqmas* (tog‘a so‘ziga taqlidan)

- *Avtohalokatdan keyin aytilganmi bu qo‘shiq?* (ijrochining yuziga doka bog‘langaniga ishora)

Boshqa bir foydalanuvchi “Tag‘o taym” nomi bilan qatnashuvchi blogerning sahifasiga shunday tabrik yo‘llagan: “*Bugun ishongan tog‘i(tog‘a)mizning tug‘ilgan kuni. Chin qalbdan tabriklayman. Bugun ertalabdan boshlab O‘sha - mashhurlashayotgan qo‘shiqdagi “Dunyo seni tog‘angmas” degan satrlarni “Tog‘am mening dunyom”dir deya xirgoyi qilayapman.*” (“Facebook”dan) Bunda so‘z o‘yini tarzida gap bo‘laklari o‘rni

almashtirilgan: “*Dunyo sening tog‘angmas*” - “*Tog‘am mening dunyom*”dir.

“*Dunyo sening tog‘angmas*” jumlasini shu qadar ommalashdiki, hatto ijtimoiy tarmoqlardagi reklama matnlarida yoki bloglarda ham faol qo‘llana boshladi.

Tilni o‘rganish uchun “Dunyo sizni tog‘angiz” bo‘lishi shart emas, shunchaki zamonaviy tarzda, ishonchli va eng asosiysi yangi innovatsion Guliston ingliz tili markazida o‘rganing! 🙌 (Reklama matnidan)

“Telegram” kanali foydalanuvchisi esa “*Dunyo sening tog‘angmas*” jumlasidan ekspressiv maqsadda, ya‘ni ko‘tarilayotgan masalaga nisbatan sub‘ektiv munosabatini kuchaytirish maqsadida foydalangan: “Institut seni tog‘angmas yoki amma-xolangmas. *Endi bizda ham xuddi Amerikadek 4 yillik o‘qishni 10 yilda bitirishing mumkin. Kerakli kreditni (kredit-modul tizimi nazarda tutilmoqda – izoh bizniki) yig‘a olmadingmi, marhamat pulini to‘lab qo‘y va boshqatdan o‘qi! Tanlov o‘zingni qo‘lingda.*” (Baxtiyor Mirzo)

Bir abituriyent esa test sinovlari javob varaqasiga “*Test echish oson emas*” degan mazmunda “*Dunyo sening tog‘angmas*” deb yozib, imzo qo‘yib topshirgan.

Ushbu faktik materiallar pretsedent birliklarning yuqorida keltirib o‘tilgan xususiyatlari mediamuloqot orqali yanada qabariq holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, jumlaning pretsedent birlikka aylanishida noverbal omillar muhim ahamiyatga ega.

Bloger Rahimjon Rahmat “Oshinlarim” turkumida postlar qo‘yib boradi:

Maqsadni katta qo‘yish kerak. Oshinlarimdan birining beshta o‘g‘li bor, eng kattasi bu yil harbiy bo‘laman deb o‘qishga topshiribdi. Hamma o‘g‘limni o‘qitaman, deydi oshinim.

Oshin shu nomdagi mashhur yapon seriali qahramonining ismi bo‘lib, bloger metafora usulidan foydalanib, fermer xo‘jaligidagi mehnatkash ayollarni “Oshinim”, “Oshinlarim” deya nomlaydi.

Retsipientlar Oshin so‘ziga e‘tibor qaratadilar.

- Oshinlarim nima degani?
- Oshin kunlik mardikor ayol. Yaponlarning Oshin serialini ko‘ring...

- "oshna", "dòst" so‘zlarini shevaga xos shakli bo‘lsa kerak. Bu so‘zni Dima Qayum postida ham uchratgandim-da. Nima u deb so‘rasam. Ba‘zi birovlar yapon qahramoni Oshin deyishdi.

- bo‘shqalar to‘g‘ri aytibdi. Oshindek mehnatka‘sh ayollarni shunday deydilar :)


- unda nega oshinlarim deb ishlatishyabdi?

- mardikor ayollarni Dang‘ara tomonlarda Oshin deyishadi, mardikor deyilsa xafa bo‘lmasliklari uchun...

- tushunarli. Rahmat!

- Oshinlarim - dalmazda yollanma shaklda ishlaydigan ayollar. Yapon serialidagi Oshinning ismidan olingan.

- «Oshin»da kambag‘al dehqon xonadonida tug‘ilgan yapon qizining o‘z otasi tomonidan uy xizmatiga sotilgan paytidan boshlab, oilasining boylikka va muvaffaqiyatga erishishga qadar bo‘lgan hayoti hamda qiyinchiliklari tasvirlanadi.



Shedevr san‘at asari 😊

- Suratda Abu Rayhon Beruniy,
- Ismda Ibn Sino,
- Sanani ko‘rgan Navoiy hayron o‘lturur edi.

Xullas, Kusto hayratda))

Ushbu mediamatnda uzatilayotgan axborot mantiqqa mos kelmasligi sababli retsipientlar e‘tiroziga sabab bo‘lgan va pretsedent birliklarning nomuvofiqligi salbiy ekspressiv vaziyatni yuzaga keltirgan. Shuning uchun ham “Shedevr san‘at asari”, “Kusto hayratda” jumalari kinoya tarzida qo‘llanib, ekspressiv ifoda vositasiga aylangan.



Shohona qabul... tumani hokimi fuqarolarni shunday qabul qilarkan (“Shaytanat” shaydosi shekilli).

Mediamatndagi situativ holat “Shaytanat” serialidagi Asadbekning domlani qabul qilishi epizodi bilan o‘xshash tasvirga ega bo‘lganligi sababli ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari e‘tiborini tortadi va ularning ongida “Shaytanat” filmi jonlantiradi. Aynan, mana shu o‘xshashlik metaforik usulda semiotik mazmunni shakllantiradi va tuman hokimi – Asadbek shartli bog‘liqlik pozitsiyasi ekspressiv ta‘sirchanlik vositasiga aylanadi.



Etikdo‘z – etik tikuvchi usta, kosib. Bu so‘z etik asosga -do‘z shaxs oti yasovchi morfema qo‘shilishidan hosil bo‘lgan: etik+do‘z. A.Hojiev so‘z tarkibidagi -do‘z morfemasini o‘zbek tiliga tojik tilidan yasama so‘zlar tarkibida o‘tgan va o‘zbek tilida ham bir-ikkita so‘z hosil qilgan qo‘shimchalar qatoriga kiritadi. [4, 76]

Etikdo‘z leksemasining do‘kon peshtoqiga “Etikdo‘st” tarzida xato yozilgan peshlavha tasviri tushirilgan rasm til tashuvchilari ongida turli fikr-mulohazalar uyg‘otuvchi ekspressiv vosita vazifasini o‘tagan va ular o‘z izohlarini yozib qoldirganlar. Ana shular orasida pretsedent vaziyatlarga ishora qiluvchi izohlar ham berilgan:

- *Boqi amaki demabdi-yu.* “Kelinlar qo‘zg‘oloni” spektaklidagi Boqi amakiga ishora. Bunday fikrning yuzaga kelishiga sabab Boqi amaki mahallaning edikdo‘z kosibi ekanligidir.

- *Eto nash telemaster Xolmirza* jumlasini “Abdullajon” filmidagi Xolmirza obrazi va u bilan bog‘liq voqeaga ishora. Xolmirza

ham o'z do'koniga ega bo'lgan qishloq teleustasi.

- Misrlik #etikdost Ma'ruf))) birikmasida dunyoga mashhur "Ming bir kecha" asari asosida yaratilgan badiiy filmdagi Ma'ruf obrazi tilga olingan.

Shu tariqa, mediamatndagi tasvir ta'sirida u bilan mazmunan aloqador pretsedent birliklar eslab o'tilgan.

MAXSIDO'ST ham bordir sal nariroqda?)))jumasiidagi maxsido'st so'zi esa tasvirdagi etikdo'st variantiga nisbatan hamohang tarzda shakllangan yangi variant hisoblanadi. Bunday so'zshakl yaratilishiga esa mahsi ham etik kabi kosib tomonidan tikilishi mantiqiy asos vazifasini o'tagan.

Tarmoq foydalanuvchilarining ayrimlari esa yozuvdagi ifodani etik - do'st tarzidagi

jumla sifatida qabul qilib, ega-kesim munosabati ma'nosiga e'tibor qaratilgan izoh qoldirganlar:

- Etik do'stdir odamga!

- ma'nosi bor: etik kiyganni oyoq og'rig'idan asraydi.

- Yogingarchilik, loygarchilikda qishloqda etikdan yaxshi do'st yo'q

- Etik do'st, Tufli dushman

- Unga do'stmi mengami, etigim

- Do'sti do'sti nara xa.... 😊 degan qo'shiq esimga tushib ketdi...!!!

Yuqoridagi fikr-mulohazalar va tahlillar asosida internet tarmoqlarida foydalanilayotgan pretsedent birliklarning turlarini quyidagi jadvalda belgiladik.

| T/r | Pretsedent birlik nomi | Manbai | Misollar |
|-----|------------------------|--|--|
| 1 | Pretsedent nomlar | Real tarixiy yoki zamondosh shaxslar nomi | <i>Kusto hayratda</i> <i>Hojiboychasicha kulishamiz</i> |
| | | Joy nomlari | <i>Susambil</i> |
| | | Badiiy, publitsistik asarlar nomi | <i>"Choliqushi" romani,</i> <i>"Lolaqizg'aldoq" she'ri</i> |
| | | Kino, spektakl, raqs kabi san'at asarlari nomi | <i>"Titanik", "Jaydari kelin",</i> <i>"Otello", "Andijon polkasi"</i> |
| 2 | Pretsedent jumlar | Badiiy asarlar, qo'shiqlarga oid | <i>Siz o'shami?</i> <i>Dunyo sening tog'angmas</i> |
| | | Xalq og'zaki ijodiga oid | <i>Ikki yamlab, bir yutardim</i> |
| | | Kinofilm, spektakllarga oid | <i>Abdullajon, shakarsan, shakar.</i> <i>Na bo'ldi, nigoro, biza aslo qaramaysiz?</i> |
| 3 | Pretsedent matnlar | Mashhur badiiy asarlar | <i>"Qo'rqma", "Shaytanat",</i> <i>"Puankare"</i> |
| | | Latifalar | <i>«Otello» spektakli tamom bo'lgandan keyin Afandiniig</i> |

| | | | |
|---|-----------------------|---------|--|
| | | | <i>xotini juda ta'sirlanib: - Avtori sahnaga chiqsin!-deb qichqirdi. Shunda Afandi uning tirsagidan tortib: - O'tir joyingga, avtori o'tgan yili o'lgan,- dedi.)))</i> |
| | | Qo'shiq | <i>Unutmoq osonmas bizlarni</i> |
| | | Reklama | <i>Hech narsani unutmadikmi? Unutdik, qahva ichishni. Kel, unda yana bir kun qola qolaylik.</i> |
| 4 | Pretsedent vaziyatlar | | <i>"Abdullajon" filmidagi poliz ekinlarining kattaligi, odamlarning ketmoni uchishi, yomg'ir yog'ishi kabilar</i> |

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Марченко Т.В. Прецедентность в дискурсах медиапространства: к проблеме исследования вербальных и невербальных феноменов // Гуманитарные и юридические исследования СКФУ, Ставрополь, № 2, 2021.
- 2.Караулов Ю. Русский язык и языковая личность. М., 2010.
- 3.Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. T.: Fan, 2013.
- 4.Hojiev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. T.: O'qituvchi, 2007.

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING NOMINATSION-MOTIVATSION TAHLILI
НОМИНАТСИОННО-МОТИВАЦИОННЫЙ АНАЛИЗ ГЕМЕРОНИМА УЗБЕКСКОГО
ЯЗЫКА
NOMINATION-MOTIVATION ANALYSIS OF HEMERONYM OF THE UZBEK
LANGUAGE

Yuldashev Otabek,
 NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada ayrim o'zbek tili matbuot nashrlari: gazeta va jurnallarning maxsus atoqli nomlari – gemeronimlarning nominatsion-motivatsion tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: *matbuot nashri, gemeronim, nominatsiya, nominatsion-motivatsion, motivatsiya, motiv, leksik asos.*

Аннотация: В статье проводится номинативно-мотивационный анализ некоторых узбекоязычных печатных изданий: специальные названия газет и журналов – гемеронимы.

Ключевые слова: *пресс-релиз, гемероним, номинатсия, номинативно-мотивационный, мотивация, мотив, лексическая основа.*

Annotation: The article describes the nominative-motivational analysis of some Uzbek language press publications: special names of newspapers and magazines – hemeronyms.

Keywords: press release, gemeronym, nomination, nominative-motivational, motivation, motive, lexical basis.

Gemeronim (grekcha. *gmera – kun, sutka + onim – nom*)lar – matbuot nashrlarining maxsus atoqli nomlari[6]. Masalan, “*Sharq yulduzi*”, “*O‘zbekiston ovozi*”, “*Ma‘rifat*”, “*Saodat*”, “*Mushtum*”, “*Guliston*”, “*G‘uncha*” kabi.

Onomastik birliklarning, jumladan, gemeronimlarning nominatsion-motivatsion xususiyatlari haqida fikr yuritganda, *nominatsiya // nomlash, motivatsiya, motiv, lug‘aviy* asos terminlariga e‘tibor qaratish lozim.

Tilda nominatsiya, ya‘ni nomlash murakkab jarayon. Ruscha-o‘zbekcha tarjima lug‘atda *nominativniy* termini «nom (atov) bo‘lib xizmat qiluvchi, atovchi, atov»[7] deb, izohlangan. O.S.Axmanova *nominatsiya* terminini quyidagi ma‘noalrini qayd etgan:

- 1) so‘zning atash, nomlash funksiyasi;
- 2) nomlash, nom berish, ya‘ni so‘zning fikr yuritilayotgan referentga mos kelishi;
- 3) nominativ funktsiya, ya‘ni so‘z yoki so‘z birikmasining nom bo‘lib kelishi[1].

A.Hojiyevning talqinicha, nominatsiya (lot. *nomitio*) – atash, nom qo‘yish, tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so‘z, so‘z birikmalari) hosil qilishdir. Nominalizatsiya – nomlanish, nominativ birliklar, ya‘ni nomlovchi birliklar lingvistik vositalarning nom bo‘lish xususiyati va vazifasi nominatsiya doirasiga kiradi[11]. O‘zbek tilidagi tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida nominatsiya bilan bog‘liq quyidagi terminlar berilgan: *nomlash vazifasi, nomlovchi birliklar, nomlovchi ma‘no, so‘zning nomlash vazifasi*[11].

Ensiklopedik lug‘atlarda *nominatsiya* termini keng izohlangan: «Nominatsiya (lot. *nominatio* – nomlash, nom qo‘yish, atash) (tilshunoslikda) – nomlash xususiyatiga ega bo‘lgan, ya‘ni nolisoniy borliq unsurlariga nom berish va ularni ajratib ko‘rsatish, ular haqida tegishli tushunchalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan til birliklari – so‘zlar, so‘z birikmalari, frazeologizmlar va gaplarni hosil qilish.

Ayrim olimlar *nominatsiya* terminini tilshunoslikning nomlash jarayonlarini o‘rganuvchi bo‘limini ifodalash uchun ham qo‘llaydilar. Ensiklopediyada nominatsiya 3 jihatdan farqlanishi aytiladi:

1. Nomlanuvchi obyekt.
2. Nomlovchi obyekt.
3. Tanlab olinadigan til unsurlari[10].

Qayd qilinishicha, nominatsiya jarayonida tanlab olinadigan belgi nomning ichki shaklini tashkil qiladi.

S.Mo‘minov *nominatsiya* masalalarini tadqiq etar ekan, *nominatsiya*ning shartlilik va *motivatsiya* tamoyillari mavjud ekanligini va ularning har biri alohida tadqiqotni talab etishini ko‘rsatgan[5]. Olim atoqli otlarning motivlanishi turdosh otlarning motivlanishidan ko‘p jihatdan farqlanishini qayd etadi[5]. Albatta, bu fikrlar onomastik birliklar, jumladan, matbuot nashrlarining atoqli maxsus nomlari – gemeronimlarga ham taalluqli.

Har qanday narsa-buyum, voqea-hodisa va harakatning oddiy hamda maxsus atoqli nomlanishi muayyan motivga asoslanadi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da adabiyotshunoslikdagi *kuy, ohang* ma‘nosidagi *motiv* termini izohlangan bo‘lsa-da, tilshunoslikka oid *motiv, motivatsiya* terminlari lug‘at so‘zligidan o‘rin olmagan[9].

Motiv (lot. *motivus*) biror narsa, hodisa yoki ob‘ektni nomlash uchun sabab, asos bo‘lgan belgi-xususiyat[2]. Nomning o‘zi anglatayotgan narsa, ob‘ekt yoki tushunchaning asosiy belgi-xususiyatiga qay darajada mos tushushishi motivlanganlik mezonini ko‘rsatadi.

Har qanday nom ma‘lum motivga asoslanadi. Bu jarayon *motivatsiya* deb yuritiladi. *Motivatsiya* termini *asoslamok, dalil keltirmok, sabab ko‘rsatmok* ma‘nolarini anglatadi. S.Mo‘minov *motivatsiya* terminini asoslanish deb izohlaydi[4]. Demak, nomlashda ma‘lum belgi-xususiyatlarga asoslanish jarayoni *motivatsiya*dir.

S.Mo‘minov *motivatsiya*ga doir rus, o‘zbek tilshunosligidagi nazariy qarash va

talqinlarni tahlil qilib, motivatsiyaning quyidagi 3 turini ko'rsatadi:

1. Birlamchi motivatsiya. Motivatsiyaning bu turiga tovushga taqlid asosida (*kakku, sharshara, vov-vov, bo-bov*), bir sinkretik o'zakdan tarqalgan (*ich – ichki tomon; ich – ichmoq; oz – kam, oz – ozmoq*), yasovchi qo'shimchalar yordamida (*kurak, suzma*) yuzaga kelgan nomlar.

2. Ikkilamchi motivatsiya. Tadqiqotchilar fikricha, ikkilamchi motiva-tsiya tilda ilgari mavjud bo'lgan yangi ob'etlarni nomlash uchun foydalanishdir.

3. Uchlamchi motivatsiya. Motivatsiyaning bu turiga motivlovchisi ikki marta motivlangan *to'qimachilik, o'simlikshunoslik, o'qituvchilik* kabi so'zlar kiritilgan. Olimning fikricha, «ikkilamchi va uchlamchi motivatsiyalarga leksik-semantik usul bilan yasalgan ayrim antroponim va toponimlarni kiritish mumkin»[4]. Bizningcha, xuddi shu uchlamchi motivatsiyaga gemeronimlar ham kiradi.

Odatda nomning o'zi anglatayotgan narsa, voqea-hodisa va ob'ektning etakchi belgi-xususiyatiga mosligi uning ma'no va morfem tarkibidan aniq sezilib tursa, bunday nomlar motivlangan nomlar hisoblanadi.

Aksincha, nom ifoda qilayotgan narsa, voqea-hodisa va ob'ekt bilan uning nomlanishi o'rtasida aloqa aniq sezilib turmasa yoki mavjud bo'lmasa, bunday nomlar motivlanmagan nomlardir.

Ob'ektning nomlanishiga asos bo'lgan belgi-xususiyat yoki hodisa motivlovchi asos yoki motiv deb yuritiladi.

Tarjima lug'atida *motiv* terminining ikki mustaqil ma'nosi berilgan: Motiv I. 1) sabab, bois; 2) dalil, bahona.

Motiv II. 1) tema, motiv, mavzu; 2) motiv, ohang, kuy[7].

Keltirilgan izohdagi «sabab, bois», «bahona» ma'nolari onomastik motivning aynan to'g'ri talqinidir.

A.V.Superanskaya aytganidek, «...biror predmet yoki hodisa nomining paydo bo'lishini inson tajribasisiz tasavvur qilish mumkin emas...» [8]. Matbuot nashrlarining motivlanishi ushbu tilda so'zlashuvchilar ongining darajasi,

turmush tarzi, milliy va madaniy an'analari, hayotiy faoliyatining ijtimoiy va tabiiy sharoitlari kabi omillar bilan belgilanadi.

Insonlar, ya'ni nashr o'quvchilari (gazetxon va jurnalxonlar) va muassislar, muharrirlar matbuot nashrlariga nom (atoqli ot) berishda ularga xos biror belgi-xususiyatlarni motiv qilib olganlar. Bu jarayonda matbuot nashrining belgi-xususiyatlari, nashr etilish o'rnini va maqsadi, vazifasi, mavzu mundariyasi, kasbiy va sohaviy xoslanishi kabi belgi-xususiyatlar motiv vazifasini bajargan. Quyidagi ayrim o'zbek tili gemeronimlarining nominatsion-motivatsion tahlili ham fikrlarimizning dalilidir.

“**Mushtum**” – oylik hajviy jurnal. “*Mushtum*” jurnalining tashkil etilishi bevosita Abdulla Qodiriy va G'ozini Yunus (Yunusov G'ozini Olim) faoliyati bilan uzviy bog'lanadi. Bu haqida Qodiriy quyidagilarni yozadi: “23-yilning fevral oyida, shekilli, “Turkiston” gazetasiga o'rtoq Abdulhay Toji muharrir belgilandi va shu o'rtoq bir kulki jurnali chiqaringiz, deb men bilan G'ozini chaqirdi. Biz ikkovimiz ishga kirishdikda, natijada sakkiz soncha “Mushtum” chiqdi[3].

Jurnalning 1-soni 1923 yil 18 fevralda “Turkiston gazetisi”ga ilova, 1924 yildan “Qizil O'zbekiston” nashri sifatida chop etilgan. Jurnalning 1-sonida uning tashkilotchilaridan Abdulla Qodiriyning “Mushtum ta'rifida” nomli bosh maqolasi berilgan. Mazkur maqolada “Mushtum”ning yo'nalishi belgilangan: “*Bu “Mushtum” zo'rlik mushtumi emas, haqlik mushtumidir, bu “Mushtum” zolimlar mushtumi emas, mazlumlar mushtumidir. SHuning uchun buning ma'nosi ham boshqachadir...*”

Tanqidiy maqolalar feletonlar jamiyatni turli illatlardan tozalashda “*Mushtum*”ning asosiy quroli bo'lgan. Halol va oshkora tanqid jamiyat va odamlar uchun haqiqiy malham bo'lishiga erishish jurnalning bosh mezoni bo'lgan[10].

Gemeronimga lug'aviy asos bo'lgan *mushtum* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida aynan *musht* ma'nosini anglatadi.

“*Mushtum*” gemeronimiga so‘zning ko‘chma ma‘nosi lug‘aviy asos bo‘lgan. Jurnal jamiyatdagi salbiy illatlar hajviy ruhda yoritiladigan nashr bo‘lganligi bois “*Mushtum*” deb nomlangan. Demak, jurnal materiallarning yumoristik va hajviy yoritilishi motivatsiyasi asosida nomlangan.

“**Guliston**” – ijtimoiy-siyosiy va badiiy-bezakli jurnal. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi muassisligida Toshkent shahrida nashr etiladi. Dastlab “*Yer yuzi*” (1925 – 1931), “*O‘zbekiston qurilishda*” (1932), “*Mash‘ala*” (1934) nomlari bilan jami 202 soni chiqqan, 1935 yildan “*Guliston*” nomi bilan nashr etilgan, biroq 1941 – 1967 yillarda vaqtincha to‘xtatilgan. Jurnal majoziy ma‘noda gullab-yashnab, rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan mamlakat ijtimoiy-siyosiy va adabiy, madaniy hayotiga doir nashr bo‘lgani bois “*Guliston*” deb atalgan.

“**Gulxan**” – adabiy-badiiy, bezakli bolalar jurnali. O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi muassisligida nashr etiladi. Dastlab “*Yosh kuch*” (1929 – 1941) nomi bilan chiqqan. 1941 – 1945 yillarda urush sababli jurnalni chop etish to‘xtatilgan. So‘ngra “*Pioner*” (1952 – 1957) nomi bilan nashr etilgan. Ko‘rinadiki, dastlab davr, ya‘ni sobiq sho‘ro hukumati siyosatiga mutanosib tarzda nomlangan. 1957 yildan hozirgi nomda nashr etila boshlangan.

Jurnal nomiga lug‘aviy asos bo‘lgan *gulxan* so‘zi forscha bo‘lib, “*otashdon*” degan ma‘noni anglatib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida *isinish yoki boshqa biror maqsadda o‘tin qalab, ataylab yondirilgan o‘t, alanga* ma‘nolarida qo‘llaniladi: *O‘tirishibdi ikki do‘st, o‘rtoq, Otamlashib gulxan yonida.* (H.Po‘lat) Jurnal sahifalarida O‘zbekiston bolalari hayoti, ularning orzu-intilishlari, shuningdek, badiiy adabiyot, san‘at, xalq og‘zaki ijodi, turli sport o‘yinlari muntazam yoritib boriladi[10]. Anglashiladiki, jurnal yoshlarni ezgu ishlar, yutuq va g‘alabalar hamda zafarlarga chorlashga xizmat qilishi bois “*Gulxan*” deb atalgan.

“**Yoshlik**” – yoshlarning ijtimoiy-adabiy jurnali. Muassislari O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi “*Kamolot*” yoshlar ijtimoiy harakati. Dastlab 1982 yilda tashkil etilgan, 1991 yilda hozirgi nom bilan qayta tiklangan. Jurnal sahifalarida yangi badiiy asrlar bilan bir qatorda bugungi yoshlarning orzu-umidlari, o‘y-tashvishlari, ma‘naviyati, dunyoqarashlari haqida bahs yurituvchi maqolalar va suhbatlar muntazam berib boriladi[10].

Gemeronimning lug‘aviy asosi *yoshlik* apellyativi ko‘p ma‘noli bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma‘nolarda qo‘llanadi:

1. Yosh ekanlik; yosh bo‘lgan payt, davr: *Ahmad olti yoshligida otanasidan judo bo‘ldi.* (F.Musajonov)
2. O‘smirlik, navqironlik: *Yoshlik chog‘lari.*
3. Yoshlarga xos xatti-harakat, xususiyat: *Yoshlik g‘ururi.*

“*Yoshlik*” gemeronimiga mazkur so‘zning *yosh bo‘lgan payt, davr; o‘smirlik va navqironlik* ma‘nolari lug‘aviy asos bo‘lgan. Jurnal navqiron yoshlar va o‘smirlarga oid va yosh ijodkorlar, ya‘ni shoir va adiblarning ijod namunalari, asarlari bosiladigan adabiy nashr bo‘lganligi bois shunday atalgan. Demak, jurnal mualliflar va o‘quvchilarning yosh xususiyati motivatsiyasi asosida majoziy nomlangan.

“**G‘uncha**” – boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan jurnal nomi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi, “*Kamolot*” yoshlar ijtimoiy harakati muassisligida_1958 yildan beri nashr etiladi.

G‘uncha lug‘aviy birligi tarixiy-etimologik manbasiga ko‘ra forscha bo‘lib, *kurtak, shona; lab, dudoq* degan ma‘nolarni anglatib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma‘nolarda qo‘llanadi:

1. Hali ochilmagan, gulbarglari hali yozilmagan gul; o‘simlikning gul kurtagi: *Kechqurun (bulbul) gul g‘unchasini ko‘radi-yu, ishqida oshig‘u shaydo bo‘lib sayray beradi.* (P.Tursun)

2. ko‘chma. Biror hodisaning endigina boshlanayotgan payti, boshlanishi: *SHubha ichida qizargan muhabbat g‘unchasi visol xabari bilan ochilayozgandek... edi.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon)

Gameronimga so‘zning *hali ochilmagan, gulbarglari hali yozilmagan gul; gul kurtagi* ma‘nolari lug‘aviy asos qilib olingan. G‘afur G‘ulom tashabbusi bilan “*G‘uncha*” deb atalgan. Jurnal sahifalarida bolalar ijodi, talantli va taniqli yoshlar hamda kichikintoy sportchilar hayotidan hikoyalar, jahon bolalar yozuvchilari ijodidan namunalar, o‘zbek shoir va adiblarining kichikintoylarga atalgan asarlari bosilishi[10], boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallanganligi motivatsiyasi asosida shunday atalgan.

“**Tadbirkor**” – “*Namangan haqiqati*” gazetasining ilova nashri. Gameronimning lug‘aviy asosi arabcha va forscha (tadbir +kor) birliklardan tarkib topgan, asli *tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi* ma‘nolarini anglatuvchi *tadbirkor* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma‘nolarda qo‘llanadi:

1. ayn. Tadbirli: *Omon mustaqil fikrli, cho‘rtkesar, uzoqni ko‘ra oladigan, tadbirkor, yaxshi do‘st edi.* (S.Koramatov, Oltin qum)

2. Ishlab chiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdor.

Tadbirkor, tadbirkorlik tushunchasi XVIII asrda paydo bo‘lgan va ko‘pincha *mulkdor* iborasi bilan bir ma‘noda qo‘llanilgan[10].

“*Tadbirkor*” gemeronimiga so‘zning ikkinchi ma‘nosi lug‘aviy asos bo‘lgan. Gazeta ishlab chiqarish yoki boshqa turli faoliyatlarni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdorlar nashri bo‘lgani bois “*Tadbirkor*” deb atalgan. Demak, nashr kasbiy, sohaviy xoslanganligiga ko‘ra nomlangan.

“**Hidoyat**” – oylik diniy-ijtimoiy, ilmiy adabiy jurnal. O‘zbekiston musulmonlari idorasi muassisligida nashr etiladi. Avval

“*O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari*” (1946 – 1968), “*Sovet SHarqi musulmonlari*” (1968 – 1991), “*Movarounnahr musulmonlari*” (1991 – 1995), “*O‘zbekiston musulmonlari*” (1995 – 1999) nomlari bilan nashr etilgan. Jurnalda Qur‘on oyatlarining tafsirlari, hadisi sharif sharhlari, ibodat va kundalik turmushga oid turli masalalar, ilm egallash, oila va farzandlar tarbiyasi, masjid va madrasalar hayoti, ma‘naviy meros va tarixiy qadriyatlarni o‘rganishga oid mavzular, dunyo musulmonlari hayotidagi yangiliklar, xabarlar yoritiladi[10].

“*Hidoyat*” jurnali nomi arabcha *hidoyat* apellyativining konversiyasi – hech qanday grammatik vositalarsiz atoqli otga o‘tishi asosida hosil bo‘lgan. So‘z asli *boshlab borish; etaklash, to‘g‘ri yo‘lga boshlash, boshqarish* ma‘nolarini anglatadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mazkur so‘z quyidagi ma‘nolarda qo‘llanadi:

1. Foydali yo‘nalish, to‘g‘ri yo‘l boshlash: *Hidoyat qilmoq.*

2. din. Xudo tomonidan belgilangan to‘g‘ri yo‘l; haqiqiy e‘tiqod yo‘lidan yurish; zid. Zalolat.

3. Hidoyat (erkaklar va xotin-qizlar ismi).

“*Hidoyat*” gemeronimiga so‘zning birinchi va ikkinchi ma‘nolari umumlashmasidan iborat *xudo tomonidan belgilangan to‘g‘ri yo‘l; haqiqiy e‘tiqod yo‘lidan yurishga; ya‘ni to‘g‘ri yo‘l boshlash* ma‘nosi lug‘aviy asos bo‘lgan. Jurnal diniy-ijtimoiy maqsadi va mazmun-mohiyati motivatsiyasi asosida nomlangan.

“**Saodat**” – O‘zbekiston xotin-qizlarining ommabop, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-bezakli jurnali. Toshkent shahrida 1 yilda 8 marta nashr qilinadi. Dastlab “*Yangi yo‘l*” (1925 – 1934), “*Yorqin hayot*” (1936 – 1950), “*O‘zbekiston xotin-qizlari*” (1950-1965) nomlari bilan chop etilgan. Muayyan sabablar va urush tufayli jurnal 1934 yil apreldan 1936 yil iyulgacha, 1941 yil iyuldan 1950 yil oktyabrgacha nashr etilmagan. 1966 yildan hozirgi nomda nashr etiladi.

Jurnal nomiga lug'aviy asos bo'lgan *saodat* apellyativi tarixiy-etimologik jihatdan arabcha bo'lib, *baxt*, *omad*, *muvaqqiyat*, *xotirjamlik* ma'nolarini ifodalaydi[9].

Istiqloq yillarida "*Saodat*" ayol qalbining minbari, milliy qadriyatlarning targ'ibotchisi, xotin-qizlarni keng ijtimoiy faoliyatga chorlovchi ommabop jurnal sifatida tiklanayotgan ayollarning o'zini ozod inson sifatida qayta kashf etish, imkoniyatlarini namoyon qilishga ruhiy madadkor vazifasini bajarmoqda[10]. Demak, jurnal ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'rifiy-ma'naviy vazifasi, mavzu-mundariyasi motivatsiyasi asosida, ya'ni xotin-qizlarning *baxti*, *omadi* va *muvaqqiyatlarini* yorituvchi nashr bo'lganligi bois hamda gendrologik tabiatiga ko'ra "*Saodat*" deb nomlangan.

"**Ma'rifat**" – xalq ziyolilarining gazetasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi muassisligida nashr etiladi.

Dastlab 1931 yil 4 iyulda "*Madaniy inqilob*" nomi bilan nashr etilib, 1938 yil 25 yanvardan "*O'qituvchilar gazetasi*" nomi bilan, 1991 yildan esa hozirgi nomda chiqa boshladi. 1941 yil 1 iyuldan 1946 yil 9 martgacha gazeta o'z faoliyatini vaqtincha to'xtatgan[10]. Gazeta asosan ta'lim-tarbiyaga oid barcha masalalarni jamiyat, davlat, el-yurt manfaati nuqtai nazaridan o'rganish, sohaga oid

muammolarning ilmiy, amaliy echimlarini topishda ko'maklashish hamda "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarda ko'zda tutilgan barcha masalalar bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, yosh avlod ongida milliy istiqloq g'oyasini shakllantirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi ezgu g'oyalarni targ'ib qilib kelmoqda.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *ma'rifat* so'zi – arabcha *bilim*, *fan*, *ma'lumot*, *tanishish* kabi ma'nolarni ifodalab, ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat[9] turini anglatadi. Bundan tashqari, *ma'rifat ilmu urfon* ma'nosida ham ishlatiladi. *Ma'rifat* tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan bog'liq. *Ma'rifat* – bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif uni yoyish vositasidir. *Ma'rifat*ni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Tasavvufda *ma'rifat* so'fiylarning ruhiy kamolotga erishuvining asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Gemeronimga *ma'rifat* so'zining asl *bilim*, *fan* va *ta'lim-tarbiya*, *iqtisodiy*, *siyosiy*, *diniy*, *falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong-bilimini*, *madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat turi* ma'nolari lug'aviy asos bo'lgan. Jurnal mazmun-mundariyasi motivatsiyasi asosida, ya'ni ta'lim-tarbiya, fan, bilim va uning metodikasiga doir nashr bo'lganligi bois "*Ma'rifat*" deb nomlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. – M.: Sov.E., 1969. – S. 507.
2. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – B. 48.
3. Qosimov B., Yusupov SH., Dolimov U., Rizaev SH., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B. 403.
4. Mo'minov S. O'zbek tilshunosligi terminlarida motivatsiya // O'zbek terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari: I Respublika terminologiya konferentsiyasi materiallari. – Toshkent: Fan, 1986. – B.74.
5. Mo'minov S.M. Okkazonal-nutqiy nominatsiyada motivatsiyaning roli: Filol. fan. nom. ... disser. – Toshkent, 1990. – B. 17.
6. Podolskaya N.V. Slovar ruskoy onomasticheskiy terminologi. – Moskva: Nauka, 1988. – S. 61.
7. Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki jildli. – Toshkent: O'zSE, 1983. – 2-jild. – B. 573.
8. Superanskaya A.V. Obщaya teoriya imeni sobstvennogo. – Moskva: Nauka, 1973. – S. 236.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 2-j. – B.618.

10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 11-j. – B.326.
11. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2002. 67-, 70-, 71-, 72-, 74-, 97-b.

RASMIY VA NORASMIY MULOQOT MANSUBLIGI
ОТНОШЕНИЕ ФОРМАЛЬНОГО И НЕФОРМАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ
FORMAL AND INFORMAL COMMUNICATION AFFILIATION

Atadjanova Nodirabegim Nasimxo'ja qizi
Qo'qon DPI, o'qituvchi

Annotatsiya, Ushbu maqolada mansublik turlariga oid til birliklarining ikki xil usulda ya'ni rasmiy va norasmiy tarzda foydalanilishi xususida tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: nutq, personaj, rasmiy muloqot, norasmiy muloqot, emotsional munosabat, nutqiy etiket, diskursiv vaziyat, tibbiy diskurs, adresat, mansublik inqirozi, nutqiy qolip, lingvistik xususiyat.

Аннотация. Свободный научный сотрудник кафедры английского языка и литературы факультета иностранных языков Кокандского государственного педагогического института имени Муками (преподаватель английского языка кафедры английского языка и литературы)

Ключевые слова: речь, персонаж, официальное общение, неформальное общение, эмоциональный отклик, речевой этикет, дискурсивная ситуация, медицинский дискурс, адресат, кризис принадлежности, речевой паттерн, языковая особенность.

Free researcher of the Department of English Language and Literature, Faculty of Foreign Languages, Kokand State Pedagogical Institute named after Muqimi (English teacher of the Department of English Language and Literature)

Annotation. this article investigates the use of language units related to types of belonging in two different ways, i.e., formally and informally.

Key words: speech, character, formal communication, informal communication, emotional attitude, speech etiquette, discursive situation, medical discourse, addressee, crisis of affiliation, speech pattern, linguistic feature.

Sotsiologlar tomonidan mansublik turlariga oid til birliklaridan ikki xil usulda – rasmiy va norasmiy tarzda foydalanilishi e'tirof etiladi. Shaxslararo munosabatlar turli shakllarda ko'rinishi mumkin, masalan, *ishga aloqador* (rasmiy, ishonchli, nosamimiy) va *shaxsiy* (norasmiy, samimiy) shakllarda. *Ishga (xizmatga) aloqador bo'lgan* munosabatlar mansabdor shaxslar tomonidan o'rnatilgan yoki mazkur muhitda qabul qilinib, uzoq vaqt davom etgan an'analar natijasida shakllangan muayyan qoidalar, marosimlar va rasmiyatchilikka amal kilish bilan bog'liqdir. Ishga aloqador munosabatlar majburiylik xususiyatiga ega.

Shaxsiy munosabatlar ko'proq kishilarni o'zaro yaqinlashtiradigan yoki uzoqlashtiradigan, yoqtirish yoki yoqtirmaslikni, yaqinlik yoki begonalikni keltirib chiqaradigan his-tuyg'ular ta'sirida tarkib topadi. Shaxsiy munosabatlar oilaviy, do'stona bo'lishi, muhabbat, do'stlik yoki nafrat asosida bo'lishi mumkin.

Rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvoridan kelib chiqadi. Masalan, rahbarning o'z xodimlari bilan, professorning talaba bilan muloqotidir.

Norasmiy muloqot odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-

o‘ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan: do‘stlar suhbatlari, poezdda uzoq safarga chiqqan yo‘lovchilar suhbatlari, tanaffusda talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi suhbatlari.

Nutqiy etiketlar mansublik doirasiga ko‘ra – ilmiy anjumanda, sport musobaqasida, siyosiy uchrashuvda, oila davrasida va hokazo holatlarda turlicha qo‘llanadi. Masalan, shaxslararo munosabatlarda do‘stlar davrasida (“xayr”, “yaxshi qol”, “okey”, “poka”, “chao” “bay-bay”, “ko‘rishguncha”, rahbar-xodim (yaxshi boring, yaxshi qoling, omon bo‘ling), o‘qituvchi-o‘quvchi (xayr), ota-ona – bola (“bo‘pti”, “mayli”, “men ketdim”, “kech qolma”, “ehtiyot bo‘l”, “yaxshi o‘tiringlar”) kabi ham farqlanadi.

Mansublikka oid diskursiv vaziyat o‘zgarishi nutqiy qoliplarda ham o‘z ifodasini topadi. Masalan, ilmiy muloqotda “E’tiroz bildiraman”, “Fikringizga qo‘shilaman”, “Bunga qo‘shilmayman”, “Ishonchim komil emas” kabi iboralar, sud-huquq jarayonlarida “ayblov xulosasi”, “hukm”, “ajrim”, “da‘vogar” tushunchalarini ifodalovchi ifodalar, tibbiy diskursda “muolaja bosqichlari”, “tahlil natijalari”, “kasallik tarixi” kabi nutqiy qoliplar faol qo‘llanadi.

Rasmiy muloqot:

Taxta to‘siq ortida o‘tirgan novcha kapitan norizo qiyofada o‘rnidan turdi.

- Nega chest bermaysan, serjant? - dedi ko‘zimga tikandek qadalib.

Yo, Xudo! Xo‘p g‘alati narsa-da, bu «harbiy intizom» degani! Unvoni o‘zingdan bir pog‘ona balandmi, qoqqan qoziqdek g‘o‘daygin-da, chest ber! Tanisang ham chest ber, tanimasang ham. Hurmat qilsang ham chest ber, qilmasang ham! O‘zini bir tiyinga olmasliging mumkin. Ammo egnida mundir, elkasida pogon bor.

- Salom, o‘rtoq kapitan! - dedim fuqarochasiga oddiy qilib. Kissamdan hujjatlarimni olib, taxta to‘siq ustiga qo‘ydim.

- Ustav bo‘yicha doklad qil! - dedi kapitan dag‘dag‘a bilan. (O‘.Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”)

Norasmiy (erkin) muloqot:

- Salom, - Abdulla uyalib qarab turgan bu jikkak, olifta kiyingan yigitga qo‘lini uzatdi.

- Qaysi institutga?

- Yadrofizikaga, - dedi hozirjavoblik bilan Po‘lat. Uning ovozi mayin, xuddi qizlarnikiga o‘xshardi. - Ikki yil bo‘ldi ochilganiga. Dadam qarshilik qilsalar ham ketyapman.

- Yaxshi, - Abdulla havas bilan unga tikildi.

- Yaxshi bo‘lganda qandoq! - gapga aralashdi Rustam. - Nima deding, Ahror? Zo‘r bu, zo‘r!

- Ha, - dedi jingalak soch yigit. - Agar men ham medalga ilinganimda, borar edim.

- Hozir ham boraver, - dedi sariqqina yigit.

- Qo‘rqaman, imtihonlari og‘ir. Yiqilib qolishim mumkin.

- Siz-chi? - so‘radi Po‘lat Abdullaga murojaat qilib. - Siz qaerga kirmoqchisiz?

- Men... - negadir o‘ylanib qoldi Abdulla, keyin dedi: - Men ham shu institutga borsam kerak.

- Yo‘g‘-e?! - deb yubordi Rustam.

- Lekin, lekin hali aniq emas, - dedi shoshib Abdulla. (O‘.Umarbekov. “Odam bo‘lish qiyin”)

- Grajdanim G‘aniyev! Yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o‘tar kechasi qaerda edingiz?

- Birinchidan, o‘rtoq tergovchi, men «grajdanin G‘aniev» emas, iste‘fodagi polkovnik, o‘rtoq G‘aniyevman! Marhamat qilib, o‘rtoq polkovnik, deb murojaat etishingizni so‘rayman.

O‘rtoq Komissar, desangiz ham roziman. Meni taniganlar “o‘rtoq komissar”, deyishadi.

- Biz sizni guvoh sifatida povestka bilan...

- Povestkangizni pishirib yeng! Xohlasam, generalning o‘zi bilan gaplashib qo‘ya qolaman!

- Marhum Shomatovni birinchi bo‘lib siz...

- Ha-ya, men ko‘rganman! Takror aytaman. Meni so‘rogga chaqirgan bo‘lsangiz, adashasiz. Shunchaki kollega sifatida maslahat so‘rasangiz boshqa gap.

(O‘.Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”)

Fuqaro [arab – “faqir” so‘zining ko‘pl.]

1. Biror mamlakatning doimiy (muayyan yuridik huqlarga ega bo‘lgan) aholisi, **grajdanlar**.

O‘rtoq. 3) *rasmiy*. Kishilarga murojaatda, odatda, ularning familiyasi, kasbi, unvoni va sh. k. bildiruvchi so‘zga qo‘shib ishlatiladi. *O‘rtoq direktor. O‘rtoq mayor.*

O‘rtoq (товарищ) – m.r. 1. Qarashlari, faoliyati, yashash sharoiti jihatidan kimgadir yaqin, shuningdek, kimgadir do‘stona munosabatda bo‘lgan shaxs. *Bolalikdan, maktabdan o‘rtoqlar.* Yo‘ldosh, quroldosh – *Bu talaba yaxshi o‘rtoq. Baxtsizlikdagi o‘rtoqlar* (qandaydir muammoni boshdan kechirishda birgalikda bo‘lganlar haqida; so‘zlashuv).

2. Sovet davrida (odatda, familiyasi, unvoni, lavozimi, kasbi oldidan): fuqaroga murojaat (2-ma‘noda, shuningdek, uning kommunistik yoki do‘stona partiya a‘zosiga nisbatan eslatma, majburiy murojaat yoki eslatma. Komissiya a‘ziligiga uchta o‘rtoq ko‘rsatilsin. O‘rtoq Petrova keldi. Qurultoyga turli mamlakatlardan o‘rtoqlar kelishdi.¹

O‘zbek tilida “*grajdanin*” va “*o‘rtoq*” so‘zlarining nutqiy etiket tarzida qo‘llanilishi ijtimoiy shart-sharoit tufayli rus tili ta‘sirida shakllangan bo‘lib, asosan, rasmiy diskursda qo‘llanadi. *Grajdanin* (*grajdan*) so‘zi mamlakat fuqarosi ma‘nosida sud-huquq tizimida qo‘llanadi. Shu tartib asosida tergovchi guvoh G‘anievga nisbatan “*grajdanin G‘aniev*” tarzida murojaat qilgan. Biroq mutaassib sobiq amaldor uzoq yillar ichki ishlar tizimida ishlab, e‘tiqodsiz tuzumga xizmat qilgan, “otdan tushsa ham uzangidan tushmagan” kimsa edi. *O‘rtoq* so‘zi esa, asosan, harbiy va huquq-tartibot tizimlarida familiya, unvon, lavozim oldidan qo‘llanilib, rasmiy munosabatni ifodalaydi. Demak, bu yerda *grajdanin* va *o‘rtoq* nutqiy etiketlari, ya‘ni ikki xil diskursga oid til birliklari oppozitsiyaga kirishadi va adresatga hissiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki G‘aniyev odatiga ko‘ra, har yerda “sobiq xizmatchi”ligini ro‘kach qilib, izzatlablik qilaveradi. Shuning uchun tergovchining el qatori “*grajdanin G‘aniyev*” tarzidagi murojaati uni qoniqtirmaydi, ya‘ni o‘zining mansublik inqirozidagi_holatini tan olmaydi.

Abdulla Qahhorning “*Nutq*” hikoyasida rasmiy va norasmiy uslubga xos lingvistik xususiyatlar badiiy-tasviriy vosita sifatida qo‘llangan. “Keng eshituvchilar ommasiga mo‘ljallangan” notiqlardan biri uyda oddiy tabrik so‘zini ham rasmiy muloqot usulidagi nutqqa aylantiradi, *o‘rtoq rafiqam, sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimiz, ichki imkoniyatlar* kabi rasmiy qolipdagi til birliklari qo‘llaydi. Yozuvchi shu tariqa kinoya usuli orqali personaj xarakterini yoritib beradi.

- *O‘rtoq rafiqam!* *Ijzat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil to‘lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!*...

- *Ikkinchi masala, ya‘ni ichki imkoniyatlardan foydalanish masalasini olaylik. O‘zingizga ma‘lum, bizda yuqori sifatli mis choynak bor. Shu choynakning qopqog‘i bugungi kunda yo‘q. Bu haqda biz bir-birimizga signal berdikmi? Yo‘q! Agar biz o‘zibo‘larchilikka uzil-kesil barham berib qopqoq masalasini kun tartibiga ko‘ndalang qo‘ysak, agar biz shu choynakni o‘z vaqtida tegishli qopqoq bilan bevosita ta‘min qilsak, samovarimiz safdan chiqqan kunlarda hal qiluvchi rol o‘ynar edi. Afsuski, biz bu masalaga murosasozlik ko‘zi bilan qaradik.* (A.Qahhor, “Nutq”)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mualliflar guruhi. Shaxs va jamiyat. O'qituvchilar uchun uslubiy ko'llanma. T.: 2006.
2. Nurmatova M. Muloqot va muomala psixologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDChTI, 2016.
3. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. М.: 1960. - С.2009
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, 4-jild. T.: O'zME nashriyoti, 2007.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati, 5-jild. T.: O'zME nashriyoti, 2008.

DRAMADA MA'NAVIY-AXLOQIY MUAMMOLARNING IFODALANISHI

ВЫРАЖЕНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЙ ПРОБЛЕМЫ В ДРАМЕ

EXPRESSION OF SPIRITUAL AND MORAL PROBLEMS IN THE DRAMA

Xolmatova Nigora Yakubovna
Qo'qon DPI f.f.f.d.(PhD)

Annotasiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi E.A'zamning "Farrosh kampirning tushi" hangomasi va bu dramaga xos muhim, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy muammolarning yangicha badiiy talqini tahlil etgan.

Tayanch so'z va iboralar: Drama, hangoma, Erkin A'zam, tush motivi, ma'naviy-axloqiy muammo, ijtimoiy muammo

Аннотация. В данной статье анализируются драма народного писателя Узбекистана Э. Азама «Сон девы» и новое художественное осмысление важных, духовно-нравственных и социальных проблем, присущих этой драме.

Основные слова и фразы: Драма, суматоха, свобода, мотив сновидения, духовно-нравственная проблема, социальная проблема.

Annotation. In this article, the folk writer of Uzbekistan E. Azam's drama "The Maid's Dream" and the new artistic interpretation of the important, spiritual, moral and social problems inherent in this drama are analyzed.

Basic words and phrases: Drama, tumult, Freedom, dream motif, spiritual and moral problem, social problem

Abdulla Qahhor o'z shogirdlariga janrlar ichida dramaturgiya sohasida asar yozish eng qiyin mashg'ulot ekanligini ta'kidlab, shunday deydi: "So'zni mix qilib qoqib, qalpog'ini uzib tashla, birov sug'urib ololmasin".[2.82] So'zni mixdek qoqib yozish san'atini bugungi kun dramaturglari orasida E.A'zam eplay oldi. E.A'zam shu kunga qadar sahna uchun to'rtta dramatik asar yozdi. Bular "Jannat o'zi qaydadir yoxud Jiydalidan chiqqan Jo'raqul va uning xonadonida kechgan savdolaridan naql etuvchi ikki qismli dramatik qissa", "Shajara. Turfa turlanishu, tuslanishlardan iborat uch pardali achchiq hangoma", "Farrosh kampirning tushi", "Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi" deb ataladi.

Ushbu maqolada "Farrosh kampirning tushi" dramasida ma'naviy-axloqiy muammolarning badiiy talqini masalasiga to'xtalamiz.

Adibning "Farrosh kampirning tushi Boshiga "kulfat" tushgan bir Bekorchixona hangomasi" asari hech bir to'plamiga kirmagan. Mazkur dramada "Yoshlik" jurnalining 2011-yil sonida chop etilgan. Sarlavhaning o'zidayoq E.A'zamning o'ziga xos kinoyasi aks etgan ya'ni dramada ishining tayini bo'lmagan tashkilot xodimlarining hayotidan bir hangomani hikoya qiladi. Asarda bekorchixona axllari Rahbar Rahbarovich, Muovin buva, Gulibarno, Hisobchixon, Iqtisodchi xonim, Bo'lim boshlig'i, Bosh

mutaxassis, Mutaxassis xonim, Haydovchi yigit, Farrosh kampir va boshqalar ishtirok etadi. Drama ikki qismdan iborat. Birinchi qism “Oshgacha”, ikkinchi qism “Oshdan keyin” deb ataladi. Drama kompozitsion nuqtai nazardan qaralganda, “diydiyo”lardan iborat. Bu ayni paytda E.A’zamning o‘zbek dramaturgiyasi shakliga yangilik kiritganligini ko‘rsatadi. Birinchi qism to‘rt diydiyodan iborat, ikkinchi qism ham to‘rt diydiyodan iborat. E.A’zam mazkur dramani kompozitsiyasiga yangilik qilgan holda “Diydiyoning boshlanishi” bilan boshlab oxirini “Diydiyolarning oxiri” deb tugatadi. Hangoma bir tashkilotda ishlaydigan farrosh kampir Qumri opaning tushida sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham hangoma “Farrosh kampirning tushi” deb nomlandi. Hangomada farrosh kampirning tushida u ishlaydigan tashkilot Qo‘yliqqa ko‘chishi haqida xabar tarqaladi. Shu ishonchsiz ma’lumot asosida tashkilot xodimlari yangi ko‘chiladigan binodagi xonalar ustida talashish-tortishish, eski binodagi eski jihozlarga egalik qilish haqida munozaralar boshlanib ketadi. Kuzatib turganimizdek, bu dramada ajib hangomalar hangoma qilinadi. Mohir dramaturg jamiyatda davlat beradigan moyanaga yashab, tekinxo‘r va boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan zamondoshlarimiz ustidan zaharxanda kulgi bilan kuladi. Hangomada tasvirlangan Bekorchixona tashkiloti a‘zolarining qiladigan ishining tayini yo‘q, ertalabdan kechgacha nahor osh va kechki oshni kutib yashaydi. Adib hangomani bejiz ikki qismga bo‘lib tasvirlamagan ya’ni birinchi qism “oshgacha”, ikkinchi qism “oshdan so‘ng”. E.A’zam hangomada o‘zbek milliy turmushidagi nahorgi oshlar, oshdan so‘ng lanj bo‘lib, ishlashni xohlamaydigan yalqov zamondoshlarimizni satirik qalam tig‘i bilan tanqid ostiga oladi. Hangomada Bekorchixona tashkilotining boshlig‘i Rahbar Rahbarovich Akaxonidan doimiy ravishda maslahatlar olib turadi. Hangomada biror marta yuzini ko‘rsatmagan Akaxon rahbar Rahbar Rahbarovichga o‘zining rahbarlik

faoliyatidan tavsiyalar beradi. Ularning birinchisi: “Hech qachon qo‘l ostidagi xodimlarga yo‘l-yo‘lakay, ko‘cha-ko‘yda topshiriq yoki tanbeh berilmaydi. Bir og‘iz gap bo‘lsa ham albatta kabinetga chaqirib aytiladi. Mansab kursisining sehr-salobati bo‘lakcha!”. Ikkinchisi: “Ertalab ishga kelganda dastavval bir varaq qog‘oz olib, bugun bajariladigan yumushlar ro‘yxat qilinadi. Ro‘yxatning boshida albatta shaxsiy masalalar tursin. Davlat ishlari o‘z-o‘zidan bo‘laveradi”. Yozuvchi jamiyatni kuzatadi va davlat ishiga panja ortidan qarab, faqat o‘zining shaxsiy manfaatlari yo‘lida va shaxsiy muammolarini echish bilan andarmon bo‘layotgan munofiq va manqurt shaxslarni satirik tasvir va zaharxanda kulgi uslubi bilan fosh etadi. Hangomada yaratilgan har bir obraz jamiyatimizdagi salbiy illatlarni o‘zida tashuvchi odamlar ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, Rahbar Rahbarovichning shofyori haydovchi yigit Bekorchixonadagi bir siniq divanda ertalabdan kechgacha uxlaydi. Muovin buva 62-65 yoshlarda aslida shu tashkilotning rahbari u bo‘lgan. Keyin rahbarlikni Rahbar Rahbarovichga topshirgan. Muovin buva nafaqaga chiqqan bo‘lishiga qaramasdan, qo‘lidan birorta ish kelmasa ham, ishga kelishni kanda qilmaydi. Necha marta ishdan bo‘shash haqida ariza yozib, shuncha marta qaytarib olgan. Bekorchixona tashkilotining xodimlaridan yana ikkitasi bo‘lim boshlig‘i va bosh mutaxassis shaxmat o‘ynab o‘tiradi. Gulibarno Rahbar Rahbarovichning kotibasi 25-28 yoshlardagi juvon, bu tashkilotga kimki kelsa Gulibarnoni ko‘z ostiga oladi. Hatto Rahbar Rahbarovichning Akaxoni ham telefonda tinmay Gulibarnoni so‘raydi va salom aytadi. Hangomani tashkil qilgan diydiyolar sahnasida Mutaxassis xonimning turmushidan yolchimaganligi, Gulibarnoning atrofida girdikapalak bo‘layotgan erkaklarga g‘ijini qarashi namoyon bo‘ladi. Iqtisodchi xonim pardo-andozga o‘ch, zamonaviy juvon. Muallif hangomada tasvirlangan har bir kinoyaviy obraz va ularning nopok ichki dunyosini va munofiqona xarakterini ochib berishda badiiy detallardan, xalqona so‘z va

iboralardan, zamonning yangi inglizcha-ruscha so‘zlaridan unumli foydalanadi.

Tadqiqotchi M.Jo‘rayev axloqiy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy komediyalarni o‘rganib, shunday yozadi: “Axloqiy mavzudagi komediyalarda haqiqiy insonga xos fazilatlar: halollik, kamtarlik hamda oliyanoblikni sharafdash va insonga ishonchsizlik, yolg‘onchilik, ichiqoralik, molparastlik, o‘z huzur-halovati ustidagina qayg‘urish kabi illatlarni qoralash asarning voqeaviy asosini tashkil etadi. Axloq hamda axloqiy masalalar har doim jamiyat ma‘naviy hayotining asosiy negizini tashkil qiladi. Shu jihatdan ham hamma davrlarda axloq va axloqiy muammolar qalam ahlining diqqat markazida turishi tabiiy holdir. Ayniqsa, bu jihatdan adabiyotning, xususan, satira va hajviyotning alohida o‘rni borligi ijodkorlar va adabiyotshunoslar tomonidan yakdillik bilan e‘tirof etilgan”[2.81] Xuddi shuningdek, E.A‘zamning biz yuqorida tahlil qilayotgan “Farrosh kampirning tushi” bundan tashqari, “Jannat o‘zi qaydadir”, “Shajara” dramlarida ma‘naviy-axloqiy va ijtimoiy muammolar haqqoniy tasvir etiladi. Dramaturg hayotda har qadamda uchraydigan va jamiyatdagi ko‘p bora kuzatgan axloqsizlik, soxtagarchilik, boylik ketidan quvish, haromdan qo‘rqmaslik, iymonsizlik kabi axloqiy nuqsonlarni butun murakkabligi bilan aks etadi.

E.A‘zam “Farrosh kampirning tushi” dramasida tekinxo‘rlik, axloqsizlik, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan jamiyat hayotiga rahna soluvchi salbiy va chirkin illatlarni Rahbar Rahbarovich, Akaxon, Gulibarno, Hisobchixon, Iqtisodchi xonim kabi obrazlar orqali yaqqol ochib bergan. Mazkur drama qahramonlari ijobiy xarakterga ega emas. E.A‘zam “Farrosh kampirning tushi” dramasida asosiy e‘tiborni salbiy qahramonlar qiyofasini va ularning badbin ichki chirkinligini, ma‘naviy tubanligini ayovsiz ochib tashlash va fosh etishga qaratadi. Drama “Yosh tomoshabinlar teatri”da sahnalashtirilgan va teatr ixlosmandlarining olqishiga sazovor bo‘ldi. Muallif drama markaziga Bekorchixona tashkilotining dangasa va ma‘naviy-

axloqiy tuban kishilarning axloqsizlik muammolarini qo‘yar ekan, kinoya, zaharxanda kulgi, kesatish, piching, istehzo, so‘z o‘yinlari kabi vositalardan foydalanib, ularni Rahbar Rahbarovich, Hisobchixon, Iqtisodchixonim, Gulibarno obrazlari misolida achchiq kulgi orqali fosh etishga muvaffaq bo‘ladi.

Nazarimizda “Farrosh kampirning tushi” dramasida ham axloqiy muammo, ham ijtimoiy muammo etakchi o‘rinda turadi. Bir so‘z bilan aytganda dramada chuqur ijtimoiy dard o‘z ifodasini topgan. Ya‘ni dramaturg sobiq sho‘ro davridan qolib ketgan, chirib bo‘lgan, eskicha ishlash va yashash qolipiga tushib qolgan boqimanda salbiy tiplarni axloqiy va ijtimoiy rakursdan turib baho beradi. Bu hangomaning voqealari va tanqidiy kinoyaviy pafosi, halollik, mehnatkashlik va axloqiy go‘zallik uchun kurashga chorlab qoladi. E‘tibor berib qarasak, hangomada peshona teri bilan halol mehnat qilib pul topayotgan bittagina obraz bor. Bu farrosh kampir Qumri opadir. Farrosh kampir to‘rt tanga oylik uchun, uzoq Qo‘yliqdan kelib, Bekorchixona tashkilotining o‘nta xonasini supirib-tozalaydi. Drama sahnalarida farrosh kampir bir qo‘lida chang latta, bir qo‘lida chelang bilan ivirsib artib-surtish bilan band bo‘ladi. Farrosh kampir arzimagan pulga Qo‘yliqdan kelib ishlaydi. Kampirning o‘ziga o‘zi diydiyosidan uning boshqa birovning mehnat daftarchasi bilan ishlayotganligini anglab etamiz. Mohir dramaturg mana shu tasvir orqali ham jamiyatdagi nosozliklarni, ko‘zbo‘yamachiliklarni, qog‘ozbozlikni fosh etadi. Jumladan farrosh kampir nutqidan: “Esiz jonim! Beradigani – cho‘zib-cho‘zib to‘rt tanga, shunday shunga sarson bo‘lib kelaman-a! Qurg‘ur, kelib-ketishimga etsa ham koshki edi! Uyda yalpayib o‘tirgan anuv boyvuchcha shungayam sherik deng! Qumrigina otimni qo‘yib o‘shaning nomida Dilnavoz bo‘lib yuribman-da. Dilnavoz! Dilnavoz opa, Dilnavoz xola! Qurib ketsin, o‘zimning nomimga o‘tay desam, pensa o‘lgurning qoq yarmini kesadi. Eski kattaga ham, manovi yangisiga ham “ozroq ko‘tarsangiz-chi,

opovsi" deb xudoning zorini qildim – qayoqda! Hammasiga o'lgur o'sha ziqna bug'altir aybdor! "Mumkin emas, mumkin emas!" Megajin! Senga mumkin! O'zginangga mumkin! Asomova Dilnavoz... iye, Qumri sho'rlikka kelganda – taqa-taq! Yer yutgur, adogina bo'lgur! (Qo'lidagi gazetani qo'yib telefonga yopishgan Rahbar Rahbarovichga ko'zi tushadiyu birdan yumshab, yaltoqilik bilan so'rasha ketadi.) Charchamaygina yuribsizmi, ukajon? Siz keldingizu, xudoga shukr, bu ordona idoraga son kirdi, fayzu baraka kirdi. Martabangiz bundan-da ziyoda bo'lsin! Kelinposhsha yaxshimlar? Anuv kungi boshog'riqlari qoldimi ishqilib? Qolsin, qolsin iloyim. Nevaralarim chopqillab yurishibdimi? Ha, hammaginasining umrini bersin. Dadasining izidan borib, mana shundoq katta idoralarga kattakon bo'lib ketsin!"^[1.93].

Dramada Bekorchixona tashkiloti xodimlari Aqidaxon va Martinbekning visol oqshomi munosabati bilan to'yxonaga oshga ketishadi. Dramaturg globallashuv davrining eng katta fojealaridan biri diniy e'tiqod, milliy urf-odatlariga amal qilmasdan boshqa millat vakillariga turmushga chiqib, aynib ketayotgan millatlar taqdirini kinoyaviy uslubda fosh etadi. **Bo'lim boshlig'i.** Mana! (Tantanavor o'qimoqqa tushadi) "Sevimli farzandlarimiz Aqidaxon va Martinbekning visol oqshomi munosabati bilan... "Do'mbirobod" to'yxonasiga lutfan oshga taklif etamiz". Jamoa bilan! Yashavor! Ketdikmi? Soat ham o'n bir bo'lib qoldi. Yetib borgunimizcha...

Bosh mutaxassis. Martinbek?! Sevimli farzandlari negr-pegrmikan?

Bo'lim boshlig'i. Negrmi, balomi, nima farqi bor sizga? Oshi qora bo'lmasa bo'ldi-da!

Bosh mutaxassis. Men qarshiman.

Bo'lim boshlig'i. Oshgami, negrgami?

Bosh mutaxassis. Qizlarimizning mana shunday har turlisiga tegib ketaverishiga! Bu yoqda o'zimiz turib!

Bo'lim boshlig'i. Obbo-o! (Mutaxassislar xonasiga imo etib) Kamlik qilyaptimi?.. Nima, sizdan so'rab tegsinmi?! Erkinlik, demokratiya! Biz ham dunyoga chiqib bo'ldik, og'ayni! Hozir jahonning qay go'riga bormang, "tog'ajon" deb to'rttasi bo'yningizga osiladi! Zamonning zayli-da, qo'lingizdan nima kelardi? Xo'sh, boramizmi? (Muovin buvani turtib) Hey boboy, ko'zni oching! Oshga! Siz tomonga. O'shanaqasi uyingizda qolaversiz... Lanjroq ko'rinasiz, nahorgisiga ham boruvmidingiz deyman? Qearga? Muovin buva (azob bilan ko'zini ochib). Qurbaqaobodga.

Bosh mutaxassis (chapak urib). Yuz ofarin, ming ofarin! Kallai saharlab! Do'mbiroboddan Qurbaqaobodga!"^[1.90]. Yozuvchi "Do'mbirobod - Qurbaqaobod" so'zlarini qo'llash orqali dramada so'z o'yini qiladi va kulgili vaziyat yaratadi. Drama yakunida barcha voqealar farrosh kampirning tushida bo'lib o'tganidan tomoshabin voqif bo'ladi. Aslida esa, tush bu drama uchun qoliplash, bir badiiy kompozisiya vazifasini o'tagan. Farrosh kampir Bekorchixona tashkilotini o'zi yashaydigan Qo'yliqqa ko'chirishni xohlaydi. Uning bu orzusi tushida yuz beradi.

Dramaturg bu drama orqali har bir fuqaro o'z ishini astoydil bajarishi lozimligini uqtiradi. Bu dramadan chiqariladigan muhim g'oyaviy bir xulosa sifatida ko'zga tashlanadi. Muallif drama qahramonlarining salbiy jihatlarini haqqoniy ko'rsatar ekan, natijada, tomoshabinda yoki o'quvchida bu tekinox'r, boqimanda, uxlash va eyishdan boshqa narsani o'ylamaydigan qalloblarga nisbatan nafrat hissini tuydiradi.

"Farrosh kampirning tushi" dramasida qalamga olingan nomussiz, ma'naviy tuban kimsalar ham yozuvchining, ham tomoshabinning zaharxanda kulgisiga loyiq kimsalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Azam. E. Farrosh kampirning tushi. // Yoshlik. 2011. №10. – B.
2. Joʻrayev. M. Oʻzbek adabiyotida komediya janri xususiyatlari va ularning tarixiyliigi: filol. fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss... Jizzax, 2021. – B. 81-82.
3. Vohidov E. Qarzdorlik / Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. – B. 115.
4. Shofiyev O. Erkin Azam nasri badiiyati. – Toshkent: Qaqqus media, 2019.
5. Azam. E. Ertalabki xayollar. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2015.
6. Erkin Azam badiiy olami. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014.
7. Qoʻchqorova M. Hozirgi oʻzbek nasrida badiiy shartlilik. – Toshkent: Fan, 2020.

**NAVOIYSHUNOS OLIM Y. ISHOQOVNING ULUGʻ SHOIRNING MASLAK VA
SULUKLARGA MUNOSABATI HAQIDA**

**УЧЁНЫЙ-НАВОИВЕД Ё.ИСХАКОВ ОБ ОТНОШЕНИИ ВЕЛИКОГО ПОЭТА К
МАСЛАКУ И СУЛУКАМ**

NAVOIYSHONOS SCIENTIST Y. ISHAKOV ABOUT

THE ATTITUDE OF THE GREAT POET TO MASLAKS AND SULUKS

Nasrullayev Elmurod Jumaboyevich
JDPU f.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada oʻzbek navoiyshunosligining yirik tadqiqotchilaridan biri, navoiyshunos olim Yoqubjon Isʼhoqovning ulugʻ shoirning maslak va suluklarga munosabati masalasida yaratgan ilmiy konsepti haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: navoiyshunos, munosabat, maslak, suluk, konsept, tasavvuf, risola, mafkura, insoniyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается научная концепция, созданная Якубжоном Исхаковым, одним из крупных исследователей узбекского навоиведения, навоийским ученым, по вопросу об отношении великого поэта к маслаку и сулукам.

Ключевые слова: навоивед, отношение, маслак, сулук, концепт, мистика, трактат, идеология, человечество

Annotation. This article discusses the scientific concept created by Yakubjon Ishakov, one of the major researchers of Uzbek Navoi studies, about the relation of the great poet to leeches and leeches.

Key words: navoi scientist, attitude, maslak, leech, concept, mysticism, treatise, ideology, humanity.

Oʻzbek navoiyshunosligining yirik tadqiqotchilaridan biri, filologiya fanlari nomzodi Yoqubjon Isʼhoqov Hazrat Navoiy haqida, xususan, uning maslak va suluklarga munosabati masalasi boʻyicha bir qator tadqiqot ishlarini olib bordi[1] va buning natijasida oʻz ilmiy konseptini yaratdi.

Shu oʻrinda “konsept” tushunchasiga toʻxtalib oʻtsak.

Falsafiy va ilmiy lugʻatlarda konsept tushunchasi shunday taʼriflanadi: Konsept – (lot. conceptum) umumiy tushuncha, umumiy tasavvur[2].

Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushunchaning bir qator turlari farqlanadi. Jumladan, filologiyada konsept “anʼanaviy ifodaga ega boʻlgan barqaror lisoniy yoki mualliflik gʻoyasi, motivning aynan oʻzi” sifatida sharhlanadi [3].

Istiqolga erishganimizdan keyingi yillarda oʻzbek adabiyotshunosligida tasavvuf taʼlimoti va uning badiiy adabiyotga taʼsiri bilan bogʻliq koʻplab maqola va tadqiqotlar yaratildi. Albatta, ularning orasida noaniq fikrlar, mavhum xulosalar, bir-biriga zid farazlarning yuzaga kelishi tabiiy. Olima

D.Yusupovning e’tiroficha, Yoqubjon Is’hoqovning «Naqshbandiya ta’limoti va o‘zbek adabiyoti» tadqiqoti esa aniq va birlamchi manbalarga asoslanganligi, hodisaning mohiyatini to‘liq anglab fikr yuritilganligi, eng asosiysi, mantiqiy va izchil xulosalarga ega ekanligi bilan alohida diqqatga molikdir[4].

Darhaqiqat, olim Y.Is’hoqov yuqorida nomi keltirilgan risolasida tasavvuf va uning muhim sohalaridan biri sanalgan naqshbandiya ta’limotining o‘zbek adabiyotiga ta’siri jarayonlarini tadqiq etgan. Risola naqshbandiya sulukining genezisi, uning yozma adabiyotga ta’siri hamda bu ta’limot bilan bevosita aloqador so‘z san’atkorlari, jumladan, Alisher Navoiy ijodiyotining bevosita aloqasi haqida ma’lumot beradi.

Tadqiqotchi o‘z risolasida, yuqorida ta’kidlanganidek, aniq va birlamchi manbalarga asoslangan holda[5] hodisaning mohiyatini to‘liq anglab fikr yuritishga intiladi. Xususan, naqshbandiya tariqatining asoschisi Muhammad ibn Muhammad Buxoriy – Xoja Bahouddin Naqshband tavalludi, uning ilm tolibi davri bilan bog‘liq ma’lumotlarda bu hol yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Olim Bahouddin Naqshband nomi bilan bog‘liq tariqatning to‘liq shakllanib, rivoj topishiga turtki bo‘lgan ba’zi omillarni eslatib o‘tishni joiz deb hisoblaydi va bunga sabab qilib, Bahouddin shaxsi bilan aloqador bir nechta voqea uning tasavvufdagi tariqati barqaror va bardavom bo‘lishini ta’minlaganini ko‘rsatadi.

Olim Xoja Bahouddin bilan bog‘liq dastlabki bashorat haqidagi ma’lumotni bayon qilarkan, undagi bir holatga, ya’ni mozorda yonib turgan chiroq, chiroqdagi yog‘ bilan pilik tasviriga diqqatni qaratadi va butun tadqiqoti davomida ana shu tasvirni markaz sifatida ushlab turadi. Albatta, bu bejiz emas. Chunki olim bu bilan chiroq– kishilar ma’naviyatini yuksaltiruvchi tasavvuf ta’limoti, chiroqqa yog‘ qo‘yib, piligini ko‘tarish, ya’ni uning nurini ravshanlashtirish soliklar qalbini tasavvufning yangi tariqati – naqshbandiylik nurlari bilan yoritishning

ramziy timsollari sanalishini ta’kidlaydi. Aynan shu holat Xoja Bahouddin Naqshbandga yangi tariqat asoschisi bo‘lishdek qismat ravo ko‘rilganligining isboti bo‘la oladi.

“Bahouddin Balogardon” kitobida yozilishicha[6.28,29], Xoja Bahouddin Xoja Muhammad Vosi’ quddisi sirrihuning mozorga kelganida, unga Xoja Ahmad Ajfarnuy (uni hozirda Xoja Ajundiy deyishadi) mozoriga borishga ishorat bo‘ladi. Mazkur mozorga etganida, ikki kishi yaqinlashib, Xojani bir ulovga mindirishadi va ulovning boshini Muzdaxon mozori tomon burishadi. Muzdaxon mozoriga etganlarida chirog‘don va pilikni yuqorida aytilgan holda (ya’ni yonishga shay holda) ko‘radi, qiblaga yuzlanib o‘tiradi. Shu onda Xojada bexudlik yuz beradi va qarasa, qibla devori yorilib, bir katta taxt paydo bo‘ladi. Yashil parda tortilgan bu taxt atrofida bir guruh kishilar, ya’ni taxtda Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni quddisa sirrihu va ularning xalfalari – xoja Ahmad Siddiq, xoja Avliyoi Kalon, xoja Orif Revgariy, xoja Maqsud Anjir Fag‘anaviy, xoja Ali Romitanii va xoja Muhammad Bobolar o‘tirar edilar. Ushbu muloqot chog‘ida Xoja Abduxoliq G‘ijduvoni Xoja Bahouddinga sulukning boshlanishi, o‘rtasi va oxiri haqida bayon qiladilar va dedilar: “... iste’dod piligini harakatga keltirmoq lozim, toki ravshan bo‘lsin va sirlar zuhurga kelsin”. So‘ng buyurdilar: “Barcha holatda sunnatni hamisha joyiga qo‘yishga intil, bid’atlardan uzoq bo‘l. Mustafo sallallahu alayhi vasallamning hadislarini o‘zingga peshvo qilib ol. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam va uning ulug‘ **sahobalari, rizvonullohi alayhim ajma’in asarlari va xabarlarini izlovchi va o‘rganuvchi bo‘l!**” **Olimning qayd etishicha, mazkur jamoa unga Nasafga Amir Sayyid Kulol xizmatiga borishi lozimligini ta’kidlaydi.** Bunga amal qilgan Xoja Bahouddin Sayyid Amir Kulol yashaydigan qishloqqa borib, uni topib, xizmatiga musharraf bo‘ladi. Bu erda Hazrati Amir (Amir Sayyid Kulol)unga saboq beradi va ovoz chiqarmay, xufiya aytiladigan nafyi va isbotga, ya’ni zikrga mashg‘ul qiladi. Qabristondagi ruhiy

uchrashuv paytida xojagonlar tomonidan buyurilganiga muvofiq, Xoja Bahouddin nafaqat zikri aloniya – oshkora zikrga amal qilmaydi, balki aloniya – ovoz chiqarib aytiladigan zikrni butunlay tark qiladi[6.29].

Olim Y.Is'hoqov ushbu ma'lumotni Bahouddinning Abdulxoliq G'ijduvoni tariqatini uzil-kesil qabul qilganligini ko'rsatuvchi muhim dalil sifatida baholaydi. Shunisi muhimki, olim Xoja Bahouddinning o'z tariqatida qanchalik sobitqadam bo'lganligini namoyish qiluvchi ishonchli dalillardan yana birini Hazrati Amir Kulol bilan aloqador voqea tafsilotida uchrashini qayd qiladi: Hazrati Amir Kulol oxirgi kasal bo'lganlarida yoronlarini Hazrati Xoja Bahouddinga tobe bo'lishga ishorat qiladilar. Yoronlar Sayyid Amir Kuloldan: "Ular "zikri jahr"da, ya'ni jahr tushib zikr aytishda sizga ergashmaganlar-ku?" – deb savol qilgandarida, Sayyid Amir Kulol iltifot qiladilarki: "Xoja qilayotgan har bir amal boshqalarning amalidan yaxshiroq. Xojada yuz berayotgan har qanday amal ilohiy hikmatga binoandur, bu Xojaning o'z ixtiyoridagi ish emas..."[6.54]

Bu naqllarga asoslangan holda, olim ba'zi muhim ilmiy xulosalarni chiqaradi:

1. Sayyid Amir Kulol, Bobo Samosiy vositasida naqshbandiy xojalar silsilasiga mansub bo'lsa ham, u va ashobi zikri xufiya emas, balki zikri jahr bilan mashg'ul bo'lganlar.
2. Bu e'tiborli shayx tariqat, mazhab masalasida dogmatik emas, balki har bir shaxsning e'tiqodda erkinligi tarafdori bo'lgan.
3. Bahouddin tariqat peshvosi Abdulxoliq G'ijduvoni ruhiyatidan fatvo olgan kundan boshlab zikri xufiya yo'lini mahkam tutgan va bu tariqatdan hech qachon chekinmagan[7.8].

Olim naqshbandiylikning negizi va takomili tarixini aniqlashda, boshqa ma'lumotlar qatori, favqulodda ahamiyatga ega bo'lgan yana bir muhim ma'lumotga e'tiborni qaratadi:

Bir darvish naql qilib dedi: "Men Amir Kulol sirrihuning mulozimi edim. Bir kuni Hazrati Xojamiz (Bahouddin Naqshband)

qaddasallohu sirrahul-aziz Sayyid Amir Kulolning manzillariga kelib qoldilar. Tasodifan shu kuni shomda "zikri jahr" majlisi edi. Zikrga mashg'ul bo'lganlarida, Hazrati Xoja uydan tashqariga chiqdilar va Amir Kulolning farzandlari Amir Burhonning xonalari tomon ketdilar. Men ham ularning orqasidan boraverdim. Maqsadim – nega zikri jahrda Amir Kulolga ergashmadingiz, deb savol qilish edi[6.121].

Olim naqshbandiylik tariqatining asoschisi Xoja Bahouddin ta'lim olgan ustozlar haqidagi quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi:

- a) Sayyid Amir Kulol – Xoja Bahouddinning ilk ustoz;
- b) Mavlono Orif Deggaroniy – Xoja Bahouddin etti yil uning xizmatida bo'ladi;
- v) Qusam Shayx – Xoja Bahouddin Xoja Ahmad Yassaviy xonadoniga mansub ushbu turk shayxining xizmatida 2-3 oy bo'ladi;
- d) Xalil Sulton (G'ozon Sulton), ya'ni Xalil ota – Xoja Bahouddin hayotining ziddiyatlarga boy o'n ikki yili (olti yili darveshlik va yana olti yili Movarounnahr hukmdori bo'lgan davrda) Xalil otaning xizmatida o'tadi. Olim Bahouddin dunyoqarashining yangi bosqichga o'tishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan ana shu voqealar tafsiloti "manoqib"da muxtasar bayon qilinganligini [6.25] qayd etib o'tadi. Olimning fikricha, Bahouddin, garchi avliyulloh xizmatiga kirib, unga murid sifatida sadoqat ko'rsatgan bo'lsa ham, hayot unga darbor odobi qoidalari bilan oshno bo'lish va «dunyoning barcha kor-uboridan» hafsalasi pir bo'lishi uchun imkoniyat yaratdi. Shundan so'ng uning biror shayx xizmatida bo'lganligi ma'lum emas [7.9].

Olim Xoja Bahouddinning shundan keyingi turmush tarzi ularning tariqatlariga muvofiq va ibratli ekanligini qayd etadi va buning isboti sifatida Xoja Bahouddinning murid va kuyovlari Alouddin Attor(v. 1499)ning bu masaladagi qaydlari nihoyatda e'tiborga loyiqligini ta'kidlaydi[7]: «Xojamizning taomlari ziroatdan hosil bo'lardi... Va Hazrati Xojamizning uylarida mol-mulk yo'q edi. G'ariblardek

yashardilar. Masjidlarida qishda xashak bo'lardi, yozda esa bo'yra, singan ko'zalari bor edi. U zotda xizmatkor zoti bo'lmagan. "Nega xizmatkor yollamaysiz?" – deb so'rganlarida: «Qullik (Allohga qullik – Y.I.) xo'jayinlik bilan mos kelmaydi», – deb javob berdilar"[6.55,56].

Olimning ma'lumot berishicha, Hazrati Xoja hijriy 791 yil, rabi'ul-avval oyining uchida –dushanba kechasi (1389 yil, mart oyining boshida – 2 yoki 3 marta) olamdan o'tadi[7.10].

Olim Y.Is'hoqov naqshbandiya asoschisi haqida muhim ma'lumotlarni berib bo'lgach, mazkur sulukning genezisi va mohiyatiga diqqatni jalb qiladi. Mamlakatimizda Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi keng nishonlanishi munosabati bilan naqshbandiya ta'limoti bo'yicha har xil saviyadagi risola va maqolalar yuzaga keldi. Buning natijasida naqshbandiya sulukining mohiyati va tarixi bilan bevosita aloqador bir qator muammolar ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Olim ana shunday muammolardan ikkitasini – naqshbandiya sulukining genezisi va mohiyati masalasini nihoyatda jiddiy deb hisoblab, mazkur risolasida o'z munosabatini bildirgan.

Olim naqshbandiya sulukining genezisi o'z-o'zidan bu tariqatning boshqa tasavvufiy suluklar, xususan, yassaviya bilan munosabati masalasiga borib taqalishini ta'kidlar ekan, ba'zi maqolalarda naqshbandiya yassaviyadan kelib chiqqan suluk, deb talqin qilinishini tanqid qiladi. Jumladan, tadqiqotchi O.Usmonning "Muloqot" jurnalining 1991 yil, 9-sonida chop etilgan "Vahdat sharobin ichdim (Yassaviya tariqati)" nomli maqolasida muallif tomonidan bayon qilingan asossiz ma'lumot va xulosalarning tarixiy haqiqatga mos emasligini etarlicha dalillar bilan isbotlab beradi. Shunisi diqqatga sazovorki, olim maqola muallifining "...Movarounnahrda XII asrdan so'ng "Yassaviya" tariqatidan ikki yirik tariqat paydo bo'ldi: 1.Naqshbandiylik. 2.Bektoshiya [8.53]..." degan noto'g'ri xulosa chiqarishi va uning sababini ham etarli dalillar bilan ochib bera olgan: birinchidan, muallif

aslida Movarounnahrda daxldor bo'lmagan bektoshiylikni yassaviyaga bog'lab, tarixiy asosga ega bo'lmagan xulosa chiqargan, uni asl manbalar va ilmiy mantiq asosida teran tatbiq etmay, prof. Fuod Ko'pruluzodaning 1918-yilda bayon qilgan fikrlarini takrorlagan.

Olimning ta'kidlashicha, Ko'pruluzoda hozirgacha o'z ilmiy qimmatini saqlab kelayotgan "Turk adabiyotida ilk mutasavvuf" nomli mashhur asarida naqshbandiya bilan yassaviya o'rtasidagi o'xshash jihatlar, Bahouddin Naqshbandning turk mashoyixlari bilan aloqasi borasidagi xulosasini keltiradi: "Haqiqat holda Xoja Bahouddin Naqshbandning ma'naviy tarbiyati Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniydandir. Bu e'tibor ila uni Xojagon silsilasidan iddao etmak hechda yanglish sanalmaydi. Buning ustiga naqshbandiylik bir jihatdan Qusam shayx va Xalil ota vositasida yassaviylikdan mutaassir bo'lgani kabi, boshqa tarafdin ham Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning Ahmad Yassaviydan so'ngra Yusuf Hamadoniy xalifasi bo'lgani e'tibori bilan ham – tabiiy o'laroq – bir ko'p jihatdan yassaviylikka

mushobahat(o'xshashlik) ko'rinadi"[9.134]. Olim ushbu ilmiy xulosaga tayanib, unda ikkala tariqatning (yassaviya va naqshbandiyaning – E.N.) yagona ildizga ega ekanligi emas, balki ular o'zaro mushtarak jihatlarga ega ekanligini qayd etadi va Ko'pruluzoda ta'kidlagan mushobahat(o'xshashlik)ga to'xtaladi hamda musulmon olamiga mansub tasavvufning ikki suluki o'rtasida falsafiy, axloqiy jihatlar mushtarak bo'lishi tabiiyligiga diqqatni tortadi va bunga isbot sifatida Ahmad Yassaviyning o'z hikmatlarini "koni hadis", "ma'noi Qur'on" ekanligini qayta-qayta ta'kidlaganini, Naqshbanddan tariqatini qanday topish mumkinligini so'rganlarida, "Shariatni mahkam tutish va Rasululloh sallallohu alayhi vasallam sunnatlariga to'liq amal qilish bilan", – deb javob qilganlar[9.78]i to'g'risidagi ma'lumotlarni keltiradi. Olim ushbu tariqatlarni bir-biridan farqlab turuvchi har ikkala zikr turining – zikri aloniya(oshkora zikr)ning ham, zikri

xufiyayashirin, ichki zikr)ning ham Qur'oni karim oyatlari va hadislarga asoslanganligiga e'tiborni qaratadi va Allohni zikr qilish haqida xitob qilingan "Baqara", "Toha", "Ankabut", "Azhob" kabi suralardagi o'vatlarni keltiradi. Olim shu

o'rinda zikri xufiya (*yashirin zikr*)ning paydo bo'lishi uchun zamin bo'lgan, deganxulosa chiqarishga to'la huquq beradigan "A'rof" surasidagi bir qator o'vatlarni ham keltirib o'tadi [7.10].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Y.Is'hoqov. Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti. – T., "Xalq merosi" nashr., 2002.
2. Ушаков, Д.Н. Толковый словарь Ушакова. – М., 1935-1940.
3. Философский энциклопедический словарь. Концепт. – М.: Советская энциклопедия, 1983; Чудинов А.Н. Словарь иностранных слов, вошедших в состав русского языка. – М., 1910.
4. Yusupova D. Ilm sharafi. – T., «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2014 yil 3-son.
5. Abulmuhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti xoja Naqshband./tarj: Mahmudxon maxdum Hasanxon maxdum o'g'li. – T., "Yozuvchi", 1993; Min maqomoti arjumand va maqoloti sudmandi hazrati xoja Bahoulhaq vad-din Naqshband. – Sharqshunoslik ins-ti qo'lyozmasi, in.№502 (VII); Abdurahmon Jomiy. Kitobi nafahot ul-uns min hazarot ul-quds. – Navoiy bo'limisha doir qo'lyozma; Faxriddin Ali ibn Husayn Ali al-Koshifiy al-Mushtahir ba Safiy. Rashahoti ayn ul-hayot. – T., Orifjonov litografiyasi, 1329 (1911); Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat. – T., Mukammal asarlar to'plami, XVI t., "Fan", 2000.
6. Bahouddin Balogardon.
7. Y.Is'hoqov. Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti. – T., "Xalq merosi" nashr., 2002, 8-bet.
8. Orif Usmon. Vahdat sharobin ichdim (Yassaviya tariqati). – «Muloqot», 1991. 9-son, 53-bet.
9. Ko'pruluzoda F. Turk adabiyotida ilk mutasavvufilar. – Istanbul, Matbaai Omra, 1918, 134-bet.

MISTIK REALIZMNING HIKOYALARDA IFODALANISHI

ВЫРАЖЕНИЕ МИСТИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА В РАССКАЗАХ

EXPRESSION OF MYSTICAL REALISM IN STORIES

Nilufar Muxammedova, PhD., dotsent, O'zDJTU

Annotatsiya. Maqola XX asr AQSh adabiyotida shakllangan Amerika hindulari adabiyotida namoyon bo'lgan mistik realizmning hikoyalarda ifodalanish xususiyatlariga bag'ishlangan. Amerika hindulari yozuvchisi romani misolida matn shakllari tahlil qilingan va ularning mistik hodisalarni ifodalash usullari misollar asosida isbotlangan.

Kalit so'zlar: matn shakli, mistika, realizm, madaniyat, mif, marosim, roman, manba, badiiy vosita

Аннотация: Представленная статья посвящена особенностям магического реализма, проиллюстрированном в литературе коренных американцев, сформировавшейся в американской литературе XX века. На примерах из романа анализируются текстовые формы, используемые в романе писателя-индейца, стили описания мистических событий.

Ключевые слова: форма текста, мистика, реализм, культура, церемония, роман, источник, художественный приём

Annotation. The presented article focuses on the features of magical realism illustrated in Native American Literature formed in the XX century American Literature. Text forms used in the novel written by Native American Writer, styles in describing mystic events are analysed based on the examples from the novel.

Key words: text, form, mysticism, realism, culture, ceremony, novel, source, literary device

AQShning janubiy g'arbiy qismi turli hindu qabilalarining madaniy aloqalari zamini bo'lib, XX asrning so'nggi yillarida AQSh adabiyotini boyitgan badiiy asarlarning manbasiga aylandi. Amerikaning janubiy-g'arbiy erlari

tasvirlangan romanlarda Amerika hindu qabilalari va yangi er egalari o‘rtasidagi madaniy to‘qnashuvlarni, nizolarni kuzatishimiz mumkin.

Amerika hindu yozuvchilari qabilalar tarixini, madaniyatini yoritishda mistik realizmdan badiiy uslub vositasi sifatida foydalandilar. Amerika hindu adabiyoti vakili Lesli Marmon Silko (1948 yil tug‘ilgan) romanlarida hindu qabilalarining boy madaniyati, ayancli tarixi mistik realizmning badiiy xususiyatlarini namoyon etgan holda o‘z aksini topdi. Ikki madaniyatli oilada tavallud topgan L.M.Silko Xopi, Zuni, Navajo kabi hindu qabilalari va ingliz madaniyati muhitida voyaga etdi. L.M.Silko mistik realizm orqali Amerika hindulari va G‘arb madaniyati ontologiyasini birlashtirdi va yangi tafakkurni, yangicha qarashni va kengroq fikrlashni ifodaladi. Yozuvchini asosan ko‘p madaniyatli inson taqdiri, ya‘ni ajdodlari har xil etnik guruhga mansub oila farzandlari hayoti qiziqirdi. L.M.Silko o‘zini mana shunday oila vakili hisoblaydi va holatini adiba 1974 yilda nashr etilgan avtobiografik asarida shunday izohladi: “asarlarimning asosiy g‘oyasi ko‘p madaniyatli oilaning farzandi bo‘lish nima ekanligini anglashdir, sen o‘zingni na oq tanli, na hindu hisoblaysan, qaysi biriga mansub ekanligingni bilmay ovorasan. Shu bois men o‘zimni hindular shoirasi, yozuvchi deb atashga ikkilanaman.” [I suppose that at the core of my writing is the attempt to identify what it is to be a half-breed or mixed-blood person; what is to grow neither white nor fully traditional Indian. It is for this reason that I hesitate to say that I am representative of Indian poets or Indian, or even Laguna people.] [1]

L.M.Silkoning “Marosim” (Ceremony, 1977) romani qahramoni Tayo ikki madaniyatga mansub ota-onaning farzandi. Mazkur asarda yozuvchi Tayoning ruhiy tiklanishi orqali inson va ruhiy olam o‘rtasidagi munosabatni tasvirlaydi. Tayo onasi vafot etgach xolasi qaramog‘ida qoladi. Xolasi uni doimo ortiqcha nonxo‘r deya ayblaydi, kamsitishlarga chidagan Tayo futbol

yulduzi bo‘lish orzusida yurgan xolasining o‘g‘li Roki bilan birga voyaga etdi. Ikkinchi jahon urushi boshlangach ikkala yigit ham urushga ketdi. Tayo urushdan omon qaytach o‘zini urushdan qaytmagan Rokining o‘limida ayblaydi va ruhan azob chekadi. Roman Tayoning o‘zini ruhan tiklash, o‘zligini, madaniy merosini anglash jarayonini tasvirlaydi.

L.M.Silkoning “Marosim” romanining o‘zi bir marosimdir. Roman bir necha marosimlar tasviridan iborat bo‘lib, barcha qahramonlarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Asar tuzilishiga, mavzusiga, g‘oyasiga va halq og‘zaki ijodidan foydalanganligiga ko‘ra Amerika hindulari adabiyotining etuk asari sifatida namoyon etadi. Asardagi marosim “uy” g‘oyasini ifodalaydi. Adabiyotshunos Uilyam Bevisning fikricha, bu g‘oyada Amerika hindularining tafakkuri yotadi: uyini tark etgan har qanday hindu uyiga qaytadi va uyida o‘zligini topadi. [2]. Hindularning uy tushunchasi qabilaning o‘tmishi va makonini ifodalasa, ikkinchi tarafdin G‘arbning individuallik tushunchasining teskari ma‘nosini ham bildiradi. Biroq, “Marosim” sog‘lom fikrlashga urinayotgan qahramonning hikoyasiga asoslangan psixologik roman bo‘lib, unda voqealar birinchi shaxsda so‘zlab beriladi. G‘arb adabiyoti nuqtai nazaridan qaraganda bunday badiiy vosita postmodernizmga xos uslubdir, ya‘ni, Amerika hindulari adabiyoti turli badiiy shakllardan, chuqur tahlildan foydalangan holda yangi uslubni taklif etgan. Shu bois, romanning xalq og‘zaki ijodi va zamonaviy hikoya elementlarini uyg‘unlashtirgan o‘zgacha strukturasi va g‘oyasi shakllanib boradi.

“Marosim” romani ikki olamni birlashtiradi: biri Laguna qabilasi halq og‘zaki ijodi ana‘analarini ifodalasa, ikkinchisi esa Laguna qabilasining Ikkinchi jahon urushidan keyingi hayotini tasvirlaydi. Bir vaqtning o‘zida mistik olamning va zamonaviy olamning mavjudligi va ikki xil hikoya uslubining kesishishi romanni mistik realizm adabiyotining yorqin namunasiga aylantirgan. Asarda mistik olam xalq ertaklarining she‘riy shaklida tasvirlangan

bo'lib, roman matniga kiritilgan. Shu tariqa, ibtidoiy va zamonaviy hayotni tasvirlagan hikoyalar biridan shaklan farq qilgan va ayni paytda bir biriga bog'langan. Asarning birinchi qismida berilgan she'r shaklidagi ertaklar o'quvchini romanning keyingi voqealariga yo'naltiradi. Lekin, romanning ikkinchi qismida hikoyalar uslubi bir biriga uyg'unlashib, shakllanib boradi. Tayoning psixologik, realistik hikoyasi jodugarlik bilan shug'ullanadigan xudolarning afsonalari bilan qo'shilib ketadi.

Bir qaraganda, romanning hikoya uslubi voqealarni chigallashtirgan, undagi o'tmishni tasvirlagan she'riy ertaklar nasr bilan aralashib ketgan. Nasrda tasvirlangan hozirgi kun voqealari esa bevosita tarixiy urush dahshatlari bilan qorishib ketadi va xalq og'zaki ijodi ana'analari va hindularning tafakkuri asosida yangi ma'no kasb etadi. Yozuvchi va tanqidchi Paola Gun Ellen Amerika hindular an'anaviy adabiyotini ikki muhim janrga bo'ladi: marosimiy va ommabop. [3]. Janrning ommabop turiga asosan kundalik voqealarni tasvirlagan kulgili va ma'rifiy ertak va qo'shiqlar kiradi. Marosimiy janr turi o'z ichiga musiqa jo'rligida bajariladigan ritual marosimlarni oladi. "Marosim" romani marosimiy janr turiga mansubdir. Asar miflar, ertaklar, qo'shiqlar, orzular va ibodatlariga to'la. Marosimiy janrning maqsadi, adibaning izohiga ko'ra, jamoaga xizmat qilish, jamoada yaxshi muhit yaratish va odamlarning ruhiy birligini tiklashdan iboratdir.

Adiba romanda hozirgi kun voqealarini tasvirlagan mistik olamni yaratadi va Laguna qavmining ritualga boy hikoyalaridan foydalanadi. Hikoyalar esa asosan Pueblo qabilasi uchun muhim bo'lgan miflardan va xalq maqollaridan tashkil topgan. [4]. Qimorboz hikoyasi, ayiq odamlar va jodugarlar haqidagi maqollarni misol sifatida keltirish mumkin. Keltirilgan har bir mif, maqol, ertak asar g'oyasiga o'z hissasini qo'shgani bois o'quvchidan tahlilni talab etadi. Romanga kiritilgan barcha miflar, hikoyalar she'r shaklida keltirilgan bo'lib, ma'lum bir

qahramon tilidan so'zlab berilmagan yoki biror bir personajning fikrini ham ifodalamaydi. Ular o'z g'oyasini, shaklini saqlagan holda o'quvchiga hindu qabilalari tarixining bog'liqligini va qanchalik Tayo hayotiga aloqadorligini anglab etishga yordam beradi.

Roman strukturasi Baxtinning ikki ovoqli matn tushunchasini, ichki ovoz dialogini aks ettiradi. Roman geteroglossiyasiga murojaat qiladigan bo'lsak, asar ikki xil shaklli gibrid strukturaga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin. Yozuvchi matn shakllari orqali o'tmish va hozirgi zamon, mif va real hayot, hindular va oq tanlilar o'rtasidagi dialogni ifodalaydi va o'quvchini asar bilan muloqotga tortadi. Roman strukturasi chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, muallif etnik xususiyatlarga urg'u bermaydi, aksincha, Amerika hindulari hayotida xalq og'zaki ijodining muhimligini va uning ana'nalariga qanchalik rioya qilishlarini ko'rsatadi. Baxtinning fikricha, asarda geteroglossiyadan foydalanishning asosiy shakllaridan biri bu turli matn shakllarini kiritishdan iboratdir. Har bir matn shakli o'z verbal va semantik xususiyatlariga ega bo'lganligi bois, ular voqealarning turli aspektlarini tasvirlashda qo'llanilgan va natijada romanning lingvistik xususiyatlarini oshirgan.

L.M.Silko asariga miflar, qo'shiqlar, ertaklar, urush hikoyalari va tarbiyaviy roman janri tamoyillarini birlashtirish orqali G'arb va Amerika hindulari tafakkurini, olamini taqqoslaydi. Adabiyotshunos N.Sanchesning fikricha, "turli matn shakllarining birlashuvi roman strukturasi "to'r"ga o'xshatadi. To'r uchun har bir ipning o'z o'rni bor, romanda tasvirlangan olam ham bir to'r misolidir" [5]. Olamdagi har bir narsa, jonli va jonsiz bo'lsin, muhim ahamiyatga ega bo'lib, tartib bilan joylashtirilgan. Barcha hodisalar bir biri bilan uzviy bog'liqdir. Erkak va ayol jamiyatning ajralmas qismi sifatida yashayotgan makonida tartib va uyg'unlikni saqlash uchun mas'uldir. To'rning har bir ipi muhim hisoblanadi va biror bir ipning uzilishi muvozanatning buzilishiga olib keladi. Romanda

qabilaning tabibi Ku'ush Tayoga eski tilda quyidagini tushuntiradi: *"Bilasanmi, o'g'lim, bu olam juda nozik olam, har qanday o'zgarishni sezish mumkin". Tabib tanlagan "nozik" so'zi uzluksiz jarayonning nozikliklariga to'la edi. Mo'rtlik va murakkablikni tushuntirish uchun ko'p vaqt kerak, chunki hech bir so'z o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va har bir so'zni tanlash sababini, nima uchun uni shunday talaffuz qilish kerakligini hikoya bilan izohlash kerak. Inson bolishning mana shunday mas'uliyati bor, dedi kekxa Ku'ush. Har bir so'z ortidagi hikoya aytilishi lozim, toki so'zning ma'nosi to'g'ri talqin qilinsin. Bu esa insondan sabrni talab qiladi. – ["But you know, grandson, this world is fragile". The word he chose to express "fragile" was filled with the intricacies of a continuing process.... It took a long time to explain the fragility and intricacy because no word exists alone, and the reason for choosing each word had to be explained with a story about why it must be said this certain way. That was the responsibility that went with being human, old Ku'oosh said, the story behind each word must be told so there could be no mistake in the meaning of what had been said; and this demanded great patience and love]* [6].

Tayo to'ring nozik iplarini uzish uchun bitta odamning etarli ekanligini va shu tariqa nozik olamga zarar etishini yaxshi tushunadi. Biroq, shunday bo'lsada, muvozanatni saqlash uning, insoniyatning mas'ul ekanligi ham uning yodida turadi. Insonning yana bir muhim – so'zdan to'g'ri ma'no chiqarish burchi ham bor. Adiba romanda o'z madaniyatini ingliz tilida ifodalasa-da, madaniyatlar o'rtasidagi dialog mantiqiy ravishda kuzatiladi. Kuushning fikrlarini o'z ona tilida ifodalashi, G'arb tilining Amerika hindulari madaniy belgilarini tushuntirib berishga mos emasligidan dalolat beradi.

Romanda xalq og'zaki ijodidan keltirilgan har bir so'z va hikoyada Amerika hindular madaniyatining belgilari ifodalangan bo'lib yozuvchi reallikni tasvirlashda tilning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Adabiyotshunos Berre Toelken Navajo Koyot qabilasi

hikoyalarni tahlilga tortar ekan shunday yozadi: *"Hikoyalar ta'sirchanlikni oshirishda manba vazifasini o'taydi, ularni sinekdoxa deb atashimiz mumkin. Navajo qabilasi uchun til haqiqatni tasvirlamaydi, aksincha yaratadi. Hikoya aytish, qo'shiq aytish va marosimlarni gapirib berish kabilar Navajo qabilasi hayotini tasvirlashning vositalari hisoblanadi". - [The stories provide the resource for a way of invoking a stronger reality through a kind of traditional synecdoche: the Navajos believe that language does not merely describe reality; it creates it. The telling of stories and the singing and narrating of rituals are ways of actually creating the world in which the Navajo live].*[7]

Hikoyalarda ifodalangan sehr-jodu kuchi mistik realizmga xos asarlar uchun muhim bo'lib, voqea tasviri va marosim tartibi uyg'un holda mistik kuchni hosil qiladi. "Marosim" romani hikoya aytish va hikoya yaratish jarayoni haqidadir. Asar o'z o'ylariga cho'milgan ayolni tasvirlagan she'rdan boshlanadi. Bunday holatda o'tirgan ayol Pueblo qabilasi uchun olam yaratuvchisi hisoblanadi: *"U xonasida o'tiribdi/hikoya to'qiyapti hozir/Sizga hikoya aytayapman/u o'ylayapti". [She is sitting in her room/ thinking of a story now/ I'm telling you the story/ she is thinking]*[6]. Shu tariqa, adiba yaratuvchanlikni hikoya aytishga tenglashtiradi va narsalar paydo bo'lishi uchun ularni o'z nomi bilan atashning kuchini ko'rsatadi. Asarda hikoyachi o'zini ana'anaviy ertakchi rolida ko'rar ekan, u roman voqealarini xalq og'zaki ijodi kontekstida tasvirlaydi va shu orqali yangi hikoyani emas, aksincha mavjud hikoyalarni qayta aytayotganini va ularni qadimgi va afsonaviy o'tmishning bir qismi sifatida yangi avlodga etkazayotganligini ta'kidlaydi.

Romanning ikkinchi "Marosim" nomli qismida yangi ovoz (erkak ovozi) hikoyalarning muhimligiga urg'u beradi: *"Bor hikoyalarning hammasi shu, ko'ryapsanmi/nima bo'lganda ham ularni saqlashimiz zarur". [They are all we have, you see/all we have to fight off/ illness and death']* [6]. "Hikoyalar unutilishi mumkin

emas, ularsiz biz kuchsiz bo‘lib qolamiz. Ularsiz yovuz kuchlarga qarshi tura olmaymiz. Hikoyalar hayotni ifodalaydi va barchasi hikoyachining ichida saqlanadi. Keyingi sahifada ayol ovozi javob qaytaradi: “Men bilgan yagona da’vo – yaxshi marosim o‘tkazishdir”. [*The only cure/ I know/ is a good ceremony*] [6]. Erkak-ayol dialogi hikoya, marosim va da’vo o‘rtasidagi bog‘liqlikni va marosim uchun erkak-ayol o‘rtasidagi muvozanatning muhimligini ko‘rsatishdan iboratdir. Keyingi sahifadagi “Quyosh chiqishi” iborasi marosimni boshlash uchun ibodat qilish vazifasini anglatadi. Erkak-ayol dialogi hikoya, marosim va da’vo o‘rtasidagi bog‘liqlikni va marosim uchun erkak-ayol o‘rtasidagi muvozanatning muhimligini ko‘rsatishdan iboratdir. Keyingi sahifadagi “Quyosh chiqishi” iborasi marosimni boshlash uchun ibodat qilish vazifasini anglatadi. Romanda nafaqat Tayoning hayotiga oid voqelarga, balki miflardan, ertaklardan keltirilgan voqealar tasviriga ham duch kelamiz. Amerika hindulari adabiyoti namunalarini tahlil qilgan adabiyotshunos Ketlin B. Menli og‘zaki ijodga xos bo‘lgan takrorlash, hikoya ichida hikoya, hikoyani aytib berishda ishlatiladigan kirish so‘z va iboralar, hikoyani yakunlovchi so‘z va iboralar texnikalari “Marosim” romanida mavjudligini, ular hikoyachi va auditoriya o‘rtasidagi masofani yaqinlashtirish uchun xizmat qilishini aytadi. Takrorlash she‘r matnida ko‘p ishlatilgan vosita hisoblanadi va qo‘shiq aytish

turlarini ifodalaydi. Jumladan, “*After four days/ you will be alive/ After four days/ you will be alive/...*” [6]. Jamoada so‘zlangan hikoyalar personajlar hayotini tasvirlaydi. Amerika urushidan qatnashgan va yuqori mavqega ega bo‘lgan urush qatnashchilarining hikoyalari shular jumlasidandir. Xalq og‘zaki ijodi elementlari urush qatnashchilarining birinchi shaxsda hikoya qilganlari she‘riy shaklda keltirilgan bo‘lib, ular mistik hikoyalar va marosim qo‘shiq lari ekvivalentini aks ettiradi:

*We went into this bar on 4h Ave., see,
Me and O'Shay, this crazy Irishman.
We had a few drinks, then I saw
these two white women
Sitting all alone. [6]*

Romanning badiiy uslub vositalari asarni xalq og‘zaki ijodi namunasiga aylantirgan. Roman jamoa bo‘lib quyosh chiqishini kutish, unga ibodat qilish bilan boshlangan va “Ey Quyosh, ushbu taklifimizni qabul qiling” [*‘Sunrise,/accept this offering,/Sunrise.*] [6] deya murojaati bilan yakunlangan bo‘lib, asarga xalq og‘zaki ijodiga xos elementni ifodalagan. Roman strukturasi esa hikoya qiluvchini quyoshga murojat qilayotgan ruhoniy yoki shamanlar sifatida namoyon etgan bo‘lib, o‘quvchini jamoaning a‘zosi sifatida marosimga jalb etgan. Hikoya qilish nutqning individual shakli emas, aksincha ijtimoiy-tarixiy kontekstda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida muloqotni yaratuvchi vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Silko L.M. *Laguna Woman* (Greenfield Centre, NY: Greenfield Review Press, 1974), p. 35.
2. Bevis W. 'Native American Novels: Homing In', in *Recovering the Word. Essays on Native American Merature*, ed. by B. Swann and A. Krupat (Berkeley: University California Press, 1987), pp. 580-620.
3. Allen P.G. *The Sacred Hoop. Recovering the Feminine in American Indian Traditions* (Boston: Beacon Press, 1986), pp. 72-74.
4. Weigle M. 'Southwest Native American Mythology', in *7th Feminist Companion to Mythology*, ed. by C. Larrington (London: Pandora Press, 1992), pp. 333-361.
5. Sanches M.R. *Magical Realism in Contemporary American Women's Fiction*. New York: Penguin, 2000.
6. Silko L.M. *Ceremony* (New York: Penguin, 1986), pp. 35.
7. Toelken B. 'Life and Death in the Navajo Coyote Tales' in *Recovering the Word*, ed. by Swann and Krupat, p. 390.

TA'LIMDA KREATIV YONDOSHUV
ТВОРЧЕСКИЙ ПОДХОД В ОБРАЗОВАНИИ
CREATIVITY IN EDUCATION

Boymatov I.M-Qo'qon davlat pedagogika instituti
Qo'qonboyev I.I-Qo'qon davlat pedagogika instituti
Qoraboyeva S.Y-Qo'qon shahar 1-ixtisoslashgan maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativ ta'limning asosiy xususiyatlari va uning ta'lim sifatiga ijobiy ta'siri haqida fikr yuritilgan. Ta'limni kreativ yondoshuv asosida tashkillash masalalari kimyo fanini o'qitish misolida ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: kreativlik, kreativ ta'lim, nostandart faoliyat.

Аннотация: В данной статье высказываются мнения об основных особенностях креативного обучения и его положительном влиянии на качество образования. Вопросы организации обучения на основе креативного подхода рассмотрено на примере преподавания химии.

Ключевые слова и понятия: креативность, креативное обучение, нестандартные действия.

Annotation: This article presents the main features of creative learning and its positive impact on the quality of education. Questions of organization of training based on creative approach are considered on the example of teaching chemistry.

Key words and concepts: creativity, creative learning debate, relationship with life.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish masalalari ko'zga ko'rinmoqda. Ta'limni, xususan umumiy o'rta ta'lim sifatini rivojlantirish borasida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF №5538-sonli Farmonida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash lozimligi ko'rsatilgan [1].

Jahonda va yurtimizda kuzatilayotgan ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jamiyat oldiga ruhan etuk, bilimli, ijodkor, ijtimoiy faol, mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan maktab bitiruvchilarini tayyolash bilan

bog'liq bo'lgan bir qator muammolarni qo'yimoqda. Bu esa ta'limning shaxsni ijodkorlik jihatdan o'zini o'zi rivojlanishini ta'minlovchi kreativ ta'lim paradigmasiga o'tishi zaruratini aniqlab berdi [2].

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy etuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishidan (14-17 yosh) boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishigacha (55-60 yosh) bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni ta'qozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq [3].

Bizga ma'lumki maktab o'quvchilariga kimyo fan sifatida 7-sinfdan o'qitila boshlanadi. Bu esa o'quvchilarning aynan

ijodiy, rivojlanish g‘oyalarining shakllanishiga to‘g‘ri keladi. Kimyo fani bilan tanishtirar ekanmiz o‘quvchiga bu fanning amaliy ahamiyatini, fanlararo integratsiyasini tushuntirib, o‘quvchining maktabda olgan bilimlarini butun hayoti davomida qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirib borishimiz zarur. Bu davrgacha o‘quvchilarda atrof muhit va tashqi olam haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllangan bo‘ladi. Kimyo faniga go‘yoki sehrgarlikni, tadqiqotchilikni o‘rgatadigan fan sifatida qaray boshlaydilar. Kimyo fanini o‘qitish davomida o‘quvchilarda paydo bo‘lgan dastlabki tasavvurlarni kengaytirish va ijodkorlik g‘oyalarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida kimyo fanidan amaliy mashg‘ulotlar jarayonini ta‘limning zamonaviy usullarga tayangan xolda olib borish maqsadga muvofiqdir. Noan‘naviy dars o‘tish usullaridan biri sifatida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida muammoli vaziyat yaratish va shu muammoni echish, loyiha tuzish va tuzilgan loyiha asosida mavzuni tushunishni, o‘zlashtirishni va mustahkamlashni misol tariqasida keltirish mumkin [4].

Kimyodan amaliy mashg‘ulotlar bajarishda, kimyoviy tajribalar o‘tkazishda yaratiladigan muammoli vaziyatlar o‘quvchining o‘quv-ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va unga yangi materialni ijodiy o‘rganishga yordam beradi. O‘quvchining kimyodan tajriba bajarishda ijodiy fikrlashini faollashtirish uchun har doim yuzaga kelgan qiyinchilikni mustaqil hal etishga qiziqtirib borish lozim. Buning natijasida u tahlil qilishni va umumlashtirishni o‘rganadi [5].

7-sinf kimyo kursida o‘rganiladigan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarini o‘qitishda kreativ yondashib o‘quvchilarga ta‘lim beradigan bo‘lsak, o‘quvchilarning kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini va bilimini oshirgan bo‘lamiz. Buning uchun o‘quv

mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, o‘quvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga yo‘naltirish ta‘lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgarishiga, ularni yutuqlarga erishishida rag‘batlantirishdan foydalanish asosiy omil bo‘ladi [6].

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.


So‘nggi yillarda xorijiy mamlakatlarning etakchi ta‘lim tizimida talaba va o‘quvchilarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida va jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010-y.), Ken Robinson (2007-y.), Fisher, Frey (2008-y.), Begetto, Kaufman (2013-y.), Ali (2011-y.), Treffinger (2008-y.), Muslimov A.N., Ibragimova G. va boshqalar tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalarini ko‘rish mumkin [7].

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “o‘quvchilar e‘tiborini ta‘lim jarayoniga faol jalb etishni ta‘minlaydi”.

Kreativ ta‘lim jarayonini amalga oshirishda kimyo o‘qituvchilari quyidagilarga ahamiyat berishlari kerak:

1) O‘qituvchilar tomonidan kimyo fanini past o‘zlashtirayotgan va uni o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o‘quvchilar e‘tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) O‘qituvchilarga o‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan yo‘l xaritasi va vositalarini tavsiya etish qilish orqali sinfda ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.



1-Rasm. Shaxsga xos kreativlik sifatlarining turlari

Bu o'tilayotgan mashg'ulotning qiziqarli va o'quvchilarning yaxshi tushunarli bo'lishiga olib keladi. Dars o'tish jarayonida kreativ fikrlaydigan o'quvchilarni aniqlay olishimiz muhim ahamiyatga ega.

Kreativ tafakkurga ega o'quvchilar:

- boshqa o'quvchilarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi;
- o'z fikrlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi;
- ba'zan mavzuga aloqasi yo'q yoki g'ayrioddiy savollar beradi;
- echimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi;
- g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi;
- muammoning echimini topishda ijodiy yondashuvni tanlaydi.

Bunday o'quvchilarda quyidagi sifatlar shakllangan bo'ladi.

O'quvchilarga kreativ ta'lim berish jarayonida shu sifatarni yanada mukammal rivojlanishiga erishish mumkin. O'quvchi o'quv-ijodiy faoliyatining o'quv jihati xotiraga asoslangan. Bu an'anaviy ta'lim bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchini o'rganishga etaklaydi. Masalan, moddalarni tozalash usullaridan biri bo'lgan filtrlash yo'li orqali eritmalarni tozalashni tashkil etish maqsadida o'quvchi o'quv-ijodiy faoliyati quyidagi tartibda o'tkaziladi.

1. Ma'lum modda eritmasini tayyorlash uchun kerak bo'ladigan moddalar va jihozlarni to'g'ri tanlay olish. O'qituvchining tushuntirishini tinglab, o'quvchi o'qituvchiga ergashadi va o'z o'quv-ijodiy faoliyatini amalga oshiradi. O'qituvchi o'quvchiga erituvchi va eruvchi moddalar haqidagi tushunchalarni ta'kidlab o'tadi.

Eritma tayyorlash tartibini tushuntiradi.

2. O'quvchi o'qituvchi ta'kidiga asosan, erituvchi va eruvchi moddalar asosida eritma tayyorlaydi. Eritma tayyorlash tartibi, ya'ni idishga dastlab eruvchi moddani solish, erituvchini qo'shib shisha tayoqcha yordamida aralashtirib eritma tayyorlash uqtiriladi. Tinglash va o'quv-ijodiy faoliyatni amalga oshirish yo'li bilan o'quvchi ikkinchi qoidani eslab qoladi.

3. Mazkur harakatni o'quvchi o'qituvchiga ergashib bajaradi. Tayyor bo'lgan eritma filtrlanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchiga filtr qog'ozni voronkaga to'g'ri joylash, etirmani qanday tartibda filtrlash qoidalarini tushuntiradi.

4. O'qituvchining o'quvchiga aytgan sanitariya-gigiena qoidalari talablarini


esda saqlab qoladi va filtrlash jarayoni tartibini tushuna boshlaydi. SHunday qilib, o'qituvchining tushuntirish va ko'rsatmalariga ko'ra o'quvchi eritma tayyorlash va eritmani filtrlashning quyidagi algoritmini o'rganib oladi:

-amaliy mashg'ulotga mos keladigan modda va jihozlarni tanlab olish;

-erituvchi va eritmani farqlay olish; eritma tayyorlash va filtrlash yo'li bilan uni tozalash mumkinligi;

-ish joyini toza saqlash qoidalarini yodda tutish lozimligi.

O'qituvchi amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkillashda quyidagi ta'lim uslublaridan foydalansa, o'quvchilarning kreativ yondashuviga erishishi mumkin bo'ladi.



2-Rasm. Shaxs kreativligini rivojlantiruvchi metodlar

Hozirgi kunda kimyo fan sifatida sanoatning hamma tarmoqlarida keng o'rin egallamoqda. Respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishida ham kimyo fanining o'rnini kattadir. Shuning uchun ham biz pedagoglarning vazifasi maktabda ta'lim olayotgan bilimli o'quvchilarni

aniqlab, kimyo faniga yo'naltirib, kelajakda bu fanni rivojlantiruvchi insonlar etishib chiqishlariga erishishimiz kerak. Buning uchun an'anaviy o'qitish metodlaridan voz kechib, darslarda kreativ yondashuvni amalga oshirishimiz yaxshi samara beradi.

An’anaviy va kreativ ta’lim faoliyatning qiyosiy xususiyatlari

| An’anaviy ta’lim | Kreativ ta’lim |
|--|--|
| <i>Maqsad:</i> O‘quvchilarga ma’lum bilim asoslarini, qisman ko‘nikmalarni, kamdan-kam hollarda malakalarni berish | <i>Maqsad:</i> Nafaqat o‘quv ma’lumotlarini chuqur ongli va tizimli ravishda qabul qilishga, mustaqil ravishda yangi bilimlarni izlashga, yangi g‘oyalarni vujudga keltirishga, balki ijodiy, doimiy ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyor bo‘lgan o‘quvchining yuqori ma’naviy ijodiy shaxsii shakllantirish. |
| <i>Tamoyillari:</i> Fan; tabiatning muvofiqligi; mustahkamlik va izchillik mavjudligi; chidamlilik; ong va faoliyat; ko‘rgazmalilik; nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik; yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda | <i>Tamoyillari:</i> O‘zaro demokratik ishtirok; psixologik qulaylik; refleksivlik (aks) tamoyi; o‘quvchilar bilimlarining samaradorligi; «Dosendo dissimus» («o‘rgatib – o‘zimiz o‘rganamiz»); bilimlarni tizimli, fanlararo umumlashtirish |
| <i>Belgilari:</i> Taxminan bir xil yoshdagi va tayyorgarlik darajasidagi o‘quvchilar sinfini tashkil qilishadi, bu butun o‘quv davri davomida doimiy tarkibni saqlab qoladi; -sinf yillik o‘quv reja va jadvalga muvofiq ish olib boradi; - mashg‘ulotlarning asosiy birligi darsdir; | <i>Belgilari:</i> - uzluksizlik; - tabaqalashtirilgan va individual yondoshuvli; - o‘quvchilarni profil va profil oldi tayyorlash; - o‘quvchilarning uzluksizligi va faol o‘quv muxitiga qo‘shilishi (dars-ma’ruza, dars-konferentsiya, dars-seminar, treninglar va b.); |

Xulosa o‘rnida qo‘yidagi taklifimizni keltiramiz: ta’limga kreativ yondoshuv o‘quvchilarda intellektual potentsial rivojlanishiga bog‘langan yaratuvchanlik, nostandart fikrlash va o‘ziga xos yo‘nalishda faoliyat olib bora olish kabi shaxsiy sifatlarni shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF №5588-sonli «Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari bazasi, 05.09.2018-y.
2. Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфулов Д.М., Тураев А. – Т.:“Сано стандарт” нашриёти, 2015. 81-б.
4. Савелева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб. мет. пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО “Удмуртский университет”, 2013. –С. 9.
5. Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла/ Учеб.-мет. пособие. –СПб.: Изд. Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015.
6. Муслимов Н.А., Усмонбоева М Д., Сайфулов Д.М., Тураев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / - Тошкент, 2015. 120 бет.
7. Задорожная, О.В. Развитие креативных способностей при формировании умения проектной деятельности / О.В. Задорожная // Научные проблемы гуманитарных исследований- 2008. - Вып. 4. - С. 23 - 2

O'QUVCHI-YOSHLARDA IJODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH
ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ
FORMATION AND DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN YOUTH STUDENTS

Ibragimova Gulsanam Nematovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish masalalarining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ijodiy-tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha shakl va usullar berilgan. O'quvchi-yoshlarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan, ijodkorligini rivojlantiruvchi, ularning mustaqil ishlashlariga imkon beruvchi va hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida keng qo'llaniluvchi metod va usullar tasnifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: fikrlash, uzluksiz ta'lim, ta'lim tizimi, ijodiy va tanqidiy fikrlash, o'rganuvchilar, ijodiy topshiriqlar, malaka va ko'nikma, shakllantirish va rivojlantirish.

Аннотация: В статье рассматривается необходимость формирования и развития творческих и критических мышлений учащихся в процессе непрерывном образовании. Рассматривается формы работы над развитием творческих умений. Приводится описание методов и приемов которые приобщает учащихся к познавательной деятельности, развивает их творчество, самостоятельность, и который так широко исползуются в непрерывном образовании в настоящее время.

Ключевые слова: мышление, непрерывное образования, система образования, творческие и критические мышление, обучающие, творческие задание, умения и навыки, формирования и развития.

Annotation.In article highlighted the need of formation and development of creative and critical thinking of pupils for the process of continuous education. Considered forms of work on development of creative abilities. The description of methods and receptions which acquaints learners to cognitive activity provided, develops their creativity, independence and which are so widely used in continuous education in present time.

Key words: thinking, continuous education, an education system, creative and critical thinking, learners, creative tasks, skills, formation and development.

Mamlakatimiz ta'lim tizimini shaklan va mazmunan isloh qilish, uning huquqiy ba'zasini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustaqamlash, ta'lim-tarbiya mazmunini, shakl va metodlarini samaradorligini oshirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki ta'lim jahon miqyosida o'z o'rniga ega, obrue'tibor qozongan jamiyat barpo etish, mamlakatimizning demokratik taraqqiyotini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uni demokratlashtirish va liberallashtirish, fuqarolarning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy ongi hamda dunyoqarashi darajasini oshirish, sog'lom tafakkurli barkamol avlodni shakllantirishning poydevori hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek,

“Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanligini hamisha yodda saqlashimiz lozim”[1]. Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda yashash har bir insondan ayniqsa, o'quvchi-yoshlardan keng bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shunday ekan, voyaga etayotgan yosh avlodni oilada va ta'lim-tarbiya muassasalarida ijodiy mushohada qilishga o'rgatib borish zarur.

Shuning uchun, birinchi navbatda, ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat, bilim, ko'nikma va malaka, balki

umuminsoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g‘oyasi kun tartibiga ko‘ndalang qilib qo‘yildi. O‘quvchi shaxsi ijodkorligini rivojlantirish, izchil ravishda biri ikkinchisining o‘rnini to‘ldiruvchi bosqichlardan iborat uzluksiz jarayon bo‘lib, ushbu jarayonning sifati muayyan pedagogik-psixologik shart-sharoitlar va vaziyatlarga bog‘liqligi asos bo‘ldi.

Umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarning o‘quv jarayonida fanga qiziqishlarini orttirish, ularning mustaqilligi va faolligini ta‘minlash, tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bilish jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ijodiy tafakkurning rivojlanishi o‘quv jarayonida o‘quvchini izlanishga undaydi. Bunda shaxs fikrlash faoliyatining eng muhim jihatlari namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘qituvchi bilan birgalikda faol izlanishda bo‘ladilar. Maktab o‘quvchilarining ijodiy-tanqidiy fikrlash darajasini o‘rganish uchun ularning muloqotga kirishish jarayonlarini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish metodidan o‘quvchilarning fikrlash va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qiyoslashda keng foydalaniladi. O‘quvchilarida ijodiy-tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirishda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish lozim:

- o‘quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik sharoitlarini yaratish;
- o‘quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashiga qo‘yilgan talablarini aniqlash;
- o‘quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini o‘ziga xos pedagogik texnologiya jihatlari aniqlash.

Umumta‘lim maktablarining yuqori sinflarda o‘quvchi-yoshlarning ijodiy-tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda ta‘limiy o‘yinlarning ahamiyati katta. Ushbu jarayonda o‘qituvchi ta‘limiy o‘yinlardan o‘z o‘rnida foydalana olishi o‘quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etadi. Ta‘lim jarayonida ijodiy,

syujetli-rolli o‘yinlar bilish materiallarini o‘zlashtirishga undovchi hordiq chiqartirishga xizmat qiladigan usul va yo‘l emas, balki o‘yinlar juda katta evristik va ishontiruvchi quvvatga ega. O‘yinlar yagona yaxlit tarzda ko‘ringan hodisalarni bo‘lib-bo‘lib, qismlarga ajratib idrok qilish imkonini beradi. Shu asosda o‘rganilayotgan hodisalarni qiyoslash, o‘zaro farqlash va bir butun tarzda idrok etish imkonini beradi. O‘yinlarning pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan oldindan ko‘ra olish, o‘quvchilarning o‘yinni tasavvur etish layoqati yaxlit hodisalar tizimini bilish darajasi bilan bog‘liq.

O‘quvchilarning tasavvurlari va ijodiy faoliyatlarini kengaytirishda sayohat o‘yinlari alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ular geografik, tarixiy, o‘lkashunoslik, xarakteriga ega. Bunday o‘yinlar kitoblar, xaritalar va turli hujjatlar yordamida amalga oshiriladi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarda tasavvur qilish vaziyatlari yordamida o‘tkaziladi. Barcha harakatlar va kechinmalar o‘yindagi rollar yordamida aniqlanadi. Bu erda o‘quvchilar geolog, iqtisodchi, zoolog, topograf rollarida namoyon bo‘ladilar. O‘quvchilar kundaliklar, xatlar yozadilar, bilish xarakteriga ega bo‘lgan turli-tuman materiallarni to‘playdilar. Mazkur yozma hujjatlarda materiallarni ishchan bayon qilish ularning fikrlash jarayonlarini jadallashtiradi. Mazkur o‘yinlarning o‘ziga xos jihatlari o‘quvchilar idrokining faollashuvi hamda o‘ziga xos faoliyat shaklining yaratilishi, ular orasidagi do‘stlik va hamkorlik muhitining vujudga kelishi bilan belgilanadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilar tasavvurining amaliy faoliyatini kengaytiradi. Bunday faoliyat tashqi harakatlar yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, bevosita doimiy harakatga aylanadi. Shunga ko‘ra, o‘yin natijasida o‘quvchilarda tasavvurning ijodiy faoliyatga aylanish jarayoni amalga oshadi. Buning natijasida ular muayyan narsaning loyihasini tuzib, uni tashqi harakatlar yordamida amalga oshiradilar. Natijada o‘quvchilar orasida hamkorlikdagi o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlari amalga

oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar ko'p mehnat qiladilar, mavzuga oid kitoblar, ma'lumotnomalar va xaritalarni tahlil qiladilar. Ma'lumki, har bir shaxs muayyan ijodiy quvvatga ega. Mazkur ijodiy quvvatning asosini esa yangi narsalarni yaratish tashkil etadi. O'quvchilarning tasavvurlari ijodiy hamda yaratuvchilik xarakteriga ega bo'ladi. O'quv yoki badiiy adabiyotlarni o'qish jarayonida o'quvchilar ushbu kitoblarda bayon qilingan voqelikni o'z xotiralarida qayta jonlantirishlari talab etiladi.

Ijodiy xayollar yaratuvchi xayollardan yangi namunalarni mustaqil yaratish bilan ajralib turadi. Ular o'quvchi faoliyatining o'ziga xos natijalarida aks etadi. Inson shaxsining qimmatligi uning tarkibida tasavvur qilishning qanday yo'llari mavjudligiga bog'liq. Agar ijodiy tasavvur muayyan faoliyatda namoyon bo'lsa bu o'quvchi shaxsining yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Shaxs tasavvurini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Bilish xarakteridagi ijodiy, syujetli-rolli o'yinlar shaxs taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Chunki u o'quvchilarning xayolot olami kengayishiga asos bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun darslarning mazmun va sifatiga e'tibor beradi. Buning uchun bolalarni fikrlashga, ularni faollashtirishga harakat qiladi. O'quvchini tayyor bilim qabul qiluvchi emas, balki sinfda o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun munozara qilishga yo'llaydi.

O'quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli o'qitish metodlari samarali natijalarni beradi, ta'limda muammoli yondashish o'quv dasturlarida, o'qituvchi bilimlarini bayon qilishda, o'quvchilarning mustaqil ishlarida ham o'z aksini topadi. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha uch bosqichli o'qitish modeli da'vat qilish, idrok qilish va fikrlash bosqichlaridan iborat: da'vat bosqichida o'quvchilarni darsga qiziqtirish, mavzu bo'yicha yangi bilimlar to'plash, axborotlar bilan tanishishlariga erishiladi. Idrok qilish

pog'onasida mavzu yuzasidan o'z bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'laydi, taqqoslaydi va mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. Mavzu o'quvchilar tomonidan to'liq idrok qilingandan so'ng bevosita fikrlash jarayoni boshlanadi. Bu bosqichda olingan yangi g'oya va axborotlar o'quvchilar tomonidan analiz, sintez qilinadi va matn mazmunini o'z tushunchalari asosida so'zlab beradilar.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarni dars jarayonida faol ishtiroki, ijodkorligini ta'minlaydigan, ijodiy tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan interfaol darslar tizimi tafakkurni charxlaydigan, Vatanga cheksiz muhabbat, sadoqatni, fuqarolik axloqi va demokratik madaniyatni shakllantiruvchi fan asosi bo'lib xizmat qiladi. Fanlarni o'qitishda "Guruhlar bilan ishlash", "Munozara", "Muammoli o'qitish", "Aqliy hujum" kabi metodlar [2], shuningdek jadvallar bilan ishlash, mustaqil fikrni ifodalaydigan yozma ishlar, insholar yozish talaba-yoshlarning faolligini oshiradi. Bu metodlar asosida olib borilgan darslar vaqt tejamkorligi bilan birga, yangi bilimlarni o'quvchiga etkazib beradi, shuning bilan birga bolani fikrlashga, chuqur mushohadaga undaydigan, butun diqqat e'tiborini o'ziga jalb qila oladigan, muammoli vaziyatlar, bahs-tortishuvlarda to'g'ri xulosalar bilan vaziyatdan chiqib keta oladigan va olgan bilimlarini boshqa mavzular bilan bog'lab, umumlashtiradigan sharoitga ega bo'ladi. O'quv jarayonida talabalar faolligini oshiruvchi o'qitish metodlaridan biri "Kichik guruhlarda ishlash" metodidir. Bunda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib ishlaydilar va bu jarayonda har bir guruh bir-biridan o'rganishga, o'rganganlarini o'z salohiyatlari doirasida baholashga, turli vaziyatlarda bilimlarni qadrlab, xulosa chiqarishlariga imkon yaratiladi.

Ushbu metodni quyidagicha qo'llash mumkin:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi. 2. Kerakli asos yaratiladi. Talabalar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak (ta'limning bu metodida rangli, lavhali

suratlar, mavzuga oid 5-6 minutlik ekranlashtirilgan hujjatli filmlar namoyish etilib, qaltis vaziyatlarda "Shu holatda men nima qila olar edim?", "Nima qilmoq to'g'ri bo'lardi?". 3. Guruhlar belgilanadi. Talabalar guruhlarga 5-6 kishidan qilib bo'linadi. Aniq ko'rsatma, topshiriq bo'yicha ishga kirishiladi. 4. O'qituvchi har bir guruh faoliyatini qo'llab-quvvatlab, yo'naltirib turadi. 5. Dars yakuni muhokama qilinadi, o'quvchilar baholanadi, rag'batlantiriladi.

Oliy ta'lim tizimining pedagogika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga bilim berishda insonparvarlik tamoyiliga mos zamonaviy texnologiyalar, ya'ni izlanish, ishchan o'yinlar, "Guruhli bahs" kabi metodlardan mohirlik bilan foydalanish o'z samarasini beradi. O'qituvchi evristik suhbat orqali talabalarni ijodiy mushohadaga chorlaydi, reproduktiv metod o'qituvchining axboroti, bilimlarni talabalarga etkazishda muammoli vaziyatlar yaratib, ularni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga yo'naltirishda yuqori natija beradi. Bunda talabalar axborotlarni tahlil etishda induktiv va deduktiv metod, ya'ni oddiydan murakkabga va aksincha, murakkab vaziyatlardan oddiyga qarab boriladi. Yana talabalar ijodiy-tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan samarali usullardan biri erkin fikrlash darslari hisoblanadi. Erkin fikrlash darslari ilmiy-ommabop adabiyotlar, matbuotda chop etilgan maqolalar va maqolalarning muhokamalariga bag'ishlanadi.

Munozarali darslarning muvaffaqiyati qo'yidagi masalalarni to'g'ri hal etishga bog'liq:

- o'quvchi-talabalarning darsga qizg'in tayyorgarlik ko'rishiga;
- ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga;
- o'quvchi-talabalarning o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon qilishi va mantiqan dalillashiga;
- o'quvchi-talabalarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko'nikmalarining hosil qilinganligiga;
- o'qituvchining iqtidori, e'tiqodi, o'quvchi-talabalarning bilim faoliyatini faollashtira olish ko'nikma va malakalariga

egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

«Tanqidiy tafakkur» uslubi talaba qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangan. Odatda bunday zarurat mubohasa xarakteriga ega masalalarni hal etayotganda yuzaga keladi. Ushbu uslub o'qituvchiga o'quvchi-talabalarning tinglash va muloqot qilish ko'nikmalarini, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, baxsli masalalarni hal qilish, taxliliy mushoxada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o'z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

«Tanqidiy tafakkur»ni o'tkazish uslubiyati.

1. O'quvchi-talabalar oldiga, muammoli topshiriq qo'yiladi va quyidagi savollar beriladi: Nima deb o'ylaysiz?, Fikringiz qanaqa?, Sizningcha qanday? Bu kabi savollar o'quvchi-talaba o'z nuqtai nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

2. O'quvchi-talabaga o'z nuqtai nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat beriladi.

3. O'quvchi o'z fikrini asoslaydi, bunda uning nuqtai nazarini aniqlab olish uchun quyidagi savollarni berish mumkin: Nega bunday deb o'ylaysiz?, Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?

4. O'qituvchi ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan boshqa fikrda bo'lgan ta'lim oluvchilarga so'zlash imkoniyatini beradi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin: Kim aytilgan fikrni ma'qullamaydi, nega?

5. O'qituvchi o'quvchi-talabalar bilan birgalikda har xil nuqtai nazarlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin: Nega boshqalarning nuqtayi nazarini ma'qullamaysiz?, O'z nuqtai nazaringizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?

6. Muammoni topshiriq, masala bo'yicha qabul qilingan qarorga o'quvchi-talabalar tomonidan o'z nuqtai nazarlarni qabul qilishi yoki qayta baholanishi bilan

erishiladi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin: Sizningcha, kimning nuqtai nazarini eng maqbul?, Yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo'l bilan chiqish ma'qulroq?

O'qituvchi o'quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va usullarni tanlab ta'lim jarayonida qo'llay olishi, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muhim

ahamiyat kasb etadi. Yuqori sinflar o'quv materiallarini muammoli tarzda o'rganish o'quvchilarning ta'lim olishdagi faolligini oshiradi, mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Kasb tanlashga yo'naltirilgan o'yinlar ularning kelajakda to'g'ri kasb tanlashlariga zamin yaratadi. Oliy o'quv yurtlarida esa, "talaba-ijodkor-mutaxassis" tizimiga amal qilgan holda darsni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. Karimova V.M. Sunnatova R. va boshqalar. Mustaqil fikrlash. Akademik litseylar va kasb- hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.- T.: Sharq, 2000.- 112 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A, Pardaev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" .T.:2008. B-27,28.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog kadrlar qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 25-sonli Qarori.–Toshkent, 16 fevral 2006 y.
5. Абасов А.А. Инновации в системе управления. – М.: Новая школа, 1997. – 57-59-б.Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 9 – 17-б

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMIDAGI KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH MASALALARI

ВОПРОСЫ ПЕРЕПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ КАДРОВ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА

ISSUES OF RETRAINING AND ADVANCED TRAINING OF PERSONNEL IN THE TAX SYSTEM OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Yuldashev Avazbek Aripjonovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti kengashi kotibi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida soliq tizimi organlari uchun kadrlar tayyorlash, soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari, Soliq akademiyasi va uning faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, kadrlar tayyorlash jarayonlariga yangi uslub va texnologiyalarini joriy qilinishi hamda ularning ahamiyati va kadrlar tayyorlash salmog'iga ta'siri aniq raqamlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: soliq, tinglovchilar, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari, kafedra, fakultet va filiallar.

Аннотация. В статье рассматриваются процессы подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров для налоговой системы в Республике Узбекистан за годы независимости, реформы, направленные на развитие Налоговой академии и ее деятельности, внедрение новых методов и технологий в подготовке кадров. их значение и влияние на обучение.

Ключевые слова: налог, слушатели, переподготовка, повышения квалификации, платформа образования, консорциум.

Annotation. The article focuses on the processes of training, retraining and advanced training of personnel for the tax system in the Republic of Uzbekistan during the years of independence and reforms aimed at developing the Tax Academy and its activities, the introduction of new methods and technologies in training and their importance and impact on training.

Key Words: tax, learners, retraining and qualification courses, faculty and branches, international cooperation.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini munosib himoya qilish maqsadida sud-huquq tizimi organlarini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish va xalqaro talablarga asosan takomillashtirib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan birga aylandi. Ayniqsa, sud hokimiyatini mustaqil prinsiplar asosida faoliyat olib borishini ta'minlash, uni jazolovchi organdan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylantirish borasida olib borilgan islohotlar sud organlarining mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qildi. Bu islohotlarga muvofiq, sud-huquq boshqaruv organlari tizimidagi rahbar kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi ham yillar davomida takomillashtirib borildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Mustaqil O'zbekiston boshqaruv tizimidagi rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlari siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik, falsafa, psixologiya hamda menejment sohasi vakillari tomonidan keng o'rganilgan. Ular rahbar kadrlarni tanlash, tayyorlash jarayonlarini, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi, boshqaruv madaniyati hamda mamlakat taraqqiyotida tutgan o'rnini tegishli sohalar doirasida tadqiq etganlar. Jumladan Ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida yozilgan ikkinchi guruh adabiyotlariga siyosatshunos, huquqshunos, faylasuflar, sotsiologlar va psixologlar tomonidan yaratilgan tadqiqot ishlarini misol qilish mumkin. Ushbu adabiyotlarda O'zbekistonda davlat boshqaruvini shakllanish va rivojlanish bosqichlari, siyosiy institutlar faoliyati, zamonaviy

boshqaruv va rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonlari o'z aksini topgan.

Xususan, F.Ravshanov O'zbekistonda rahbar kadrlarni tanlash va tayyorlash tizimlarining tarixiy hamda zamonaviy taraqqiyotini, bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rganadi[i-358]. U mustaqillik yillarida O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish talablari asosida rahbar kadrlarni tanlash hamda tayyorlash texnologiyalarining rivojlanish jarayonlarini tadqiq etadi. F.Ravshanov oliy ta'limdan keyingi o'quv yurtlarida turli darajadagi kadrlarni bir xil dastur asosida o'qitilishini, qayta tayyorlash muassasalarida kadrlar tayyorlash miqdorini chegaralanganligini tanqid ostiga oladi.

Siyosatshunos olim Q.Quranboyev esa, O'zbekiston davlat boshqaruvida kadrlar tizimining shakllanish va rivojlanish jarayonlarini tadqiq etgan[ii-250]. U davlat boshqaruvi va davlat hokimiyati organlari faoliyatida kadrlarning o'rnini, ularni tayyorlash shart-sharoitlari hamda davlat boshqaruvi tizimidagi o'zgarishlarni tahlil etib, sohani rivojlantirish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan. Q.Quranboyev, mamlakatda boshqaruv kadrlari tizimini rivojlantirishda asosan intellektual sohadagi kadrlarni boshqaruvga jalb etishga e'tibor qaratadi. Davlat boshqaruvini mamlakat intellektual salohiyati bilan uyg'unlashtirmay turib, demokratik qadriyatlarni jamiyat hayotiga tadbiiq etish mumkin emas deydi. U intellektual ziyolilarni jamiyatning ichki quvvati, uni olg'a etaklovchi kuchi, islohotlar va millat taraqqiyoti haqida qayg'uruvchi tafakkur manbai deb hisoblaydi.

M.Atamuratov O'zbekistonda hozirgi kundagi rahbar va boshqaruv kadrlar tizimining modernizatsiyalashish

jarayonlarini o'rganish davomida, boshqaruv kadrlar tizimidagi siyosiy va g'oyaviy o'zgarishlar, konseptual qarashlarni, kadrlar tanlash tizimining zamonaviy texnologiyalarini joriy etilishini o'rgangan holda, shaxsiy javobgarlik nuqtai nazaridan boshqaruv kadrlar faoliyatini tanqidiy tahlil etgan[iii-43].

Natijalar va muhokama

Soliq va bojxona organlari uchun mutaxassislar tayyorlash hamda malakasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 yanvardagi 16-sonli Qaroriga asosan, Davlat soliq qo'mitasi hamda Davlat bojxona qo'mitasining o'quv markazlari bazasida Soliq va bojxona organlari Akademiyasi tashkil etildi. Harbiylashtirilgan oliy ta'lim muassasasi sifatida tashkil etilgan ushbu Akademiyada kunduzgi va sirtqi shakllarda ta'lim berilib, tinglovchilar "Soliqlar va soliqqa tortish" hamda "Bojxona ishi" bo'yicha tayyorlandilar. Soliq va bojxona kollejlari bitiruvchilari to'rt yillik bakalavriaturaga (kvota: 100 ta), boshqa oliy o'quv yurti bitiruvchilari bir yillik qayta tayyorlash kurslariga (kvota: 50 ta) imtihon asosida qabul qilindilar. Shuningdek, soliq va bojxona organlari xodimlari uchun 3 oylik malaka oshirish kurslari tashkil etish yo'lga qo'yildi[iv-28-31].

Bojxona organlari uchun kadrlar tayyorlash salmog'ini oshirish hamda sohaga oid bilimlar berish tarmog'ini kengaytirish maqsadida 2003 yilda Soliq akademiyasining "Bojxona ishi" fakulteti hamda Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona kolleji negizida Davlat bojxona qo'mitasining Oliy harbiy bojxona instituti tashkil etildi. Soliq va bojxona organlari Akademiyasi esa, Davlat soliq qo'mitasining Soliq akademiyasiga aylantirildi. Shundan e'tiboran, Soliq akademiyasi soliq xizmatlari uchun kadrlar tayyorlash tizimidagi ishlarni muvofiqlashtirishni ta'minlovchi, davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha respublika ilmiy-metodik markazi sifatida o'z faoliyatini davom ettirdi. 2 yillik

magistratura bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Mudofaa hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari bilan birgalikda Rezerv va zaxira ofitserlarini tayyorlash harbiy kafedrasini tashkil etildi[v]. 2018 yilga qadar Soliq Akademiyasi uchun Toshkent, Buxoro va Farg'ona soliq kollejlari tomonidan mutaxassislar ixtisoslashtirilgan holda tayyorlab borildi. Kollejlarda 3 yil tahsil olgan o'quvchilar 1 yil soliq organlarida amaliy ish sinovlarini o'tardilar[vi].

2001-2018 yillar davomida Soliq akademiyasini 1060 nafar bakalavrlar, 148 nafar magistrlar tamomladi, 200 nafar xodimlar qayta tayyorlandi[vii], shu bilan birga, har yili uch mingdan ziyod soliq organlari xodimlari malaka oshirib bordilar[viii].

Zamon taraqqiyotiga monand aholining huquqiy ongi, iqtisodiy bilimlari ortib borgani sari, rahbarlar va soha mutaxassislariga qo'yilgan talablar ham ortib boradi, mavjud kamchiliklar esa, ko'zga tashlanib qoladi. Xususan, o'tgan davr mobaynida soliq organlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanilmaganligi hamda xodimlar o'z vakolatlaridan to'liq foydalanmasligi ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish, bozorlar va savdo komplekslari faoliyatida soliq to'lashdan bo'yin tovlashning turli ko'rinishlari vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish yoki intizomiy javobgarlikka tortish mexanizmi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi ularning faoliyatini samarali tashkil etishga yoki korrupsiyaviy muhitni yuzaga kelishiga sabab bo'layotgandi. Shu bois, soliq tizimini boshqarishda eski tizim va mexanizmlarni yangicha yondashuvlarda tashkil etish talabi ortib bordi.

Ushbu muammolarni amaliy hal qilish, mamlakatda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va soliq organlarining faoliyatini yanada uyg'un tarzda tashkil etish maqsadida 2018 yilda "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan, davlat soliq xizmati organlariga ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega yuqori malakali xodimlarni jalb etish, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va rag'batlantirishning yangi tizimini yaratish vazifalari yuklatildi[ix].

Ushbu islohotlarning tub mohiyatini to'g'ri anglay oladigan va samarali ijrosini ta'minlashga qodir kadrlarni tayyorlash, yangi texnologiya va yondashuvlar asosida xodimlarning malakasini oshirib borish maqsadida Soliq akademiyasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Malaka oshirish markaziga aylantirildi[x]. Ushbu Markazga kadrlarda o'z faoliyatiga innovatsion yondashish ko'nikmalarini shakllantirish, kadrlar malaka almashinuvi bo'yicha xorijiy hamkorlikni rivojlantirish vazifalari yuklatildi. Markazda rahbar lavozimlarga zaxiraga olingan kadrlar uchun 1 oylik malaka oshirish kurslari, yangi ishga olinadigan shaxslarni qayta tayyorlash uchun 3 oylik kurslar, axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullari orqali tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari xodimlari uchun 1 oylik masofaviy malaka oshirish kurslari hamda shartnoma asosida buxgalter, auditor va soliq maslahatchilarini soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi va moliya sohalarida o'qitish uchun malaka oshirish kurslari tashkil etish yo'lga qo'yildi. 2018-2020 yillar davomida Malaka oshirish markazida 256 nafar tinglovchi qayta tayyorlandi, 4226 nafar tinglovchi malaka oshirdi, 14732 nafar tinglovchi qisqa muddatli seminarlarda ishtirok etdi[xi].

Xulosa

Soliq akademiyasida o'qitish tizimiga yangi texnologiya va yondashuvlarni joriy qilinganligi hamda ta'lim usullarini zamonaviy shakllarda tashkil etilganligi

kadrlar tayyorlash salmog'ini son jihatdan ortishiga xizmat qilgan. Lekin, Akademiya sifatida 18 yil davomida faoliyat olib borgan, o'ziga xos ilmiy maktab va kadrlar tayyorlash tizimini yaratgan, uzoq yillik moddiy-texnika va axborot-resurs bazasiga ega, soliq va moliya tizimi uchun oliy ma'lumotli hamda ilmiy kadrlar tayyorlaydigan tayanch muassasaning malaka oshirish markaziga aylanishi uning faoliyat tarmoqlarini cheklanishiga olib keldi. Aynan soliq tizimi uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan muassasada bakalavr va magistrlar tayyorlash to'xtatildi. Bu islohotlarni ishlab turgan tizimni yo'q qilish hisobiga emas, balki qo'shimcha ravishda uning faoliyatini kengaytirish, ta'lim berish usullarini mobil va moslashuvchan shaklda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni, malaka oshirish markazida tashkil etiladigan o'quv kurslari va seminarlarni Akademiyada qoshida ham tashkil etish mumkin edi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, xodimlarning kreativ salohiyatini shakllantirish hamda kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish orqali boshqaruvning innovatsion shakl va uslublarini amaliyotda qo'llashni o'rgatish, ularni qonunchilikdagi dolzarb yangiliklar, O'zbekiston va xorij amaliyotida erishilgan natijalar bilan muntazam tanishtirib borish kerak. Shuningdek, malaka oshirish kurslari va o'quv seminarlarni muvaffaqiyatli tamomlagan kadrlarni faoliyat davomida olgan bilimlarini amaliyotga joriy qilib borishlarini monitoring qilish hamda uning ijobiy natijalariga qarab munosib rag'batlantirib borish faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**O'ZBEKISTON VA BELARUS HAMKORLIK MUNOSABATLARIDA
PARLAMENTNING O'RNI**

**РОЛЬ ПАРЛАМЕНТА В ОТНОШЕНИЯХ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И
БЕЛАРУСИ**

**THE ROLE OF THE PARLIAMENT IN RELATIONS OF COOPERATION BETWEEN
UZBEKISTAN AND BELARUS**

**Ataxanov Baxtiyor Turabayevich
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston va Belarus respublikalarining mustaqillik yillarida olib borgan diplomatik munosabatlarida ikki davlat qonun chiqaruvchi organlarining o'rnini va ahamiyatini yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Belarus Respublikasi Milliy Majlisi vakillarining o'zaro uchrashuvlari, diplomatik tashriflar, muhokama etilgan masalalar yoritilgan. Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar, fan-ta'lim va boshqa yo'nalishlardagi hamkorlik aloqalarining huquqiy asoslari qaror topishida parlament instituti muhim o'rin tutishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: parlament, deklaratsiya, ratifikatsiya, denonsatsiya, memorandum, diplomatik munosabat.

Аннотация. В данной статье описывается роль и значение законодательных органов двух стран в дипломатических отношениях между республиками Узбекистан и Беларусь в годы независимости. Освещаются взаимные встречи представителей Олий Мажлиса Республики Узбекистан и Национального Мажлиса Республики Беларусь, дипломатические визиты, обсуждаемые вопросы. Выявлено, что институт парламента играет важную роль в определении правовых основ сотрудничества двух стран в политической, экономической, культурно-гуманитарной, научно-образовательной и других сферах.

Ключевые слова: парламент, декларация, ратификация, денонсация, memorandum, дипломатические отношения.

Abstract. This article describes the role and importance of the legislative bodies of the two countries in the diplomatic relations between the republics of Uzbekistan and Belarus during the years of independence. Mutual meetings of the representatives of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan and the National Majlis of the Republic of Belarus, diplomatic visits, discussed issues are covered. It has been revealed that the institution of parliament plays an important role in determining the legal bases of cooperation between the two countries in political, economic, cultural-humanitarian, scientific-educational and other areas.

Key words: parliament, declaration, ratification, denunciation, memorandum, diplomatic relations.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro munosabatlardagi o'rnini alohida ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga mos ravishda yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Tashriflar almashish hamda xorijiy parlamentlar vakillari,

siyosatchilar va diplomatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha qator uchrashuvlar va muzokaralar o'tkazmoqda.

Ikki palatali parlamentga o'tish mamlakatimizda parlamentarizm rivojlanishining yangi muhim bosqichi sifatida parlament demokratiyasi prinsiplari qaror topishi fuqarolik jamiyati

institutlari rivojlanishini ta‘minlash bilan bir qatorda O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat va horijiy davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirish sohasida o‘z xissasini qo‘shib, samarali faoliyat olib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Mamlakatimizning asosiy qonuni va boshqa qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasi parlamentining xalqaro munosabatlardagi ishtirokining huquqiy asoslari yaratilgan. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 bob 78-moddasining 4-bandida O‘zbekiston Respublikasi palatalarining qo‘shma vakolatlariga «O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;»[1] 20-bandida «Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;»[2] vakolati berilgan. Shuningdek, 79-moddaning 4-bandida: «... davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish»[1] vakolati, hamda 80-moddaning 8-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish vakolatiga ega. Konstitutsiyaning 85-86 moddalarga muvofiq,[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi va Qonunchilik palatasi spikeri chet davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarda, parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog‘liq masalalarda o‘z palatalarining faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Yuqorida ko‘rsatilgan konstitutsiyaviy vakolatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi parlamentining palatalari xalqaro aloqalarda va parlamentlararo munosabatlarda o‘z faoliyatini samarali tashkil etib kelmoqda. Jumladan, parlamentning Qonunchilik palatasidagi

Xalqaro ishlar va parlamentlararo munosabatlar qo‘mitasi o‘z faoliyati yo‘nalishiga ko‘ra, Qonunchilik palatasining xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamda parlamentlararo munosabatlarini rivojlantirishda va horijiy mamlakatlarning qonun chiqaruvchi organlari bilan o‘zaro tajriba almashinuv jarayonlarida tashkilotchi va tashabbuskor bo‘lib, ish faoliyatini samarali tashkil etmoqda

Xorijiy delegatsiyalar bilan uchrashuvlar hamda deputatlarimizning chet davlatlarga xizmat safarlari davomida o‘tkazilgan muloqotlari doirasida parlament vakillari tomonidan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning mazmun-mohiyati, ahamiyatini jahon hamjamiyatiga etkazish borasida ham o‘z samarasini bermoqda. Oliy Majlisda tashkil etilgan parlamentlararo hamkorlik guruhleri O‘zbekistonning xalqaro hamkorlik aloqalarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda Oliy Majlis qoshida tuzilgan parlamentlararo hamkorlik va do‘stlik guruhleri soni 28 taga etdi. Bu hamkorlik guruhleri Evropa Ittifoqi, AQSh, Belgiya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya, Latviya, Buyuk Britaniya, Italiya, Fransiya, Bolgariya, Gruziya, Qozog‘iston, Litva, Germaniya, Xitoy, Qirg‘iziston, Turkiya, Rossiya, Turkmaniston, Tojikiston, Hindiston, Belarus, Polsha, Ozarbayjon kabi davlatlarning parlamentlari bilan tashkil etilgan.

Tahlil va natijalar:

Oliy Majlisning parlamentlararo tashkilotlar bilan aloqalari mamlakatning xalqaro maydondagi salohiyatini hamda milliy parlamenning nufuzini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro Parlamentlararo Ittifoq, Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Parlament Assambleyasi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkilotining Parlamentlararo Assambleyalarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi a‘zolidan tiklangani natijasida ushbu xalqaro tashkilotlar sessiyalarida parlamentimiz a‘zolari muntazam ravishda

qatnashib, xalqaro hamjamiyatni O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan yanada yaqindan tanishtirish imkoniga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi parlamentining palatalari xalqaro aloqalarda va parlamentlararo munosabatlarda o‘z faoliyatini samarali tashkil etib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Belarus Respublikasi Milliy Majlisi o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlik mustahkam yo‘lga qo‘yilgan. Uning tamal toshi 1999 yilda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Belarus Respublikasi Milliy Majlisi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida”gi [2] kelishuvning imzolanishi bilan qo‘yilgan. Ikki davlat parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlik mazkur hujjatga muvofiq tashkil etib kelinmoqda.

2009 yil 6 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikeri D.Toshmuhammedova Belarus Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi I.Sokol bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.[3] Uchrashuv chog‘ida Belarus Respublikasi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlik istiqbollari muhokama etildi.

2010 yilda 18 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari Belarus Respublikasi Milliy Majlisiga tashrif buyurdi. u erdagi qonunchilik tizimi va amalga oshirilayotgan faoliyatlar bilan yaqindan tanishib qaytdilar. 19 oktyabr kuni Belarus Respublikasi parlamenti tashabbusi bilan tashkil etilgan «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishning dolzarb masalalari» mavzuidagi konferensiyada deputat, O‘zLiDeP fraksiyasi a‘zosi A.Shodmonov o‘z ma‘ruzasida bilan chiqish qildi.[4]

Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika kengashi raisi A.N.Rubinovning taklifiga binoan, 2011 yil 20-26 iyul kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari Belarus

Respublikasiga tashrif buyurdilar.[5] U erda parlamentimiz a‘zolar ikki mamlakat parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash, qonun ijodkorligi faoliyati bo‘yicha tajriba almashishga oid masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashdilar.

2013 yil mart oyida Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari (T.Tursunov, X.Mamatov, F.Soliev, S.Otamurotov) parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash borasida o‘z tajribalarini boyitish maqsadida Belarus Respublikasida bo‘ldilar.[6]

2013 yilning 4 sentyabr kuni Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va Tashqi ishlar vazirligi tomonidan “Parlamentarizmni rivojlantirish: Xalqaro tajriba va O‘zbekiston”_mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.[6] Unda Belarus parlamenti vakillari ham ishtirok etdi. Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Vakillar palatasi deputati V.A.Guminskiy “Parlamentarizmni rivojlantirishda parlament nazorati instituti faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish” mavzusida ma‘ruza qildi. U o‘z ma‘ruzasida ijro hokimiyati organlarining qonun hujjatlarini bajarishi ustidan parlament nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish, parlamentning fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorligi sohasida tajriba almashish, ikki tomonlama o‘zaro manfaatli parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish istiqbollarini muhokama etdi.

Iqtisodiy jarayonlarni jadal rivojlantirish, tashqi iqtisodiy munosabatlarni yanada faollashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining muhim jihatiga aylanib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ishtiroki muhim jihat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan ma‘ruzasida bu jihatga alohida e‘tibor qaratdi. Jumladan ma‘ruzada: «Xorijiy

sarmoyalarni va ilg‘or texnologiyalarni iqtisodiyotga jalb etish uchun chet ellardagi diplomatik vakolatxonalarimiz jiddiy ish olib borishi lozim. Buning uchun Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini kuchaytirish, chet mamlakatlardagi elchilarimiz nafaqat siyosiy, ayni vaqtda yurtimizga investitsiyalarni jalb qilish masalalari bilan ham faol shug‘ullanishlari darkor. Ularning bu boradagi faoliyatini nazorat qilish uchun Oliy Majlis Senatining Tashqi siyosat masalalari qo‘mitasining faoliyat sohasi va vakolatlarini kengaytirish zarur, deb hisoblayman. Bu qo‘mita xalqaro iqtisodiy hamkorlik, chet el investitsiyalarini faol jalb etish masalalari bo‘yicha parlament nazoratining muhim bo‘g‘iniga aylanishi lozim. Qo‘mita mamlakatimizga investitsiyalarni jalb qilish borasidagi ishlarning samaradorligi, bu sohadagi muammolar, to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo‘yicha tegishli idoralarning mas‘uliyatini oshirish choralari ko‘rishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.»[8] degan takliflar ilgari surildi. Bildirilgan taklifga muvofiq, 2016 yil 13 dekabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining sakkizinchi yalpi majlisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar va turizm sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi. Xalqaro maydonda davlatning milliy manfaatlarini himoya qilishda parlament rolini yanada kuchaytirish, xalqaro munosabatlarda parlamentning nazoratini kuchaytirish masalasi dolzarbligi va muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, yalpi majlisda Oliy Majlis Senati raisining birinchi o‘rinbosari lavozimini joriy etish va uning zimmasiga ushbu sohadagi faoliyatning muvofiqlashtirishni tashkil etish, dasturlar va ish rejaları ijro etilishini nazorat qilish vazifalarini yuklash to‘g‘risida qaror qabul qilindi.[9] Qarorga muvofiq Senat a‘zolari tomonidan S.Safoyevni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi o‘rinbosari etib saylandi hamda Senatning Tashqi siyosat

masalalari qo‘mitasi Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi etib qayta tashkil etildi.[9]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan taklif va Oliy Majlis Senati tomonidan qabul qilingan qaror natijasida Parlamentning xalqaro munosabatlardagi o‘rni va ahamiyati yanada kuchayishga sabab bo‘ldi.

2018 yildan O‘zbekiston va Belarus davlatlari parlamentlarining o‘zaro hamkorligida yangi davr boshlandi. Shu yili 11-14 iyun kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi N. Yo‘ldoshev boshchiligidagi parlament delegatsiyasi Belarus Respublikasiga tashrif buyurdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi N.T. Yo‘ldoshev boshchiligidagi parlament delegatsiyasi bugun tashrif doirasida Belarus Respublikasi Milliy majlisi Respublika Kengashi Raisi M. V. Myasnikovich bilan uchrashdi. Uchrashuv chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o‘rtasidagi parlamentlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama etildi. Uchrashuv yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Belarus Respublikasi Milliy majlisi Respublika Kengashi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida Memorandum imzolandi. Shuningdek kunning ikkinchi yarmida O‘zbekiston delegatsiyasining Belarus Respublikasi Milliy majlisi Vakillar palatasi Raisi V. P. Adreychenko bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda tomonlar qonun ijodkorligi faoliyatida tajriba va yangiliklar bilan o‘zaro almashish istiqbollari muhokama qildilar.[10]

2018 yil 14 sentyabr kuni Senatda Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi raisi A.Kurmanovning Belarus Respublikasi Prezidenti A.Lukashenkoning rasmiy tashrifi doirasida delegatsiya tarkibida mamlakatimizga kelgan Belarus Respublikasi Milliy majlisi Respublika Kengashi Xalqaro ishlar va milliy xavfsizlik

bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Raxmanov bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. [11] Uchrashuvda ta‘kidlanganidek, parlamentlararo aloqalar o‘tgan davrda ancha faollashgan O‘zbekiston-Belarus hamkorligining muhim jihati hisoblanadi. Tomonlar ikki mamlakat parlamentlari yuqori palatasi shafeligida hududlar forumlarini tashkil etish masalalariga alohida e‘tibor qaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Belarus Respublikasi Milliy Majlisi o‘rtasida muntazam ravishda hududlar forumlarini o‘tkazish to‘g‘risida memorandum imzolandi. Shunday qilib, xalq vakillari parlament diplomatiyasi va nazorati mexanizmlari yordamida ikki mamlakat hududlari va tadbirkorlari tomonidan erishilgan kelishuvlar samarali va o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlaydi.

2018 yil 24 noyabr kuni Senatda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Nig‘matulla Yo‘ldoshevning Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi o‘rinbosari Mariana Shyotkina boshchiligidagi parlament delegatsiyasi bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. [12] Uchrashuvda tomonlar O‘zbekiston va Belarus parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda 2019 yil Minsk shahrida tashkil etiladigan ikki mamlakat Hududlari forumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish masalalarini muhokama qildi.

O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni, birinchi navbatda, parlamentlararo aloqalar sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishga muhim ahamiyat bermoqda. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi ikki tomonlama hamkorlik an‘anaviy do‘stlik, ishonch va o‘zaro manfaat tamoyillariga asoslanadi. Belarus mamlakatimizning eng muhim va istiqbolli hamkorlaridan biridir.

Xulosa va takliflar:

Yuqorida bildirilgan taklif va uning ro‘yobga chiqarilishi, avvalo, xalqaro munosabatlar va tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va turizm sohasidagi qonun

xujjatlari, dasturlar, rejalarni hududlarda ijro etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda hamda ushbu sohadagi xalqaro huquqiy me‘yorlar va xujjatlarni milliy qonunchilik tizimiga tadbiiq etilishiga xizmat qiladi, shu bilan birga, birinchi navbatda mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatiniyanada yukslatirishga xizmat qiladi, ikkinchidan chet el investitsiyalari va zamonaviy texnologiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo‘naltirish jarayonini jadallashtiradi, uchinchidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mamlakat tashqi siyosati va xalqaro aloqalaridagi ishtirokini hamda dahldorlik xisini kuchaytiradi, to‘rtinchidan ijro etuvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyat oldidagi ma‘suliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Oliy Majlis tomonidan O‘zbekiston Respublikasi bilan Belarus Respublikasi parlamentlararo munosabatlarni muntazam yo‘lga qo‘yishi, avvalo davlatlararo munosabatlarga o‘zining ijobiy ta‘sirini o‘tkazib, davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama va tashkilotlar doirasidagi hamkorligining yangi, samarali bosqichlarga ko‘taradi. Qolaversa, parlamentimizning qonunchilik jarayonlarini takomillashtiradi, Qonunchilik palatasi deputalari va Senat a‘zolarining qonun ijodkorligi va tashabbuskorligi xususiyatini faollashtiradi, shuningdek, bu jarayonlarga demokratik prinsiplarning ijobiy ta‘sirini yanada oshishiga xizmat qiladi. Ratifikatsiyadan o‘tgan xalqaro hujjatlarning amalga tadbiiq qilish jarayonlarida qo‘llanadigan usul va vositalarni o‘rganish va o‘zlashtirishda o‘z samarasini beradi. Eng asosiysi ikki palatali professional parlamentning faoliyati talablariga to‘laqonli javob beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, ikki davlat o‘rtasida parlamentlararo aloqalarning tobora mustahkamlanishi birinchi navbatda mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirsa, ikkinchidan esa millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, hamjihatlik va aholi turmush farovonligini yaxshilashda muhim huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳақимов Р. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг конституциявий мақоми. - Т.: Янги аср, 2019. -Б.270
2. Ҳамкорлик йўлидаги муҳим қадам // Халқ сўзи. 1999 йил 23 декабрь. – №250.
3. Ўзбекистон республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг расмий интернет манзили. https://parliament.gov.uz/uz/international/1733/?sphrase_id=8166804
4. Қонунчилик палатасининг 2010 йилдаги хориж сафарлари. <http://parliament.gov.uz/uz/international/7408/?group=42>
5. БЕЛТА ахборот агентлигининг расмий сайти. <https://www.belta.by/world/view/rubinov-predlagaet-sozdat-uzbekistan-parlament-30202-2011/>
6. Қонунчилик палатасининг 2012 йилдаги хориж сафарлари. <http://parliament.gov.uz/uz/international/7410/?group=42>
7. Parlamentarizmni rivojlantirish: Xalqaro tajriba va O'zbekiston <http://parliament.gov.uz/uz/international/9491/?group=43>
8. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – б. 50.
9. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг саккизинчи ялпи мажлиси тўғрисидаги ахборот.// Халқ сўзи. 2016 йил 246-сон. Б-2.
10. Парламентлараро алоқалар мустақамланмоқда. // Халқ сўзи . 2018 йил 15 июн. – №151.
11. Ўзаро ҳамкорликни ривожлантириш учун амалий ҳаракатлар даври // Халқ сўзи. 2018 йил 14 сентябрь. – №190.
12. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy internet manzili. <https://senat.uz/uz/lists/view/178>
13. Ўзбекистон ва Беларусь ўзаро муносабатларнинг янги, янада самарали босқичига қадам қўймоқда // Халқ сўзи. 2019 йил 2 август. – №157.
14. Hironori Yamamoto. Tools for parliamentary oversight: A comparative study of 88 national parliaments. -Inter-Parliamentary Union 2007. -Switzerland. -P.6. 16. Steffani W.F. Verfahren und Wirkungen der
15. Пляхимович И. И. Комментарий к Конституции Республики Беларусь: в 2 т. Т. 2. — Минск: Амалфея, 2015. — 284 с
16. Атаханов, Б. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ВА БЕЛАРУСЬ ДАВЛАТЛАРИНИНГ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(3).
17. Ataxonov, B. (2019). ESTABLISHMENT AND PROSPECTS OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND BELARUS. Theoretical & Applied Science, (11), 636-640.
18. Атаханов, Б. Т. (2015). ИККИ ПАЛАТАЛИ ПАРЛАМЕНТ ИНСТИТУТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАРАҚҚИЙ ЭТГАН МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 58, pp. 62-64). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.

**TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHI
TARIXIDAN**

**ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ТИПОГРАФИИ
В ТУРКЕСТАНЕ**

**FROM THE HISTORY OF THE PRINTING PRESS EMERGENCE
IN TURKESTAN**

Abdurasulov Akmaljon

Namangan davlat universitetining tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda matbaachilikning paydo bo'lishi va rivojlanishini batafsil yoritishga harakat qilindi. Maqolada rus mustamlakachilarining matbaachilikni tashkil etishdan ko'zlagan maqsadi, jadid ma'rifatparvarlarining milliy

matbaachilik va matbuotga asos solish yo'lida tatar taraqqiyparvarlari bilan hamkorlik aloqalari yoritildi. Matbaachilikning vujudga kelishiga doir yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Usmonli davlati, Otajon Abdalov, Buxoro amirligi, Sho'ro, Ivan Feodorov, Qozon, Shohimardon Ibrohimov, Laxtin, Seversov, Yesanboy Husaynboy o'g'li, Ismoil Obidov, Baranovskiy, Orif Afandi, Muhammad Rahimxon.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка подробно осветить возникновение типографии в Туркестане и его развитие. В статье освещена цель русских колонизаторов в установлении книгопечатания, сотрудничество современных просветителей с татарскими разработчиками на пути основания национальной полиграфии и типографии. В научную дискуссию были включены новые сведения о появлении книгопечатания.

Ключевые слова: Российская империя, Османлы (Османцы), Атаджан Абдалов, Бухарский эмират, Шура, Иван Фёдоров, Казань, Шахимардан Ибрагимов, Лактин, Северсов, Есанбай Хусайнбайуглы, Исмаил Абидов, Барановский, Ариф Ефенди, Мухаммед Рахимхан.

Annotation: In this article, an attempt was made to cover the emergence of the printing press in Turkestan and its development in detail. The goal of the Russian colonialists in establishing the printing press, the cooperation of the modern enlighteners with the tatar developers in the way of founding the national printing house and press were highlighted in the article. New information about the emergence of printing was included in the scientific discussion.

Key words: Russia Empire, Osmanli, Otajon Abdalov, Bukhara Emirate, Shura, Ivan Feodorov, Kazan, Lakhtin, Seversov, Esanboy Husaynboyog'li, Ismail Obidov, Baranovsky, Arif Efendi

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni istilo qilganidan so'ng, Turkistonni mafkuraviy tomondan ham zabt etish maqsadida matbuotga asos soldi. Turkistonda matbaachilikning vujudga kelishi sovet davridagi tadqiqotlarda bir tomonlama yoritilgan bo'lib, Rossiya omili oshirib ko'rsatilgan edi. Sovet davridagi tadqiqotlarda rus mustamlakachilarining mahalliy ziyolilar tomonidan bosma ishlari tashkil qilinishiga turli to'siqlar qo'yilganligi e'tiborga olinmasdan, mahalliy matbaachilarning faoliyati kommunistik mafkura doirasida baholangan edi. Sovet davridagi tadqiqotlarda yozilganidek, Buxoro amirligidagi ilk matbaa 1901 yilda emas, balki ancha oldinroq vujudga kelganligi, Turkistonning boshqa mintaqalariga qaraganda ilgarida bo'lganligi birinchi bor manbalar bilan ochib berildi. Maqolada Turkiston oydinlarining milliy matbuot va matbaa faoliyatini yo'lga qo'yishda turk-musulmon ma'rifatparvarlari bilan aloqalari yoritildi. Shu bilan birga maqolada Sharq

mamlakatlarida matbaaning kechroq vujudga kelishi va rivojlanishining sabablari ilk bor aniq ma'lumotlar bilan ko'rsatib o'tildi. Matbaaning vujudga kelishiga doir "Sho'ro" jurnalidan olingan ma'lumot ilmiy muomalaga kiritildi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Ushbu maqola tarix fanida qabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, xolislik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik tamoyillari asosida yoritildi. A. Boboxonovning "O'zbek matbaasi tarixi" asari, Z. Abdurashidovning "Tarjimon gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi", Ziyo Saidning "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar", N. Abduazizovanning "O'zbekiston matbuoti tarixi", A. Isoqboevning "Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tatar-boshqird ma'rifatparvarlarining faoliyati", T. Ernazarovning "Turkistonda vaqtli matbuot", S. Agzamxo'jaev va Z. Ulug'bekovanning "Al-isloh jurnali-Turkistondagi islohotchilik harakatini

o'rganish bo'yicha tarixiy manba", B. Qosimovning "Milliy uyg'onish" asarlarida Turkistonda dastlabki matbaachilikni vujudga kelishiga doir ma'lumotlar berib o'tilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Vatanimiz istiqolga erishganidan so'ng yurtimiz tarixi, milliy va diniy qadriyatlarni to'laqonli o'rganish imkoniyatiga ega bo'lindi.

Vatanimiz hududida matbaachilikning tarixiy ildizlari kitobat va xattotlik san'ati bilan uyg'unlashib, uning vujudga kelishi va rivojlanishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Kitob xattotlar tomonidan qo'lda ko'chirilgan. XV-XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda xattotlik san'ati yanada rivojlandi va yangi yo'nalishlariga asos solindi. Masalan, temuriylar davrining mashhur xattotlari Mirali Tabriziy nastaliq xatiga asos solgan bo'lsa, Sultonali Mashhadiy xattotlik san'ati haqida maxsus kitob yozgan. Hirotda Mirzo Ulug'bekning ukasi Boysung'ur Mirzo kutubxonasida 40 ta xattot va bir qancha naqqoshlar kitob ko'chirish, uni bezatish, unga mo'jaz suratlar ishlash bilan mashg'ul bo'lganlar. Bu kutubxonada ko'chirilgan kitoblar o'zining bejirim va yorqin ranglari, nafis va jonli minatyuralari bilan ajralib turgan. Xonliklar davrida ham Turkiston mintaqasida xattotlik san'atining rivojlanishi to'xtab qolgani yo'q. Shu davrda O'rta Osiyo shaharlarida kitob savdosi bilan shug'ullanadigan maxsus bozorlar bo'lganligi ham kitobat san'atining rivojlanganligidan dalolat beradi. Jumladan, Buxoro shahrida Toqi kitobfurushon usti yopiq bozorining faoliyat ko'rsatganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Ammo XV-XVII asrlarda yuz bergan Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati pasaydi. Buning oqibatida O'rta Osiyo xonliklari jahon bozorida ajralib qoldi. Xonliklar iqtisodiy tomondan inqirozga yuz tutdi. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida ichki urushlar avj oldi. Yevropaning ilg'or davlatlari bilan aloqalarning yo'lga qo'yilmaganligi, xonlik amaldorlarining o'z qobig'iga o'ralashib qolishi, fan-texnika

yutuqlaridan mintaqaning bebahra qolishiga, o'sha davrning muhim kashfiyotlaridan biri matbaachilikni Turkistonga kirib kelishining kechikishiga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, 1870-1917-yillar milliy tariximizda Rossiyasi imperiyasi mustamlakachiligi davri sifatida o'rin oldi. Ushbu davrda Turkistonda ilk matbaachilikga asos solindi va bu Turkiston uchun muhim yangilik edi. Ayni paytda nashriyot va noshirlikning Turkistonga kirib kelishi Turkiston halqlari madaniyati uchun shubhasiz katta yutuq bo'ldi. Rossiya imperiyasi ma'murlari dastlabki yillarda matbaachilikdan o'zining mustamlakchilik maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanish, o'z g'oyalarini yoyish, aholini ruslashtirish siyosatini olib borishda foydalanishga urindi. Turkiston ziyolilari esa, aksincha mahalliy xalqlarni jaholat va istibdoddan qutqarish, ularni uyg'otish, millatni ma'rifatli qilishda foydalanish harakatida bo'ldilar.

Turkiston milliy matbaachiligi haqida so'z yuritishdan oldin uning shakllanishi va paydo bo'lishida asosiy omillardan bo'lgan Sharq musulmon matbaachiligi va matbuoti tarixiga nazar tashlash foydadan xoli bo'lmaydi. Islom dunyosida matbaachilik Yevropaga nisbatan ancha keyin paydo bo'ldi. Yevropalik olimlarning ayrimlari buni islom dunyosining qoloqligiga yo'ygan bo'lsa, ayrimlari haqqoniy baho berishga intiladi. Masalan, Amerikalik olim Adib Holid musulmon dunyosida matbaachilik paydo bo'lishining kechikishiga sabab qilib islom dunyosi qadimdan yuqori darajada rivojlangan qo'lyozma an'anachiligiga ega bo'lganligini qayd etadi.

Sho'ro jurnalida arabiy harfga ega bo'lgan matbaaning paydo bo'lishi haqida qiziqarli ma'lumot beriladi. Jurnalda yozilishicha, arabiy harflar bilan dastlabki kitob Italiyaning Vanding (Venetsiya) shahrida XVI asr boshlarida chop qilingan. 1551-yilda Said al-Fiyuxiy tarjimai bo'lgan arabcha "Tavrot" yahudiylar tomonidan Istanbulda nashr qilingan. Rumo shahrida 1591-yilda arabiy harflarda "Injil" kitobi, 1593-yilda Abu Ali

ibn Sinoning "Al-Qonun", 1671-yilda "Tavrot" kitobi bosildi. Dunyodagi ilk bosmadan chiqqan "Qur'oni Karim" kitobi XVI asr boshlarida Vanding (Venetsiya) shahrida Pog'onni tarafidan nashr qilingan. Ammo bu Qur'oni Karim kitobi papaning talabi bilan gulxanda yoqilgan.

Musulmon mamlakatlari orasida birinchi matbaaga 1727-yili Istanbulda sulton Ahmad III tomonidan asos solindi. Bunda venger millatiga mansub Usmonli bosh vaziri Ibrohim Mutafarriqaning xizmati katta bo'ldi⁴. G'arb tarixshunoslari musulmon mamlakatlarida bosma nashrlarning kechroq paydo bo'lishiga islom ulamolarining qarshiligini sabab qilib ko'rsatadilar. Ammo Istanbulda ochilgan birinchi matbaani tashkil etilishida Usmonli davlatining shayxulislomi Abdulloh Rumiy afandining qo'llab-quvvatlovi katta rol o'ynaganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Turkiyalik tarix va huquq professori Akram Bug'ro Ikkinchi matbaaga logan Gutenbergdan ham oldinroq yahudiylar asos solganligini XV asr boshlarida Konstantinopolda yahudiy matbaachilari faoliyat ko'rsatganligini yozadi. Keyinchalik Konstantinopolni egallagan Usmonli turklar matbaachilikka unchalik e'tibor qaratmaganligini, bunga sabab XVII asrning o'zida Istanbulda 60 mingga yaqin xattot mavjud bo'lganligini qayd qiladi⁶. Bizning fikrimizcha, Usmonli davlatining matbaachilikka qiziqishiga sabab, XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Yevropa davlatlari bilan bo'lgan urushlardagi harbiy mag'lubiyatlar edi. Usmonli davlati harbiy mag'lubiyatlarning sababini Yevropa davlatlaridagi fan-texnika va harbiy sohalardagi ilg'or yutuqlardan orqada qolganlikda deb bildi. Shu boisdan ham Usmonli davlati o'z davrining muhim kashfiyotlari qatorida matbaachilikni ham qabul qildi. Usmonli davlati orqali asta-sekin islom dunyosining boshqa davlatlarida ham dastlabki bosmaxonalarga asos solina boshlandi. 1727-yilda Usmonli davlatida matbaaga asos solingan bo'lsa-da, uning islom dunyosida yoyilishi juda sekinlik bilan bordi. XIX asr boshlarida Hindistonning

Kalkutta shahrida matbaaga asos solindi. Ushbu bosmaxonada 1811-yilda "Nujum al-Firqon" kitobi bosib chiqarildi⁷. 1818-yili Misrda Muhammad Ali posho tomonidan mashhur "Buloq" matbaasiga asos solindi. Bu matbaa Muhammad Ali hukmronligi davrida 400 ming jild kitob nashr qildi. 1825-yilda esa Eronda arab alifbosiga asoslangan matbaachilikka tamal toshi qo'yildi.

Rossiyada kirill yozuviga asoslangan matbaaga XVI asrda Ivan Fyodorov asos solgan bo'lsa, dastlabki gazeta 1703-yilda Pyotr I hukmronligi davridan boshlab nashr qilina boshladi¹⁰. Rossiyada arab alifbosiga asoslangan matbaa XVIII asr boshlarida paydo bo'ldi. Ulardan birinchisi 1723-yili Astraxanda ochilgan. Oradan biroz vaqt o'tib Peterburg, Moskva Qozon shaharlari hamda Qrim va Kavkaz hududlarida ham xuddi shunday matbaalar paydo bo'ldi. 1799-yilda Rossiya imperatori Pavel I ning farmoniga ko'ra, Qozon shahrida musulmon matbaasi ochilgandan keyin bu shahar bosma kitobchilik markaziga aylandi. Rossiya imperatori Aleksandr Ining 1801-yildagi farmoni bilan Rossiya musulmonlariga rasman o'z kitoblarini chop etish uchun ruxsat berildi¹¹. Shu o'rinda bir narsaga aniqlik kiritib ketishni lozim deb topdik. Yuqoridagi ma'lumotlarda musulmon mamlakatlarida birinchi matbaaga 1727-yilda, Rossiyada esa arabiy xarflarga ega matbaaga 1723-yilda asos solindi deya, ma'lumot bergan edik. Bizningcha, musulmon mamlakatlaridagi birinchi matbaaga Istanbulda asos solingan degan fikr to'g'ri. Chunki 1723-yilda Astraxanda ochilgan matbaa Rossiya imperiyasi hududida rus hukumati tomonidan ochilgan bo'lib, Rossiya musulmonlariga mafkuraviy tomonidan ta'sir ko'rsatish uchun tashkil qilingan edi. Bu matbaada dastlabki davrda birorta ham musulmon noshir faoliyat ko'rsatmagan.

Turkistonda kitob chop etish XIX asrning 70-yillarida Rossiya o'lkani egallaganidan so'ng boshlandi. Turkistonda bundan oldin kitob chop etilmagan bo'lsa-da, sayyohlar va haj

safaridan qaytayotganlar tomonidan Hindiston va Turkiyadan turli bosma kitoblari olib kelingan. Ushbu kitoblarning aksariyati fors tilida bo‘lgan. Ba’zi manbalarda ko‘rsatilishicha, Buxoroda hind bosma kitoblari turk bosma kitoblaridan ancha ko‘p tarqalgan.

O‘lkada birinchi bosmaxonaga 1868-yilda Turkiston harbiy okrugi shtabi huzurida asos solindi. Lekin bu bosmaxona yaxshi jihozlanmaganligi tufayli faqatgina devonxona materiallari, turli blankalar va buyruqlarni bosib chiqarishga moslashgan edi. Shu sababdan 1869-yilda boshqa bosmaxona tashkil qilindi. Ushbu yangi bosmaxona nafaqat rus, balki arab harflariga ham ega bo‘lib, 1870-yildan to‘liq o‘z faoliyatini boshlagan¹³. Turkistonda bosmadan chiqarilgan dastlabki kitob mashhur rus sayyohi N. Seversovning qirq sahifadan iborat bo‘lgan risolasi edi. O‘zbek tilida bosmadan chiqqan dastlabki kitob Shohimardon Ibrohimov tomonidan tayyorlangan “Taqvim” edi.

Rus matbaachilari tijoriy maqsadlarda xususiy bosmaxonalarga asos solgan edilar. Bu bosmaxonalarda rus millatiga mansub mutaxassislar bilan birgalikda tatar millatiga mansub mutaxassislar ham mehnat qilganlar. Ular tijoriy maqsadlarda arabiy harflarda kitob bosishni ham yo‘lga qo‘ygan edilar. Bu masalada rus noshirlari tatar matbaachilaridan foydalandi. Ayni paytda bu matbaaga mahalliy millat vakillari ham ko‘proq harf teruvchi sifatida ishga qabul qilingan. Masalan, Bazilevskiy matbaasida tatar mutaxassis harf teruvchilari - Shaxingirey Bekqulov, Abdulatif Yavushev va Ali Bektemirovlar faoliyat ko‘rsatganlar. Bu odamlarning qo‘liga shogird qilib erli halq vakillari Sirojiddin Xo‘jaev, Hamid Xo‘jaev, Abdurahmon Xo‘jaevlar olindilar. Bu shaxslar dastlabki o‘zbek matbaachilaridan hisoblangan. Shu tariqa mahalliy millat vakillari orasida ham bosmaxona ishlari bo‘yicha mutaxassislar shakllana boshladi.

Turkistonda bosmaxonalarning vujudga kelishi va taraqqiyotini hududlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, Xiva xonligi

madaniyatni yuksaltirishga intilish O‘rta Osiyoning qolgan mintaqalariga nisbatan kuchliligi, yangiliklarga nisbatan ochiqligi, o‘zbek xonliklari ichida birinchi matbaaga asos solinishida buning asosiy omili edi. Xiva hukmdori Muhammad Rahimxon II farmoni bilan 1874-yili Erondan litografik uskuna olib kelindi va saroyda tipolitografiya tashkil etildi. Xon saroyida tashkil qilingan tipolitografiyani Otajon Abdalov eronlik ustozi Ibrohim Sulton rahbarligida ishga tushirdi. Ushbu bosmaxona “Podshohi zamon tipolitografiyasi” deb nomlangan bo‘lib, tadqiqotlarga ko‘ra, Muhammad Rahimxon II matbaani Jenevadan keltirgan ekan¹⁶. Ammo bu bosmaxona tijoriy maqsadlarda qo‘llanmaganligi sababli Xiva aholisiga ta’siri juda oz bo‘lgan.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II 1896-yilgi Rossiyaga qilgan safari davomida Nijniy Novgorodda har yili tashkil etiladigan an’anaviy ko‘rgazma-bozorga tashrif buyuradi. Xon ko‘rgazma pavilyonlaridan birida qo‘yilgan bosma uskunasi e’tibor beradi va uni barcha kerakli ashyolari bilan sotib olishga qaror qiladi. Ismoil G‘asprali bergan xabarga ko‘ra, Muhammad Rahimxon sotib olinajak bosmaxona uskunasi Xivadagi madrasalardan biriga vaqf qilish niyatida bo‘lgan. Lekin bu bosmaxona haqida boshqa biror ma’lumot yo‘q.

Turkistonda rus noshirlari tijoriy maqsadlarda xususiy bosmaxonalar tashkil qila boshladi. Toshkent shahri Turkiston mintaqasida poligrafiyaning markaziga aylandi. Dastlabki xususiy bosmaxonaga S. I. Laxtin tomonidan Toshkentda asos solingan bo‘lib, bu bosmaxonada mahalliy tillardagi kitoblar ham nashr qilingan.

Turkistonda bosmaxona ishlari ancha kech paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, toshbosma usulida kitob chop qilish ancha taraqqiy etgan edi. Chunki toshbosma uskunalar uncha murakkab bo‘lmay, bosmaxona uskunalariga nisbatan birmuncha arzon edi.

1883-yili toshkentlik savdogar Esanboy Husaynboy o‘g‘li litografik bosmaxona tashkil qildi. 1882-yilda

mazkur litografiya uchun asbob-uskunalar Rossiyadan 50 dan ortiq tuyada keltirilgan edi. Kitob va ma'rifatni nihoyatda sevuvchi bu o'zbek noshiri kitoblarni o'z ona tilida chiqara boshladi.

1905-1906-yillarda Qozon badiiy maktabida o'qigan Ismoil Obidov 1906-yilda tatar matbaachilari Shokir Muxtoriy va Ibrohim Aliyev bilan hamkorlikda Toshkentda "Taraqqiy" gazetasini tashkil qildi²⁰. Shu tariqa Turkistonda bosmaxonalar soni ortib bordi. 1917-yilga kelib Toshkentning o'zida 13 ta turli bosmaxonalar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularni aksariyati rus millatiga mansub noshirlar qo'lida edi²¹. Toshkentda faoliyat ko'rsatgan Ilin matbaasi, ayniqsa, mashhur bo'lib, mahalliy ziyolilarning kitoblari, diniy asarlar nashr qilingan. Birinchi o'zbek gazetasi "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston" gazetalari dastlab shu bosmaxonada chop qilindi. Rossiya mustamlakachilari mahalliy millat kishilarini bosmaxona ishlariga yaqinlashtirmaslikka urindi. Shunday bo'lsa-da, mahalliy kishilar tomonidan ochilgan bosmaxonalar soni ortib bordi.

Matbaachilikka oid tadqiqotlarda Turkistonda 1917-yil fevral inqilobigacha mahalliy millat vakillari tomonidan 5 ta bosmaxona ochilganligi qayd qilingan. Bizning hisob-kitobimizga ko'ra, 1917 yilgacha Turkistonda mahalliy millat vakillari tomonidan 15 ga yaqin matbaa tashkil etilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Samarqand viloyatida 18 ta katta-kichik bosmaxonalar bo'lib, shulardan o'n oltitasi Samarqandning o'zida, Kattaqo'rg'onda T. I. Kurilo, Xo'jandda I. S. Kuzmin matbaalari bor edi. Samarqandda 1894-yilda N. V. Plotoranov tipolitografiyasi, 1898-yili K. M. Fedorov matbaasi tashkil qilingan edi. 1899-yili bokulik savdogar G. I. Demurov litografiyasi ishga tushdi. Keyinchalik bu bosmaxona Samarqand shahrining eng yirik matbaasiga aylanadi.

Farg'ona viloyatida birinchi mahalliy matbaaga marg'ilonlik Azimxo'ja asos solgan. Azimxo'ja Sharq mamlakatlariga qilgan safaridan qaytayotib, Bombaydagi

tosh bosmaxonalardan biriga kirib, kitob nashr qilish hunarini o'rganadi. 1887-yilda o'zi bilan birga tosh bosmasi uchun zarur bo'lgan anjomlarni gubernator ruxsatisiz olib kelib, Qo'qonda chopxona tashkil etgan. Bu bosmaxona dastgohidan "Haftiyak" va "Chor kitob" singari diniy kitoblarni nashr etilgan. Bu litografiya Turkiston general-gubernatorining ruxsatisiz tashkil qilinganligi uchun ko'p o'tmay musodara qilingan²³.

Namanganda mahalliy millat vakillaridan birinchi bo'lib mashhur taraqqiyparvar Is'hoqxon Ibrat bosmaxonaga asos soldi. Ibrat 1907-yil Orenburgga borib, Rizo Faxriddinning "Sho'ro" jurnali faoliyati bilan tanishdi. Gaufman degan matbaachidan pulini 10 yilda to'lash sharti bilan 1901-yilda chiqqan litografik mashina sotib oldi. Uni katta mashaqqatlar bilan Orenburgdan Qo'qonga poezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'onga tuyalarda olib keldi. 1908-yildan hukumatdan bosmaxona tashkil qilish uchun ruxsat oldi. Uning bu bosmaxonasi "Matbaai Ishoqiya" nomi bilan shuhrat topdi²⁴. Turkistonda matbaachilikning rivojlanishida tatar-boshqird ma'rifatparvarlarining ham roli katta bo'ldi. Masalan, Husayn Makaev va Abdufattox Abdusattorov kabi tatar matbaachilari Farg'ona vodiysida tipolitografiya faoliyatini rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Jumladan, Husayn Makaev dastlab Ishoqxon Ibratga bosmaxonani rivojlantirishda yordam berdi. Keyinchalik o'zi alohida bosmaxona tashkil qilib, "Farg'ona nidosi", ma'lum vaqt o'tib, "Erkinlik" gazetasini nashr qildi.

Umuman olganda, Farg'ona viloyatida matbaalar soni o'ttizga etgan. Ulardan Baranovskiy, Minakov, O. Mahmudov, Belskiy, G. Shumakov va boshqalarning bosmaxonalari salmoqli faoliyat ko'rsatgan.

Sobiq Ittifoq va mustaqillik davridagi ayrim tadqiqotlarda Buxoro amirligida matbaaga 1901-yilda asos solinganligi yozilgan. Bunda tadqiqotchilar Buxoro amirligi islom dinining markazi bo'lganligi, ulamolarning ta'siri katta bo'lganligi, Buxoro hukumatining va ulamolarning

konservativ qarashlari, an'anaviylikning kuchliligi yangiliklarning kirib kelishiga to'sqinlik qilgan deb baholashadi. Masalan, A. Boboxonovning "O'zbek matbaachiligi tarixi" asarida Buxoro amirligida ilk matbaaga 1901-yilda asos solingan, deya ma'lumot berilgan. Ammo so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Buxoro amirligida dastlabki bosmaxonaga 1880- yillarda asos solingan. Bu ma'lumotlar amirlikda noshirlik ishi Turkistonning boshqa mintaqalariga nisbatan ancha oldinda bo'lganligini ko'rsatadi. Masalan, "Buxorolik bir kishi" nomi bilan "Tarjumon" gazetasiga yuborilgan maqolada 1884- yili Buxoroda litografik bosmaxona ochilgani xabarini bergan. Bu bosmaxona Mulla Muhsin degan odam tarafidan ochilgan. U haj ziyoratidan qaytishda Hindistonda bosmaxona uskunasi sotib olgan va o'sha erlik ishchilar bilan birga Buxoroga olib kelgan. O'sha yilning o'zida bu bosmaxona "Haftiyak", "Aqoid" kitoblari bilan Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" sini ham nashr qilgan. "Tarjumon" gazetasining 1886-yilgi sonlaridagi Buxorodan yuborilgan xabar va maktublarda 1885-yili Buxoroda Hoji Azimboy degan odam yana bir bosmaxona ochgan va bir necha kitoblar chop qilgani hamda 1886-yili yangi litografik bosmaxona tashkil qilinib, unda taqvim chop etilishi mo'ljallangani haqidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

Buxoro amirligi hududida rus noshirlari tomonidan tashkil qilingan bosmaxonalarga misol tariqasida 1901 yil Kogonda tashkil etilgan Baranovskiy litografiyasini keltirish mumkin. Buxoroda Obidjon Mahmudov tomonidan tashkil qilingan matbaa 1905 yilda Qo'qonga ko'chirilgan. 1910 yilda Orif Afandi matbaasi tashkil qilindi. Bu bosmaxonada Mirzo Abdulqodir Bedilning "G'azaliyoti" nashr qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Turkistonda vaqtli matbuot va matbaachilikning vujudga kelishida hamkorlik aloqalari deyarli tadqiq qilinmagan. Masalan, Sovet davri tadqiqotlarida Turkistonda vaqtli matbuot va matbaachilikning sotsialistik inqilobning shakllanishi va rivojlanishidagi rolini ochib berishga asosiy e'tibor qaratilgan. Bu davrdagi tadqiqotlarda milliy matbuot va matbaachilik tarixi sotsialistik mafkura doirasida baholangan. Mustaqillik davridagi tadqiqotlarda Turkistonda vaqtli matbuotning shakllanishiga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, matbaachilikning vujudga kelishi, mahalliy matbaachilar faoliyati, vaqtli matbuot va matbaaning vujudga kelishi va rivojlanishida hamkorlik aloqalari keng qamrovda o'rganilmagan. Binobarin, bu jihatlar milliy matbaa va matbuotimiz tarixi oldida turgan hamda o'z tadqiqini kutayotgan muhim masalalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khalid, Adeeb. Printing, Publishing, and Reform in Tsarist Central Asia //International Journal of Middle East Studies, Vol. 26, No. 2. (May, 1994), – P.187.
2. "Sho'ro", 1908. - №8.
3. Ekinci Ekrem Bugra. Osmanlida matbaanin tarihi. - Istanbul: Yunus Emre Enstitusu, 2012. – S. 12.
4. "Sho'ro", – 1908. - №8.
5. Ekinci Ekrem Bugra. Osmanlida matbaanin tarihi. - Istanbul: Yunus Emre Enstitusu, 2012. – S. 28.
6. Ekinci Ekrem Bugra. Osmanlida matbaanin tarihi. - Istanbul: Yunus Emre Enstitusu, 2012. – S. 32.
7. "Sho'ro", – 1908. - №8.
8. Abdurashidov Z. "Tarjimon" (1883 – 1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. –Toshkent: Akademiya, 2011. –B. 4.
9. Ernazarov T. Turkistonda vaqtli matbuot (1870-1924-yillar). – Toshkent: O'zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1959. – B. 7.
10. Boboxonov A. O'zbek matbaasi tarixidan. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – B.73.

11. Abdurashidov Z. “Tarjimon” (1883 – 1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. -Toshkent: Akademiya, 2011. –B. 4.
12. Abdurashidov Z. “Tarjimon” (1883 – 1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. –Toshkent: Akademiya, 2011. – B. 5.
13. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1914). – Toshkent: Akademiya, 2000. – B. 27.
14. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1914). – Toshkent: Akademiya, 2000. – B. 29.
15. Boboxonov A. O‘zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – B.134.
16. Matyakubova M. M. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi: Tarix fanlari nomzodi diss ... – Urganch, 2008. –B. 132.
17. Abdurashidov Z. “Tarjimon” (1883 – 1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. –Toshkent: Akademiya, 2011. – B. 8.
18. Ernazarov T. Turkistonda vaqtli matbuot (1870-1924-yillar). – Toshkent: O‘zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1959. – B. 7.
19. Ernazarov T. Turkistonda vaqtli matbuot (1870-1924-yillar). – Toshkent: O‘zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1959. – B. 8.
20. Isoqboev A. A. Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tatar-boshqird ma‘rifatparvarlarining faoliyati (XIX asr oxiri - XX asr boshlari): Tarix fanlari nomzodi diss ... - Namangan, 2008. – B. 110.
21. Abdurashidov Z. “Tarjimon” (1883 – 1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. –Toshkent: Akademiya, 2011. – B. 5.
22. Boboxonov A. O‘zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – B.103.
23. Boboxonov A. O‘zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – B.111-112.
24. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Manaviyat, 2004. – B. 111.
25. Isoqboev A. A. Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tatar-boshqird ma‘rifatparvarlarining faoliyati (XIX asr oxiri - XX asr boshlari): Tarix fanlari nomzodi diss ... - Namangan: 2008. – B. 112.
26. Boboxonov A. O‘zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – B.111.
27. Abdurashidov Z. “Tarjimon” (1883 – 1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. –Toshkent: Akademiya, 2011. – B. 9.
28. Boboxonov A. O‘zbek matbaasi tarixidan. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. -B.115.

BOLALIQ TEPA RANGTASVIRINING TALQINIGA DOIR

К ВОПРОСУ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЖИВОПИСИ БАЛАЛЫК-ТЕПЕ

ON THE QUESTION OF INTERPRETATION OF BALALYK-TEPE PAINTING

To‘xtayeva Malika Saydiaxrorovna

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Milliy arxeologiya markazi

Fanlararo tadqiqotlar bo‘limi

katta ilmiy xodimi,

Tarix fanlari bo‘yicha PhD falsafa doctori

Annotasiya. Maqolada ilk o‘rta asrlarga oid Bolaliq tepa devoriy sur‘atlarining yangicha talqini keltiriladi. Tadqiqodchi, L. Albaum tomonidan “Sovg‘a keltiruvchilar” deb talqin qilingan Bolaliq tepa rasmlariga aniqlik kiritib, ularda tanishish va yaqinlashish marosimi tasvirlanganligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: Bolaliq tepa, devoriy sur‘atlar, rangtasvir, ilk o‘rtasalar san‘ati

Аннотация: В статье представлена новая интерпретация первых средневековых настенных росписей Балалык-тепе. Исследователь внес некоторые коррективы в сюжет ранее интерпретированный Л. Альбаум как “Дароносцы”, доказав, что на рисунках изображен ритуал знакомства и сближения.

Ключевые слова: Балалык-тепа, настенные росписи, живопись, искусство раннего средневековья

ABSTRACT. The article presents a new interpretation of the early medieval wall paintings of Balalyk-tepe. The researcher, who made some adjustments to the plot earlier, interpreted by L. Albaum as "Gift-bearers", proves that the drawings depict the ritual of acquaintance and rapprochement.

Keywords: Balalyk-tepe, mural paintings, fine art, early medieval art.

Средняя Азия богата памятниками настенной живописи. На территории Узбекистана были созданы замечательные памятники искусства, они проливают яркий свет на многие стороны культурной жизни Средней Азии, времени, предшествовавшего арабскому завоеванию. Благодаря им мы знаем теперь о своеобразной и высокоразвитой художественной культуре, об опытных и изощренных в своем искусстве мастерах, о многовековых традициях, наследниками и продолжателями которых были народные художники того времени. Стенные росписи дают достаточно ясное представление о внешнем облике древних обитателей Средней Азии, об обстановке и быте, об окружавших их вещах, наконец, об их мировоззрении. Особая ценность изумительных памятников древнего искусства в том, что из года в год они все полнее и полнее открываются перед взорами исследователей.

Статья посвящается описанию и новой интерпретации сюжета стенных росписей Балалык-тепе, открытых в 1955 г. Л.И. Альбаумом. Живопись Балалык-тепе, относящиеся к периоду эфталитов и считается важным этапом в развитии художественного творчества далеких предков народов Средней Азии. Все росписи Балалык-тепе выполнены по глиняной штукатурке клеевыми красками, представляющими собой разновидность темперы.

Последние исследования Балалык-тепе позволили ученым внести некоторую точность в его датировку, а также в реконструкцию некоторых важных деталей рисунка, которые позволяют совершенно по-иному прочесть эти росписи. Так, согласно Л.И. Альбауму замок Балалык-тепе был построен в V

в. н.э. и представлял собой здание квадратной формы (30x30 м). Центральную часть замка занимал двор (14.5x14.5 м), вокруг которого группировались помещения, заключенные внутри оборонительной стены. Предположительно в конце V – начале VI в. здание подверглось перестройке. Внутренний двор был застроен рядом помещений, в частности были возведены зал с Г-образным коридором-кулуаром и квадратное помещение, украшенное живописью, точную датировку которой исследователь не даёт. Альбаум также утверждает, что во второй половине VI в. произвели еще одну перестройку, а в первой четверти VII в. замок погиб при пожаре [1, с.116]. Однако, С.Г. Соколовский выдвинул гипотезу о возведении замка в конце VI – нач. VII в., а два строительных периода, выделенные Л.И. Альбаумом, определил как этапы одного строительного периода [2, с.290]. Так или иначе, факт перестройки здания с добавлением помещений общественно-культурного назначения, украшенных росписями, вероятно, говорит о том, что вырос статус владельца усадьбы.

Росписи на стенах дворца изображают значимый сюжет из жизни тохаристанской знати. В парадном помещении Балалык-тепе убранство стен было разделено на три декоративные полосы. Несмотря на повреждения росписей в нижней и верхней части стен, общая композиция читается хорошо. Верхняя часть – деревянный фриз шириной в 30 см, с изображением шествия неких зверей, к сожалению не сохранился. Немногим лучше сохранились нижние части, покрытые живописью [1, с.126]. Росписи начинаются с южной стены, сразу же от

края дверного проема, и заканчиваются на восточной стене. По характеру исполнения и по цветовой гамме композиции не отличаются друг от друга. Центральное место в них занимала сцена пиршества. Общая композиция на стенах разбита на отдельные группы и имеет законченный вид. В каждой из них на первом плане изображены сидящие на ковре мужчины и женщины в богатых одеяниях (представители знати). Мужчины сидят в позе лотоса, женщины сидят, подобрав под себя ноги. Позади них изображены слуги. В каждой композиции женщины и мужчины (аристократы) на переднем плане разбиты на пары. Лица их повернуты друг к другу на 3/4, а туловище нарисованы в фас. Они держат в руках бокалы, кубки разных форм (северная стена фигуры 22, 25,30), и курильницы чаши на невысокой ножке с очень широким туловом в руках. Все мужчины на западной стене фигуры 13, 18, 19 (Альбаум, 1960 с. 139) и на южной стене фигуры 1,4,6 (Альбаум, 1960 с. 128,129) держат в руках курильницы и подносят их дамам. Аналогичные по форме курильницы были найдены при раскопках в Таксиле известные по раскопкам в Хараппе и Мохенджо-Даро (курильницы рис №1). Подтверждением того, что предметы, называемые нами «курильницы», не могут быть «подставками для фруктов» или бокалами является также изображение курильницы в росписях Варахши на одной из стен Восточного зала (рис. №2) и Пенджикенте (рис №3) На южной стене только у одного мужчины справа чаша курильница в руке приподнята вверх. На северной и восточных стенах мужчины держат в руках кубки и бокалы, некоторые протягивают их дамам. Примечательным является то, каким образом они держат чаши курильницы и бокалы (рис. №4). Так, у мужчин (правая рука приподнята, изящным хватом трёх пальцев они поддерживают за ножку

чашу/курильницы и у каждого изящно вытянут и оттопырен мизинец. Можно предположить, что это было своего рода требование этикета. У аристократов было принято пить из изящной и дорогой посуды, которая чаще всего была хрупкой. Из-за дороговизны материала посуда выходила небольших размеров, по этой причине взяться за ручку было неудобно. Именно поэтому люди брались тремя пальцами за ножку, а остальные оттопыривали. Чаще всего оттопыривался мизинец. Можно также предположить еще одну версию. Знать носила слишком много украшений, а в нашем случае у всех персонажей на росписи Балалык тепе перстни на мизинцах. Они не позволяли нормально взяться за приборы. Именно поэтому мизинец держался в стороне. По наружному контуру пальцы руки прорисованы очень изящно и с большим мастерством. Художник даже учел положение пальцев и нарисовал ногти в правильном ракурсе.

В руках у многих персонажей отмечены круглые предметы на длинных ручках. Окраска их сохранилась очень плохо, отдельные мазки придают им шаровидную форму (рис №4,5,6). Поверхность росписей была сильно закопчена, что значительно затруднило расшифровку отдельных деталей рисунка для исследователей, хотя в целом вся композиция читалась довольно отчетливо. Есть несколько версий касающихся данного предмета. Так, сам Л.И. Альбаум считает, что указанная сцена изображает «дароносцев с семьями», имеющие определенное отношение к буддизму, исповедующие его или признающие в какой-то мере догмы этой религии. Вполне возможно, что персонажи держат в руках дары – зеркала» [1, с.127]. отмечает Л. Альбаум. Известный искусствовед Г. Пугаченкова также считает изображенных дароносцами: «Эти дароносцы кажутся осколком не столько придворно-светской живописи, сколько

общенародной. В руках дароносцев серебряные чаши или кубки с цветами» [3, с.111]. Предмет шаровидной формы, который они держат в руках, она считает цветком. У нас есть все основания поддержать это мнение Г.А. Пугаченковой. Несмотря на примитивную манеру исполнения, не вызывает сомнения, что персонажи держат в руках растение. На наш взгляд, это не что иное, как изображение опийного мака (*Papaver somniferum*). Он представлен несколько схематично, в виде длинного стебля (стебель), который в верхней части венчает круг (цветок). Несмотря на поврежденность изображений, очевидным представляется их объемность, то, что они имеют шаровидную форму. Длинный стебель с коробочкой на конце как нельзя лучше согласуется с данным изображением. Таким образом, можно предположить, что, если в одной руке персонаж держит бокал с вином, то растение в другой руке будет тем самым, которое добавляли в вино. Такой напиток известен еще с древнего Египта. Так, знаменитое вино Клеопатры делалось из египетского вина и опиума [4, с. 96]. Однако до сих пор нет исследований, а употребляли ли в Средней Азии опийный мак в рекреационных целях? Мак («цветок радости»), растение, культивируемое с давних времен, считался сильным и надежным афродизиак. Свидетельством его употребления в рекреационных целях мы можем привести рисунок с самой же Балалык тепе, где на северной стене мы видим мужчину фигуру 30 (рис. №6) добавляющего «нечто» предположительно содержимое опийного мака в виде афродизиака в свой напиток. Об истории использования растений-афродизиаков об их ботанических, химических, фармакологических свойствах, а также историю открытия и использования растительных афродизиаков, мы знаем из исследований Кристиана Рэча, известного антрополога специалиста по

этномедицине и шаманским растениям. Его труд «Растения любви» на сегодняшний день единственное в своем роде исследование, где даётся описание и определители более 300 растений-афродизиаков, иллюстраций, множество фактов, мифов и легенд о любовных эликсирах в культурах мира. Согласно К. Рэчу, опийный мак широко применялся с древности, начиная с Дальнего Востока, и употребление его как афродизиака было частью их культуры. Это был этически признанный источник радости, любви и жизни, а употребление в пищу афродизиаков и по сей день сохраняет свою многовековую традицию. Вероятно, мак изначально культивировался как из-за его съедобных семян, так и из-за опиума, который из него получают. О широком использовании опийного мака известно с древнейших времен из источников античного периода. В своем трактате о медицине, датирующемся I в. н.э., Dioscorid подробно описывает процедуру добычи опиума: «Тот, кто хочет добыть сок растения, должен, после того, как высохнет роса, провести ножом вокруг маленькой звездочки таким образом, чтобы острие не проникло внутрь, а затем сделать ровные поверхностные надрезы по бокам коробочки, затем снять пальцем выступившие капли...». В эпоху античности мак также считался символом плодородия, сна и возрождения. И сам мак, и добытый из него опиум использовались в лечебных целях. В ассирийских медицинских текстах мак упоминается под названием «растение радости». В Древнем Египте опиум применялся в медицинских и чисто гедонистических целях. Так, знаменитое вино Клеопатры делалось из египетского вина и опиума (густая жидкость, вытекающая из надреза незрелой семенной коробочки мака). Мак («цветок радости») считался сильным и надежным афродизиак. В древней Греции он употреблялся как опьяняющее средство во время пиров,

празднеств и различных таинств [4, с. 96]. В доисторической и ранней исторической Центральной Евразии опийный мак (*Papaversomniferum*) использовался для получения вторичных соединений.

Археологические свидетельства и археоботанические исследования региона показали, что это растение произрастало и широко использовалось на большей части Центральной Евразии, от западного Китая до Восточной Европы, по меньшей мере 2500 лет назад. Остатки археологических артефактов, найденных в горах Памира, регионе, который служил важным каналом культурных коммуникаций через Евразию, связывая древние популяции в современных регионах Китая, Таджикистана и Афганистана показали, что древние люди, возможно, выращивали это растение и одомашнивали его [5].

Настенная живопись Балалык-тепе, вероятно, показывает нам, что мак в данном случае использовали не для исцеления (в росписях Балалык-тепе мотив «исцеления» отсутствует), а в рекреационных целях, являвшемся частью сакральных празднеств, для установления контакта – сближения, где духовное и мирское были вплетены друг в друга и происходила своего рода преобразующая магия. Возможно, это был своего рода обычай, направленный

на сближение с противоположным полом (привести сознание людей в измененное состояние). Так, в процессе последней расчистки красочного слоя Г. Ахатовой были внесены некоторые коррективы в расшифровку отдельных деталей рисунка. Исследователь уточнила некоторые детали графического рисунка, ранее толковавшиеся Л. Альбаумом, ошибочно. Так, предполагалось, что косичка женщины у шеи за спиной завязывалась лентой, однако выяснилось, что это не лента, а левая рука мужского персонажа, лежащая на левом плече женской фигуры, слегка обнимая её, что подтверждает наше предположение. (рис. № 7)

Возможно, мак в руках персонажей росписей Балалык-тепе в качестве символа плодородия и проводника в ирреальный мир духов (приводящего людей в измененное состояние сознания), служил знаком, характеризующим весь сюжет – сближение с противоположным полом, празднество, связанное с культом плодородия. Таким образом, мы можем собрать воедино картину как «обряд знакомства», который сопровождался ритмичной музыкой, вином и подношением мака в качестве афродизиака (в качестве сакрального символа) который был важным элементом в развлекательных мероприятиях элитного класса.

Иллюстрации.




Рисунок 1. Курильницы из Мохенджо-Даро



Рисунок 2. Варахша. Фрагмент фрески Благочестие царя. Восточный зал

Рисунок 3. Пенджикент. Фрагмент настенной росписи 7-8 вв. Пирующие «купцы»




Рисунок 4. Балалык-тепа. Южная стена. Схематическая прорисовка выполненная Л.Альбаумом

Рисунок 4. Балалык-тепа. Южная стена. Схематическая прорисовка выполненная Л.Альбаумом



Рисунок 5. Балалык-тепа. Западная стена. Схематическая прорисовка выполненная Л. Альбаумом




Рис. 112. Схематическая прорисовка росписей северной стены (частичная реконструкция)

Рисунок 6. Балалык-тепа. Северная стена. Схематическая прорисовка выполненная Л. Альбаумом



Рисунок 7. Балалык тепа. Фрагмент росписи. Южная стена. Реконструкция Г. Ахатовой

Список литературы

1. Альбаум Л.И. Балалык-тепе. К истории материальной культуры и искусства Тохаристана. Тошкент, 1960.
2. Между Кушанами и арабами: архитектура Средней Азии V-VIII вв. Берлин-Рига: Gamajun, 2000.
3. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии (древность и средневековье). М.: Изд-во Искусство. 1982.
4. К. Рэч, Растения любви. История афродизиак и руководство по их определению и использованию. Изд-во «Этнокультура» Екатеринбург. 2006.
5. The originsofcannabissmoking: Chemicalresidueevidencefromthefirstmillennium BCE inthePamirs.// Science advances, Vol.5, Issue 6, 12 July 2019.
<https://www.science.org/doi/full/10.1126/sciadv.aaw1391>

“BAZMI JAMSHIDLAR”: SHOHONA ZIYOFATLARNING IJTIMOY VAZIFALARI

«ПИР НА ВСЬ МИР»: СОЦИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ БОГАТЫХ ЗАСТОЛИЙ "FEAST FOR THE WHOLE WORLD": SOCIAL FUNCTIONS OF RICH TABLEFUL

Zununova Gulchexra Shavkatovna
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Milliy arxeologiya markazi
Fanlararo tadqiqotlar bo'limi
bosh ilmiy xodimi,
tarix fanlari doktori

ANNOTASIYA. Maqolada ilk va o'rta asrlar jamiyatidagi ziyofatlarning vazifalari taom identikligi kontekstida ochib berilgan. Ziyofatlar ijtimoiy muloqot qilishning eng ahamiyatga molik bo'lgan shakli, insonlarni jamoalarga birlashtirishning bir usuli, tinchlik va jamoatchilik farovonligini saqlashning bir ko'rinishi bo'lganligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: taom, o'xshashlik, ijtimoiy, xokimiyat, dunyo, go'sht, ziyofat
ABSTRACT. The article reveals the functions of the feast in the context of food identity. It is noted that the feast was one of the most essential forms of social communication, a way of rallying people into teams, maintaining peace and public well-being.

Keywordc: food, identity, social, world, power, meat, feast

АННОТАЦИЯ. В статье раскрывается функции пира ранних и средневековых социумов в контексте пищевой идентичности. Отмечается, что пир был одной из наиболее существенных форм социального общения, способом сплочения людей в коллективы, поддержания мира и общественного благополучия.

Ключевые слова: еда, идентичность, социальное, мир, сила, мясо, пир

Kirish. Insonning ovqatlanishini o'rganish – juda keng va ko'p qirrali mavzu bo'lib, shu jumladan, u taomlarning aynan o'xshash (identikligi)bo'lishi ham o'z ichiga oladi. Bu atama nimani anglatadi? Aynan o'xshashlik (identiklig) – bu inson psixikasining (ruhiyatining) shu inson o'zini turli ijtimoiy, iqtisodiy va shu kabi guruhlarga yoki boshqa jamoalarga taalluqliligini qanday tasavvur qilishining

majmuaviy tarzda ifodalanishidir. Aynan o'xshashlikning qirralaridan biri oziq-ovqatga oid bo'lib, bu holatda biz insonlar taom bo'yicha bir biridan farqlanishini ta'kidlay olamiz. Shu kontekstda shohona ziyofatlar – bazmlarni ko'rib chiqish va ularning vazifalarini o'rganish qiziqarli.

Usullari. Maqolada manbalarni izohlash uchun funksional yondashuv, shuningdek, ijtimoiy o'xshashlik nazariyasidan foydalanilgan.

Manbalar. Maqola xorij va mamlakatimiz nashr etilgan ishlari, shuningdek, solnomalarga asoslangan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oziq-ovqatlarni o'rganishda O'rta Osiyo va xorij arxeologlarining ilmiy ishlari muhim o'rin egallab, ularda qazish ishlari davomida topilgan qadimiy odamlarning oziq-ovqatlari qoldiqlari ta'riflanadi va ularning tarkibi tahlil qilinadi [5;17;36]. Ziyofat vazifalarini belgilovchi may va giyohvand moddalar tarixi Tojikistonlik tadqiqotchi [25] va xorijlik olimlar guruhining [30;31] ilmiy ishlarida keltirilgan. Solnomalardan O'rta Osiyo va Yevropa xalqlari ovqatlanish rasionlarini ta'riflovchi materiallar, shu jumladan, boy va nochor (kambag'alona) ovqatlar kontekstida ta'riflangan ma'lumotlar olingan [6;7;9;14;23]. Uslubiyat jihatidan M.Sallinz [24], N.Munro[32] va boshqalarning ilmiy izlanishlari e'tiborga loyiq. Biroq, ta'kidlash jo'izki, O'rta Osiyo tadqiqotchilari orasida oziq-ovqat mavzusi ijtimoiy aynan o'xshashlik va ziyofatlarning vazifalari kontekstida alohida o'rganilmagan.

Oziq-ovqat markerlari. Oziq-ovqat bu-xalqning oziq-ovqat markeri bo'lib, u muhim belgi, masalan, u yoki bu ijtimoiy guruhlar yoki stratlarni tavsiflashda muhim xususiyat sifatida maydonga chiqadi. Iste'mol qilinayotgan ovqatning sifati bilan bir qatorda uning miqdori ham ijtimoiy guruh va uning alohida vakillarini tavsiflay oladi. Bu ma'noda, "nufuzli" yoki "nufuzga ega bo'lmagan" ijtimoiy guruhga taalluqliligi

xaqida guvohlik beruvchi "yaxshi" (sifatli), yoki "yomon" ovqat kabi parametrlar alohida tasniflovchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shohona ziyofatlar go'shtli taomlarning ko'pligi va alkogolli ichimliklarning ziyodaligi bilan ajralib, ular psixologik jihatlarni bilvosita ta'riflagan va ziyofatlarning umuman bazmlar sifatidagi funksional o'rnini belgilab bergan. Ziyofatning vazifalaridan biri bu- taqdimot.

Ziyofat boylik taqdimoti (ko'z-ko'z qilish, ko'rsatish) sifatida. O'rta asr adabiyotlarida amir va xonlar o'zlarining saxiyligi va boy-badavlatligi to'g'risida xabarlar tarqalishi uchun sayyohlarni o'z saroylarida qabul qilganliklari to'g'risida juda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, O'rta asrlarda yashagan Al Umariy ismli sayyohning yozishicha, biror bir mamlakatga sayyoh kelib qolsa, uning fuqarolari mehmondo'stlik bo'yicha bir biri bilan musobaqalashganlar [14].

Ibn Batuta Xorazm amiri saroyidagi qabulni ta'riflay turib, patnislarda dasturxonga qovurilgan tovuq, turna va kaptarlar go'shti, somsa, saryog'da pishirilgan kulchalar, patir va turli shirinliklar tortilganligi yozadi. Yana boshqa patnislarda mevalar – oltin qoshiqlar solingan oltin va kumush idishlarda po'sti tozalangan anor donalari, ichiga yog'och qoshiqlar solingan shisha idishlarda yana bir qism mevalar dasturxonga tortilgani, uzum va benihoya shirin qovunlar qo'yilgani ta'riflanadi [14].

Shohona ziyofatlar – qadimiy bazmi-jamshidlar turmushdagi hayotiy bosqichlar – jangavor drujinalarning harbiy yurishlardan qaytishi, shuningdek, obro'li sipohilar yoki qabila boshliqlarini ko'mish marosimlarida uyushtirilgan. Ularda go'sht mahsulotlari juda ko'p miqdorda dasturxonga tortilganki, qadim davrlardagi kabi bu mahsulot hozirgi kunda ham boylik mezoni hisoblanadi. Masalan, "O'g'uznoma"* da yozilishicha, O'g'uz*** ona yurtga qaytishi munosabati bilan shu shodiyona uchun 50 mingta qo'y,

500 ta toy so'yishni buyuradi. "O'g'uznoma"da yana o'g'uzlarning quyidagi ta'ziya marosimlari taomlari xaqida ma'lumot keltirilgan: "Yonalxon qazo qilganda Doker Bayandur o'g'li Erki shu ta'ziya marosimi uchun ulkan dasturxon tayyorlatdi. U ikkita hovuz qazdirib, biriga qatiq, biriga qimiz to'ldirtirdi. U shunchalik ko'p qo'y va ot go'shti olib keltirdiki, ulardan bir nechta go'sht tog'lari hosil bo'ldi" [10].

Skiflar va qadimiy turk qo'rg'onlari bo'yicha o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar "O'g'uznoma"da keltirilgan bu ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Arxeologlarning xabar berishlaricha, Semiz maqbara nomli tuproqqo'rg'on ostida ulkan dafn marosimi dasturxonini qoldiqlari- anchagina hayvon suyaklari topilgan. Bu qoldiqlar bo'yicha marosimda iste'mol qilingan go'shtning umumiy salmog'i 13 tonnani tashkil qilgani aniqlangan. Bunda etnografik ma'lumotlarga ko'ra, katta ziyofatlarda bitta odam bir kecha-kunduzda 5 kilogrammgacha go'sht iste'mol qilgani e'tiborga olinsa, bu miqdordagi go'sht taxminan 3 mingta odamga etarli bo'lgan. Tuvadagi Arjan qo'rg'onidagi marhumga bag'ishlangan an'anaviy marosimda 300 tadan ziyod ot go'shti iste'mol qilingan. Ul'skaya qo'rg'onidagi (Shimoliy Kavkaz) shunday marosim ham juda dabdabali dasturxon bilan ajralib turgan, asosiy maqbara atrofida 360 ta otning tanasi joylashtirilgan [10].



Istambuldagi Evqof muzeyida saqlanayotgan "Zafarnoma" kitobidagi surat (1467). Unda Klavixo tomonidan tasvirlangan Amir Temur va uning

mulozimlari bilan shohona ziyofatlaridan birida.

Shohona bazm yoki ziyofatlar aholining yuqori qatlamlariga taalluqlilikni anglatibgina qolmay, boshqa vazifalarni ham bajargan. Ulardan bittasi jamiyatning yuqori qatlam vakillari boshqaradigan xalq bilan o'zaro munosabatlarning mustahkamlanishidir.

Ziyofatlar hokimiyat imidji omili sifatida. Dohiy, rahnamo siyomosidagi kuchli shaxs o'z maqomini tasdiqlashi kerak bo'lgan. Bu kabi xatti-xarakatlar qatorida tomoshabop yakka kurashlar, shohona ziyofatlar asnosida qo'lga kiritilgan o'lja taqsimlangan. Ziyofat odamlar guruhini o'z yo'l boshchisi atrofiga to'plashni nazarda tutgan, chunki fikrimizcha, ziyofatlar vaqtida onda-sonda tanovul qilinadigan go'shtli va boshqa tansiq taomlarni, kuch-quvvat beradigan ovqatlarni to'yib eyish imkoni bo'lgan. Manbalardan olingan ma'lumotlarga qaraganda turkiy xalqlarda go'sht boy-badavlat insonlarning xonadonida bo'lgan. Qashshoq qatlam vakillari esa faqat katta bayramlardagina go'shtni to'yib eyishlari mumkin bo'lgan [10]. Vaqti-vaqti bilan uyushtirib turiladigan ziyofatlar, qaysidir ma'noda, xalq juda och-nahor qolib ketmasligiga umid bergan bo'lishi mumkin, va shu kontekstda xalqni jamiyatning yuqori katlami vakillari atrofida birlashtirgan. Ziyofatlar nafaqat xalqni, balki jangchilarni ham xokimiyat bilan birlashtiruvchi ijtimoiy (elim) vazifasini o'tagan. O'tkazilayotgan ziyofatlar jamiyatni boshqarayotgan hukmdor katta miqdorda oziq-ovqat zahirasiga ega ekanligining dalili bo'lgan. D.Malo hukmdorlarning ulkan oziq-ovqat omborlari to'g'risida hikoya qilib, ular "o'z hukmdorini tashlab ketmasligi uchun xalqning roziligini saqlab turishga xizmat qiluvchi vosita bo'lgan"ligini aytadi; xuddi shu narsa xaqida ajoyib siyosiy sovuqqonlik bilan ta'riflangan keyingi parchada ham keltirilgan: "omborda oziq-ovqat borligini bilgan kalamush uni hech vaqt tashlab ketmaganidek, o'z hukmdorning zahiralarda oziq-ovqat bor, deb o'ylagan xalq ham uni tashlab ketmaydi" [24].

Hokimiyat ramzi kontekstida ziyofatlarning majburiy atributi hisoblangan qozonlarga murojaat qilish qiziqarli, masalan ko'chmanchi xalqlarda qozon uning egasining yuqori ijtimoiy o'rnini bildirgan [11]. Dafnda metall qozonlarning ham birga ko'milishi "shohona", aslzodalarga xos, shuningdek, shohlarni kuzatib boruvchi "alohida imtiyozlarga ega bo'lgan drujinniklar (sipohilar)" ni ko'mish marosimlari badavlat dafnlardan hisoblangan [11]. Boy va nufuzli jangchining dafn marosimida qozon oila boquvchisi, valine'mat, urug', sulola boshlig'ining belgilari sifatida qabul qilingan. Qozonlar xuddi jangovor belbog'lar kabi aslzoda zodagonlarning belgisi, ramzi bo'lgan [27]. Qozonlarni u dunyo to'g'risida tasavvurlar asosida biroz tasvirlash, uni egasi bilan birga dafn etish an'anasi rahnamo-yo'lboshchining hayotlik davridagi maqomi va o'limidan keyingi jamiyatga ta'sirini aks ettiradi [11].

Ziyofatlarning psixologik jihatlari. M. Salinz, M. Mossdan sitata keltirib, jamiyatning tuzilma ostisi urush hisoblanadi, deya yozadi [24]. Urushlarning o'ziga xos sublimasiyasi *** ziyofatlar hisoblanib, ularning asosiy tarkibiy qismlaridan biri jangchilarga ham, ularning sarkardalariga ham sarxushlik, orom beruvchi alkogol' ichimliklar bo'lgan. Shifokorlarning so'ziga qaraganda, may yoki alkogolli boshqa ichimliklarni iste'mol qilishning psixologik sabablari sifatida huzur izlash, "alkogolga "dori", qizdiruvchi [13] yoki "g'amginlikdan xalos qiluvchi" ichimlik sifatida qarab gapirish mumkin" [10]. Sharobning psixologik va farmakologik xossalari hayotning potensial xavotirli yoki qo'rqinchli qirralarini ancha kamaytirib, turmushning ijobiy va bayramona jihatlari kuchaytirib ko'rsata oladigan muqobil voqe'likni qurish imkonini beradi [25]. Ziyofatlarning tasviri turli solnomalarda keltirilgan. Vil'gel'm de Rubruk yozishicha, Mangu-xon*** "bizdan nima ichishni istayotganimizni so'rashni buyurdi: may yoki terrasina, ya'ni sholidan tayyorlangan pivo, yoki karakosmosa, ya'ni tindirilgan biya suti, yoki bol, ya'ni asaldan tayyorlangan ichimlik (medonemex melle) [7]. Sharofiddin Ali al Yazdiy "Zafarnoma"

da Amir Temur tomonidan o'z o'g'illari-shahzodalarning to'ylari sharafiga uyushtirilgan bazmni ta'riflab, shunday yozadi: "qaerga qarama, bahorda unib chiqqan yangi maysa kabi soqiy oltin piyolada qip-qizil sharob uzatadi" [26]. Sharobdan tashqari boda, qimiz, bolli musallas, aroq va muadd***** ichimligi tayyorlashgan. Shahzodalar navbatma navbat o'rnidan turib, sharob ichadi, marvarid yoki zumrad toshlar bilan bezatilgan yashma yoki billur piyolaga oltin ko'zchalardan ichimlik quyadilar" [26].

Ziyofatlar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida.

Ziyofatlarning yana bir vazifasi bu- siyosiy yarashuv tusini oladigan bazmlar orqali dushman bilan yarashuv shartnomasini tuzish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo'lgan, ya'ni "kuchli qo'rquv va dushmanlik davri kuchli saxiylikni keltirib chiqaradi" degan naqlga amal qilingan [24]. Misol uchun, N. Munro ta'kidlashicha, Turkiyaning janubi-sharqida joylashgan Go'bekli-tepadagi arxeologik qazish ishlari vaqtida qadimiy binolar ichida katta miqdorda hayvon suyaklari topilgan. Aniqlanishicha, ular ziyofatdan qolgan ovqat qoldiqlari bo'lib, eramizgacha 11-12 asrlarga taalluqli bo'lgan. Bug'doy o'rish va ishlash uchun qo'llaniladigan o'roqlar va qayroqtoshlar bu marosim ziyofatlari taxminan insonlar dehqonchilik bilan shug'ullanishni boshlagan vaqtlarda boshlanganini ko'rsatadi. Bu bayramlar juda muhim o'rin tutgan. Yuzlab ming yilliklar davomida ko'chmanchilik turmush tarziga o'rgangan insonlarning o'troq hayot kechirishga moslashuvi oson bo'lmagan va qo'shnilar o'rtasidagi yaqin aloqalar ijtimoiy keskinlikni juda oshirib yuborar edi [32].

Ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida ziyofat kontekstida alkogolli ichimliklar va giyohvand moddalarning qadimiy va o'rta asrlar jamiyatidagi rolini o'rganish qiziqish uyg'otadi.

Qadimiy va o'rta asrlar jamiyatidagi ziyofatlarda sarxush qiluvchi ichimliklar.

Sharob va shu kabi sarxush qiluvchi ichimliklar qadimiy va o'rta asrlar jamiyatlarida muayyan o'rin tutgan, bu

xaqda tarixiy matnlar va arxeologik topilmalar guvohlik beradi. Bir guruh tadqiqotchilar fikriga ko'ra, sharob So'g'd savdogarlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu narsa ayniqsa Xitoyning g'arbidagi Sinxay va Sinzyan mintaqasini o'z ichiga olgan voha shaharlarda yorqin namoyon bo'lgan. Sharob tayyorlashning "uyg'urcha" texnologiyalari xamon mazkur shaharlarda, shuningdek, Qashqar viloyati atrofida qo'llaniladi. Bu erdagi uzumchilik eramizgacha ming yillikning o'rtalariga borib taqaladi. G'arbiy Xitoyda sharob ishlab chiqarish Tan sulolasi davrida ancha ommalashgan, chunki yangi uzum navlari, ayniqsa, ko'pchilikka ma'lum "biya so'rg'ichi" navi Markaziy Osiyodan Buyuk Ipak yo'li orqali kelib o'rnashgan qabilalar bilan birga olib kelinib, keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Qazishmalarda topilgan Toshbuloq uzumlarining urug'lari, shoh va bandlari va xatto, butun mevasi Markaziy Osiyoda Islom tarqalgan davrda qanchalik muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi [34].



Karbonlashgan uzum urug'i (danakchasi)-arxeologik artefakt // Robert N. Spengler, Farhod Maksudov, Elissa Bullion, Ann Merkle, Taylor Hermes, Michael Frchetti Arboreal crops on the medieval Silk Road: Archaeobotanical studies at Tashbulak // <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6091944/>

Arxeologik qazuv ishlari qadimgi O'rta Osiyoda ham sharob tayyorlash madaniyati ancha yuqori rivojlanganligidan darak beradi. Masalan, Xorazm vohasida Qo'y qirilgan qal'a qo'rg'onida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari vaqtida inshootning omborlari va bug'doy o'ralarida bug'doy, tuproqqa ko'milgan ulkan xumlarda sharob va yog' saqlangani aniqlangan [16]. Eramizdan avvalgi II asrda

Farg'onada uzumdan sharob tayyorlashgan [3]. Islom qabul qilingandan keyin sharob tayyorlash va iste'mol qilish keskin kamaydi, ammo mutlaqo yo'q bo'lib ketmadi. Shu bilan birga uni ochiqchasiga ichib ham bo'lmasdi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, saroy mulozimlari orasida sharob juda ko'p iste'mol qilingan; yashirin ichkilikbozliklar madrasalarning mullabachchalari ichida ham ko'p uchrab turardi [19,c.130].

Paul Xorning "Fors adabiyoti tarixi" kitobida "Eronlik zardushtiylar katta qunt bilan uzumchilikni rivojlantirishgan, Islom kirib kelgandan keyin ularni bu huzurbaxsh ichimlikdan ajratish oson bo'lmagan, shuning uchun qadimiy forslar mayni katta ishtiyoq va hayajon bilan ta'riflaganlar" [18,c.68].

Misol uchun Umar Xayyom shunday yozadi:

May ichsang, oqilu dono bilan ich,
Yoki bir gul yuzli zebo bilan ich.
Oz-oz ich, goh-goh ich ham yashirin
ich,
Ezma, rasvo bo'lma, hayo bilan ich [21]!
yoki:
Sen bo'lsangu, men bo'lsamu, may
bo'lsa,
O'rtada bir qizil gul ham nay bo'lsa,
Nayni chalib navo qilsang nozanin
Jon bermoqqa yurakkinam shay
bo'lsa. [22].

XIV asrning boshlaridan Jo'chiylar***** tomonidan islomiy ziyofatlarni Islomgacha bo'lgan modeliga yangi ko'rinish va yangi odatlar kiritildi. XIII asr sahroyi qabilalari bazmlariga xos bo'lgan oltin va kumush idishlarni mis va bronzadan tayyorlangan, Eronning toshlar bilan bezatilgan idishlariga o'xshash ko'zalari siqib chiqardi. Bu vaqtga kelib, Oltin O'rta xonligi zodagonlarining uylarida yarim fayansdan yasalgan, rang-barang bo'yoq berilgan sharob qadaxlari va ovqatlanib bo'lgandan keyin qo'l yuvish uchun gulob solinadigan kuvachalar paydo bo'ldi [15].

Ko'ngilochar ziyofat va mayxo'rlik an'analari to'g'risida Qadimgi Yunon

manbalarida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Gerodot asarlarida Eronda may ichish odatlari to'g'risida anchagina axborot olish mumkin: "Ular odatda may ustida eng muhim masalalarni muhlokama qiladilar. Bunday mashvaratda qabul qilingan qarorni shu ziyofat bo'lib o'tgan xonadon egasi ertasi kuni mehmonlarga yana bir bor tasdiqlash uchun hushyor holatda taqdim etadi. Agarda ular qarorni hushyor holatda ham tasdiqlasa, bu qaror bajarilgan. Vva aksincha: xushyor xolatda qabul qilingan qarorni ular yana bir bor sarxush xolatda muhokama qilganlar" [9]. Boshqa asarida Gerodot skiflarda bitimlar tuzish vaqtida mayning muhim o'rnini ko'rsatadi: "Qasamyod bilan mustahkamlangan barcha do'stlik to'g'risidagi bitimlarni skiflar mana bunday tuzadilar. Katta sopol ko'zaga bitim ishtirokchilarining qoni aralashtirilgan may quyilgan (buning uchun bigizni teriga tiqib, yoki pichoq bilan kichkina joyni kesib, qon chiqariladi). Keyin ko'zaga qilich, kamon o'qlari, oybolta va metall uzun nayza solinadi. Shu marosimdan keyin ishtirokchilar ham, taklif qilinganlar orasidan eng e'tiborlilari ham uzundan uzoq iltijo qiladilar va ushbu ko'zadagi mayni ichadilar" [9].

Yuqorida aytib o'tilgandek, sarxush qiluvchi ichimliklar tamaddun endigina yuzaga kelayotgan vaqtda paydo bo'lgan. Ular qadimiy Markaziy Osiyo xalqlari uchun soma, (xaoma), nektar, mesa va may ko'rinishidagi ichimliklar insonlarning turli shakldagi ovqatlanish vaqtida birlashish vositasi bo'lib qilgan.

Avsetoning butun bir bobi muqaddas xaoma ichimligi va shu bilan bir vaqtda uni ifodalovchi xudoga bag'ishlangan [2]. Masalan, xaoma tufayli Zaratushtra dushman devlarni engadi [25].

Saklar qabilasi istiqomat qilgan Marg'iyona va Baqtriyadagi arxeologik qazish ishlarida topilgan ba'zi idishlarning laboratoriya tahlili ko'rsatishicha, xaoma ichimligini tayyorlash uchun nasha, ko'knori va efedra o'simligidan foydalanilganligini ko'rsatdi [1].



Efedra//Lekarctvennie racteniya // [http:// ru.pinterest.com /pin/288934132320006066/](http://ru.pinterest.com/pin/288934132320006066/)

Alkogol va giyohvand moddalarning hududlarni bosib olish bilan bog'liqligi xaqida Peruning tog'li zonalaridagi topilmalardan aniqlangan. Ular eramizning 500 va 1100 yillar oralig'ida ulkan Uari imperiyasiga tegishli bo'lgan. Inklar kabi, bu xalq ham o'z madaniyatini juda keng yoyilishiga sabab bo'lgan.

Perudagi aholi punktalidan birida topilgan predmetlar Uari davlatida katta ziyofatlarda siyosiy ittifoqlar tuzish asnosida mahalliy zodagonlar uchun dasturxonga pivoga giyohvand moddalar qo'shib ham tortilgan. Bu imperiya chegaralarini bitta bayramona ziyofat paytida anchagina kengaytirish imkonini bergan. Bundan tashqari, giyohvand modda qo'shilgan pivo tortiladigan ziyofatlar aholi uchun ham uyushtirilganki, bu hukmdorlarning o'z xokimiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan. Arxeologik qazish ishlarida giyohvand moddalarning faqatgina qurib qolgan urug'lari topilgan (mahalliy tilda willka deb ataladigan, Anadenanthera colubrina nomli gallyusionogen modda). Shu o'simlikka o'xshash narsa – bu xaomi (G.Z.), hisoblanadi. [12].

Ma'lumki, mehmonlarni alkogol' va taomlar bilan mehmon qilish xo'jayin-mijoz shaklidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, bunda xonadon egalarining yuqori maqomini tasdiqlaydigan qarzdorlik hissini shakllantirgan [28]. Uarining oliy nasabli qatlamlari uchun willka da damlangan ichkilik taklif qilishgan. U ishtirokchilarni ruhiy dunyoga sayr qilishga chorlagan. Biroq, mehmonlar bunga javoban willka da damlangan ichkilik bilan siylay olmaganlar, chunki ularda buning uchun chet eldan keltiriladigan willka o'simligi ham, uni tayyorlash uchun tajriba ham, bilim ham bo'lmagan. Birgalikda iste'mol qilinadigan

pivo Uari imperiyasini boshqarishning yanada kuchliroq quroli bo'lgan. Willka da tayyorlangan ichimlik insonlarni umumiy psixotrop tajriba uchun birlashtirib, shu orqali gallyusinogenlarni etkazib beruvchilar sifatida Uari yo'lyuboshchilarining ijtimoiy ierarxiyadagi yuqori maqomini ta'minlagan [30].



Anadenanthera colubrina – wullka // <http://identify.plantnet.org/ru/the-plant-лист/сресиес>

Arxeologik qazishlar ko'rsatadiki, ziyofatlar qadimgi va o'rta asrlar jamiyatining doimiy yo'ldoshi bo'lgan. Shuningdek, olimlar muntazam ziyofatlar tashkil etishgan Mo'njuqlitepa (Turkmanistonning janubiy qismida joylashgan, eramizgacha 6200 yilda paydo bo'lgan va mis asrigacha yashagan) qishlog'i chorvadorlari va dehqonlari turmush tarzining bir qismi ekanligi, va ular uchun qishloqning markazidagi maydondan foydalanilganini aniqladilar, bu u erda topilgan juda ko'p hayvon suyaklaridan ma'lum[33].

Vengriyaning shimoli-sharqidagi Baradla g'orida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar vaqtida eramizgacha 5000 yilga taalluqli bo'lgan neolit va bronza asridagi predmetlar, insonlar va hayvonlarning

suyaklari topildi. Xayvon suyaklari g'orning bir nechta joyida uyum qilib qo'yilgan. Taxmin qilinishicha, bu ziyofat qoldiqlari bo'lgan [4].

Polshalik arxeologlar ko'plab ziyofatlar va ovqatlanib bo'lgach jarga tashlab yuborilgan, 14-asrga taalluqli bo'lgan bir necha ming sopol idishlar va bir necha yuzta xayvon suklarining qoldiqlarini topishgan [8].

Yuqorida sanab o'tilgan marosimlarning eng asosiy vazifalaridan biri insonlarning ijtimoiy yakdil va ahil bo'lishlariga ko'mak beradigan, jamiyat a'zolarini bir-biriga bog'lay oladigan o'ziga xos ijtimoiy "elim" ni ta'minlashdan iborat bo'lgan [33], ya'ni ziyofat va bazmlar yarashuv shartnomalarini tuzishga, hamda jamiyatning barcha a'zolarini xokimiyat atrofida to'plashga yordam bergan.

Xulosalar. Shu tarzda, ziyofatlar shunchaki ijtimoiy muloqot shakli emas, balki ijtimoiy tartibga keltirish, boshqarishning ta'sirchan usuli, xokimiyat va qudratni tasdiqlash vositasi ham bo'lgan. Ziyofatlarning ta'sirchanlik salohiyati siyosiy raqiblar va ittifoqchilar, boshqa mamlakatlarning elchilari va shu kabilarning ko'z o'ngida davlat va hukmdorlarning kuch-qudrati, boyliklarini namoyish qilish, hamda tinchlik o'rnatish va urushni to'xtatishdan iborat bo'lgan [20]. Xashamatli bazmlarda dasturxon to'kin-sochin bo'lib, go'shtli va boshqa taomlar, shuningdek, ichimliklar ko'p qo'yilgan. Bu narsalarning barchasi ziyofat egasining boyligi, qudratini ko'rsatgan.

Izohlar :

*O'g'uznoma – Turk o'g'uzlarining afsonaviy urug'idlari va ularning asoschisi O'g'uzxon to'g'risidagi epik obida.

**O'g'uzxon – o'g'uz urug'idan bo'lgan turkman va boshqa turkiy xalqlarning qadimiy asoschisi. O'g'uzlar – 24 ta asosiy qabiladan iborat bo'lgan o'rta asrlardagi turkiy xalq bo'lib, ular XI asrgacha O'rta Osiyo va Mo'g'uliston dashtlarida istiqomat qilgan.

*** Sublimasiya – ruhiyatning himoya mexanizmining bir turi bo'lib, qabul qilish qiyin bo'lgan hoxish-istaklar yoki yoqimsiz holatlar tufayli yuzaga kelgan xavotirni kamaytiruvchi xususiyatga ega.

****Manguxon hukmdorlik qilgan davrda O'rta Osiyo Mo'huliston tarkibida bo'lgan.

*****Bu erda sanab o‘tilgan barcha ichimliklar spirtli ichimlik. Boda-shakar qo‘shilgan quruq vino, qimiz-biya suti, o‘ziga xos usulda tayyorlanganda o‘zida spirt hosil qiladi, vodka- aroq so‘zi bilan berilgan, muadd ichimligi – qaynatib tayyorlangan vino.

*****Jo‘chiylar – Yevropa, G‘arbiy Sibir’ va Markaziy Osiyoning turli davlatlari va siyosiy tuzilmalarida 13-18 asrlar davomida hukmronlik qilgan Chingizxon avlodlarining bir bo‘lagi. Jo‘chiylarning asoschisi – Chingisxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘ji.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Абдуллаев К. Культ хаоми в древней Центральной Азии. Международный институт центральноазиатских исследований. 2009.
- 2.Авеста: Избранные гимны. Душанбе.1990.
- 3.Аксенова Л.А. Виноделие —составная часть культуры многих народов// [хттп://geo.1sept.ru/artisles.phtml?ID=200200108](http://geo.1sept.ru/artisles.phtml?ID=200200108)
- 4.Артефакты времён неолита и бронзового века, найденные в венгерской пещере // [хттпс://m.polit.ru/news/2019/07/19/ps_baradla/](https://m.polit.ru/news/2019/07/19/ps_baradla/)
- 5.Аскарлов А. А. Сапаллитепа. Ташкент.1973.
- 6.Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. ИИ. – М.- Л., 1950.
- 7.Вильгельм де Рубрук Путешествие в восточные страны Вильгельма де Рубрука в лето Благости /1253. М. 1957. /[хттп://www.xist.msu.ru/EP/Etext/ рубрук.хтм](http://www.xist.msu.ru/EP/Etext/rubruk.htm);
- 8.Во рву средневековой крепости в Польше нашли остатки пиров летописного рыцаря // Газета «Культура» 24.09.2020 //портал-культура.ру/artisles/news/329033-во-рву-средневековой-крепости-в-польше-нашли-остатки-пиров-летописного-рыцаря/
- 9.Геродот. М.-Л. 1972.
- 10.Гумбатов Г. Система питания древних и современных тюркских народов // Гумбатов Г. Историческая прародина тюрков.2016. //тптс:// www. асадемия.edu
- 11.Джумабекова Г.С., Базарбаева Г.А. О символике металлических котлов в культуре кочевников // Самарский научный вестник. - 2017. - Т. 6. - №2. - С. 114-117.
12. Жуков А. Уари использовали пиво с наркотиком для присоединения новых территорий.15.01.2022 //хттпс://хи-неуос.ру/ето-интересно/уари-использовали-пиво-с-наркотиком-для-присоединения-новых-территорий
- 13.Зотова П.О. Факторы, влияющие на потребление алкоголя личностью современного российского общества [хттпс://сийберленинка. ру/artisles/n/faktor-vliyayuschie-na-potrebleniye-alkogolya-lichnostyuu-sovremennoy-rossiyskoy-obshchestva](https://cyberleninka.ru/artisles/n/faktor-vliyayuschie-na-potrebleniye-alkogolya-lichnostyuu-sovremennoy-rossiyskoy-obshchestva)
- 14.Ибн Баттута Путешествие// Ибн Баттута и его путешествие по Средней Азии. М. 1988.
- 15.Крамаровский М. Кубок из Азака. О полихромии в керамике Золотой Орды// Средневековая археология евразийских степей Материалы Учредительного съезда Международного конгресса, Казань, 14–16 февраля 2007.
- 16.Крепость погибших баранов// [хттп://хисторис.ру/боок/итем/ f00/c00/z0000134 /ст003. штмл](http://xistoris.ru/book/item/f00/c00/z0000134/st003)
- 17.Максудов Ф. А. Кочевая культура горной Уструшани эпохи средневековья. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук (ДСС). Ташкент.2020.
- 18.Мирзоев, А.М. Рудаки. Жизнь и творчество / А.М. Мирзоев. - М., 1968.
- 19.Народы Средней Азии и Казахстана.М.,1962. Т. И. – С. 310.
- 20.Нехаева С. В. Цивилизация средневекового Запада: культура питания, застольные традиции и обычаи. Новосибирск. 2011.
- 21.Омар Хайям о вине и винопитии // [хттпс://омар-хайям.сом/стихи-о-вине-и-винопитии/](https://omar-hayyam.com/stixi-o-vine-i-vinopitii/)
- 22.Омар Хайям Рубаи о вине// [хттпс://стихи.ру/2017/05/06/302](https://stixi.ru/2017/05/06/302)
- 23.Руи Гонсалес де Клавихо Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). М. Наука. 1990. [хттп://www.vostlit.info](http://www.vostlit.info);
- 24.Салинз М. Экономика каменного века [хттп://антхро-эсономисус.народ.ру /филес/ Сахлинс_Стоне_аге_эсономисс.pdf](http://antxro-ekonomisus.narod.ru/filес/ Сахлинс_Стоне_аге_эсономисс.pdf)
- 25.Суфиев Ш.З. Архетипы вина в персидско-таджикской поэзии // Вестник Педагогического университета . Таджикистан . 2018 [хттпс://киберленинка.ру журнал /н/вестник-педагогического-университета?и=1107276](https://cyberleninka.ru/jurnal/n/вестник-педагогического-университета?и=1107276)
- 26.Шараф ад-Аин Али Язди Зафар-наме. Т.,2008.С.335-336.Электронная версия.
- 27.Швесов М.Л. Котлы из погребений средневековых кочевников // Советская археология. 1980. № 2. С. 192-202.
- 28.Feasts: Archaeological and Ethnographic Perspectives on Food, Politics, and Power. Michael Dietler and Brian Hayden. eds. Washington, DC: Smithsonian Institution Press, 2001. 432 pp.
- 29.Marco Polo. Travels. Harmondsworth, 1968.

30. Matthew E. Biber, Willy Yopez Alvarez, Stefanie L. Bautista and Justin Jennings Hallucinogens, alcohol and shifting leadership strategies in the ancient Peruvian Andes. Published online by Cambridge University Press: 12 January 2022.
31. Michael Dietler and Brian Hayden Feasts: Archaeological and Ethnographic Perspectives on Food, Politics, and Power. Washington, DC: Smithsonian Institution Press, 2001. 432 pp;
32. Munro N. An archaeological dig in Israel provides clues to how feasting became an important ritual// <https://theconversation.com/an-archaeological-dig-in-israel-provides-clues-to-how-feasting-became-an-important-ritual-86370>
33. Nolwen Rol Dealing with the Dead in Aeneolithic Monjukli Depe Norms and Handlungsräume in Burial Practices // Looking Closely. Excavations at Monjukli Depe, Turkmenistan, 2010 – 2014. Sidestone Press, Leiden. 2019
34. Robert N. Spengler, Farhod Maksudov, Elissa Bullion, Ann Merkle, Taylor Hermes, Michael Frachetti Arboreal crops on the medieval Silk Road: Archaeobotanical studies at Tashbulak // <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6091944/>
35. Taylor R. Herme; Michael D. Frachetti; Elissa A. Bullion; Farhod Maksudov; Samariddin Mustafokulov & Cheryl A. Makarewicz Urban and nomadic isotopic niches reveal dietary connectivities along Central Asia's Silk Roads Scientific Reports

**OLIY TA'LIM TALABALARINING HUQUQIY ONGINI YUKSALTIRISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРАВОСОЗНАНИЕ СТУДЕНТОВ
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ
PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF LEGAL
AWARENESS OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Xamraqulov Zafarjon Yigitaliyevich
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim talabalarining huquqiy ongini rivojlantirishning umumiy pedagogik asoslari berilgan. Shuningdek, mashg'ulotlardan samarali foydalanish uchun tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, auditoriyadan tashqari ishlar, sud jarayoni.

Аннотация. В данной статье представлены общепедагогические основы развития правосознания студентов высших учебных заведений. Также даны рекомендации по их эффективному использованию в обучении.

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, юридическая грамотность, внеучебная деятельность, судебный процесс.

Annotation. This article presents the general pedagogical foundations for the development of the legal awareness of students of higher educational institutions. Recommendations are also given for their effective use in training.

Key words: legal awareness, legal culture, legal literacy, extracurricular activities, litigation

Mamlakat kelajagi yoshlar qo'lida ekanligi ularning garmonal rivojlanishi uchun mas'uliyat bilan yondashuv zarurligini taqozo etadi. Yoshlarning millat taqdiri uchun o'zlarini burchli hisoblashi, davlat va jamiyat munosabatlarining mustahkamlanishiga o'z hissalarini qo'shishlari, tashqi mafkuraviy tahdidlarga nisbatan immunitetining yuksakligi, davlat boshqaruvining demokratlashib borishi va korruptsiyaga qarshi kurashda sobitligi O'zbekiston xalqining oldida turgan vazifalar qatoriga kiradi. Yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish ham mana shunday xayrli vazifalardan biridir. Jahondagi hozirgi notinch vaziyat hukm surayotgan davrda yoshlar huquqiy ongini yuksaltirish hamda sohaga oid nazariy-fundamental va amaliy-metodologik izlanishlarni chuqurlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev

“...jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish” [1] davlat va jamiyatning asosiy vazifalari qatoriga kirishini ta’kidlagan edi. Shuning uchun yoshlar o’rtasidagi huquqiy muammolar masalasi tadqiqotchilarni yangi izlanishlarga undaydi.

Yoshlarning huquqiy ongini umumiy o’rta ta’lim tizimida maksimal darajada yuksaltirish oson ish emas. Maktab va akademik litseylarni tamomlagan yoshlar oliy ta’lim tizimining talabalari darajasiga erishgach, mazkur vazifani davom ettirish imkoni mavjud. Bunda yuridik ixtisoslik bo’yicha mutaxassis tayyorlovchi oliy va professional ta’lim muassasalari katta vazifalarni bajaradi. Pedagogik oliy ta’lim tizimidagi 60112100 – Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi talabalari o’z ixtisosliklari doirasida huquqshunoslik fanlarini o’rganishadi. Tabiiyki, o’z huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish uchun yaxshi imkoniyatga ega bo’lishadi. Zero, “huquqiy ong huquqiy bilimlarsiz shakllanmaydi va rivojlanmaydi” [2].

“Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy majburiy ijtimoiy normalar tizimi” [3]. Talabalar huquqiy ongini yuksaltirish huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyaning an’anaviy usullari bilan cheklanib qolmasdan, uning mazmun, shakl va usullarini innovatsiyalar asosida boyitishni ham nazarda tutadi. “Huquqiy ong, bu avvalo, insonlarning mavjud huquqiy tizim, qonunchilik va oshqa (amaldagi va idealdagi) huquqiy hodisalarga nisbatan munosabatini ifodalovchi tasavvurlar, bilimlar, axborotlar va his-tuyg’ular yig’indisidir” [4]. Shuning uchun, bugungi kun talabalarining huquqiy ongini innovatsiyalar asosida yanada yuksaltirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratish davr talabiga aylanib bormoqda. Mazkur talab o’z navbatida huquqiy ong, huquqiy madaniyat hamda ularning boshqa komponentlar bilan bog’liqlik tomonlarini tadqiq qilishni pedagogika fanining muhim vazifalaridan biriga aylantiradi.

“Ong – inson bosh miyasining dunyo borlig’ini izchil aks ettirish, uni obrazlar va tushunchalarga aylantirish qobiliyati. U taasurotlar, sezgilar, kechinmalar, fikrlar, shuningdek g’oyalar, e’tiqodlar, qadriyatlar, mo’ljallar, andazalarning ko’rinmas jarayoni sifatida mavjud” [5]. Davlat va huquq nazariyasida huquqiy ong huquqiy madaniyat darajasiga qarab: oddiy huquqiy ong, kasbiy huquqiy ong va ilmiy huquqiy ong turlariga ajratiladi. Oddiy huquqiy ong kishilarning kundalik hayot kechirishi asnosida shakllanadi hamda hayotiy tajribaga asoslanadi. Kasbiy huquqiy ong huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, aholiga yuridik xizmat ko’rsatuvchi tizim vakillariga xos bo’ladi. Bu tur ularning mehnat faoliyati bilan takomillashib boradi. Ilmiy huquqiy ong ilm-fan sohasida faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilar, olim va izlanuvchilarda shakllanadi.

Oliy ta’lim tizimida tahsil oluvchi talabalar ham bakalavriat va magistraturadagi o’qish davomida ilmiy huquqiy ongini yuksaltirib boradi. Bunga huquqiy fanlardan dars beruvchi professor-o’qituvchilar ko’mak beradi. “Huquqiy tarbiya – shaxslar va ijtimoiy guruhlarning huquqiy ongiga ko’rsatiladigan, aniq maqsadga yo’naltirilgan, rejalashtirilgan va maxsus tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta’sir jarayonidir” [6]. Ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarida ular tomonidan berilgan bilimlar talabalarning huquqiy ongining yuksalishida o’z ta’siriga ega bo’ladi.

Talabalar huquqiy ongini yuksaltirishni maqsad qilgan pedagog har bir ma’ruza, seminar darsida, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarida, mustaqil ta’limda va auditoriyadan tashqarida qo’llashi maqsadga muvofiq bo’lgan etiladigan tavsilyalar mavjud.

Talabalar huquqiy ongini yuksaltirishda ishni ma’ruzada to’g’ri yo’lga qo’yishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ma’ruza o’qituvchi tomonidan muayyan axborotlarni o’zida aks ettiruvchi ma’lumotlar majmui bilan talabani

tanishtirishda ifodalanadi. Jinoyat huquqi, oila huquqi va ma'muriy huquq fanlari o'z predmeti, o'rganish ob'ekti, huquqiy oqibatlar bilan talabalarni ko'proq o'ziga jalb etadi. Mazkur fanlardan ma'ruza mashg'ulotlari tashkil etilishida katta muammolar kelib chiqmaydi. Chunki ushbu fanlar o'qitilishida talabalarning tabiiy qiziqishi yuqori bo'ladi. Davlat va huquq nazariyasi, fuqarolik huquqi, ekologiya huquqi kabi fanlarda esa, talabalarning qiziqishi pastroq bo'lishi mumkin.

Huquq fanlaridan ma'ruza o'quvchi professor-o'qituvchi talabalarning faolligi masalasiga jiddiy e'tibor berishi zarur. Bunda faqat nazariy tushunchalar bilan cheklanib qolmasdan, aytilgan fikrga mos keluvchi real voqelikdan misol keltirishi maqsadga muvofiqdir. Bayon etiladigan fikrlarning nazariy axborotdan iborat bo'lib qolishi talabalarni zeriktirib qo'yadi. Natijada talaba ma'ruza o'qiyotgan o'qituvchiga qarab tursa ham amalda xayoli chalg'ib hech narsani eshitmayotgan bo'lishi mumkin. Bunday vaqtda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanilgan holda, turli kazuslar talabalar e'tiboriga havola etilishi zarur. Kazuslar taqdim etilganda vaqtni ortiqcha yo'qotilishiga yo'l qo'yish kerak emas.

Seminar mashg'uloti ma'ruza davomida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash, fanning o'rganish obyektidan kelib chiqib nisbatan osonroq ma'lumotlarni takrorlash va tahlil qilishda yaxshi natija beradi. Seminar mashg'ulotida talabalarni mustaqil izlanishga majbur qiladigan mavzular tanlanishi ahamiyatlidir. Bunda turli pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarni faollashtirishga intilish lozim. Talabalarning faolligi ularning huquqiy bilimlarini yanada mustahkamlanishini ta'minlaydi. O'qituvchining seminarida talabalardan ko'p gapirishi esa ta'lim samaradorligini pasayishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun, seminarlarda suhbat, munozaraga asoslangan pedagogik usullardan foydalanish afzal hisoblanadi.

Huquqiy fanlardan tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar talabalarning

ijodkorona faoliyatiga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarda "Rolli o'yinlar" texnologiyasi samarali natija beradi. Bunda amaliy mashg'ulot uchun mavzu o'qituvchi tomonidan tavsiya etilishi, zaruriy ko'rsatmalar, maslahat va tavsiyalar berilishi jarayonning silliq o'tishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, huquqiy vaziyat to'g'risidagi talabalarning bilimlari amaliy ko'nikmalar bilan boyitiladi. Amaliy mashg'ulotlarga huquqni muhofaza qiluvchi organlar operativ xodimlarining taklif etilishi nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Zotan amaliyot xodimlari "Rolli o'yinlar" doirasidagi vaziyatlarga huquqiy baho berishdan tashqari, uning kelib chiqish sabablari hamda huquqiy oqibatlar haqida ham yetarlicha ma'lumot bera olishadilar.

Laboratoriya mashg'ulotlarini muayyan huquqiy masalalarni tadqiq etishga yo'naltirilishi talabalarning huquqiy ongini yuksaltirishda katta ahamiyatga egadir. Laboratoriya ishlari tashkil etilishida talabalarni sud, ma'muriy ish yuritish, davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hamda huquqni qo'llash hujjatlari bilan tanishtirish samarali natija beradi. Shuningdek, huquq amaliyotida ko'p uchraydigan hujjatlarni shakllantirish, jumladan, fuqarolik va iqtisodiy sudlarga kiritiladigan da'vo arizalari, shikoyat va takliflarni o'zida aks ettiradigan yozma murojaatlar yozdirish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunda o'qitilayotgan huquq sohasi tomonidan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlarining xususiyatlariga e'tibor berish talab etiladi. Har bir laboratoriya mashg'uloti talabalar huquqiy ongining yuksalishiga maksimal darajada xizmat qilishi lozim.

Mustaqil ta'lim huquqiy fanlar doirasidagi bilimlarning chuqurlashuvini ta'minlash bilan birga, talabalarni ijodkorlik ko'nikma va malakalarini oshirishga olib keladi. Oliy ta'limda fanlar o'qitilishida ko'zga tashlanayotgan muammolardan biri mustaqil ta'limga ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari fonida kam e'tibor berilayotganligi bilan bog'liqdir. Professor-o'qituvchilar ham mustaqil ta'lim

masalasiga jiddiy yondashishmaydi. Xolbuki, mustaqil ta'lim o'z ahamiyati jihatdan boshqa mashg'ulotlardan qolishmaydi. Chunki mazkur amaliyot davomida talabalar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan muammolarni mustaqil o'rganishi kerak. Bu talabalarning huquqiy-tadqiqiy ko'nikmalarini oshiribgina qolmay, ularni ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liq malakalarining yuksalishini ta'minlaydi.

Talabalar huquqiy ongini yuksaltirishda auditoriyadan tashqarida bajariladigan ishlarning ham o'rni katta. Auditoriya doirasida talabalarga nazariy bilimlar beriladi. Nazariy bilimlar amaliy ko'nikmalar bilan boyitilsa, uning o'rni yanada mustahkamlanadi. Auditoriyadan tashqari ishlar rejalashtirilishida "Huquqlar bilimdoni", "Inson huquq va erkinliklari – oliy qadriyat", "Konstitutsiyam - qomusim", "O'z burchingizni bilasizmi?", "Demokratiya – hayotimiz ko'zgusi" kabi mavzulardagi tadbirlar va davra suhbatlarining o'zi kamlik qiladi. Talabalarni jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sudlarga olib borish, sud jarayoni bilan tanishtirish, sudb'yalar bilan sud binosida uchrashuvlar tashkil qilishga ham e'tibor berish lozim.

Talabalarning sud jarayonini televizor yoki videokonferentsiya shaklida tomosha

qilishidan ko'ra, uni jonli ishtirokchisiga aylanishi voqealarning xotirasida uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi. Bunda avvaldan tayyorgarlik ko'rish, sud bo'ladigan vaqt to'g'risida xabardor bo'lib, talabalarni aytilgan soatga etkazib kelish lozim. Shuningdek o'qituvchi talabalarni sud jarayoni boshlanishidan oldin jarayonga aralashmaslik, ortiqcha kulish, telefon o'ynab o'tirish, esnash, turli nojo'ya harakatlarni qilishdan o'zlarini tiyish kabi talablarni etkazish hamda sud payti talabalarni nazorat qilib turishi talab qilinadi. Talabalarda paydo bo'lgan savollarga javob berishi uchun sud'yalar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni amalga oshirish qo'shimcha bilimlar olinishiga yordam beradi.

Huquqiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishda muayyan rejalar ishlab chiqish va unga qat'iy amal qilgan holda vazifalarni izchil ado etish ahamiyatlidir. Bunda faqat huquqiy bilimlar berish bilan cheklanib qolmasdan, kasbiy faoliyati huquqni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat xizmatchilarini ham jalb etish maqsadga muvofiqdir. Ularning talabalar bilan uchrashuvlarini tashkil etish va amaliyot jarayoni bilan tanishtirish kutilganidan ham yaxshiroq samara beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 9- yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4149765>
2. Saburov N., Saydullaev SH. Davlat va huquq nazariyasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDYul, 2011. – B. 74.
3. Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari. – T.: Yurist-media markazi, 2009. – B. 32.
4. Odilqoriyev H. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T.: "Adolat", 2018. – B. 272.
5. Shermuhamedova N. Falsafa. Darslik. T.: Fan va texnologiya, 2010. – B.143
6. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. – T., 2001. – B. 187.

ILMIY XABARLAR

CaLTA SEOLITIGA SUVNING ADSORBSIYA IZOTERMASI VA KINETIKASI ИЗОТЕРМА И КИНЕТИКА АДСОРБЦИИ ВОДЫ НА CALTA ZEOLITIC ISOTHERM AND KINETICS OF WATER ADSORPTION ON CALTA ZEOLITIC

M.X. Koxxarov – PhD, O'zRFA UNKI
O.K. Ergashev – professor, H.Q.Madaminov – talaba, NamMTI
N.M.Esonqulova – tayanch doktorant NamMTI
A.Q.Matmusayev – magistrant, QDPI

Kalit soʻzlar: Izoterma, termokinetika, ion-molekulyar komplekslar, CaLTA seolit, H₂O, adsorbsion mikrokalorimetr.

Аннотация. CaLTA seolitda suv adsorbsiyasi izotermasi va termokinetikasi 303 K haroratda o'Ichandi. Olingan natijalar asosida CaLTA seolitda suv adsorbsiyasi boshlang'ich to'ldirishdan to to'yinishgacha bo'lgan mexanizm batafsil yoritib berildi. Adsorbsiya izotermasi MHTN tenglamasida yordamida tavsiflandi.

Ключевые слова: Изотермы, термокинетика, ионно-молекулярные комплексы, CaLTA seolit, H₂O, адсорбционный калориметр.

Аннотация. Изотерму и термокинетикау адсорбции вода в цеолите CaLTA измерили при 303 K. На основании полученных результатов подробно описан механизм адсорбции воды в цеолите CaLTA от начальной засыпки до насыщения. Изотерму адсорбции описывали уравнением МГТН.

Keywords: Isotherm, thermokinetics, ion-molecular complexes, CaLTA zeolite, N₂O, adsorption calorimeter.

Annotation. Isotherm and thermokinetics of water adsorption in CaLTA zeolite were measured at 303 K. Based on the results obtained, the mechanism of water adsorption in CaLTA zeolite from the initial filling to saturation is described in detail. The adsorption isotherm was described using the MHTN equation.

Kirish. seolitlar va ularning hosilalari sanoatda miqiyosida foydalanish yildan-yilga o'sib bormoqda. seolitlarni tayyorlash va ulardan foydalanish uchun ilmiy asoslarning rivojlanishi fundamental tadqiqotlarning mustaqil sohasiga aylandi [1]. Amaliyotda eng keng tarqalgan adsorbentlar suyuqlik va gazlarni quritish uchun ishlatiladigan CaA, NaA va KA seolitlardir. Ikkinchisi bioetanolni quritish uchun ham ishlatiladi [2]. Qizig'i shundaki, adsorbsiya qanchalik ko'p gidrofob bo'lsa, tozalash shunchalik chuqurlashadi. 20 °C haroratda va siqilgan havoning namligi 10%, seolitlardagi suvning muvozagatli adsorbsiyasi NaA va NaX uchun 10 mmol/seolit darajasiga etadi [3].

Tadqiqot usullari va obyektlari. Kalorimetrik tadqiqot uchun sintetik CaLTA tipidagi seoliti (Si / Al = 1) dan

foydalanilgan. Tadqiqot uchun olingan seolitning elementar yacheykalari tarkibi CaLTA– Na₃Ca₉[(AlO₂)₁₂(SiO₂)₁₂]·27H₂O. Adsorbsiya uchun absolyut suv tanlab olindi. CaLTA seoliti suv adsorbsiyasini aniqlashda yuqori vakuumli adsorbsion mikrokalorimetrik qurilmada olib borildi [5-6].


Adsorbatlar dastlab muzlatilib keyin vakuum nasosda tozalandi. Adsorbsiya o'Ichovlarini aniqlashda yuqori vakuumli adsorbsion qurilmada olib borildi va kapilyar usulda hisoblandi.

Olingan natijalar va muhokamalar. Adsorbsiya miqdori (*N*) elementar yacheykaga (eya) H₂O birligida ifodalandi. 1-rasmda 303 K haroratda CaLTA seolitida suv adsorbsiyasi ~10⁻⁶ nisbiy bosimda p/p⁰ (p⁰ – suv bug'i bosimi, p⁰ (303K) = 4.42 kPa) suvni adsorbsiyalanish izotermasi (*ln*)

keltirilgan. Adsorbsiya izotermasini bir nechta fragmentga bo'lib o'rganildi. Birinchi fragmentda CaLTA seolitida suv adsorbsiyalanish izoterma ko'rsatkichi dastlab $\ln(p/p^\circ)=-16,96$, $r=0,000001375$ millimetr simob ustuniga teng bo'lib, adsorbsiya miqdori $N=0,493$ H₂O/eya dan boshlanadi.

Adsorbsiya izotermasi $\ln(p/p^\circ)=-16,96$ dan $\ln(p/p^\circ)=-13,91$ oralig'ida adsorbsiya o'qi tomon intiladi, bunda adsorbsiya miqdori $N=3,024$ H₂O/eya teng bo'ladi. Bu erda adsorbsiya bosimi $r=0,00001375$ mm.sim.ust dan $r=0,000029$ mm.sim.ust oralig'ida bo'ladi. Ikkinchi fragmentda $\ln(p/p^\circ)=-11,12$ ga etgunga qadar adsorbsiya izotermasi tik qiyalik ko'rinishida ko'tariladi va adsorbsiya $N=11,37$ H₂O/eya ga etadi. Uchinchi fragmentda esa yana izoterma $\ln(p/p^\circ)=-11,12$ dan $\ln(p/p^\circ)=-5,43$ oralig'ida adsorbsiya o'qi tomon qisman egiladi, bu erda adsorbsiya miqdori esa $N=16,13$ H₂O/eya ga teng bo'ladi.


Bu oraliqlardagi atmosfera bosimi $p=0,00047$ mm.sim.ust. dan $p=0,14$ mm.sim.ust.ida bo'ladi. To'rtinchi fragmentda izoterma belgilari $\ln(p/p^\circ)=-5,43$ dan $\ln(p/p^\circ)=-3,76$ gacha qisman tik ko'rinishida ko'tariladi va adsorbsiya $N=16,12$ H₂O/eya va $N=21,26$ H₂O/eya oralig'ida bo'ladi. Beshinchi fragmentda adsorbsiya (ordinata) o'qi tomon keskin yaqinlashib boradi, to'yingunga qadar tik chiziqli davom etadi. Ushbu jarayon quyidagicha boradi adsorbsiya miqdori $N=21,26$ H₂O/eya dan $N=31,189$ H₂O/eya oralig'ida izoterma adsorbsiya o'qi tomon intiladi va undan so'ng adsorbsiya $N=31,189$ H₂O/eya da izoterma $\ln(p/p^\circ)=-3,76$ ga teng bo'lib, $\ln(p/p^\circ)=-0,06$ gacha ko'tarilib adsorbsiya o'qiga yaqinlashadi, $N=35,10$ H₂O/eya ga tenglashadi va jarayon oxiriga etadi. Jarayon oxirida adsorbsiya atmosfera bosimi $p=30,98$ mm.sim.ust.ga teng bo'ladi va suvning to'yinish bug' bosimiga yaqinlashadi.



1-rasm. 303 K da CaLTA seolitida suv adsorbsiyasi izotermasi Δ -eksperiment qiymat; \blacktriangle -MHTN tenglamasi orqali hisoblangan nuqtalar

CaLTA molekular g'alvirlarda suvni adsorbsiyalanishi mikrog'ovaklarning xajmi to'yinish nazariyasini uch hadli tenglamasi yordamida qayta tavsiflandi [7,8].

$$N = 14,765 \exp[A/32,42]^6 + 8,434 \exp[A/12,18]^5 + 11,048 \exp[A/2,28]^1,$$



4-rasm. CaLTA seolitida suv adsorbsiyasi muvozanat vaqti.

CaLTA seolitiga suv adsorbsiyasi muvozanat vaqti dastlab 28,18 soatni tashkil etadi. Adsorbsiya muvozanat vaqti dastlab adsorbat molekulalari soni kamligi uchun adsorbent tarkibidagi kationlarga taqsimlanishiga, ya'ni adsorbsiyalanish muvozanati qaror topgunga qadar ko'proq vaqt ketadi. Asta sekinlik bilan muvozanat vaqti to'liqsimon chiziq bo'ylab kamayib

boradi. CaLTA seolitiga suv adsorbsiyasi differensial issiqligi pog'onali ko'rinishda boradi. Bu holatni muvozanat vaqtida ham kuzatish mumkin. Adsorbsiya muvozanati qaror topishiga ko'proq vaqt ketishini superg'ovaklarga adsorbsiyasi jarayoni ketishi bilan izohlanadi. Adsorbsiya 27,54 H₂O/e.ya. dan keyin adsorbsiya muvozanat vaqti keskin kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Hölderich W.F. Zeolites and related materials in organic syntheses. Brönsted and Lewis Catalysis / W.F. Hölderich, H. van Bekkum // *Studies in Surface Science and Catalysis*. — 2001. — Vol. 137. — P. 821–910
2. Li X. One-step synthesis of H-b zeolite-enwrapped Co/Al₂O₃ Fischer–Tropsch catalyst with high spatial selectivity / X. Li, J. He, M. Meng, Y. Yoneyama, N. Tsubaki // *Journal of Catalysis*. — 2009. — Vol. 265. — P. 26–34. 197
3. Sircar S. Gas separation of zeolites. Handbook of zeolite science and technology. Chapter 22 / S. Sircar, A.L. Myers, ed. By S.M. Auerbach, K.A. Carrado, P.A. Dutta — New York: Dekker. 2003. — P. 1063–1104.
4. B.F. Mentzen, G.U. Rakhmatkariev. Host/Guest interactions in zeolitic nanostructure MFI type materials: Complementarily of X-ray Powder Diffraction, NMR spectroscopy, Adsorption calorimetry and Computer Simulations // *Узб. хим. журнал*. 2007, №6, С. 10-31.
5. U. Rakhmatkariev. Mechanism of Adsorption of Water Vapor by Muscovite: A Model Based on Adsorption Calorimetry // *Clays and Clay Minerals*, 2006 vol. 54. pp. 423-430.
6. Рахматкариева Ф.Г., Рахматкариев Г.У. Ион-молекулярные комплексы в наноструктурированных цеолитах NaA и NaA(NaBO₂) // *Узбекский химический журнал*, 2016, №4. - С.3-9.

GOFRLANGAN KARTON MAHSULOTI UCHUN TANLANGAN QOG'OZLARNING YUZA G'ADIR-BUDURLIGINI ANIQLASH

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ШЕРОХОВАТОСТИ БУМАГИ ДЛЯ ПРОДУКЦИИ ГОФРИРОВАННОГО КАРТОНА

DETERMINATION OF THE ROUGHNESS OF PAPER FOR THE PRODUCTION OF CORRUGATED CARDBOARD

Eshbayeva Ulbosin Jamalovna-Namangan muhandislik texnologiya instituti
Kimyoviy texnologiya kafedresi professori t.f.d

Nishonov Akbarjon Muxamatjonovich-Namangan muhandislik texnologiya instituti
Kimyoviy texnologiya kafedresi assistenti

Djalilov Anvar Abdugafarovich-Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti
Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi kafedra mudiri PhD
To'rayev Fazliddin-Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti
Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi kafedresi doktoranti

Annotatsiya. Matbaa jarayonida bosma material yuzasiga tasvir tushirish uchun qog'ozning g'adir-budurligi eng muhim xossalardan biri hisoblanadi. Qog'ozning g'adir-budurligi qog'oz varag'i yuzasidagi tolalarning o'zora tartibsiz joylashishi bilan bog'liq. Gofrlangan karton yuzasiga bosishda, bo'yoq qatlami bosma materialning g'ovakliligiga kirib tasvir hosil qiladi. Tadqiqot ishida gofrlangan karton mahsulotini tayyorlash uchun qog'oz turlari tanlandi va ularning yuza g'adir-budurligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: qog'oz, bo'yoq, matbaa, gofrlangan karton, g'adir-budirlik.

Аннотация. Одним из важнейших свойств бумаги является создание изображения на поверхности печатного материала в процессе печати. Шероховатость бумаги обусловлена неравномерным расположением волокон на поверхности бумажного листа. При печати на поверхности гофрированного картона слой краски проникает в пористость печатного материала для формирования изображения. В научно-исследовательской работе были выбраны виды бумаги для производства гофрокартона и изучена шероховатость бумаги.

Ключевые слова: бумага, краска, печать, картон, гофрокартон.

Annotation. One of major properties of paper is the creation of image on the surface of the printed matter in the process of printing. Paper roughness is conditioned by the uneven location of fibres on the surface of paper sheet. At printing to the surface of the corrugated cardboard the layer of paint gets to porosity of the printed matter for forming of image. In this research work the types of paper were chosen for the production of cardboard and studied to the paper roughness.

Keywords: paper, paint, printing, cardboard.

Gofrlangan karton - iste'molchi mahsulotlarini qadoqlash uchun eng qulay qadoqlash mahsuloti hisoblanadi. Bu an'anaviy tekis qatlamlar bilan bir yoki bir nechta (top layner, flyuting, layner) qatlamlardan iborat ko'p qatlamli materialdir. Gofrlangan karton qadoq mahsuloti juda engil, qayta ishlash mumkin va ko'p rangli tasvirlarni bosish imkoniyati qadoqlash bozorida etakchi o'rinni egallashiga imkon beradi [1].

Qog'oz va karton ishlab chiqarish jahon sanoatida juda muhim o'rinni egallaydi. Jahon bo'yicha qog'oz va kartonga bo'lgan ehtiyojning o'sishi 2025 yilga qadar yiliga 1,6 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda. Taxminlarga ko'ra, 2025 yilga kelib butun dunyo bo'yicha qog'oz iste'moli 500 mln tonnaga etadi (taqqoslash uchun: 2011 yilda bu ko'rsatkich 395 mln tonna edi) [2]. Dunyodagi gofrlangan karton mahsulotlariga bo'lgan talab barqaror

o'smoqda, 2020 yil ma'lumotlarga ko'ra gofrlangan kartonga bo'lgan talab 2018 yiliga nisbatan 3,5 foizga ko'p. 2023 yilga kelib yillik 3,7 foiz atrofida o'sish kutilmoqda. Global Market Insights ma'lumotlariga ko'ra, global qadoqlash bozori 2025 yilga 13 foizga o'sish 200 million tonnani tashkil etishi kutilmoqda [3]. Mahalliy bozorning gofrlangan karton qadoqlash mahsulotlariga talabi yildan-yilga ortib bormoqda. Ko'pgina iste'mol sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari gofrlangan karton qadoq mahsulotlariga talab ayniqsa yuqori. Gofrlangan karton qadoq mahsulotlarning asosiy hajmi-65 foizi oziq-ovqat sanoatiga to'g'ri keladi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga 38 foiz, qandolat va sut mahsulotlari har biriga 12% to'g'ri keladi [4].

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda qadoqlash mahsulotlarining yillik iste'moli, eng keng tarqalgan turlari gofrlangan kartondan tayyorlangan mahsulotlardir. Foydalanish turiga qarab, gofrlangan karton mahsulotining tashqi qatlami jigarrang yoki oqartirilgan bo'lishi mumkin. Gofrlangan karton mahsuloti tekis silliq qatlam (astar) va flyuting (gofrlangan) qatlamlardan iborat. Tekis kartonning sifati GOST 7420 ga, gofrlangan qog'oz esa GOST 7377 ga mos kelishi kerak [5]. Gofrlangan kartonning tarkibi;


-top layner - bu gofrlangan karton qadoq mahsulotining yuqori qatlami deb ataladi. Tarkibi 100 foiz kraft tsellyuloza tolasi bo'lgan yuqori sifatli karton ham deyish mumkin.

-flyuting – bu gofrlangan qatlam. Flyuting odatda 100 foiz qayta ishlangan chiqindi qog'ozdan (qog'oz va karton) tayyorlanadi.

-layner – bu kartonning pastki tekis qatlami. Bu nom inglizcha layner – taglik so'zidan kelib chiqqan. FEFCO tasnifi silliq kartonning bir nechta turlarini ajratib turadi. Bu nom sovuqqa chidamli va suv o'tkazmaydigan qo'shimchalarni o'z ichiga olgan yoki yuza o'lchamiga duchor bo'lgan materialga tegishli bo'lishi mumkin.

Matbaa jarayonida bosma material yuzasiga tasvir tushirish uchun qog'ozning g'adir-budurligi eng muhim xossalardan biri hisoblanadi. Qog'ozning g'adir-budurligi qog'oz varag'i yuzasidagi tolalarning o'zora tartibsiz joylashishi bilan bog'liq. Aksincha, fleksografik bosma usulida gofrlangan karton yuzasiga bosishda, bo'yoq qatlami bosma materialning g'ovakliligiga kirib rastr nuqtalarning yoyilish holatlarini hosil qiladi. To'liq silliq yuzaga ega silliq yuzada bosish jarayonini hosil qilib ham bo'lmaydi. Bosish jarayoni g'adir-budir yuzalarda hosil bo'ladi. Nam usulda olingan qog'oz yuzasi har doim mikrog'ovakliliklar bo'ladi, bundan tashqari, qog'ozning yuza qismiga nisbatan, teskari tomonida g'adir-budirlik yuqori bo'ladi [6].

Shuni ta'kidlash kerakki, g'adir-budirlik qiymatini aniqlash metrologiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Muvozanat g'adir-budirlik parametrlari GOST 2789-73 "Yuza g'adir-budurligi. Parametrlar, xarakteristikalar va belgilar" da belgilangan [7].



1-rasm. Qog'ozning yuza g'adir-budirligi

Ushbu normativ hujjatga muvofiq, qog'oz g'adir-budurligi ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

• Ra - profil og'ishining o'rtacha arifmetik qiymati.

• Rz - 10 nuqtada olingan profil tartibsizliklarining balandligi.

• S - profilning o'rtacha qadami;

• S_m – g'ovaklilik qadamining o'rtacha arifmetik qiymati;

- Rmax - profilning maksimal balandligi;
- tp - profilning nisbiy uzunligi (mos yozuvlar), p - profil qismining darajasi. Top layner, flyuting va layner qog'ozlarinig yuza g'ovakligi ya'ni g'adir-budirligi aniqlandi

GOST 25142-82 [8]. Gofrlangan kartonlar qog'ozlarining yuza g'adir-budurligini TR 300 uskunasi aniqlandi. Shunga muvofiq, Ra, Rz g'adir-budurlik parametrlari uchun olingan natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Gofrlangan karton qog'ozlarning g'adir-budurligi

| | Top layner | Flyuting | Layner |
|------------------------------|---------------|--------------|--------------|
| R_a nm | 5,442 | 7,538 | 6,547 |
| R_p nm | 18,879 | 23,04 | 39,04 |
| R_v nm | 6,729 | 17,388 | 21,42 |
| R_t nm | 7,608 | 19,43 | 40,47 |
| R_z nm | 7,608 | 10,43 | 25,47 |
| R_q nm | 3,947 | 8,544 | 8,442 |
| R_{sk} | 0,555 | 1,290 | 0,272 |
| R_{ku} | 1,692 | 2,716 | 2,940 |
| R_c nm | 7,608 | 7,379 | 7,979 |
| S, mm | 0,107 | 0,076 | 0,114 |
| S_m, mm | 0,774 | 0,116 | 0,126 |
| R_{max}, mm | 4,003 | 4,115 | 4,096 |
| T_p, pks/cm | 15,000 | 12,50 | 42,50 |

Olingan ma'lumotlarga (1-jadval) ko'ra Ra, Rz ning eng past qiymatlariga ko'ra, yuza g'adir-budirligi normativ hujjatlarga mos keladigani top layner qog'oziga tegishli ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Tajribaviy tanlangan variantlarga muvofiq tayyorlangan qoplama qatlamining profilning (Rz=25) eng katta o'simalari va chuqurliklarining o'rtacha qiymati bo'yicha g'adir-budurlik (Ra=6) o'rtacha arifmetik qiymatiga ega. Bosma bo'yoqning qog'ozga shimilish chuqurligi qog'ozning solishtirma ichki yuzasi ya'ni g'adir-budirligi bilan aniqlanadi, g'adir-budurlik o'lchamlari kamayganda, yuzada bo'yoq yaxshi taqsimlamaydi, aksincha g'adir-budurlik o'lchamlari kattalashganda, yuzada bo'yoqning ko'p shimilishiga, qog'oz orqa tomonida tasvir hosil bo'lishiga va chaplanishi, varaq yuzasining tuzilmasi ta'siri ostida optik zichlik ko'rsatkichlarining juda past bo'lishiga olib keladi [9].

Shuningdek, profilning eng katta do'ngligining balandligi Rp, profilning eng katta botiqlari chuqurligi Rv, profilning to'liq balandligi Rm, profil notekisliklarining o'rtacha qadami Sm, profilda mahalliy do'ngliklarning o'rtacha qadami S ham aniqlangan bo'lib, ularning o'rtacha nisbiy og'ishi mos ravishda 1-jadvalda keltirilgan. Tasvir tushiriladigan yuza top laynerda Ra 5,442 Sm 0,107 ni va Rz 7,608 nm ni tashkil qildi. Bu gofrlangan karton yuzalarining adgezion xossalariga ta'sir qiluvchi asosiy omil talab darajasida ekanligini bildiradi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, top layner yuzasi g'adir-budurligi bosma bo'yoqning yaxshi yopishishini ta'minlaydi va bo'yoq molekullari bilan reaksiyaga kirishish uchun sharoit yaratib, ularning bir tekis taqsimlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Инвестиционный проект по развитию производства гофротары. [Электронный ресурс] // URL: <http://www.vevivi.ru/best/Investitsionnyi-proekt-porazvitiyu-proizvodstva-gofrotary-ref125203.html>

2. Области применение гофрокартона [Электронный источник]: Журнал "Гофроиндустрия" / 2022. – Режим доступа: <http://www.mpzp.ru/art/79226014>.<http://www.polymerbranch.com>
3. Кушнерев В.Н. Современные тенденции развития производства упаковки из гофрокартона // Материалы II Междунар. науч.-практ. конф. «Гофрокартон от сырья до печати», СПб., 24-25 апр. 2022. С. 20-26.
4. ГОСТ 7420-89 Картон для плоских слоев гофрированного картона. Технические условия по стандартам от 01 января 2019 г. М.: Изд-во стандартов, 2021. -8 с.
5. Гурьев А.В. Влияние композиции и степени разработки полуфабрикатов на прочность и жесткость бумаги для гофрирования // Караваево. 2010. №7-8. - С.40-46.
6. Чавчавадзе, Е.С. Атлас древесины и волокон для бумаги М.: Ключ, 2002.-336 с.
7. Ешбаева У.Ж. Печатно-технические свойства новых видов бумаг, содержащих химические волокна: Дисс. на соис. уч. степ. канд. тех. наук. – Ташкент. ТИТЛП. 2008. –136 с.
8. Ешбаева У.Ж., Жалилов А.А. Шин И.Г. Оценка толщины красочного слоя печатной продукции из опытных образцов бумаги UNIVERSIUM: Технические науки Научный журнал. г. Москва. 2019 г. Выпуск №2 (56). Февраль. 54-60 стр

SINETETIK FLOKULYANTNI SUVLI ERITMALARDAGI FLOKULYATSION VA FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI
ФЛОКУЛЯЦИЯ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СИНТЕТИЧЕСКОГО ФЛОКУЛЯНТА В ВОДНЫХ РАСТВОРАХ
FLOCCULATION AND PHYSICO-CHEMICAL PROPERTIES OF SYNTHETIC FLOCCULANT IN AQUEOUS SOLUTIONS

Niyazov Daniyar Baxtiyarovich–O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo, tayanch doktorant
Niyazova Mavlyuda Muxitdinovna-Toshkent kimyo-texnologiya instituti k.f.n., dotsent
Turabdjanoov Sadritdin Maxamatdinovich–Islom Karimov Nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, t.f.d. professor
, Saydaxmedov Shamshiddinxuja Muxtarovich–O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo, t.f.d., yetakchi ilmiy xodim

Аннотасија. Chiqindilarni va sanoat oqava suvlarini tozalash, qayta ishlatish uchun qo‘shimcha moddalardan tozalashni talab qiladi. Tozalashda flokulyatsiya (elektr zaryadiga bog‘liq emas va eng tez) usuli orqali amalga oshirilishi mumkin. Noorganik flokulyantlar juda ko‘p miqdorda qo‘llaniladi, ular ko‘p miqdorda quyqalar qoldiradilar va pH o‘zgarishlariga kuchli ta‘sir qiladi.

Калит со‘злар. Flokulyant, suv, qovushqoqlik, izoterma, konsentratsiya.

Аннотация. Очистка отходов и промышленных сточных вод требует очистки от добавок для повторного использования. Очистку можно производить флокуляцией (которая не зависит от электрического заряда и является самой быстрой). Неорганические флокулянты используются в больших количествах, они оставляют большое количество сгустков и сильно влияют на изменение pH.

Ключевые слова. флокулянт, вода, вязкость, изотерма, концентрация.

Annotation. The treatment of waste and industrial waste water requires the treatment of additives for reuse. Cleaning can be done by flocculation (which is independent of electric charge and is the fastest). Inorganic flocculants are used in large quantities, they leave a large amount of clots and strongly influence the pH change.

Keywords. Flocculant, water, viscosity, isotherm, concentration.

Кирш. Kraxmal, gum, alginat, glikogen yoki dekstrin kabi tabiiy polisaxaridlardan foydalanish mumkin. Ushbu polisaxaridlarning samaradorligini oshirish uchun kimyoviy modifikatsiya qilish, shu jumladan

polisaxaridlar magistrallariga poliakrilamidga uglevodorod zanjirini kiritish mumkin. Biz polisaxaridlarga asoslangan flokulyantlarni batafsilroq muhokama qilamiz, chunki ular barqarorligini va biologik parchalanishni ta'minlaydi. Flokulyantlar eritmada polimer sifatida mavjud bo'lganligi sababli, ularning standart xarakteristikasi aylanish radiusi va flokulyatsiya samaradorligi bilan bog'liq. Flokulyatsiya bilan ham bog'liq, chunki bir xil polimerik vositalar ikkalasini ham keltirib chiqaradi. DR qisqacha tavsiflanadi va ikkala hodisaning umumiy mexanizmi tushuntiriladi. Qishloq xo'jaligida sug'orish suvi sifatida flokulyatsiyadan keyin qayta ishlangan sanoat suvidan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Bunday foydalanish atrof-muhitning kamroq ifloslanishiga va toza suvni tejashga olib keladi [1-4].

Suvni tozalash samaradorligining zaryadning kattaligiga bog'liqligi qanchalik


kuchli bo'lsa, flokulyantlarning molekulyar og'irligi shunchalik past bo'ladi. VPK 101, VPK 402 kabi past molekulyar og'irlikdagi flokulyantlarning yuqori flokulyatsiya faolligi ionogen guruhlarning maksimal miqdori 90 - 100% bo'lganida kuzatiladi [5-7].

Tadqiqot obyekti va metodlari.

Tadqiqotda ishimizda F-3 seriyali flokulyantlar tanlab olindi. Flokulyantlarning suvli eritmalaridagi flokulyatsion a fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganildi.

Olingan natijalar va muhokamalar.

Flokulyantlarning eritmalarida bir qator o'ziga xos xususiyatlarni nomoyon qiladi, ular suvda eriganida qovushqoqligi va elektrokimyoviy xususiyatlarini o'rganishda namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlardan biri flokulyantlar suvda eriganida qovushqoqligining ortishiga olib keladi. Bunda flokulyant makromolekulalar konsentratsiyasining pasayishi bilan ularning hajmining oshishiga bog'liq bo'ladi.



1-rasm. Flokulyant F-3 ning suvli eritmasining qovushqoqlik izotermasi

Bu ta'sir ayniqsa ionogen flokulyantlar eritmalarida yaqqol namoyon bo'ladi (1-rasm). Ular suyultirilganda, makroion yaqinidagi qarama-qarshi ionlarning konsentratsiyasi pasayadi va polimer zanjirining o'xshash zaryadlangan birliklarining elektrostatik o'zaro itarilish kuchayadi.

Eritmadagi flokulyant konsentratsiyasining C_0 ning ma'lum qiymatidan oshishi bilan (1-

rasmga qarang) qovushqoqlikning o'shishi kuzatiladi, bu molekulalararo o'zaro ta'sir va fazoviy tuzilmalarning shakllanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Flokulyantlarning ($\eta_{priv} - \eta_{kel}$ dl/g) suvli eritmalarining kamaytirilgan qovushqoqligi qiymati saqlash vaqtida ularning gidrolitik barqarorligini baholash uchun mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ma'lumki, flokulyantlarning suyultirilgan suvli

eritmalarining saqlash muddati juda qisqa. Masalan, poliakrilonitrilning 0,72-0,95% li suvli eritmaları uchun yaroqlilik muddati 14 kundan, 0,35 - 0,6% li eritmalar uchun - 6 kun, 0,1 - 0,3% li eritmalar uchun esa 2 kundan oshmaydi.

Suvli eritma tarkibidagi tuz miqdorining oshishi flokulyantlarning ionogen guruhlari dissotsilanish darajasining pasayishi va ularning eritmaları yopishqoqligining pasayishiga bilan birga keladi. Shu munosabat bilan, flokulyantlarni ishlab chiqaruvchi ba'zi firmalar, uni aniqlashning murakkabligi tufayli molekulyar og'irlik o'rniga, flokulyantlarni tavsiflash uchun ma'lum bir konsentratsiyadagi past molekulyar og'irlikdagi tuzlarning eritmalarida, masalan, KCl ning 1 n eritmasidan foydalanildi.

Polimerdagi almashinuv qobiliyatining qiymati yoki ionogen guruhlarning konsentratsiyasi ba'zi kompaniyalar tomonidan ularning asoslilik darajasini tavsiflash uchun ishlatiladi. Kuchli asosiy flokulyantlarga almashinish qobiliyati 3,8-4,5 mgekv/g bo'lgan yoki tarkibida 50 dan 100% gacha ionogen guruhlarga ega bo'lgan, o'rta asosli - almashinish qobiliyati 2,0-3,5 mgekv/g yoki 20 dan 50% gacha bo'lgan reagentlar kiradi. ionli guruhlari, past asosligacha - almashinuv qobiliyati 0,8-1,8 mgekv/g yoki 3 dan 20% gacha ion guruhlari o'z ichiga oladi.

Elektrokinetik potentsialning qiymati flokulyantning ionogenligining universal ko'rsatkichidir, chunki u suvni tozalash, flokulyant dozasi nazorat qilish va tartibga solish jarayonlarida flokulyantlarning

samaradorligini o'rganish uchun ham ishlatilishi mumkin. Buning sababi shundaki, ifloslantiruvchi moddalar zarralari musbat yoki manfiy zaryadlangan bo'lib, qarama-qarshi zaryadlangan flokulyant kiritilganda, zarrachalarning EKP qiymati kamayadi va flokulyantning ma'lum konsentratsiyasida dispers faza zarralari qayta zaryadlanadi. Oqava suvning dispers fazasining EKP qiymati qanchalik tez kamayadi, flokulyant makromolekulalarning zaryadi shunchalik ko'p bo'ladi.

Flokulyantlardan foydalanishning ikkinchi sohasi suvni eruvchan birikmalar hosil qilish uchun flokulyantlar bilan kimyoviy o'zaro ta'sirga kirishishi mumkin bo'lgan organik aralashmalardan tozalashdir. Bularga neft va neft mahsulotlari, anion va kation sirt faol moddalar, gumus va fulvo kislotalar, bo'yoqlar, yog'lar, smolalar, yuqori molekulyar organik kislotalar, oqsillar va boshqalar kiradi.

Xulosa. Flokulyatsiya mexanizmi haqidagi ushbu nazariyalarga asoslanib, organik flokulyantlarning flokulyatsiya xususiyatlari quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- flokulyantlarning fizik-kimyoviy xarakteristikalari (molekulyar og'irligi, ionogen guruhlarning mavjudligi va dissotsilanish darajasi);
- tozalangan suvning fizik-kimyoviy xususiyatlari (tabiati, tarqalish darajasi va ifloslantiruvchi moddalarning konsentratsiyasi, erigan moddalarning mavjudligi va tabiati);
- flokulyatsiyaning texnologik parametrlari (aralashtirish va flokulyatsiya shartlari).

Foydalanadigan adabiyotlar:

1. Salov V. N. // Water and Ecology. Problems and solutions. SPb., 2000. No. 2. S. 65-67.
2. Gandurina L.V. Optimization of the process of flocculation of industrial wastewater with organic flocculants /L.V. Gandurina, L.N. Butseva., B.C. Shtondina // Proceedings. report IV Intern. congress "Water: ecology and technology". M.: "Ekvatek-2000", 2000. S. 584.
3. Kurenkov VF //Soros Educational Journal. 1997. No. 7. S. 57-63.
4. Kurenkov V.F. Application of polyacrylamide flocculants for water treatment /V.F. Kurenkov, H.G. Hartan, F.I. Lobanov // Chemistry and computer modeling. Butler messages. 2002. No. 11. pp.31-40.
5. Nebera V.P. Flocculation of mineral suspensions /V.P. Neber. Moscow: Nedra, 1983.288 p.
6. Gandurina L.V. Organic flocculants in the technology of natural and waste water treatment and sludge treatment: Analytical review / L.V. Gandurina M.: ZAO DAR / VODGEO, 2002. 75 p.
7. Development and implementation of water treatment complexes for surface runoff /M.G. Zhurba [and others] // Water supply and sanitary engineering. 2003. No. 3. C. 13 - 16.

**F-3 SERIYALI FLOKULYANTLARGA N-GEKSAN, BENZOL VA TOLUOL BUG'LARI
SORBSIYA IZOTERMASI
ИЗОТЕРМА СОРБЦИИ ПАРОВ Н-ГЕКСАНА, БЕНЗОЛА И ТОЛУОЛА
ФЛОКУЛЯНТАМИ СЕРИИ F-3
SORPTION ISOTHERM OF N-HEXANE, BENZENE, AND TOLUENE VAPOR BY
FLOCULANTS OF THE F-3 SERIES**

Niyazov Daniyar Baxtiyarovich–O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo, tayanch doktorant
Niyazova Mavlyuda Muxitdinovna-Toshkent kimyo-texnologiya instituti k.f.n., dotsent
Turabdjanov Sadritdin Maxamatdinovich–Islom Karimov Nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti rektori, t.f.d. professor
Saydaxmedov Shamshitdinxuja Muxtarovich–O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo, t.f.d.,
yetakchi ilmiy xodim

Annotatsiya. Adabiyotlardan ma'lumki flokulyantlar oqova suvlar takribidagi neft mahsulotlarini, metall ionlaridan tozalashda foydalaniladi. Tadqiqot ishida vakuumli sharoitda absolyut adsorbatlarni, ya'ni n-geksan, benzol va toluol bug'larining adsorbsiyalash qonuniyatlari o'rganildi. Adsorbatlar adsorbsiyalanishidan π -bog'lar hisobiga adsorbsiyalanish borishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: flokulyant, izoterma, adsorbsiya, π -asoslar, n-geksan, benzol va toluol.

Аннотация. Из литературы известно, что флокулянты используются при очистке сточных вод от нефтепродуктов и ионов металлов. В исследовательской работе изучены закономерности адсорбции абсолютных адсорбатов, т.е. паров n-гексана, бензола и толуола в условиях вакуума. Установлено, что адсорбция адсорбатов происходит за счет p -связей.

Ключевые слова: флокулянт, изотерма, адсорбция, p -основания, n-гексан, бензол и толуол.

Annotation. It is known from the literature that flocculants are used in wastewater treatment from oil products and metal ions. In the research work, the regularities of adsorption of absolute adsorbates, i.e. vapors of n-hexane, benzene and toluene under vacuum were investigated. It has been established that the adsorption of adsorbates occurs due to p -bonds.

Key words: flocculant, isotherm, adsorption, p -bases, n-hexane, benzene and toluene.

Kirish. Past molekulyar og'irlikdagi VPK 101, VPK 402 polielektrolitlaridan farqli o'laroq, yuqori molekulyar og'irlikdagi K 100, AK617, Praestol 650 flokulyantlarining yopishqoqlik izotermalari eritmadagi flokulyantning ma'lum konsentratsiyasida minimal darajadan o'tadi [1].

Tuzlarning qo'shilishi polielektrolit eritmalarining yopishqoqligini sezilarli darajada kamaytiradi, poliion zaryadlarining ekranlanishiga olib keladi va natijada ular egallagan hajmning pasayishiga olib keladi [2].

Eritma suyultirilganda, elektr energiyasini uzatishda ishtirok etadigan erkin qarshi ionlarning ulushi ortadi va shu bilan birga

makroionning umumiy zaryadi va shuning uchun uning harakatchanligi ortadi, bu eritmaning ekvivalent elektr o'tkazuvchanligini oshirishga yordam beradi. Elektr o'tkazuvchanlik izotermalarining egilgan tabiati barcha o'rganilayotgan flokulyantlarning eritmalarida qarshi ionlar assotsiatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi [3].

Karboksil guruhlarning ionlanish darajasi va polimer anionlarining gidrodinamik kattaligi oshishi eritmaning sirt tarangligining oshishi bilan ham birga bo'ldi [4].

Polimolekulyar adsorbsiya mumkin bo'lganda, suvda eruvchan polimerlar gidrofil sirtida adsorbsiyalanganda, ya'ni

erituvchining raqobatbardosh adsorbsiyasi mavjud bo'lganda, konsentrlangan eritmalardan adsorbsiya uchun ekstremal va burilishli izotermalar xarakterlidir [5].

Tadqiqot ob'ekti va metodlari. Adsorbsiya izotermalari vakuumli adsorbsion Mak-Ben qurilmasida o'lchandi. Adsorbsiya izotermasi aniqlik xatoligi 0,1% va issiqligi 1% gacha bo'ladi [6]. Adsorbat sifatida olingan n-geksan, benzol va toluol sorbsiyada foydalanishdan avval vakuum sharoitida tozalandi va quritildi. Shundan so'ng adabiyotlarda [7] keltirilgan ma'lumotlar bilan muvofiqligi aniqlandi. F-3 seriyali flokulyantlarda n-geksan, benzol va toluol adsorbsiyasi 303 K da olib borildi.

Olingan natijalar va muhokamalar. Yuqori molekulyar o'lchamga ega bo'lgan sirt faol moddalar bilan modifikatsiya qilingan adsorbentlarda, aromatik molekularining adsorbsiyasi, strukturasorbsion ko'rsatkichlari, adabiyotlarda o'rganilgan bo'lsada, navoiy azotda chiqadigan poliakrilonitril chiqindilaridan olingan F-3 flokulyantida π -asoslar: benzol va toluol adsorbsiyasi va ularning adsorbentlar kislotalik faol markazlari bilan o'zaro ta'sirlanishi energiyasining qanday omillarga bog'liqligi o'rganilmagan.

Modifikatsiyalangan poliakrilonitril tolasi chiqindilari sorbsion markazlarda bo'shlik hajmlari almashinuvchi organik va radikallarning o'lchamlari bilan bog'liq.

Modifikatsiyalovchi kationlar o'lchamlariga mos ravishda qavatlararo masofalarning ochilishi, qavatlararo adsorbsiyasi bilan aniqlanadi.


Flokulyantlarning adsorbsiyalash xossalarini oshirish uchun ularning sintez qilinishiga qarab farqlanadi. F-3 seriyali flokulyantlar (1-rasmga qarang) sorbsiyalash qobiliyatiga adsorbat sifatida olingan n-geksan, benzol, toluollarning adsorbsiyasi qiyosiy o'rganildi.

Adsorbsiya izotermalarining shakli adsorbent va yutilayotgan moddaning xossalariga va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir qilish kuchlariga bog'liq.

Mazkur adsorbatlarni Brensted klassifikatsiyasi bo'yicha organik asoslar: π -asoslari (benzol, toluol), oksoniy asoslari (metanol), ammoniy asoslari (piridin va asetonitril) deb qarash mumkin [6].

Kiselev klascifikatsiyasi bo'yicha adsorbatlar 4 ta guruhlariga ajratiladi. Biz tanlab olgan adsorbatlar quyidagi guruhlarga mansub:

- simmetrik tuzilishga ega, faqat π -bog'lar mavjud (n-geksan);
- π -bog'larga ega to'yinmagan aromatik uglevodorodlar (benzol toluol) va umumlashmagan elektron juftlari mavjud atomli modda (piridin);
- funksional guruhga ega bo'lgan molekular (metanol, asetonitril).



1-rasm. F-3 seriyali flokulyantda (303 K) organik modda bug'larining: 1-n-geksan, 2-benzol, 3-toluol, molekularining sorbsiyasi izotermalari

Adsorbatlarning (n-geksan, benzol, toluol) F-3 seriyali flokulyantda adsorbsiya izotermalari past nisbiy bosimlarda (R/R_s) adsorbsiya miqdori juda kam bo'ldi. Qutbsiz tuzilishga ega n-geksan, benzol va toluol

molekulari qutbli metanol, piridin va asetonitrilga nisbatan F-3 seriyali flokulyantda kam adsorbsiyalandi. Bu esa organik asos moddalarni F-3 seriyali flokulyantning asosan tashqi yuzasida, ya'ni

mezog'ovaklarda adsorbsiyalanish sodir bo'lganligidan dalolat beradi.

n-Geksandan benzol va toluol molekulari nisbatan ko'proq adsorbsiyalandi, bunga sabab benzol va toluolning yadrolaridagi π -elektron sistemasining adsorbent faol markazlari bilan o'zaro ta'sirlanishlaridan ya'ni qutbiyligi mavjudligidan deb qarash mumkin.

Xulosa. Ko'pchilik tadqiqot ishlarida flokuyantlarni turli xil usullarda adsorbsiyalanishini o'rganilgan. Vakuimli usullarda esa deyarli tadqiqot ishlari o'rganilmagan. Boshqa usullardan farqli tomoni flokuyalntga adsorbat sifatida olgan barcha moddalar absolyut toza adsorbatlar hisoblanadi. Bu esa flokuyantlarda boradigan adsorbsion jarayonlar mexanizmini to'liq ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пушкарёв В.В., Трофимов Д.И. Физико-химические особенности очистки сточных вод от ПАВ. - М.: Химия, 1975. - 144 с.
2. Справочник проектировщика. Канализация населенных мест и промышленных предприятий. - М.: Стройиздат, 1981.
3. Кульский Л.А., Строкач П.П. Технология очистки природных вод. - Киев: Высшая школа, 1986. - 352 с.
4. Бойко В.И. // Коллоидный журнал. - 1976. - 38. - №3. - С. 539.
5. Галкин Ю.А. Эмульсионно-суспензионные микрогетерогенные системы и их классификация // Химия и технология воды. - 1989. - 11, - №11. - С 1048.
6. Mentzen B.F., Rakhmatkariev G.U. // Узб. хим. журнал, 2007. -№6. -С. 10-31.
7. Варгафтик Н.Б. Справочник по теплофизическим свойствам газов и жидкостей. - М.: Наука, 1972. - 720 с.

TUPROQ VA O'SIMLIKLARNING TEXNOGEN IFLOSLANISHI

ТЕХНОГЕННОЕ ЗАГРЯЗНЕНИЕ ПОЧВЫ И РАСТЕНИЙ

TECHNOGENIC POLLUTION OF SOIL AND PLANTS

Diyorova Muxabbat Xurramovna-Qarshi davlat universiteti Agrokimyo va ekologiya kafedrasida dotsenti,

Toyloqova Fotima Sayfulla qizi-Qarshi davlat universiteti Agrokimyo va ekologiya kafedrasida magistranti

Annotatsiya. Muborak gazni qayta ishlash zavodi asosan tabiiy uglevodород gazlari tarkibidan oltingugurt moddasini ajratib olishga ixtisoslashgan bo'lib, gazni qayta ishlash natijasida atmosferaga ko'p miqdorda vodorod sulfid (H_2S) hamda sulfat angidrid (SO_2) birikmalari ajralib chiqadi. Chiqindilarning kislotali yomg'ir va kukun holatda tuproqlarning mikroflorasiga hamda mevali daraxtlarning o'suv hamda generativ organlariga ta'sir qilish mexanizmi aniqlandi. O'simliklarda kechadigan fiziologik o'zgarishlar asosan zaharli moddalarning o'simliklar o'sishi, rivojlanishi va hosilining sifatiga ta'siri aniqlandi.

Kalit so'zlar: fizik-mexanik, kimyoviy, generativ, mikroflora, mikroorganizm, ammonifikator, nitrifikator, azotafikator, sulfofikator, aktinomitset, oltingugurt oksidi, vodorod sulfid.

Аннотация. Мубарекский газоперерабатывающий завод специализирован на очищение природных углеводородных газов от серы. Во время переработки в атмосферу выбрасываются вредные соединения серы в виде (H_2S) и (SO_2). Эти выбросы, в виде кислотных дождей и сухого порошка отрицательно влияют на рост и развитие растений. Выявлен механизм действия отходов на почвенную микрофлору, а также на ростовые и генеративные органы плодовых деревьев. Физиологические изменения в растениях в основном сказывались на воздействии токсинов на рост, развитие и качество урожая.

Ключевые слова: физико-механический, химический, генеративный, микрофлора, микроорганизм, аммонификатор, нейтрализатор, азотфиксатор, сульфификатор, актиномицет, оксид серы, сероводород.

Annotation. Mubarek Gas Processing Plant is specialized in purification of natural hydrocarbon gases from sulfur. As a result of gas processing, a large amount of hydrogen sulfide (H₂S) and sulfate anhydride (SO₂) compounds are released into the atmosphere.

Key words: Physical and mechanical, chemical, generative, microflora, microorganism, ammonifier, neutralizer, nitrogen fixer, sulfifier, actinomycete, sulfur oxide, hydrogen sulfide.

Tuproq murakkab tabiiy tarixiy tana bo'lib, o'zining kelib chiqishi, shakllanishi, tuzilishi, fizik-mexanik xossalari, kimyoviy tarkibi, unumdorlik darajasi bilan insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini belgilaydigan, eng muhimi biosferada bevosita ekologik funksiyasi bilan ishtirok etadigan hayot manbai hisoblanadi [1].

Hozirgi kunda tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi va muhofazasi Yer kurrasida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi va bu masalaga jiddiy yondashish talab etiladi. Shuning uchun ham tuproqlarning kimyoviy ifloslanish darajalari va koeffitsientlari qabul qilingan [2].

Tuproq unumdorligini boshqarishda agronomik jihatdan muhim bo'lgan mikroorganizmlarning o'ziga xos guruhi ammonifikator, nitrifikator, azotofiksator, sulfifikator kabilarning faoliyati juda muhimdir. Ya'ni ular tuproqdagi kletchatkani parchalanishida, moy kislotali bijg'ishlarda faol ishtirok etadi, biologik jarayonlarni boshqaradi. Tuproqdagi mikrobiologik jarayonlar mavsumiy xarakterga ega bo'lib, asosan oziq moddalar miqdori va tabiatiga, haroratga, nam hamda kislorod miqdoriga, eritma reaksiyasiga bevosita bog'liq ekanligi tadqiqotchilar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan [3,4]. Tadqiqotchilarning ma'lumotlarida sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlarning haydov qatlamida aktinomitsetlar soni boshqa mikroorganizmlarga nisbatan ko'p bo'lishi qayd etilgan. Chunki bu organizmlar tuproqdagi keskin ekologik sharoitlarga hamda tuproq eritmasining kuchli osmotik bosimiga chidamlidir.

Keyingi yillarda tuproqning sanoat chiqindilari, neft mahsulotlari, og'ir metallar bilan ifloslanishi natijasida undagi mikrobiologik jarayonlarning susayishi va

uning zararli oqibatlarini bartaraf etish borasida ko'pgina ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Qashqadaryo viloyatida qurilgan Mubarak gazni qayta ishlash korxonai hamda Sho'rtanneftgaz Unitar Shu'ba korxonasi Respublikamizdagi yirik sanoat korxonalaridan bo'lib, uzoq yillar davomida atrof muhitga ko'p miqdorda aerazol tipidagi texnogen moddalar chiqarib, hududda tarqalgan tuproq va o'simlik qoplamiga zararli ta'sir ko'rsatmoqda.

Mubarak gazni qayta ishlash korxonai chiqindilarining tuproq mikroflorasiga ta'sirini statsionar dala tajriba asosida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, Qarshi cho'li sharoitida tarqalgan tuproqlarning mikrobiologik xossalari avvalo uning tipiga hamda madaniylashganlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

Uglevodorodlarni qayta ishlash natijasida ajralib chiqadigan texnogen moddalar tuproq va o'simlik ustiga kislotali yomg'ir yoki kukin holatda tushar ekan ularni zararli ta'siri korxonadan uzoqlashish masofasiga bevosita bog'liq bo'ladi [5]. Ya'ni bu chiqindilarning zararli ta'siri korxonai ichi va unga yaqin 10-15 km masofagacha yaqqol seziladi. Oltingugurt oksidi (SO₂) hamda vodorod sulfid (H₂S) holida tushgan kislotali tabiatga ega bo'lgan chiqindilar tuproqdagi ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, natriy sulfat (Na₂SO₄), kaliy sulfat (K₂SO₄), kalsiy sulfat (CaSO₄), magniy sulfat (MgSO₄) kabi suvda u yoki bu darajada eriydigan tuzlar hosil qiladi [6].

Tuproqqa nisbatan mevali daraxtlar sanoat chiqindilaridan kuchli ta'sirlanadi. Natijada o'simlikning vegetativ hamda generativ organlarida jiddiy morfo-anatomik salbiy o'zgarishlar hosil bo'ladi, o'sish va

rivojlanish sussayib hosil va uning sifati yomonlashadi. Ko'p yillik to'plangan ilmiy ma'lumotlar asosida kuzatuvimizdagi mevali daraxtlarning barchasi tashqi muhit omillari bir xil ta'sir etib turgan sharoitda, oltingugurt birikmalarining ta'siri natijasida ularning o'sishi va rivojlanishida keskin

tafovvtlar borligi aniqlandi. Kuzatuvda bo'lgan barcha o'simliklarning barglar soni novdalarning yillik o'sishi, barg va gul kurtaklarning shakli va o'lchamidagi o'zgarishlar ekologik toza muhit o'simliklariga nisbatan katta farq qilshi aniqlandi (jadval).

jadval

Korxonada chiqindilarini mevali daraxtlar novdasining yillik o'sishiga ta'siri (sm)

| № | Daraxt turi | Korxonada hududi | | | Qarliq qishlog'i | | | Qarshi shahri | | |
|---|-------------|------------------|----------|----------|------------------|----------|----------|---------------|----------|----------|
| | | Yillar | | | | | | | | |
| | | 2018 | 2019 | 2020 | 2018 | 2019 | 2020 | 2018 | 2019 | 2020 |
| 1 | Olma | 38,0±0,6 | 36,2±0,5 | 31,4±0,5 | 40,3±0,6 | 32,4±0,3 | 26,6±0,7 | 42,8±0,7 | 40,5±0,6 | 34,1±0,6 |
| 2 | O'rik | 20,0±0,5 | 21,6±0,7 | 20,3±0,5 | 24,0±0,6 | 20,9±0,5 | 19,0±0,6 | 26,5±0,6 | 28,3±0,8 | 23,7±0,6 |
| 3 | Behi | 26,2±0,5 | 22,0±0,6 | 20,4±0,7 | 24,4±0,6 | 21,7±0,6 | 19,8±0,5 | 29,4±0,6 | 24,2±0,6 | 23,3±0,6 |
| 4 | Bodom | 12,9±0,5 | 10,7±0,6 | 9,4±0,5 | 14,0±0,5 | 12,8±0,5 | 12,0±0,5 | 18,6±0,5 | 15,7±0,6 | 14,2±0,5 |
| 5 | Olcha | 18,2±0,6 | 14,6±0,5 | 10,2±0,5 | 20,0±0,6 | 21,3±0,5 | 20,2±0,5 | 30,1±0,5 | 26,0±0,5 | 19,8±0,7 |
| 6 | Shaftoli | 23,0±0,6 | 19,4±0,5 | 18,2±0,5 | 27,6±0,6 | 20,1±0,4 | 19,8±0,6 | 36,7±0,7 | 31,3±0,5 | 29,7±0,4 |

Korxonadan 70 km masofada joylashgan nisbatan ekologik toza hudud deb olingan Qarshi tajriba nazoratidagi barcha mevali daraxtlar novdasining yillik o'sishi korxonada ichkarisidagi daraxtlar novdasining yillik o'sishidan sezilarli farq qildi. Olcha daraxti novdalarining o'sish ko'rsatkichi 2018 yilda 30,1 sm, shaftolida 36,7 sm, 2019 yilda olchada 26,1 sm, shaftolida 31,3 sm ga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar korxonada hududidagi olchada 2018 yilda 18,2 sm., shaftolida 23,0 sm., 2019 yilda olchada 14,6 sm., shaftolida 19,4 sm ni tashkil etdi.

Olma o'simligining Qarshi sharoitida yillik o'sishi 2018 yilda 42,8 sm., behida 29,4 sm., 2019 yilda olmada 40,5 sm, behida 24,2 sm ni tashkil etgan bo'lsa, korxonada ichida bu ko'rsatkichlar olmada 2018 yilda 38,0 sm, 2019 yilda 36,2 sm, behida esa 2018 yilda 26,2 sm, 2019 yilda 22,0 sm ni tashkil qildi. Shunday qilib, olcha va shaftoli o'simliklarida novdaning yillik

o'sishidagi tafovvtlar 10-12 sm ni tashkil etgan bo'lsa olma va behi o'simliklarida bu ko'rsatkich 3-5 sm dan oshmadi. Ya'ni bu ma'lumotlar olma va behi o'simliklarini korxonada chiqindilari ta'siriga nisbatan chidamli ekanligidan dalolat beradi.

Korxonada ichi va atrofi hamda Qarliq tajriba sinov maydonida mavjud bo'lgan o'simliklarning barg va barg kurtaklari, shox-shabbalari oltingugurt birikmalaridan ma'lum darajada zararlangan. Korxonada ta'siri zonasida bo'lgan barcha o'simliklarning o'sishi va rivojlanishida keskin pasayish kuzatildi. Bu holat ayniqsa shaftoli va olcha daraxtlarida sezilarli bo'ldi. Ko'rsatkichlar bo'yicha o'rik va bodom o'simliklari oraliq o'rinni egalladi.

Shunday ʻilib, oltingugurtli gaz chiqindilari ta'siriga chidamlilik darajasiga ko'ra, mevali daraxtlarning ekologik qatori monitoringini behi → olma → o'rik → bodom → olcha → shaftoli tartibida joylashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musaev M.N. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari. -Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, 2011. -B. 14.
2. Багрянцева Е.П., Байбардина Т.Н., Бурцева О.А. Анисимов М.В., Смагина Н.С. Утилизация производственных отходов на примере по производству пива в г.Томске. // X Международная научно-техническая конференция «Наука, образование, производство в решении экологических проблем» (Экология – 2013). – Уфа, 2013. – С. 283-288.
3. Заиков Г.Е., Маслов С.А., Руббайло В.Л. Кислотные дожди и окружающая среда. -М.: "Химия", 1991. -140 с.
4. Mircodiqov M.M. "Deystviya mikroorgknizmov na plodorodie pochv" //Orol dengizi havzacinig sahrolanich jarayonida tuproq unumdorligini tiklach, ochirich va ular melioratsiyacining dolzarb muammolari Ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalar to'plami. – Tochkent, 2002. -282-284 betlar
5. Diyorova M.X. Gaz sanoati oltingugurt birikmalini chiqindilarini qurg'oqchil mintaqa tuproqlari xossalari va daraxtlarga ta'ciri hamda ularni yaxchilach yo'llari. Diss. avtoreferati . T.: "O'zR Fanlar Akademiyasi Acociy kutubxonaci", 2018. -15 b.
6. Caidnocirova Z., Anorganik ximiya. - T.: «O'qituvchi», 1970. - 240-253 betlar.

GO'SHT MAHSULOTLARI NAMUNALAR TARKIBIDAGI MAKRO VA MIKROELEMENTLARNI AVIO 200 (ISP – OES) INDUKTIV BOG'LANGAN PLAZMALI OPTIK EMISSION SPEKTROMETR USULIDA ANIQLASH

Sh.K.Kushnazarova QDPI Kimyo kafedrası o'qituvchisi (PhD)
H.V.Burhonova- QDPI akademik litseyi o'qituvchisi
M.U.Sodiqov- QDPI kimyo kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada go'sht mahsulotlarining tarkibini tashkil etuvchi kimyoviy elementlar miqdori o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Go'sht namunalar, makro mikro elementlar miqdori, elementlarning miqdoriy taxlili.

Аннотация. В данной статье рассматривается количество химических элементов, входящих в состав мясных продуктов.

Ключевые слова. Количественный анализ образцов мяса, количество макро- и микроэлементов, компонентов.

Annotation. This article examines the amount of chemical elements that make up the composition of meat products.

Keywords. Quantitative analysis of meat samples, amount of macro and micro elements, components.





Malumki, insonlarning kundalik ist'emol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismini go'sht va undan tayyorlangan mahsulotlar tashkil etadi. Bu esan insonlarning organizimiga to'g'ridan-to'g'ri oziq-ovqat mahsulotlari orqali turli xil zararli bo'lgan kimyoviy birikmalrning kirishga asosiy omil bo'lishi mumkin. Shuni inobatga olib go'sht va go'sht mahsulotlarini kimyoviy tarkibini taxlil etish taqozo etiladi. Go'sht mahsulotlarini kimyoviy tarkibi *Induktiv bog'langan plazmali Optik emission spektrometr usulida* usil orqali taxlil etildi.



Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani "ABDUXALIM FAYZ SAVDO KELAJAGI" XK hamda Beshariq tumani "BESHARIQ

TOVUQLARI" xususiy korxonasi olib kelingan go'sht namunasidan tahlil qilish maqsadida 200 miqdorda analitik tarozida (FA220 4N) tortib olindi. Namunani mineral holga o'tkazish uchun minerallash qurilmasi (MILESTONE Ethos Easy, Italiya)dan foydalanildi. Bunda qurilmaning probirkasiga namunadan 200 distillash asosida tozalangan 6 ml nitrat kislota (HNO₃) va oksidlovchi sifatida 2 ml vodorod peroksidi (H₂O₂) solinib 20 min. davomida 180⁰S da aralashma mineral holga keltirildi. Distillangan kislota infraqizil nur asosida ishlaydigan kislota tozalash (Distillacid BSB-939-IR) qurilmasi yordamida olindi [1.4]. Minerallash jarayoni yakunlangach,





probirkadagi aralashma alohida konussimon o'lchov kolbaga solinib 40 ml bo'lguncha distillangan suv (BIOSAN, Latviya) bilan suyultirildi. Kolbadagi eritma Avtonamuna olish bo'limidagi maxsus probirkalarga solinib analiz olish uchun joylashtirildi. Tayyorlangan namuna analiz uchun **Avio200 ISP – OES** Induktiv bog'langan plazmalı Optik emission

spektrometr (Perkin Elmer, AQSh) da analiz qilindi. Qurilmaning aniqlik darajasi yuqori bo'lib, eritma tarkibidagi elementlarni $10^{-9}g$ aniqlikgacha o'lchash imkonini beradi. Optik emission spektromerik usulida o'rganilgan go'sht mahsulotlarini tarkibida makro va mikro elementlari quyidagicha spektrlarda aniqlandi (1, 2, 3–rasm). [2.3]






1-rasm Tovuq go'shti Optik emission spektrometri natijalari



2-rasm Ot go'shti Optik emission spektrometri natijalari



3–rasm Qo'y go'shti Optik emission spektrometri natijalari

Analiz natijasida olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (1–jadval).

1–jadval

Go'shtlar tarkibidagi og'ir metallarni Optik emission spektrometriya usulida aniqlash natijalari

| No | Element | Tovuq go'shti (mg/kg) | Qo'y go'shti (mg/kg) | Mol go'shti (mg/kg) | Ot go'shti (mg/kg) |
|----|-----------|-----------------------|----------------------|---------------------|--------------------|
| 1. | Mn | 0.002 | 0.003 | 0.002 | 0.004 |
| 2. | Cr | 0.003 | 0.005 | 0.005 | 0.004 |
| 3. | As | 0.915 | 0.693 | 0.403 | 0.359 |
| 4. | Mg | 1.831 | 1.639 | 1.719 | fev.34 |
| 5. | Na | 5.472 | 5.422 | 4.054 | 49.999 |
| 6. | Li | 0.005 | 0.006 | 0.005 | 0.008 |

| | | | | | |
|-----|-----------|--------|--------|--------|--------|
| 7. | K | 13.298 | 15.757 | 19.32 | 22.041 |
| 8. | Ca | 0.808 | 0.828 | 0.514 | 1.724 |
| 9. | Fe | 0.04 | 0.303 | 0.258 | 0.319 |
| 10. | Co | 0 | 0.001 | 0.001 | 0.002 |
| 11. | Ni | 0.007 | 0.006 | 0.006 | 0.006 |
| 12. | Cu | 0.016 | 0.018 | 0.017 | 0.021 |
| 13. | Zn | 0.054 | 0.376 | 0.533 | 0.466 |
| 14. | Al | 0.008 | 0.006 | 0.006 | 0.006 |
| 15. | B | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 16. | P | 14.982 | 16.065 | 16.932 | 18.032 |
| 17. | S | 2.077 | 1.766 | 1.766 | 1.452 |
| 18. | Se | 0.014 | 0.02 | 0.009 | 0.021 |
| 19. | Sn | 0.008 | 0.014 | 0.012 | 0.011 |
| 20. | Sb | 0.015 | 0.007 | 0.007 | 0.007 |
| 21. | Pb | 0 | 0.006 | 0.005 | 0.002 |
| 22. | Hg | 0.001 | 0.002 | 0.002 | 0.002 |
| 23. | V | 0.002 | 0.001 | 0.002 | 0.001 |
| 24. | Ba | 0.0004 | 0.0003 | 0.0003 | 0.0003 |
| 25. | Mo | 0.006 | 0.003 | 0.006 | 0.002 |
| 26. | Cd | 0.0003 | 0.0004 | 0.0004 | 0.001 |
| 27. | Ag | 0 | 0 | 0 | 0 |

Olib borilgan tadqiqot natijasida 1–jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, **Ag** kumush va V bor elementlari har to'rt namunada ham mavjud emasligi, qo'rg'oshin, kobalt elementlari tovuq go'shtida uchramasligi, natriy elementi miqdori ot go'shti tarkibida boshqa uch namunalarga nisbatan ~9 marta ko'p bo'lishi, kaliy va fosfor elementlari boshqa elementlarga nisbatan har to'rt namunada

ham qo'proq massa qismni tashqil qilishi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rishimiz mumkinki, ayrim go'sht namunalarda ba'zi elementlarning miqdori standar talablarida ko'rsatilgan miqdordan yuqori ekan. Bu miqdor yuqori bo'lishiga asosiy sabab hayvonlar iste'mol qilgan ozuqa em xashalarning ekalogik xaffi xududlarda o'sganligidan dalolat beradi. Bunday ozuqa bilan oziqlangan hayvon

go'shtini iste'mol qilish zararli xisoblanib | chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.
inson organizimda turli kasalliklarni kelib |

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. GO'SHT–SUT KORXONALARI XOM AShYo VA MATERIALLARI fanidan tajriba ishlarini bajarishlari uchun uslubiy qo'llanma 2017y.
2. GOST 779–55. Межгосударственный стандарт мясо–говядина в полтушах и четвертинах. Технические условия .
3. GOST 32225–2013. Межгосударственный стандарт лошади для убоя, конина и жеребятина в полтушах и четвертинах.
4. Кушназарова Ш.К, Хужаев В.У. Очилов Г.М. Классификация и определение жирности мясных продуктов с методом газожидкостной хроматографии// Универсум: технические науки: электрон. научн. журн. 2020. —№12 (81). —S. 108–115. (02.00.00; №2)

GOFRLANGAN KARTON MAHSULOTNING MUSTAHKAMLIGI (QATTIQLIGINI) ANIQLASH

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРОЧНОСТИ (ТВЕРДОСТИ) ГОФРОКАРТОНА

DETERMINATION OF DURABILITY (TO HARDNESS) CARDBOARD

Eshbayeva Ulbosin Jamalovna
Namangan muhandislik texnologiya instituti
Kimyoviy texnologiya kafedrası professorı, t.f.d
Nishonov Akbarjon Muxamatjonovich
Namangan muhandislik texnologiya instituti
Kimyoviy texnologiya kafedrası assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada makkajo'xori kraxmalli, makkajo'xori kraxmalli+rossali hamda makkajo'xori kraxmalli+rossa+natriy azid tarkibli elimlar yordamida tayyorlangan uch qatlamli gofrlangan karton qadoqlash mahsulotlarining fizik-mexanik, mustahkamlik xossalari solishtirma tahlil qilish asosiy vazifadir. Tadqiqot ishida gofrlangan karton mahsulotining mustahkamlik xossalari o'rganildi va tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: qog'oz, bo'yoq, matbaa, gofrlangan karton, g'adir-budirlik.

Аннотация. Основной задачей данной статьи является сравнение физико-механических и прочностных свойств упаковочных изделий из трехслойного гофрокартона, изготовленных с использованием клеев кукурузный крахмал, кукурузный крахмал+росса и кукурузный крахмал+росса+натрий азид. В научно-исследовательской работе изучены и проанализированы прочностные свойства гофрокартона.

Ключевые слова: бумага, краска, печать, картон, гофрокартон.

Annotation. The basic task of this article is comparison physical and durability properties of the packing wares from three-layered cardboard, made with the use of glues corn starch, corn starch of rossa and corn starch of rossa sodium azide. Durability properties of cardboard are studied in research work and analyzed.

Keywords: paper, paint, printing, cardboard,

Hozirgi kunda gofrlangan karton | mustahkamlik xususiyatlari materialning mahsulotlaridan foydalanishda | gigroskopik xossalari katta ahamiyat

berish talab etiladi [1]. Ikkilamchi makulatura materiallardan tayyorlangan gofrlangan karton qog'ozlari namlikga juda sezgir [2]. Gofrlangan karton qadoq mahsulotining mexanik xususiyatlari ko'p hollarda mexanik kuchlarning ta'siri, tolalarning bir-biriga yopishishi va vodorod bog'larning hosil bo'lishi bilan belgilanadi deb tushuntiriladi. Gofrlangan karton qadoq mahsulotining mustahkamligini belgilovchi muhim omil qavtlamlarni biriktirishda elimning tolalarora bir xil taqsimlanishi hisoblanadi. Vodorod bog'lar va mexanik birikma kuchlari tufayli hosil bo'lgan har bir omilning ulushini faqat alohida olingan

ideal sharoitlarda baholashga imkon beradi [3]

Ushbu maqolada makkajo'xori kraxmalli, makkajo'xori kraxmalli+rossali hamda makkajo'xorik raxmalli+rossa+natriy azid tarkibli elimlar yordamida tayyorlangan uch qatlamli gofrlangan karton qadoqlash mahsulotlarining fizik-mexanik, mustahkamlik xossalarini solishtirma tahlil qilish asosiy vazifadir. Quyidagi 1-jadvalda solishtirma uchun taklif qilinayotgan uch xil turdagi elimlar yordamida tayyorlangan, gofrlangan karton qadoq mahsulotlari ketma-ketliklari berilgan.

1-jadval

Tadqiqot ob'ektlari

| Gofrlangan karton namunalari | Yelim tarkibi |
|------------------------------|--|
| №1-namuna | Makkajo'xori kraxmalli elim yordamida tayyorlangan, gofrlangan karton qadoq mahsulotlari |
| №2-namuna | Makkajo'xori kraxmalli+rossali elim yordamida tayyorlangan, gofrlangan karton qadoq mahsulotlari |
| №3-namuna | Makkajo'xori kraxmalli+rossa+natriy azidli elim yordamida tayyorlangan, gofrlangan karton qadoq mahsulotlari |

Gofrlangan karton - qadoq mahsulotlari, eng tejamkor va samarali qadoqlash materialidir. Gofrlangan karton qadoq mahsulotlar va unga qo'yiladigan asosiy talablardan biri u mustahkamlik (qattqlik, bukilishga chidamlilik, ezilishga chidamlilik) ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Ko'p qatlamli gofrlangan karton uchun eng muhim xususiyat - qavtlamlarning bir-biriga yopishishidir. Gofrlangan kartondagi tolalar orasidagi bog'larning shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar mexanik biriktiruvchi kuchlar, elim, vodorod aloqalari, presslash va quritishning texnologik sharoitlariga bog'liq [4-9]. Bu omillarning har biri, bir-biri bilan birgalikda mexanik

xususiyatlarni ta'minlash nuqtai nazaridan turli darajada ta'sir qiladi.

Qoida tariqasida, yopishish kuchlari tayyor mahsulot turiga, tayyorlash sharoitlariga, elimlovchi moddalar va presslash hamda quritishning texnologik sharoitlariga bog'liq [10-11]. Gofrlangan kartonning mustahkamligi birinchi navbatda, uning tarkibini himoya qilish funksiyasini bajarishi kerak, shu bilan birga qattqlik egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Gofrlangan karton qadoqlash mahsulotining qattqligi asosan yuza tekis qatlam, taglik va gofrlangan flyuting materiallarning bir-biri bilan elimlanib birikishiga, qalinligiga va mustahkamligiga bog'liq. Gofrlangan

kartonning qatlamlar soni, zichligi ortishi bilan mustahkamligi va qattiqligi ortadi [12]. Gofrlangan karton mustahkamlik qattiqligi bo'yicha anizotrop tuzilishga

ega, ya'ni mashina yo'nalishidagi va ko'ndalang yo'nalishidagi yirtilishga qattiqligi bir-biridan farq qiladi.


2-jadval

Gofrlangan karton mahsulotlarning mustahkamligi (qattiqligi)

| Gofrlangan karton namunalari | Tashqi berilayotgan kuchga chidamliligi | | |
|------------------------------|---|----------------|--------|
| | E_{min} (kg) | E_{max} (kg) | E (kg) |
| №1 | 87,42 | 88,50 | 89,59 |
| №2 | 104,48 | 107,99 | 106,23 |
| №3 | 104,4 | 111,09 | 107,74 |

Gofrlangan karton mahsulotining qattiqligi nafaqat qatlamlarni hosil qilishda ishlatiladigan qog'oz xossalriga, ushbu qatlamlarni biriktiruvchi elim tarkibiga ham uzviy bog'liqligini aniqlash uchun Qo'qon MChJ "Euro Print" bosmaxonasi laboratoriya

bo'limida mavjud ZB-BC48 qurilmasida tajriba uchun tanlangan uch xil elim asosida tayyorlangan gofrlangan karton mahsulotlarining mustahkamlik (qattiqlik) darajasi o'rganildi. Natijalar 2-jadvalda va 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Gofrlangan karton mahsulotlarining mustahkamligi. 1-makkajo'xori kraxmalli, 2- makkajo'xori kraxmalli+rossali, 3- makkajo'xori kraxmalli+rossali+ natriy azid tarkibli elimda biriktirilgan gofrlangan karton mahsulotlari.

Olingan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, makkajo'xori kraxmaliga asoslangan elimning turli xil modifikatsiyalaridan foydalanganda quyidagi natijalarni kuzatish mumkin:

- makkajo'xori kraxmalli elimlardan foydalanilganda, gofrlangan

karton qatlamlarining yomon yopishtirilishi, yopishtiruvchi elimning suvni ushlab turishi, kraxmalning qog'ozga singish tezligining etarli emasligi vizual kuzatildi.

-makkajo'xori kraxmalli+rossa+natriy azid konsentratsiyali elimining

modifikatsiyalari, boshqa modifikatsiyalar bilan solishtirganda, maksimal adgeziya kuchi bilan tavsiflanadi.

-modifikatsiya qiluvchi qo'shimcha sifatida rossa va rossa+natriy azid tarkibli elim kiritilganda, birinchi turdagi yopishtiruvchi elim bilan solishtirganda, yopishqoqlik darajasi mustahkamlanganligini kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari, maksimal yopishish qo'shimchani massaga kiritilishida kuzatiladi va rossa, rossa+natriy azid konsentratsiyali elimning mustahkamlik xossalari birinchi va ikkinchi tarkibli elimga nisbatan gofrlangan kartonga tashqi berilayotgan kuchga chidamliligi, qattiqlik ko'rsatkichi 20÷26 foizgacha oshganligi kuzatildi;

- shunday qilib, rossa va rossa+natriy azid tarkibli ya yordamida tayyorlangan namunalarda qatlamlar bir-biriga yaxshi yopishganligi kuzatildi. Bularni yangi tavsiya qilinayotgan

elimning kraxmal molekullari va modifikatsiya qiluvchi qo'shimchalarning kimyoviy tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari tashqaridan ta'sir qilayotgan kuchga chidamlilik bu mustahkamlik xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

Tashqaridan ta'sir qilayotgan kuch bog'lanish energiyasidan kam bo'lsa, u holda yuk olib tashlangandan keyin gofrlangan karton o'zining dastlabki holatiga qaytadi. Ammo ta'sir qilayotgan kuch bog'lanish energiyasidan yuqori bo'lsa, u holda gofrlangan karton mahsuloti eziladi va o'zining asl holatini yo'qotadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, gofrlangan kartonning mustahkamligini oshirish uchun gofrlangan kartonning ichki va tashqi qatlamlarning zichligi, qalinligi va bukilish xossalari yuqoriligi bilan va xomashyoning elastik xususiyatlari bilan birgalikda biriktiruvchi elimning tarkibi bir-biriga uzviy bog'liqligi o'z tasdig'ini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кононов, Б.В. Гофрированный картон / М.: Лесная промышленность, 2011. - 190 с.
2. Исследования рынков. Рынок гофроупаковки 2020-2022 и прогноз на развития [Электронный ресурс] // URL: <http://marketing.rbc.ru/research/562949978681684.shtml>.
3. Лавров И.В. Совершенствование технологии бумаги для гофрирования на основе композиции первичных и вторичных волокон: Автореф. на соис. уч. степ. кан. тех. наук. -Архангельск. - 2012. -С.21.
4. Меланич В.Н. Влияние композиционного состава на свойства бумаги для гофрирования // Целлюлоза, бумага и картон: экспресс-информ. -М.: ВНИПИЭИ лес пром, 2017. Вып.4. С.14-20.
5. Гурьев А.В. Влияние композиции и степени разработки полуфабрикатов на прочность и жесткость бумаги для гофрирования // Караваево. 2010. №7-8. - С.40-46.
6. Ешбаева У.Ж. Офсетная бумага с введением синтетических полимеров и ее печатно-технические свойства: Дисс. на соис. уч. степ. док. тех. наук. -Ташкент: ТИТЛП. -2017. -С.234.
7. Кларк, Дж. Технология целлюлозы М.: Лесн. пром-сть, 2013.-456 с.
8. Апит, С. О. Бумагообразующие свойства волокнистых полуфабрикатов / М.: Лесн. пром-сть, 2012. - 88 с.
9. У.Ж. Ешбаева. А. Нишанов Бумага с введением синтетических волокон. Монография. LAP LAMBERT Academic Publishing Düsseldorf, Germany. 2021г. 112 стр
10. Клеи упаковочного назначения [Электронный ресурс]: ИД «РЕАЛ-ПРЕСС» / 2014. -Режим доступа: <http://www.real-press.com/article.php?aid=238>
11. Nifuku, M. A study to develop environmentally acceptable electret filter / M. Nifuku, A. Kisiel, G. Hajos, N. Kogure, C. Kanaoka, S. Sato, S. Asada // Proc. of 10th Int. Symp. on Electrets. - Delphi, Greece, 2016. - P. 739-742.
12. Ешбаева У.Ж., А.С.Рафиков. Анализ бумаг с различными синтетическими связующими компонентами. // Полиграфия. –Москва. 2012.–№ 8. –С.52-53

**BIOZARARLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .
ОСОБЕННОСТИ БИОПОВРЕЖДЕНИЙ
SPECIAL CHARACTERISTICS OF BIODAMAGE**

**Toshmatova Sh.R., Qo'qon DPI,
Nabiyeva M., Qo'qon DPI
Ismoilova O., Qo'qon DPI,**

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson tomonidan atrof-muhitni turli maqsadlarda: yangi hududlarni o'zlashtirish yo'l va sug'orish tarmoqlarini, turli xo'jalik ob'yektlarini qurish biozararlanish faoliyatini shakllantirilishi, O'zbekiston sharoitida biozararlanishlar jarayonida faol ishtirok etuvchi jonzoqlar: qushlar, kemiruvchilar, turli hasharotlar jumladan o'simlik bitlari kabilar bu jarayonni yanada tezlashishiga olib keladi. Zararlanishni faollashtirishda xalq xo'jaligida katta miqdordagi sintetik materiallardan keng foydalanish ham o'z ta'sirini ko'rsatishi tasvirlangan.

Kalit so'zlar: Biozararlanish, atrof muhit, tabiiy biosenoz, biosfera, ekologiya

Annotation. This article explores the usage of environment by human beings for various purposes: reclamation of unused lands, the construction of roads and irrigation networks, the creating various household objects, formation of biodegradation system, the creatures which are actively involved in the process of biodegradation: birds, rodents, different insects as well as plant pests accelerate this procedure. The widespread use of large quantities of synthetic materials in the national economy has also been shown to play a role in exacerbating the damage.

Key words: Bioremediation, environment, natural biocenosis, biosphere, ecology

Аннотация. В статье описывается среда обитания человека для различных целей: освоение новых территорий, строительство дорог и ирригационных сетей, формирование различных хозяйственных объектов, формирование деятельности биодegradации, животные, активно участвующие в биодegradации в Узбекистане: птицы, грызуны. . , насекомые-растения, в том числе различные насекомые, еще больше ускоряют этот процесс. Также было показано, что широкое использование большого количества синтетических материалов в национальной экономике играет роль в усугублении ущерба.

Ключевые слова: биоремедиация, окружающая среда, природный биоценоз, биосфера, экология.

Biozararlanish – atrof-muhitni inson tomonidan unga kiritilgan yangiliklarga javob reaksiyasidir. Inson yaratgan materiallar va mahsulotlar biosferada sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlarga kirishib ketib, tabiiy biosenozlar tarkibiga qo'shiladi. Biozararlanish bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlarda bir tarafdin organizm va atrof muhit, boshqa tarafdin inson qo'li bilan yaratilgan narsalar bir-biriga ta'sir qiladi [1,2]. Kompleks yondoshuvlar biozararlantiruvchi agentlarni – tirik organizmlarning o'zaro ta'sirini, ayniqsa shunday holatlarda, qachonki ular turli sistematik, guruhlar, turlar va populyasiyalarga yoki bir-biridan ekologik

uzoq bo'lganlarida hisobga oladi. Biozararlovchi organizmlarni landshaft-geografik va mintaqaviy faktorlar bilan munosabatlari alohida ahamiyatga ega. Biozararlovchi ta'sirning xarakteri va qo'llanilayotgan himoya vositalarini samaradorligi, jarayonning qaysi muhitda o'tishiga bog'liqdir.

Ekologik-texnologik yondoshuvlarda biozararlovchi ta'sirdan samarali himoyalanihga imkon beruvchi bashorat qilish nazarda tutiladi. Masalan, eritilayotgan polimerlar strukturasiiga biotsid xususiyatga ega elementlarni kiritish, yoki yog'och va mahsulotlarga ularni singdirish. Biozararlanishlar muammosi bo'yicha xalq

xo'jaligi amaliyoti olimlarga qo'ygan vazifalari, bugungi kunda va ayniqsa ulardan ertangi kunga qo'yiladiganlari, tadqiqotlar mavzularini, qiziqishlar doiralarini, asosiy tushunchalarni aniqligini talab qiladi [3,4]. Bularni alohida masalalar ko'rib chiqilishida foydalanish lozimdir. Buni amalga oshirish oson emasligi nafaqat muammoni rasmiy tarixini juda qisqaligidan hamda ana'naviy shakllangan tushunchalar haqida gapirish uchun etarli emasligidan, balki bu muammo bugungi kunda ham katta miqdordagi alohida masalalardan iborat bo'lib, ular ko'pchilik ishtirokchilarni manfaatini aks ettiradi. Har bir ishtirokchi o'zining yondoshuv usullari, maqsadlari va o'zining tushunchalariga ega. Ishtirokchilarni umumiy termin va tushunchalar bilan birlashtirish, muammoni yaxlitlashtiradi, uning chegaralarini hamda, manfaatdor sheriklar bilan o'zaro munosabatlarni belgilaydi.

"Biozararlanishlar" tushunchasi inglizcha "**Biodeterioration**" so'ziga to'g'ri keladi. Bu tushuncha xalqaro muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarni belgilash uchun yuzaga keldi, masalan, **The Biodeterioration Society** – **Biozararlanishlar bo'yicha Xalqaro jamiyat**. Dastlab bu termin organizmlarni materiallar, buyumlar yoki texnik xomashyolarning funksional va strukturaviy xususiyatlariga salbiy ta'sirini belgilash uchun foydalanilgan.[7,8] Keyinchalik bu ifoda bir necha bor o'zgartirildi, ya'ni turli soha va fan mutaxassislari istaklariga mos ravishda toraygan, kengaygan xususan, ma'lum bir davrda bu tushunchaga organizmlarni foydali faoliyatlari ham kiritilgan, ya'ni eskirgan material va buyumlarni biozararlovchilar tomonidan emirilishi va utilizatsiyalanishi. Bu tendensiya ayniqsa 1975 yil Kingstonda (AQSh) biozararlanishlar bo'yicha o'tkazilgan III-Xalqaro simpoziumda yorqin ifodasini topdi.

Organizmlar tomonidan qishloq xo'jaligi va bog' ekinlari hosiliga, oziq-ovqat mahsulotlari va shu kabilarga keltiriladigan ziyoni muammolari e'tibor doirasiga kiritilishi haqida bir necha bor fikrlar bildirilgan. Bir qator nashrlarda, ayniqsa o'tgan asrning

70-yillarida bu ob'ektlarga ananaviy qarashlar bilan birga materialshunoslik nuqtai nazardan qaralgan. Shu vaqtni o'zida bu masalalar bilan, anchadan beri, xo'jalik va fanning boshqa sohalari shug'ullanmoqda, shuning uchun biozararlanish muammosiga tegishli ob'ektlar hisobiga kengaytirish gumonlidir. Mashhur olim **Van der Kerk** biozararlanishga quyidagicha ta'rif beradi: **biozararlanish** – organizmlar hayot faoliyati tufayli yuzaga kelgan materiallar xususiyatlaridagi o'zgarishlardir [4,6]

Rus olimi G.I.Karavayko bu tushunchani kengaytirib, biozararlanish deganda, organizmlar faoliyati tufayli materiallar xususiyatlarida sodir bo'ladigan kerakli va keraksiz o'zgarishlarni atashni taklif etgan. Ikkala tushuncha ham organizmlar zararlaydigan ob'ektlarni xilma-xilligini to'liq qamrab ololmaydi. Shuni hisobga olib, biozararlanish tushunchasini biz tirik organizmlar faoliyati va ishtiroki bilan, kelib chiqishi antropogen yoki xomashyo sifatida foydalaniladigan tabiiy ob'ektlarni strukturaviy va funksional xarakteristikasi o'zgarishini vujudga keltiradigan holatlarga tadbiiq qilamiz. Bu munosabatlar organizmlarni ob'ektlarga ta'sirini kuchaytirishi yoki kuchsizlantirishi, hatto batamom yo'qqa chiqarish mumkin. Bunday holatni biozararlanishlar bo'yicha mutaxassis hisobga olmasligining iloji yo'q.

Biozararlanish vaziyatini vujudga keltiruvchi eng muhim komponentlar tirik organizmlardir, ular ob'ektga biozararlanish ta'sir etish manbai bo'lib, maxsus vositalar bilan himoyalangan yoki himoyalangan bo'ladilar. Shunday qilib biozararlanish jarayoni bir tomonlama yo'naltirilgan jarayon emas. U ob'ekt va organizmlarning faol o'zaro ta'siri bilan xarakterlanadi. Biozararlanish jarayon ikkiyoqlama va bunda ma'lum davrlarda, ma'lum bosqichlarda u yoki bu jarayon ustunlik qiladi. **Biozararlanuvchi vaziyat**, barcha zarur bo'lgan komponentlar va omillar mavjudligidan kelib chiqib, biozararlanish mumkinligini ko'rsatadi.[5,6] U biozararlanishlarning vujudga kelish potensial imkoniyati bo'lishini ko'rsatadi va

biozararalanishlar bashorati bilan bog'liq terminologik sxemalar ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bu komponentlarning ishtiroki makon doirasidagi masofada, ularning o'zaro munosabatlari o'rnatishiga imkon berib, biozararlantirish ta'sir imkoniyatini aniqlaydi, shunday ekan, biozararlantiruvchi vaziyatni yaratadi, ammo u biozararlantiruvchi jarayonni yuzaga keltirmaydi.[7,8]

Biozararlanishlarning manbai deb material, buyum, inshoot, tabiiy xomashyolarga hujum qiluvchi va ularning xossalari inson uchun noma'qbul qiluvchi organizmlarga ataladi. Bunday organizmlar *biozararlanish agentlari* yoki *zararlantiruvchi organizmlar* deb ham yuritiladi. Inshootlar, buyumlar, materiallar mahsulotlar organizmlar bilan zararlanganda foydali xususiyatlarini yo'qotadi. Ularni *biozararlanish ob'yektlari* yoki *biozararlanadigan ob'yektlar* deyiladi.[5,8] Biozararlanish ob'yektlari tushunchasiga, dastlab inson tomonidan ularning tarkibiga biotsidlar tariqasida himoya vositalarining kiritilishi yoki keyinchalik ob'yektga biozararlanish ta'siri real xavf tug'dirganda, nafaqat profilaktik balki faol choralar ko'rishni talab etadi.[9,10] Biozararlanishni ekolog nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak uning ixtiyorida quyidagi asoslar mavjud. Biozararlanish hamisha qanday bo'lmasin, to'g'ridan-to'g'ri yoki bir tomondan, atrof-muhit bilan bog'langan, ayrim hollarda inson daxlsizligi, boshqalarda keskin o'zgartirilgan va nihoyat, uchinchi, inson tomonidan yaratilgan deb qaraladi [3,4]. Atrof-muhit fon hisoblanib, unda biozararlanish jarayonlari kechadi, o'z o'rnida shuni aytmoq kerakki, u doimo atrof-muhitning doimiy girdobiga chalingan bo'ladi. Muhitsiz hech qanday biozararlanish vujudga kelmaydi va bo'lmaydi. *Biozararlanishning atrof-muhitda o'z analoglari – ekologik prototiplari bo'lib*, tabiatda shunga o'xshash hodisalar inson paydo bo'lishidan oldin ham, ayniqsa hozirgi davrda inson muntazam ravishda muhitni buyum va materiallar bilan to'ldirib turishi biozararlanishni vujudga kelishiga sharoit yaratadi. Shunday bo'lganda, biozararlanishlardan biri-kemalarda suv

o'tlari, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar qoplamasining o'sishi, tabiatda ularning suzuvchi buyumlarga tabiiy o'suvchi qoplama ularni ekotiplari mavjudligidan darak beradi. Masalan: suvga qulagan daraxtlarda va h. Bunda organizmlarning muhitga tushgan yangi predmetga nisbatan ta'sirchanligi, jumladan, inson faoliyati tufayli, ba'zida ularga ekologik yaxshi tanish bo'lgan singari kuzatiladi.[5,6]

Biozararlanishlar jarayoni nafaqat atrof-muhit ta'sirini sezadi, o'z navbatida o'rab olgan barcha yaqin muhitni o'zgartirib, unga ham ta'sir ko'rsatadi. O'zini olganda, inson tomonidan yaratilib va atrof-muhitga kiritilgan ob'yekt kuchli ekologik muhit hisoblanib, bir xil hollarda organizmlar tomonidan faol foydalanilsa, boshqalarda – ularga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uchinchilarida esa bilvosita yashash joyi va tarqalishga nisbatan ularga yangi imkoniyatlar tug'diradi. Biozararlanish jarayonlarining atrof-muhit bilan chambarchas aloqa faolligi, qachonki, inson tomonidan tabiatga kiritiladigan ob'yektlar ko'p hollarda ularni xujum qiluvchi organizmlar yordamida tabiiy biotsenozlarga kiritilganda ular boshqa biotsenozlar a'zolari bilan aloqada bo'lgan va shu tufayli ularning ixtiyoridagi yuzaga kelgan kontaktlarni qaytadan rekrutliklangan, ular tomonidan "keltirilgan", a'zolarga taqdim qilishdir. Shuni har doim esda tutmoq zarurki, biozararlanish muammosiga faqat uning qo'lga kiritgandan, taxlangan va qandaydir darajada ishlov berilgan, ya'ni ishlab chiqarishga kiritilgan, qisminigina aloqasi bor. Xususan bu har qanday transport vositasi yordamida tashish bosqichida turgan xomashyoga taaluqlidir. Agarda biozararlanish jarayonini paydo bo'lishidagi va rivojlanishidagi antropogen faktorning ahamiyatini aniqroq baholamoqchi bo'lsak, unda inson o'zi ishlab chiqargan va tabiatga kiritgan ob'yektga tirik organizmlar ta'sirining boshini va oxirini qayd qiladi, so'ngra zaruratga qarab uni yo'q qiladi. Biozararlanishni paydo bo'lishida antropogen faktorning ahamiyatini tushunish uchun biozararlanish jarayonini

boshqaruvchi, uning kuchini o'zgartiruvchi, tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi va xatto vaqtinchalik to'xtashgacha olib keluvchi funksiyalar muhim ahamiyatga ega va e'tiborga loyiq. Inson barcha o'sha himoya vositalariga ega bo'lib, bu imkoniyatlarni ham egallaydi, bu holda ularni boshqaruvchi deb ataymiz.[7,8]

Antropogen faktorlar bilan bog'liq yana bir yo'nalish bo'lib, u ishlov muddatini

o'tgan materiallar va xomashyoning biozararlanish tufayli utilizatsiya qilishga asoslangan. Bu muhim masala ham boshqaruvchi funksiyalar asosida echiladi va insonning biozararlanish jarayonini boshqara bilish, uning xarakterini tartibga solish va yo'naltirish mahoratiga bog'liqdir. Shunday qilib biozararlanish- bu bir vaqtning o'zida ham ekologik, ham antropogen-texnologik ko'rinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov M.H. Shiralar oziqlanish joyi va hayotiy muhitining ekologik tahlili // O'simliklarni himoya qilish va atrof muhit: Respublika ilmiy anjumani ma'ruzalarining tezislari. –Andijon, 1995. –B. 13-15
2. Ahmedov M.H., Mansurxo'jayeva M. Dendrofil shiralarning (Homoptera, Aphidoidea) ozuqa o'simliklariga zarar keltirish xususiyatlari haqida // O'zbekiston biologiya jurnali. -Toshkent, 1999. - № 2. –B. 65-66.
2. Ahmedov M.H. Shiralar oziqlanish joyi va hayotiy muhitining ekologik tahlili // O'simliklarni himoya qilish va atrof muhit: Respublika ilmiy anjumani ma'ruzalarining tezislari. –Andijon, 1995. –B. 13-15
2. Ahmedov M.H., Mansurxo'jayeva M. Dendrofil shiralarning (Homoptera, Aphidoidea) ozuqa o'simliklariga zarar keltirish xususiyatlari haqida // O'zbekiston biologiya jurnali. -Toshkent, 1999. - № 2. –B. 65-66.
3. Яхонтов В.В. Вредители сельскохозяйственных растений и продуктов Средней Азии и борьба с ними. –Ташкент: Госиздат Узб., 1953. - 663 с.
5. Yunusov M.M. Tli (Homoptera, Aphidinea) tsentralnogo Tyan-SHanya.: Avtoref. dis. ...kand. biol. nauk. – Tashkent, 1996. - 23 s.
6. Olimjonov R.A. Entomologiya „O'qituvchi“ nashriyoti Toshkent 1977y.139-170 b.
7. Komilova D., Toshmatova SH, G'aniyev K. Atrof —muhit texnogen ifloslanishining shiralarga ta'siri haqida // Ekologiya va ayol. -Farg'ona, 2002. 78-79 b.
8. Xo'jayev, Sh.T Xolmuradov E.A. "Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari" (Toshkent, 2009).
9. <http://www.ento.okstate.edu/ddd/insects/arborvitaeaphid.htm>
10. http://www.rhs.org.uk/advice/profiles0301/cypress_aphid.asp

**O'ZBEK TILIDA SHAXS SOTSIAL BELGILARINI IFODALASHDA LINGVISTIK
VOSITALARNING AHAMIYATI
ЗНАЧЕНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ВЫРАЖЕНИИ СОЦИАЛЬНЫХ
ПРИЗНАКОВ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ
THE IMPORTANCE OF LINGUISTIC MEANS IN EXPRESSING PERSONAL SOCIAL
CHARACTERS IN THE UZBEK LANGUAGE**

Hasanova D.O.
Qo'qon DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda yuzaga kelgan yangi yo'nalish, ya'ni lingvistikaning psixologiya, falsafa bilan bog'langanlik jihatlarini tahlil etish, xususan, matndagi obrazlarning o'z nutqiy faoliyatining verbal hamda noverbal ifodalanishi tadqiq

etiladi. Misollar orqali sotsial lingvistik ifodalarning psixolingvistik aspektiga e'tibor qaratiladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается новое направление в лингвистике, даётся анализ взаимосвязи лингвистики, психологии и философии, словесного и невербального выражения изображений в тексте. Примеры сосредоточены на психолингвистическом аспекте социолингвистических выражений.

Annotation. This article examines a new trend in linguistics, the analysis of the relationship between linguistics and psychology, philosophy, in particular, the verbal and nonverbal expression of the images in the text of their speech activity. The examples focus on the psycholinguistic aspect of sociolinguistic expressions.

Lingvistika turli gumanistik yo'naltirilgan sohalarning shakllanishi va rivojlanishini belgilaydigan, shu bilan birga, tilshunoslik shaxsiyati nazariyasini o'rganadigan fandir.

Tilshunoslikning hozirgi bosqichida insonlar shaxsiyati nazariyasi faol rivojlanib borayotgan bir paytda, til o'rganishning shaxsiy jihatiga qiziqish nafaqat tilshunoslik, balki psixologik, falsafiy va lingvodidaktik jihatdan ham sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy fanlarda tilshunoslik shaxsiyati haqida turli xil yondashuvlar mavjud (Yu.N.Karaulov, V.I.Karasik, A.A.Melnikova, K.F.Sedova, O.Ye.Morozova, O.V.Sirotnina, I.A.Stern, V.D.Chernyak va b.). O'zbek tilshunligida N.Mahmudov, D.Xudayberganova, SH.Iskandarova, S.Mo'minov, Yo.Odilov, M.Qurbonova va olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Yaqinda tilshunoslikda yangi tadqiqot yo'nalishi paydo bo'ldi. Tilshunoslar so'zlovchining tilini o'rganib, uning nutq portretini yaratdilar. Nutq portretining bir qismi inson nutqining fonetik xususiyatlarini tasvirlashdir. Tilshunoslikning g'oyasi fanlararo atama g'oyasi sifatida yaratilgan bo'lib, uning ma'nosi falsafa, sotsiologiya va psixologiya nuqtai nazarini aks ettiradi. Ushbu kontseptsiya inson ichki dunyosining holatini aks ettiradi. Tilshunoslarning fikricha, shaxs tili— bu lingvistikaning nutq faoliyatini amalga oshirish qobiliyati nuqtai nazaridan o'rganilayotgan shaxs deb biladilar. Boshqacha qilib aytganda, bu so'zlovchining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, unga gapirish va suhbatdoshining nutqini tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, shaxs tili insonning nutq hatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi sabablar majmuasi sifatida tushunilib, inson tilni atrofdagilari bilan fikr almashishi uchun ishlatadi. Bu esa kommunikativ shaxs

hisoblanadi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar shaxs tilini, uning nutqini o'zi yashaydigan joyning madaniyati va urf-odatlariga bog'liq deb hisoblashadi. Chunki uning leksikasi mazkur joyning fikrlari, an'analari va qadriyatlariga asoslangan bo'ladi. Hozirgi kunda shaxs tilini o'rganish tilshunoslikning eng istiqbolli muammolaridan biridir. Shunday qilib, shaxs tili — bu nutq faoliyatini amalga oshirishga qodir bo'lgan insondir. Tilshunoslikning ko'plab ta'riflari mavjud, ammo ularning barchasi shaxs tili va nutq odobi bilan bog'liqdir. Shaxs tili so'zlovchining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarin o'z ichiga oladi. Bu jihatlar esa bizga shaxs tili haqida to'liq ma'lumot bera oladi. Bundan tashqari, so'zlovchining tasviri uning xatti-harakatlarining sabablarini o'z ichiga oladi. Biz nutq xususiyatlarining sabablarini o'rganmasdan turib, shaxs tili haqida fikr yurita olmaymiz. Nutq derivatsiyalarining eng ko'p tarqalgan sabablaridan biri — so'zlovchi joylashgan ijtimoiy muhit, chunki nutq odatlarining aksariyati atrof-muhit ta'siri ostida shakllanadi.

— *Dasturxonga qarab qo'ysang bo'lmaydimi?* — dedi Asadbek bir oz zardali ohangda.

— *O'lar joyda emasmiz-ku, yo bozorda meva-chevaning urug'i qurib ketibdimi?*

— *Endi... ma'rakada siporoq bo'lsin, debman-da. Hozir qotiramiz, — deb o'zini oqladi Kesakpolvon.*

— *O'tir,— dedi Asadbek, — Halimni jo'natdim. Sen yigirmaning o'yladingmi?*

— *Ha, o'n to'qqiz kunda qilamiz. Mahmudning hurmati bor, darrov o'tkazib yuborsak, ayb bo'lar.*

— *Qayerda bo'ladi?*

— *Shu erda, hovlisi keng, bemaolol.*

— *Osmonga qarab qo'y-chi?*

— *Uch-to'rtta parashyut olib kelib to'sib tashlaymiz.*

— *Bo'lmaydi. Anhor bo'yini gaplash. Tuzukroq qorilarni aytir.*

— *Qorilarning xo'rrozini toptiraman. Yo Sobitxonningni Qo'qondan oldirib kelaymi?*

— *Uni bezovta qilma. Sen bundan buyog'iga yigitlarga ko'z-quloq bo'lib tur, bevoshlik qilishmasin. Avval ham aytuvdim, a? Esingdami? Zamonga qaralaring, noziklashib qoldi. Qozixonangni yopdingmi?*

— *Allaqachon yopib tashlaganman.*

— *Hosilning bollari tinch yuribdimi?*

— *Gah, desang qo'lingga qo'nadigan qilib qo'yganman.*

— *Haydar, endi ikkalamiz qoldik. Birga boshlagan edik, oxirida ham ikkalamiz qoldik.*

— *Oxirida deganing nimasi?*

— *Hamma narsaning oxiri bo'ladi, og'ayni. Men senga suyanaman, meni yolg'izlatma. Asadbekning dardli ohang libosiga o'rab aytgan bu yolg'oni xuddi rost gapday eshitilib, Kesakpolvonni eritdi. «Ha, endi o'limini bo'yniga olibdi», degan fikr xayolini bir yoritdi (T.Malik, SHaytanat, 4-kitob, 42-bet).*

Asadbek va Kesakpolvon orasida bo'lib o'tgan suhbat davomida har ikki obrazning ichki dunyosi, madaniyatiyu ma'naviyati, hayot tarzi bo'y-basti bilan yuzaga chiqqan. Asadbekning zardali ohangdagi muomalasi, "O'lar joyda emasmiz-ku, yo bozorda meva-

chevaning urug'i qurib ketibdimi?", "Anhor bo'yini gaplash. Tuzukroq qorilarni aytir" gaplari orqali odamlarning ko'zi oldida manmanlik qilish uchun shunday buyruq berganini payqash qiyin emas. Aslida, o'lgan odam uchun dasturxonning, tuzuk qorining nima ahamiyati bor?! Kesakpolvonning "Mahmudning hurmati bor, darrov o'tkazib yuborsak, ayb bo'lar", "Qorilarning xo'rrozini toptiraman" jumalari orqali uning buyruqni so'zsiz bajaradigan "qahramon" ekanligini anglash qiyin emas. Asadbekning "Hamma narsaning oxiri bo'ladi, og'ayni. Men senga suyanaman, meni yolg'izlatma", gapini Kesakpolvon o'zicha «*Ha, endi o'limini bo'yniga olibdi*», deb tushunishi orqali uning haqiqiy basharasini, "do'sti"ga bo'lgan munosabatini ochiq ko'rsatib turibdi. Ko'rinadiki, muloqotda shaxs sotsial belgilarini nafaqat lisoniy birliklar, balki nolisoniy vositalar, qahramonlarning ruhiy olami ham ko'rsatadi.

Hissiy omillar – bu sub'ektning (til egasining) ongida shakllanadigan dunyo tasvirining tarkibiy qismi. Emotsional jihat, aynan, hissiyotlarni boshqarish nutqning ajralmas qismi bo'lib, inson mohiyatini ochish va tushunishga yordam beradi. Muloqot muhiti, intonatsiya, imo-ishoralar shaxsning sotsial xususiyatlarini ko'rsatib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shatalova O.V. Sintaksicheskaya xarakteristika yazykovoy lichnosti // avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk. - Yelets-2012. – 51 s.
2. Ayrapetyan A. G., Gordeeva A. A. Foneticheskie sredstva kak chast sotsiokulturnogo portreta govoryashchego // Molodoy uchenyy. — 2016. — №7. — S. 1122-1126. — URL <https://moluch.ru/archive/111/27668/> (data obrashcheniya: 15.08.2019).
3. Nurmonov.A. Tanlangan asarlar.2- jild –T.: 2012. -215 b.
4. Safarov SH., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlili asoslari. – Samarqand, 2007.
5. Ernazarova M.S. Grammatik ma'no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida // Fil.fanlari doktori (DSc) diss... – Samarqand, 2018. – 242 b.

ИЗУЧЕНИЕ КАНОНОВ РИТОРИКИ МОЛОДЁЖЬЮ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

EXPLORING THE CANONS OF RHETORIC AMONG YOUNG PEOPLE: CHALLENGES AND SOLUTIONS

YOSHLARNING RITORIKA QONUNLARINI O'RGANISH: MUAMMO VA YECHIM YO'LLARI

Г.Н. Давлятова,

кандидат педагогических наук,
доцент кафедры русской
филологии

Ферганский государственный университет

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме изучения молодёжью канонов риторики, осознания её значимости и необходимости для развития и совершенствования как её речемыслительных умений и навыков, так и развитию когнитивных способностей. При этом отмечается, что важно обучить молодёжь грамотно и логично выстраивать свою речь, научить основам искусства воздействующей и убеждающей речи, умению общаться с людьми, стать интересным собеседником, а также контактировать на различные темы, в том числе и профессиональные, опираясь на современные технологии коммуникации.

Ключевые слова: проблема, риторическая речь, изучение, молодёжь, обучение, грамотная, логичная, убеждающая, речь, технология коммуникации, каноны.

Annotation. This article focuses on the problem of young people's learning of rhetoric, their awareness of its importance and necessity for the development and improvement of both their rhetorical skills and cognitive abilities. It is important to teach young people to speak correctly and logically, to teach them the basics of influencing and persuasive speech, to communicate with people, to be an interesting conversationalist, and to communicate on various topics, including professional ones, using modern communication technologies.

Keywords: problem, rhetorical speech, learning, young people, teaching, literate, logical, persuasive, speech, communication technology, canons.

Annotasiya. Ushbu maqola yoshlarning ritorika kanoonlarini o'rganishi, ularning nutqiy fikrlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati va zarurligini anglash muammosiga bag'ishlangan. Shu bilan birga, yoshlarni nutqini barkamol va mantiqiy qurishga o'rgatish, ta'sirchan va ishonarli nutq san'ati asoslarini o'rgatish, odamlar bilan muloqot qilish, qiziqarli suhbatdosh bo'lib etishish muhimligidan umidini uzadi. shuningdek, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari asosida turli mavzularda, jumladan, professional mavzularda ham muloqot qilish. .

Kalit so'zlar: muammo, ritorik nutq, o'qish, yoshlik, ta'lim, malakali, mantiqiy, ishonarli, nutq, aloqa texnologiyasi, qonunlar.

В мировой лингвистике усилилось внимание к более глубокому изучению теоретических и прикладных аспектов науки о языке. Коренные преобразования в стране подтвердили необходимость формирования не только языковой культуры каждого члена социума, в том

числе молодёжи, но и её будущей профессиональной культуры.

Президент Республики Узбекистан Мирзиёев Ш.М. чётко обозначил в своём послании Олий Мажлису: «...повышение научного потенциала высших учебных заведений, расширение масштабов подготовки научных и научно-

педагогических кадров относится к числу важнейших проблем». [1, с.1]

Подготовка образованного и креативного молодого поколения - актуальная задача всей системы образования, проблема которого является фактором активизации комплексного теоретического и практического изучения специфики их речемыслительной деятельности. Считаем, что понятие о сущностях феноменов речи, механизмах формирования и общих её закономерностях является главным фактором, определяющим развитие и совершенствование образовательного процесса разных категорий обучающихся. Умение говорить и общаться влияет на позицию молодёжи в обществе, которая реализуется под воздействием совокупности определенных факторов, таковым может стать риторика как особая филологическая дисциплина, изучающая искусство красноречия.[5, с. 403]

Риторика отличается междисциплинарным подходом к исследованиям, в частности, его интеграцией с другими науками: культурологией, социологией, историей, психологией, философией, антропологией, стилистикой, этнографией, теологией и др. Значимость риторики становится все более популярной в связи с тем, что данное научное направление сегодня воспринимается как нечто новое, хотя, как было указано выше риторика «родилась» ещё в седой древности.[4, с.5] Уходящая корнями в античные времена она переживала времена расцвета и угасания. Всё это зависело от её востребованности, необходимости в обществе, политической ситуации, а также от того, нуждался ли в ней человек.

Сегодня от современных деловых, креативных людей, особенно молодёжи, требуется, чтобы свободно излагать своё мнение, суждение, свою позицию, формулировать своё жизненное кредо, взгляды на окружающий мир. Чтобы

достичь высокого профессионализма важно молодому человеку овладеть системой специальных знаний, применить их в своей жизненной практике, обмениваться ими, а также грамотно и логично выстраивать свою речь, уметь общаться на профессиональные темы, опираясь на современные технологии коммуникации. В этом молодёжи поможет и будет содействовать риторика как наука о красноречии, как искусства логичной и убеждающей речи.[5,с.8]

Какие задачи ставит риторика перед молодёжью? Прежде всего, особый подход к риторической речи (внимание к произносимому слову, выверенности её содержания, тщательности при её оформлении), умение различать обыденную речь от риторической, которая может изменить взгляды, убеждения и настроение слушателей сильным словом, правдивыми доводами, конкретными реальными фактами. Коммуникативный аспект исследования риторики обретает особую актуальность в научной идентификации проблемы о риторическом дискурсе.[2, с.28] Высшая школа во главу угла ставит теоретическое и прикладное решение проблемы технологии общения. В связи с чем в типовые и рабочие программы включает дисциплину «Риторика», которая разрабатывается на стыке смежных наук и способствуют более полному раскрытию её предмета и объекта, цели и задач.

Как известно, одной из видов устной речи является публичная речь, которая, к сожалению, находится на периферии образовательного процесса. Считаем, что в рамках риторики можно также решать указанные вопросы.

Сложность и совершенствование техники коммуникации приводит к необходимости поиска теоретических и практических решений коммуникативных задач, в том числе и в плане убеждающей и воздействующей коммуникации как индивидуальной речи, так и публичной речи.[3, с.27] Безусловно, проблема развития умений

и навыков публичной речи изучается, однако, на наш взгляд, не на должном уровне. Что подтверждается результатами социологического опроса среди учащейся молодёжи, который показал, что в плане публичной речи существует проблема, которую необходимо решать. Проблема заключается в том, что респонденты утверждают, что у них при выступлении перед аудиторией возникает чувство неуверенности (71%), скованности (22%), порой стеснения (5%), страха (2%) перед слушателями. Публичное выступление учащейся молодёжи «хромает», например, при защите курсовых работ, выпускных квалифицированных работ, выступлениях с докладами на семинарских занятиях и с докладами на научных конференциях в вузе и т.д.). Респонденты отмечают, что, волнуясь, забывают о чём говорили (73%), другие - нарушают логику построения речи (65%), третьи - не знают как начать и как закончить своё выступление (43%) и т.д. В целом, как видно, каждый опрошенный отмечает, что перед своим выступлением готовился, даже заучивал фразы, но всё бесполезно, когда встречаются с аудиторией (публикой) многое забывают (24%), теряются (60%), их охватывает чувство боязни, что скажут неправильно, сделаю ошибки (16%) и др.

К сожалению, как видно из анализа соцопроса, результаты исследования не утешительны, что позволяет констатировать: необходимо заниматься с молодёжью, учить азам риторического искусства, умению «держаться» перед публикой, находить способы изложения мыслей, повышать мотивацию, стараться чаще вести «диалог» с аудиторией (на лекционных, практических и семинарских занятиях, организовывать или участвовать на мастер-классах, «круглых столах», диспутах и дискуссиях), систематически репетировать (повторять или разучивать текст выступления при подготовке к публичному выступлению), проговаривать своё выступление

(возможно, перед зеркалом, или перед друзьями, близкими или родными) на должном уровне (обращать внимание на грамматические и стилистические ошибки, интонацию, логическое ударение, постановку голоса, на вербальные и невербальные средства языка и др.), использовать такие речевые конструкции, которые положительно повлияют на аудиторию, заинтересуют и привлекут внимание слушателей. При этом начинающему оратору важно учитывать, как возрастные, так и психологические особенности слушателей, заранее изучить их интересы и желания. Главное, выбрать злободневную проблему, которая необходима слушателям, востребована ими, решение вопроса (или ответ) будут им полезны и использованы ими в жизненной практике.

Введение вузовской дисциплины «Риторика» на бакалавриате позволит усвоить азы, основы риторического искусства, а в магистратуре - ознакомится с классическими и новыми теоретическими концепциями риторики, с выдающимися риториками, начиная с античности до наших дней, представителями разных риторических школ и направлений, более глубоко и всесторонне изучить правила введения риторической речи или норм и канонов риторической коммуникации, узнать о требованиях, предъявляемых к подобного рода риторическим текстам, а также ознакомиться с образцами и моделями риторического дискурса. В связи с чем, считаем, необходимым проанализировать различные источники по теме исследования, в том числе научную и педагогическую литературу по риторике и искусству красноречия; исследовать языковой генезис риторики как науки, её экстралингвистическую обусловленность, динамизм развития, а также определить способы формирования риторической речи у указанной возрастной категории, т.е. вузовской учащейся молодёжи, с учётом

их психологических и когнитивных особенностей.

Указанные выше практические рекомендации и положения, на наш взгляд, будут способствовать совершенствованию устной речи молодёжи, в том числе и риторической. Кроме того, они рассматриваются как предпосылки для научной идентификации проблем риторической речи и специфики её выразительно-языковых средств.

Настоящее исследование в определенной степени позволит решить проблему изучения риторики как искусства красноречия, а также внесёт посильный вклад в развитие лингвистической науки, где, на наш взгляд, молодёжная риторика будет иметь свой статус, своё место и роль в реализации образовательных и просветительских задач молодёжи.

Литература:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева Олий Мажлису // Народное слово, 28 декабря 2018 г.
2. Иванова С.Ф. Специфика публичной речи. - М., 1978. – 282 с.
3. Карнеги Д. Как вырабатывать уверенность в себе и завоевывать друзей, выступая публично. - М.: Прогресс, 1989. – 108 с.
4. Кошанский Н. Ф. Общая риторика. - СПб., 1835. - 144 с.
5. Топоров В.Н. Риторика. Тропы. Фигуры речи// Лингвистический энциклопедический словарь. - М., 1990. – 685 с.

LOKALIZATSIYA MUNOSABATINING SO`Z YASOVCHILAR ORQALI IFODALANISHI ВЫРАЖЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ ЛОКАЛИЗАЦИИ ПОСРЕДСТВОМ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ АФФИКСОВ SPEAKER OF LOCALIZATION RELATIONSHIP EXPRESSION THROUGH

M. Ergashova
Qo'qon DPI dotsenti, f.f.nomzodi

Annotatsiya. Maqolada lokal maydon markazi so`zning semantik strukturasi joy tushunchasining keng ko`lamli barcha qatlamlarida aks etishi, lokallik belgisi tilning turli sathlarida o`ziga xos tarzda namoyon bo`lishi, so`z yasaliish sathida lokallik haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: lokallik belgisi, lokal maydon markazi, funktsional-semantik maydon, morfemik sath, affiksalar morfemalar, lokal belgi.

Аннотация. В статье рассматривается тот факт, что центр локальности отражается в семантической структуре слова во всех широких слоях концепта мест, локальный признак выражается по-разному на разных уровнях языка.

Ключевые слова: локальный знак, локальный центр, поля функционально-семантический, морфемный уровень, аффиксальные морфемы.

Annotation. The article discusses the fact that the center of the local area is reflected in the semantic structure of the word in all the broad layers of the concept of place, the sign of locality is manifested in a unique way at different levels of the language and the locality is expressed at the level of word formation.

Key words: local sign, local Area Center, functional-semantic, area, morphemic level, affixal morphemes, local character.

Ma'lumki, funktsional-semantik belgilar asosida shakllanadi. Bunday maydonlar tilning turli sathlariga tegishli maydonlarda dastlab yadro va periferiya bo`lsa-da, umumiy invariant semantik ajratiladi, markaz va chekka qismlar

hisobga olinadi. Ular tilning bir qator sathlariga mansub elementlarning umumiy segmentlar hosil qilishi bilan xarakterlanadi, muayyan til birliklarining semantik uzviyligi ta'minlanadi.

“Tilning har bir sathi va qismida yadroviy, tipik, asosiy hamda periferial (ikkinchi darajali) unsurlarni farqlash lozim. Yadro-periferiya munosabati struktur, semantik va funksional aspektlarda namoyon bo'ladi”.

Funksional-semantik maydonlar muayyan funksional-semantik kategoriyalar uchun xos bo'lgan ma'noni ifodalashning maxsus vositalariga ega bo'lib, bu ma'no kategoriya doirasida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Turlicha ma'nolar orqali umumlashgan birliklar (so'z, so'z birikmalari) individual va konkret leksik ma'noga ega bo'ladi. Funksional-semantik kategoriyalar “quyidan yuqoriga” (yoki aksincha) tuzilishga ega bo'lgan farqlovchi semantik belgilarning ifodasi orqali namoyon bo'ladi. Maydon yadrosida ham, periferiyasida ham o'ziga xos sistemalar, shuningdek, sistema tarkibida kichik sistemalar mavjud bo'ladi va ular ma'lum semantik maydonga xos bir necha a'zoli qatorlardan iborat birliklarning oppozitsiyalarini hosil qiladi.

Ma'lum struktura hosil qiluvchi elementlarning o'zaro munosabati turli tipdagi til birliklarining aloqalari orqali funksional-semantik maydonlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Jumladan, morfemalar til ifoda sistemasida tovushdan keyin turadigan semantik-morfologik birlik bo'lib, so'zning eng kichik ma'noli qismidir.

O'zbek tilida morfemik sath birliklari yetakchi va ko'makchi morfemalar asosida lokallik mikromaydonini hosil qiladi. Biz tadqiqotning keyingi boblarida etakchi morfemalar (leksemalar)ning mazmuniy jihatdan ichki bo'linishlari hamda shakl hosil qiluvchi affiksial morfema (**-ga, -da, -dan** kelishliklari)ning nutq jarayonida “lokal” sema hosil qilishi bilan bog'liq masalalarga alohida to'xtalib o'tamiz.

O'zbek tilidagi so'z yasovchi affixlarda ham lokallik belgisi ma'lum darajada namoyon bo'ladi. Sh.Mirzaqulov so'z yasash kategoriyasi xususida fikr yuritar

ekan, uni so'z yasash paradigmasining muhim tushunchalaridan biri sifatida e'tirof etadi.

O'zbek tilida lokal belgiga ega bo'lgan yasovchi morfemalar o'z doirasida qator ichki semalari orqali guruhlanadi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratib olish mumkin:

- joy otlari yasovchilar paradigmasi;

- joy belgisi yasovchilar paradigmasi.

Joy otlari yasovchilar paradigmasi doirasiga o'zbek tilidagi o'rin-joy oti yasovchi morfemalarni kiritamiz: **-loq, -zor, -goh, -iston** kabilar. Sh.Mirzaqulov ushbu affixlar to'g'risida to'xtalib, ushbu yasalma joy otlari yasalishi kategoriyasiga birlashib, kichik bir sistema birliklari maqomida harakat qiladi, deb ta'kidlaydi.

Ushbu affiksial morfemalar predmet, buyum-narsa otlariga qo'shib yangi ma'no – lokal belgi hosil qiladi: **paxtazor, olmazor, o'rikzor; qumloq, toshloq, o'tloq; o'yingoh, qarargoh**. Bular orasida **-iston** morfemasi asosan milliy-etnik belgi asosidagi shaxs nomlariga qo'shib, hududiy belgi orqali farqlangan atoqli otlarni yasaydi: **O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston** kabi.

Joy belgisi yasovchilar paradigmasi tarkibiga **-dor, -gi (-ki,-qi), -lik, -loq** singari birliklar mansub bo'lib, ular orqali shakllangan grammemalar lokallik bildiruvchi leksemalarning belgi valentligini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda ularning “o'ringa munosabat, xoslikni bildirishi” ko'rsatiladi.

-dor morfemasi **hosildor, unumdor** tarzida “lokal” semaga ega bo'lishi bilan birga, ayrim hollarda “egalik” (**zotdor, jilovdor**) semasini ham ifodalaydi. Shuningdek, **-loq** morfemasi ba'zan narsa-predmet otlariga qo'shib, ularga xos “lokal” belgini ifoda etsa, ba'zan esa belgi anglatuvchi birliklar yasaydi, ushbu morfemada har ikki holatda lokal belgi mavjud bo'ladi: **toshloq yer**.

Bu o'rinda ushbu morfema qo'shilayotgan otlar bilan sintagmatik

munosabatga kirishayotgan leksemalarning markaziy semalari e'tiborga olinadi. Bu markaziy semalar ularga bog'lanayotgan birlik(sifat)lar uchun chegara sema sifatida xizmat qiladi.

Ta'kidlash zarurki, hosila ma'noning o'zgaruvida yasovchi morfemaning o'rnini muhim. Chunki yasama so'z tarkibida asos leksik morfemaning ma'nosi sezilib, ayni paytda, asos sema ham saqlansa-da, yasama so'zning etakchi ma'nosi muhim bo'ladi. Jumladan, **yurtdosh, vatandosh, mahalladosh** singari birliklarda shaxs oti yasovchi morfemaning mavqei "o'rin" semasiga nisbatan ustunroq.

Otlar ikki xil – affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi. Affiksatsiya usulida yasovchi asosga maxsus affiks qo'shish orqali ot hosil qilinadi. O'zbek tilida ot yasovchi lokal affikslar makon ma'nolarini ifodalovchi so'zlar hosil qiladi:

1. – *loq*. Yasash asosidan anglashilgan narsa ko'p bo'lgan o'rin, joy ma'nosidagi ot yasaydi: *o't-loq, qum-loq, tosh-loq* kabi.

2. – *don*. Yasash asosidan anglashilgan narsalarni saqlashga xoslangan, shu narsa solinadigan idishni anglatadigan ot yasaydi: *tuz-don, kul-don, siyox-don, qalam-don, gul-don, surma-don* kabi.

3. – *zor*. Bu affiks yasash asosi anglatgan narsa ko'p bo'ladigan joy ma'nosidagi ot yasaydi: *daraxt-zor, lola-zor, anjir-zor, tok-zor, xurmo-zor, saksovul-zor, savag'ich-zor, sang-zor, sarif-zor, archa-zor, uzum-zor, chaman-zor, changal-zor, sho'ra-zor, ekin-zor, anor-zor* kabi.

4. – *iston*. Xalq (millat) nomini bildiruvchi yoki boshqa biror so'zga qo'shib, shu xalq yashaydigan mamlakat yoki yasovchi asos anglatgan narsa ko'p bo'lgan joy ma'nosidan ot yasaydi: *O'zbek-iston, Tojik-iston, Bahor-iston, Gul-iston, Turkman-iston* kabi.

5. – *poya*. Yasash asosidan anglashilgan narsa bilan bog'liq bo'lgan narsa va o'rin nomini bildiruvchi ot yasaydi: *sholi-poya, beda-poya* kabi.

6. – *goh*. Yasash asosida ifodalangan voqea-hodisalar voqea bo'ladigan joy

ma'nosidagi ot yasaydi: *sayr-goh, orom-goh, sayl-goh, manzil-goh* kabi.

7. – *xona*. Yasash asosidan anglashilgan narsa uchun xoslangan, biror ish uchun mo'ljallangan joy ma'nosini anglatuvchi ot yasaydi: *ish-xona, bosma-xona, dori-xona, osh-xona, choy-xona, qabul-xona, to'y-xona, usta-xona, urug'-xona, quyon-xona* kabi.

8. – *obod*. Turli so'zlarga ko'shib, yasash asosi ma'nosi bilan bog'langan joy nomlarini yasaydi: *Paxta-obod, Mehnat-obod, Xalq-obod, Mulk-obod, Dehqon-obod, Bek-obod* kabi

Yuqorida ko'rsatilgan – *poya, -xona, -obod* kabi affiksoidlar bilan bir qatorda, o'zbek tilida xuddi shunday mustaqil so'zlar ham mavjud.

- *ma*. Bu affiks fe'l asosidan ot yasaydi. –*ma* affiksi juda mahsuldor bo'lib, yasash asosi anglatgan harakat va holat bilan bog'liq o'rin-joy oti yasaydi: *bostir-ma, tort-ma, bo'l-ma, pistir-ma, birlash-ma* kabi.

10. –*k, -q*. Bu affiks ham fe'l asosidan ot yasovchi bo'lib, polesemantik xarakterga ega bo'lgan mahsuldor qo'shimchadir. Asos anglatgan harakat va holat bilan bog'liq o'rin joy ma'nosini bildiruvchi ot yasaydi: *yo'l-ak, yot-oq, qishlo-q, qo'r-iq* kabi. Demak, o'zbek tilining morfemik sathida lokal yasovchi affikslar talaygina. Biz yuqorida, ot yasovchi lokal affikslar haqida to'xtaldik, xolos.

Biz o'rin otlari derevatsiyasiga to'liq to'xtalmadik. Chunki fonetik, leksik, morfemik sathda lokallikning ifodalanishini B. Qurbonova nomzodlik ishida batafsil yoritib bergan. Jahon tilshunosligida maydon bilan bog'liq tushunchalar doirasida kommunikativ maydon atamasi ham vujudga keldi, unda kommunikativ akt, ma'lum birliklarning, muayyan sintagmatik aloqalari vositasida diskursning maydon tarzida qaralishi e'tirof etilmoqda.

F.Sossyurning lingvistik belgining muhim xususiyatlaridan biri sifatida uning silsilaligi ekanini ko'rsatib o'tganligi hozirgi kunda ko'pchilikka ayon. Bu xususiyat belgi bilan belgi o'rtasidagi munosabatga ishora qiladi. Ma'lum bir belgining boshqa belgi bilan o'zaro munosabati esa sintagmatik munosabat hisoblanadi.

Professor A.Nurmonov bu munosabatning asosi nutq jarayoni ekanini va uning negizida til vositalari yotishini ta'kidlaydi. Uningcha, "aloqa jarayonida yaratiladigan (talaffuz qilinadigan) konkret moddiy belgi real aloqa vositasi sanalib, bir vaqtning o'zida belgining moddiy sistemasi sifatidagi tilga ham taalluqli bo'ladi."

Ana shularga asoslangan holda, biz o'zbek tilidagi lokallikka ishora qiluvchi,

ularning faol yoki fakultativ valentligini to'ldiruvchi belgi, harakat ifodalovchi leksemalarni alohida tahlil etishga harakat qildik. Ushbu birliklar lokallik mikromaydonining periferiyasida joylashgani sababli, ularni lokallashgan otlar, lokallashgan sifatlar hamda lokallashgan fe'llar sifatida ajratdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tojiyev Yo. O'zbek tili morfemikasi. Toshkent, 1992, 5-bet.
2. Mirzaqulov Ch. O'zbek tilida so'z yasalishi ma'nosi va paradigmasi: Filol. fanl. nomz... dis. avtoref.. Samarqand, 1995.- 13-bet.
3. Eltazarov J. So'z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2006.- № 3.- 40-bet.
4. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Toshkent: Fan, 1975.- 235-bet.
5. Qurbonova B. Lokallik va uning o'zbek tilida ifodalanishi. Filol. fanl. nomz...dis. avtoref. –Toshkent. 2007.

TEST TOPSHIRIQLARINING SOLISHTIRMA VALIDLIGINI ANIQLASHGA DOIR К ОПРЕДЕЛЕНИЮ СРАВНИТЕЛЬНОЙ ВАЛИДНОСТИ ТЕСТОВЫХ ЗАДАНИЙ COMPARATIVE VALIDITY OF TEST TASKS SHOULD BE DETERMINED

Abdiraimov Shohruh Samad o'g'li
–Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasida dotsent v.b. ped.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Maqolada test topshiriqlarining yaroqliligini ta'minlovchi validlik, boshqa sinovlar bilan parallel, teng kuchli ekanligini tekshirish uchun foydalaniladigan solishtirma dallillar haqida ilmiy qarashlar aks etgan. Shuningdek, ona tili va adabiyot fanidan amaldagi oliy ta'limga kirish sinovlari va umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimining solishtirma validligi ko'rsatkichlari o'zaro qiyoslangan. Ularning konvertatsiyasi haqida ilmiy qarashlar bayon etilgan. Tadqiqotni amalga oshirishda tekshirish, eksperiment o'tkazish, kuzatish, tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar. Milliy test, oliy ta'limga qabul sinovlari, validlik, konvertatsiya, solishtirma dalillar

Annotation. The article reflects scientific views on the comparative evidence used to verify the validity of the test tasks, parallel and equal strength with other tests. Also, comparative validity indicators of the national test system for assessing the level of knowledge of general education subjects and the current higher education entrance tests in the subject of mother tongue and literature were compared. Scientific views on their conversion are described. The methods of investigation, experiment, observation, and mathematical-statistical analysis of test results were used in the research.

Keywords. National test, higher education entrance exams, validity, conversion, comparative evidence

Аннотация. В статье отражены научные взгляды на сравнительные данные, используемые для проверки достоверности тестовых заданий, параллельных и равных по силе с другими тестами. Также сравнивались показатели сравнительной валидности национальной тестовой системы оценки уровня знаний

по общеобразовательным предметам и действующих вступительных испытаний в высшие учебные заведения по предмету «Родной язык и литература». Описаны научные взгляды на их преобразование. В исследовании использовались методы исследования, эксперимента, наблюдения и математико-статистического анализа результатов испытаний.

Ключевые слова. Национальное тестирование, вступительные экзамены в высшие учебные заведения, валидность, конверсия, сравнительные данные

Ma'lumki, butun jahon baholash nazariyasi va amaliyotida talabgorlarning muayyan bilim sohasi bo'yicha egallagan ko'nikma va malakalari darajasini aniqlashda foydalaniladigan baholash vositalarining sifatini aniqlash, yaroqli topshiriqlardan foydalanish uchun muayyan testologiya tamoyillariga amal qilinadi hamda testologik ekspertizadan o'tkaziladi. Bunda klassik testologik nazariyada ham zamonaviy testologik nazariyada ham, avvalo, test topshiriqlarining validligi hamda ishonchliligi ta'minlanadi. Bu esa talabgorlarning bilim va malakalarini haqqoniy baholash, baholashdagi xatoliklarining oldini olish, imtihon natijalarini o'zaro konvertatsiya qilish uchun muhim hisoblanadi.

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda foydalaniladigan topshiriqlarning yaroqliligini, imtihon natijalarning haqqoniyligini, ya'ni o'quvchilarning fan bo'yicha bilish darajasini to'g'ri aniqlashni ta'minlashda ularning validlik va ishonchlilik dalillariga tayaniladi. Baholash vositalarining yaroqliligini tasdiqlashda mazmuniy, tarkibiy va solishtirma validlik dalillariga asoslaniladi. Shuningdek, klassik yoki zamonaviy testologik nazariya asosida topshiriqlarning korrelyatsiyasi hamda krobax alfa ko'rsatkichlari aniqlanadi. Baholash qonuniyatida belgilangan me'yorga javob bergan test topshiriqlaridan foydalanish ta'lim samardorligini, jozibadorligini oshiradi, noto'g'ri baholashning salbiy ta'sirini cheklaydi. Shu nuqtayi nazardan, bir fandan o'tkaziladigan bir xil imtihonlarni o'zaro konvertatsiya qilishda topshiriqlarning, imtihon tizimlarining solishtirma validligini aniqlash muhim hisoblanadi. "Solishtirma validlik - bir

vaqtning o'zida o'lchangan boshqa o'zgaruvchining qiymatini bashorat qilish uchun bitta o'zgaruvchining qiymatidan foydalanish to'g'ri yoki noto'g'riligini bildiradi". [5] Ya'ni boshqa natijalarni bashorat qilishda testdan foydalanish mumkin yoki mumkin emasligini tasdiqlash uchun ishlatiladigan dalillar.[4] Shuningdek, o'zbek testologlaridan K.Jalilov o'zining risolasida solishtirma validlikni o'lchov vositalarining validligini ta'minlovchi dalillar sifatida qayd etib, shunday izohlaydi: "Solishtirma dalillar – test va bu test bilan (yoki deyarli bir xil) paytda olingan boshqa o'lchovlar natijasilarining korrelyatsiyasiga asoslangan dalillar".[3-56] Darhaqiqat, muayyan sohaga oid yangi ishlab chiqilgan baholash tizimi, vositalari xuddi shu sohaga oid oldin ishlab chiqilgan, ishochliligi va validligi ta'minlangan sinov tizimi bilan bir vaqtda tekshirib, solishtirib ko'riladi. Har ikki sinov tizimining ishonchliligini tasdiqlovchi dalillar parallel tushsa, yangi sinov tizimidan foydalanish mumkinligini tasdiqlaydi. Shuningdek, bir sohaga oid talabgorning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini tekshiruvchi sinov tizimlarining natijalarini o'zaro tan olishda, bir xil kuchga ega ekanligini dalillashda ham sinov tizimlarining solishtirma validligi aniqlanadi. Shu maqsadda biz ham Ona tili va adabiyot fanidan o'quvchilarning bilim va malakalarini tekshiruvchi ikkita sinov tizimini solishtirma dalillarini aniqlashga harakat qildik.

Ona tili va adabiyot fanlaridan umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi natijalari va oliy ta'limga kirish sinovlari natijalarini o'zaro teng kuchga ega yoki ega emasligini, ulardan qayd etilgan natijalarni konvertatsiya qilish tartibini belgilash

maqsadida kichik tajribaviy tadqiqot o'tkazdik. Bunda ona tili va adabiyot fanidan amaldagi oliy ta'limga kirish sinovlari va umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimining solishtirma validligini aniqlashga harakat qilib ko'rdik.

Tajribani quyidagi tartibda o'tkazdik. Oliy ta'limga ona tili va adabiyot fanlaridan berilgan test topshiriqlarining barchasini to'g'ri bajargan 27 ta talabani saralab

oldik, ular ishtirokida Davlat test markazi tomonidan e'lon qilingan ona tili va adabiyot fanidan milliy test namunaviy variant asosida sinov o'tkazdik. Imtihon jarayonlarini belgilangan tartibda, shaffof, hammaga teng sharoit yaratib berilgan tartibda tashkil etildi. Baholash jarayonida ishtirok etgan respondentlarning natijalari quyidagicha bo'ldi. Sinov natijalarini o'zaro qiyosladik.

1-jadval


| № | FI | Milliy test tizimi natijalari | | OTM kirish sinovlari natijalari |
|-----------------|-------|-------------------------------|-------------|---------------------------------|
| | | ball | % | % |
| 1 | N.M. | 111 | 86,7 | 100 |
| 2 | X.Z. | 106 | 82,8 | 100 |
| 3 | M.M. | 97 | 75,7 | 100 |
| 4 | J.Z. | 98 | 76,5 | 100 |
| 5 | K.D. | 96 | 75 | 100 |
| 6 | I.M. | 106 | 82,8 | 100 |
| 7 | M.Sh. | 103 | 80,4 | 100 |
| 8 | R.G. | 108 | 84,3 | 100 |
| 9 | M.N. | 101 | 78,9 | 100 |
| 10 | X.M. | 108 | 84,3 | 100 |
| 11 | R.S. | 101 | 78,9 | 100 |
| 12 | A.N. | 111 | 86,7 | 100 |
| 13 | F.I. | 100 | 78,1 | 100 |
| 14 | M.H. | 105 | 82 | 100 |
| 15 | F.S. | 100 | 78,1 | 100 |
| 16 | H.Z | 106 | 82,8 | 100 |
| 17 | F.M. | 108 | 84,3 | 100 |
| 18 | I.G. | 105 | 82 | 100 |
| 19 | J.H. | 107 | 83,5 | 100 |
| 20 | Q.M. | 111 | 86,7 | 100 |
| 21 | K.M. | 96 | 75 | 100 |
| 22 | R.K. | 108 | 84,3 | 100 |
| 23 | H.D. | 105 | 82 | 100 |
| 24 | K.D. | 107 | 83,5 | 100 |
| 25 | G.U. | 96 | 75 | 100 |
| 26 | M.U | 107 | 83,5 | 100 |
| 27 | A.Sh. | 110 | 85,9 | 100 |
| O'rtacha | | | 81,5 | 100 |

(Ona tili va adabiyot fanidan amaldagi oliy ta'limga kirish sinovlari va umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimining solishtirma validligi ko'rsatkichlari)

Mazkur ikki sinov tizimining spetsifikatsiyasini tahliliy o'rganib chiqdik, garchi bitta fan doirasida talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash

uchun xizmat qilsa-da, mazmuniy jihatdan bir-biridan farq qilishini, baholanadigan sub-domenlari turlicha ekanini guvohi


bo‘ldik. Bu farq quyidagi diagrammalarda | aks etgan.



(1-rasm. Oliy ta'limga kirish sinovlari)

Ushbu farqlar ushbu sinov tizimlari haqida quyidagicha xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi.

Demak, ona tili va adabiyot fanidan amaldagi oliy ta'limga kirish sinovlari va umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimlarining solishtirma dalillari shuni ko'rsatadiki, bu ikki sinov tizimi bir xil kuchga ega emas, mazmunan va shaklan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ularning natijalarini o'zaro bir xil qabul qilish, teng kuchga ega sinov tizimlari sifatida qayd etish to'g'ri emas. Bu esa Davlat test markazi ikki



(2-rasm. Milliy test tizimi)

sinov tizimi natijalarini konvertatsiya qilishda maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball berish tartibini qayta ko'rib chiqishi lozimligini ko'rsatadi. Agarda konvertatsiya qilinsa-da, quyidagi tartibda bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimida ona tili va adabiyot fanidan 81 foizdan yuqori natija qayd etgan talabgorlarga oliy ta'limga kirish sinovlarida maksimal ball berish tartibini joriy etish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kelley, Truman Lee (1927). Interpretation of educational measurements. New York: World Book.
2. Brown, J. D. (1996). Testing in language programs. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall Regents.
3. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti – 2022. –B. 252
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Concurrent_validity
5. <https://www.statology.org/concurrent-validity/>
6. https://dtm.uz/upload/file/pdf/nt/Ona_tili.pdf

TILSHUNOSLIKDA MATN MUAMMOSINING TADQIQI
ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ТЕКСТА В ЛИНГВИСТИКЕ
STUDY OF THE TEXT PROBLEM IN LINGUISTICS

Pirnazarova Dilbarxon Abdullajon qizi

Qoʻqon davlat pedagogika instituti,
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada matn, uning jahon tilshunosligida oʻrganilishi, oʻzbek tilshunosligida matn tadqiqiga oid izlanishlar, matnning kognitiv aspekti yuzasidan fikrlar bayon qilindi.

Kalit soʻzlar: Matn, antroposentrik paradigma, matn sintaksisi, kognitiv lingvistika.

Аннота ция: В данной статье описаны текст, его организация в мировой лингвистике, исследования, связанные с изучением текста в узбекской лингвистике, взгляды на когнитивный аспект текста.

Ключевые слова: текст, антропоцентрическая парадигма, текстовый синтаксис, когнитивная лингвистика.

Keywords: text, anthropocentric paradigm, text syntax, cognitive linguistics.

Annotation: In this article, the text, its organization in world linguistics, researches related to the study of the text in Uzbek linguistics, opinions on the cognitive aspect of the text are described.

Tilshunos olimlar tomonidan "Sintaksis bu – kata sahna maydoni. Unda har bir til birligi oʻzini namoyon qiladi" deya taʼriflangan tilning sintaktik sathida matn dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli ham matn sintaksisi deb alohida nom bilan oʻrganilmoqda. Tilni antroposentrik jihatdan oʻrganish shu tilni undan foydalanuvchi shaxs omili bilan bogʻliq holda oʻrganganligi bois matn tadqiqi tobora rivoj topmoqda. Jahon tilshunosligida matn muammosi haqida V. Matezius, F. Danesh, V. Dressler, P. Hartman, I. Kovtunova, I. Galperin, K. Gauzenblas, N. Pospelov, T. Silman, N. Shvedova, K. Solganik, L. Loseva, O. Moskalskaya kabi olimlar tomonidan muhim fikrlar bildirilgan. Jumladan, chex tilshunosi K. Kojenikova matnning mazmuniy jihatdan tugallangan eng yuqori ideal kommunikativ birlik sifatida tushunadi. Shu sababdan ham matnning gap, murakkab sintaktik qurilma, abzaq, bob singari birliklar munosabatidan tashkil topgan nutq yoki til birligi tarzida izohlanishini maqsadga nomuvofiqligini alohida taʼkidlaydi. Qurbonova hamda M. Yoʻldoshevlar esa oʻzining "Matn tilshunosligi" oʻquv qoʻllanmasida shunday

qayd etadi: "Matn soʻzini qoʻllayotgan tilshunoslarning qariyb barchasi ushbu tushunchaga u yoki bu tarzda taʼrif berishga harakat qiladi. Matn – koʻp jihatli, murakkab tuzilishga ega boʻlgan qurilma, shuning uchun ham uni tavsiflashda unga xos boʻlgan semiotik, kommunikativ, strukturaviy, pragmatik, kognitiv, nominativ xususiyatlarni eʼtiborga olish talab qilinadi. Ammo har bir tadqiqotchi, odatda, oʻzini qiziqtirayotgan jihatlariga eʼtibor qaratadi, natijada, berilayotgan taʼrif mukammal, batafsil boʻlmaydi. Boshqacha aytganda, hech qaysi taʼrif matn kabi murakkab hodisani har tomonlama mukammal tavsiflay olmaydi. Shuning uchun har bir tadqiqotchi yoki tadqiqotchilar guruhining matn hodisasiga nisbatan oʻziga xos nuqtai nazari shakllanadi va rejalashtirilayotgan tadqiqot shu nuqtai nazarga boʻysundiriladi. Matn hodisasiga berilayotgan taʼriflarning hech biriga qatʼiy eʼtiroz bildirish qiyin, chunki ularning har birida matn hodisasining u yoki bu jihatlari yoritilgan, demak, har bir kuzatishda tadqiq qilinayotgan obyektning maʼlum bir qirralari oʻz ifodasini topadi".[1] Shuningdek, oʻzbek tilshunosligida B. Oʻrinboyev, R. Qoʻngʻurov, J. Lapasov, M.

To‘xsanov va boshqa olimlarning matn ta‘rifiga oid fikrlari diqqatga sazovordir.

Tilshunoslikda matnlarni sotsiolingvistik, lingvokulturologik va psixolingvistik jihatdan o‘rganish ham taraqqiy etmoqda. Xususan, matn psixolingvistik jihatdan o‘rganish ham o‘z tarixiga ega bo‘lib, bu borada A.A.Leontyev, N.S. Evchik, A. Shtern, I. Lisakova, T. A. Drozdovalarning ilmiy izlanishlari dolzarbdir.[2] Ushbu yo‘nalishdagi ishlarda matn yaratilishi, uning preseptsiyasiga oid jarayonlar, ya‘ni inson psixikasi hamda matn yaratilishini o‘zaro aloqasiga bog‘liq hodisalar tadqiq etiladi. O‘zbek lingvistikasida ham bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, I. Azimovning nomzodlik ishida psixolingvistikadagi matnning tushunilishi (perseptsiyasi)ga oid umumiy va nazariy fikrlar sharhlangan. Matn tushunishga ta‘sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillar psixolingvistik tajribalar asosida aniq dalillar bilan yoritilgan.[3] Bundan tashqari, “O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar” mavzusidagi S. Boymirzayevaning doktorlik ishida matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari o‘rganilgan.

Keyingi yillarda M. Hakimovning “O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik ishi, E.Qilichevning “Matnning lingvistik tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasi hamda D. Xudoyberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasi diqqatga sazovordir. Chunki, ushbu monografiyada olim matn XX asr oxirlarida shakllangan antroposentrik paradigmasida tadqiq qilish g‘oyasini ilgari suradi. Shuningdek, monografiyada o‘zbek tilida yaratilgan matnlarning kognitiv-semantik, lingvokulturologik, psixolingvistik jihatlarini izchil tarzda ochib bergan. “Matn yaratilishining kognitiv talqiniga binoan, matn – mental tuzilmaning tilga ko‘chirilishidir”[4] deya qayd etadi D. Xudoyberganova. Matn bevosita insonning tafakkur faoliyati bilan bog‘liq

bo‘lganligi uchun ham, kognitiv ahamiyat ham kasb etadi. Negaki, matn kognitiv metafora va konseptga boy bo‘ladi va konsept bir vaqtning o‘zida lingvokognitiv, lingvokulturologik ahamiyatga kasb etadi.

Konseptga taniqli rus tilshunosi V.A.Maslova quyidagicha ta‘rif bergan: “bu lingvomadaniy o‘ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir”.[5] Tilshunos olim N. Mahmudov o‘zining “Til tizimi tadqiqi” nomli risolasining “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” mavzusidagi maqolasida “...konsept tafakkurga oid, mazmuniy mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy unsurdan tamoman xoli bo‘lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir”[6] deb yozadi. Pragmalingvistika hamda kognitiv tilshunoslik asarlari muallifi, tilshunos Sh. Safarov ta‘biri bilan aytganda, “...inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo‘nalishda o‘zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet –hodisalar haqida tushuncha tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi.”[6] Konseptning badiiy matnda voqelanishini quyidagi matn tahlili asosida ko‘rishimiz mumkin:

Xonadoningizda keksa odam bormi? Baxtli ekansiz! Dunyo tashvishlaridan to‘yib ketsangiz shularni ziyorat qiling: hayot abadiy emasligini o‘ylab, taskin topasiz. Xonadoningizda go‘dak bormi? Siz ham baxtli ekansiz... dunyo tashvishlaridanto‘yib ketsangiz, go‘dakni bag‘ringizga bosing: hayot abadiy ekanini o‘ylab, taskin topasiz...[7]

O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan ushbu mikromatnda *farishta* konsepti mikromatn o‘qib yakunlagach, hosila sifatida yuzaga chiqadi. Mikromatnda *farishta* konsepti “keksa” va “go‘dak” so‘zlarini qo‘llash orqali yuzaga chiqqan. Shuningdek, bu matn milliy mental, lingvomadaniy xususiyat ham kasb etib, o‘zbek xalqiga xos keksalarni e‘zozlash, go‘dakni ham izzat qilish singari

fazilatlarni o‘zida mujassam etgan. *Farishta* konsepti o‘zining kognitiv maydoniga *ona, keksa, ota go‘dak* mikrokonseptlarini ifodalaydi. Bundan tashqari, mikromatni o‘qigan o‘quvchi tafakkurida “*Qarisi bor uyning parisi ham bor*”, “*Qari bor uyning zari bor*”, “*Qarisi bor uyning parisi bor, Parisi bor uyning barisi bor*”, “*Qari uyning farishtasi, Saranjomi,*

sarishtasi” kabi xalq maqollari assotsiativ tarzda insonning yodiga tushadi.

Xulosa sifatida shuni qayd etishimiz mumkinki, matnni kognitiv, psixolingvistik, lingvokulturologik jihatdan tadqiq hamda tahlil etish o‘zbek tilining imkoniyatlarini, boyligini namoyon qilishda yangicha qirralarni kashf qilishda dolzarb ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurbonova M, Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. Toshkent. “Universitet” nashriyoti – 2014. 7-bet
2. Лисакова И. Р. Язык газеты: социопсихолингвистический аспект. – Л.1981, Леонтев А.А. психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания. – М., 1969 Евчик Н. С. Перцептивная база текста: теоритические и прикладные аспекты формирования. – Минск,2001, Штерн А. С. Перцептивный аспект текста. – Л.,1990, Дроздова Т. А. Психологические особенности понимания текста как протесса // Психологические механизмы порождения и восприятия текста. Сборник научник трудов MGIIYA. Vip.23. – М.,1985. –С.106-120
3. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Filol.fan. nomz...dis. –Toshkent,2008
4. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi.Monografiya. “Фан” nashriyoti. 2013. 14-bet
5. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2008. –Б.50.
6. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi.Toshkent. “MUMTOZ SO‘Z”2017. 60-bet.
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax -2006. 25-bet
8. O‘tkir Hoshimov Daftar hoshiyasidagi bitiklar.6-bet

QO‘QON XONLIGI TARIXNAVISLIGIDAGI BA‘ZI ANTROPONIMIK BIRLIKLAR XUSUSIDA О НЕКОТОРЫХ АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ В ИСТОРИАЗАХ КОКАНСКОГО ХАНА ON SOME ANTHROPONYMIC UNITS IN THE HISTORIASIS OF THE KOKAN KHAN

Nilufar Xalilova

Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada ismlar o‘tmishda ko‘p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilganligi va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida etib kelganligi, ulkan madaniy va ma‘naviy qimmatga molik bo‘lgan lug‘aviy qatlamni tashkil etganligi. O‘zbek tilshunosligida antroponimikani o‘rganish va tahlil etish jarayonlari ochib berilgan.

Kalit so‘z: Qo‘qon, tarix, antroponim, toponim, lirik, epik, xonlik, laqablar, taxalluslar, onomastika.

Аннотация. В статье констатируется, что имена были созданы нашими предками много веков назад и дошли до нас как историко-языковое богатство, образуя словарный пласт, обладающий большой культурной и духовной ценностью. Раскрываются процессы изучения и анализа антропонимики в узбекском языкознании.

Ключевые слова: Коканд, история, антропоним, топоним, лирика, эпос, ханство, прозвища, ономастика.

Key words: Kokand, history, anthroponym, toponym, lyrics, epic, khanate, nicknames, onomastics.

Annotation. The article states that the names were created by our ancestors many centuries ago and have come down to us as a historical and linguistic wealth, forming a

vocabulary layer of great cultural and spiritual value. The processes of studying and analyzing anthroponymy in Uzbek linguistics are revealed.

Qo'qon xonligadoirtarixnavislik maktabi XIX asrning boshlarida, aniqrog'i, Amir Umarxon davrida shakllandi. Qo'qon tarixiga oid asarlar, asosan, o'zbek va tojik tillarida lirik va epik turlarda yozilgan. Mutaxassislarining ma'lumotlariga qaraganda, birinchi "qo'qonshunos" olimlar Qo'qon tarixi va madaniyatiga doir asarlar yozgan mahalliy tarixchilar hisoblanadi. Umuman, Qo'qon xonligi va shu nom bilan ataluvchi davlat haqida yaratilgan mahalliy tarixchilarning asarlari soni 30 dan oshadi. Keng ko'lamdagi bu manbalarda xonlikning siyosiy tarixi, madaniyati va uning turli hududlarida yuz bergan voqealar tafsilotlari bayon qilingan. Qo'qon tarixchilari asarlarida qo'shni mamlakatlar tarixi ham mavjud. Qo'qon tarixchilari maktabi va ularning namoyandalari hamda asarlariga bag'ishlangan maxsus tadqiqot haligacha yaratilgan emas. Ularning asarlaridan juda kam qismi ilmiy muomalaga kiritilgan yoki tarjima etilib chop qilingan.[1]

Qo'qon tarixnavisligining noyob namunalari to'g'risida quyidagicha to'xtalamiz. Masalan, Fazliy Farg'oniy (Abulkarim Namangoniy) 1822-yilda fors tilida "Umarnoma" asarini she'riy yo'l bilan yozgan. Bu asar 1823 -yilda Mushrif Isfaragiy, ya'ni Mirzo Qalandar tomonidan nasriy yo'l bilan Amir Umarxonning topshirig'iga ko'ra "Shohnomayi nusratpayom" ("Shohning g'alabalari haqida xabar beruvchi kitob") nomi bilan qayta ishlangan. Bu ikki asardan ham avvalroq yaratilgan Akmal –Shermuhammad Xo'qandining "Amirnomi" asari, Dilshodi Barnoning "Tarixi muhojiron" tarixiy-epizodik xarakterdagi asari, Uvaysiyning "Voqeoti Muhammad Ali", Mutribning "Shohnomayi Devona Mutrib", Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix", Mullo Shavqiy/Shamsiyning "Jangnomayi Xudoyorxon", Niyoz Muhammad Xo'qandiyning "Tarixi Shohruxiy" ("Ibratul xavoqin") asarlari ham aynan Qo'qon

tarixiga oiddir. Umuman, Qo'qon xonligi va shu nom bilan ataluvchi davlat haqida yaratilgan mahalliy tarixchilarning asarlari soni 30 dan oshadi. Keng ko'lamdagi bu manbalarda xonlikning siyosiy tarixi, madaniyati va uning turli hududlarida yuz bergan voqealar tafsilotlari bayon qilingan.

Shaxs, narsa-predmet hamda o'rin-joy kabilarga atab qo'yilgan otlar atoqli otlar deb yuritiladi. Tilshunoslikning atoqli otlar deb nomlanuvchi lug'aviy qatlamini o'rganuvchi sohasi bu- onomastikadir. "Onomastika" so'zi grekchadan olingan bo'lib, "nom berish san'ati" degan ma'noni anglatadi. Onomastika fani bilan shug'ullanuvchi shaxs esa onomast hisoblana.[2] Til nazariyasida har bir sohaning o'rganish obyekti bor. Bu o'rganish obyekti til birligi yoki lisoniy birlik deb ham yuritiladi. Masalan, fonetika bo'limining o'rganish obyekti fonemalar, leksikologiyani leksmalar, morfologiyani morfemalar, shuningdek, sintaksis bo'limining tadqiq obyekti sintagmalar, gap va matnlar sanaladi. Onomastikaning o'rganish obyekti esa tilimizdagi har qanday atoqli otlardir. Boshqacha qilib aytganda, tildagi mavjud atoqli otlarning ko'rinishi, turlari, kelib chiqishi hamda ma'no xususiyatlarini onomastika o'rganadi. Onomastikada o'rganiladigan til birliklariga antroponim, toponim, fitonim, zoonim, kosmonim, teonim, va boshqalar kiradi. Taniqli nomshunos olimlarning fikriga qaraganda, bunday atoqli otlarning hattoki 19 turi mavjud. "Antroponim" so'zi grekchadan olingan bo'lib, "antro"-odam, "onim"-nom, ism degan ma'noni anglatadi. Demak, antroponimlar shaxslarga berilgan atoqli otlardir. Antroponimlar o'rganiladigan soha antroponimika, bu sohaning mutaxassisi esa antroponimshunos sanaladi. O'zbek onomastikasining asoschisi, professor Ernest Begmatov antroponimika o'rganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga o'zbek tilidagi atoqli ot bo'lgan **ismlar, laqablar,**

taxalluslar, familiyalar va ota ismlarini kiritgan.

Ma'lumki, ismlar o'tmishda ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy bo'yluk sifatida etib kelgan ulkan madaniy va ma'naviy qimmatga molik bo'lgan lug'aviy qatlam hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida antroponimikani o'rganish va tahlil etish jarayoni XIX asrning 60-yillarida boshlandi. Shu vaqtdan boshlab to bugungi kungacha ismshunos olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqotlar sababli antroponimika sohasi ham endilikda eng rivojlangan yo'nalishlar sirasiga kiradi. Birinchi navbatda shuni ta'kidlash joizki, o'zbek antroponimikasiga ilk marta ilmiy jihatdan asos solgan tilshunos olim bu — Ernest Begmatovdir. Ismshunoslik bilimdoni o'zining 1965- yilda himoya qilgan "O'zbek tili antroponimikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek ismlari, laqab, taxalluslari, familiya va otasmlarini lug'aviy, ma'naviy hamda grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etdi[3]. O'zbek nomshunosligida Z.Do'simov, T.Nafasov, S.Qorayev, Y.Xo'jamberdiyev, N.Oxunov, N.Husanov, N.Uluqov, L.Karimova, T.Rahmatov, Q.Hurramov, G'.Sattorov, X.Xolmo'minov, R.Xudoyberganov, D.Xudoyberganova, S.Kenjayeve, X.Doniyorov, A.Ishayev kabi etakchi mutaxassislar tadqiqot ishlari olib bordilar. O'zbek ismlarining etimologik xususiyatlari, lisoniy tarkibi, morfologik tuzilishi, yasalishi, mazmun-mohiyati, ismlarning orfografik qonuniyatlari nomshunoslar tomonidan o'rganildi. Shuningdek, S.Rahimov Xorazm mintaqaviy antroponimiyasiga xos masalalarni tahlil etdi[4]. S.Kenjayeve o'zbek tilidagi antroponimlarning semantik va sotsiologik xususiyatlarini tavsifladi. Sanab o'tilgan antroponimikaga doir tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek antroponimikasi turkiy antroponimika bilan bab-barobar ravishda taraqqiy etib kelmoqda. Bugungi kunda o'zbek antroponimiyasining ma'no va etimologiyasi, etnografik xususiyatlari,

tarixiy-etimologik manbalari, morfologik tabiati, nominatsion-motivatsion belgilari, terminologik izohlari E.Begmatov, G'.Sattorov, N.Uluqov, M.Norqulova, S.Mo'minov singari ismshunoslar tomonidan mufassal o'rganilgan.

Ernest Begmatovning aytishicha, o'zbek tarixiy onomastikasi, jumladan, antroponim materiallari turli tarixiy bitiklar sahifasida o'z tadqiqotchisini kutmoqda. Ularning nominativ, badiiy-uslubiy, lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish zarur. Mana shu etishmovchilik tufayli tarixiy antroponimlar asosida yotgan apellyativlarning haqiqiy ma'nosi noma'lumligicha qolmoqda.

Xususan, N.Husanovo'zining tadqiqotlari orqali o'zbek tarixiy antroponimiyasini o'rganish birinchi bo'lib boshlab berdi.

Ismshunos olim "Devoni lug'atit turk" da 105 ta antroponim, "Qutadg'u bilig" asarida 32 ta ism, "Hibatul-haqoyiq" da 20 ta ism mavjudligini, Yassaviy va Boqirg'oni asarlarida esa turkiy antroponimlar soni 5-6 tadan oshmasligini ta'kidlaydi[5].

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Mirzo Olim Mahdum Hojining "Tarixi Turkiston" asari muhim ahamiyatga ega. Asar 1915- yili yozilgan bo'lib, 1-jildida Qo'qon xonligining paydo bo'lishidan tugatilgan vaqtiga qadar hikoya qilinadi. 2-jildida esa Buxoro va Xiva xonliklari tarixi qalamga olinadi. Asarda aynan Qo'qon xonligiga doir 232 ta antroponim uchraydi. Antroponimlarning asosini xonlar va xonzodalarning, shahzodalarning va malikalarning hamda davlat amaldorlari, lashkar boshlari, hokimlarning ismlari, laqablari tashkil etadi. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1) Qo'qon xonlari ismlari: Shohruxbiy, Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Abdurahmon-xon, Erdonaxon, Bobobek, Sulaymon ibn Shodixon, Norbo'taxon, Olimxon, Umarxon, Muhammad Alixon, Sheralixon, Xudoyorxon, Mallaxon va boshqalar.

2) Qo'qon xonligiga mansub malikalarning ismlari: Oyjonoyim (Erdonaxonning singlisi, amakivachchasi), Abdulkarimxon jannatmakonning o'g'li

Abdurahmonbekka nikohlangan. Shu ikkala zodagon nasabli yoshlardan Abdulhamidbek, ya'ni Norbo'tabiy dunyoga kelgan), Oftob/Oytoboyim (Norbo'tabiyning qizi), Mingoyim (Olimxon va Umarxonning onasi), Yorqinoyim (Jarqinoy, Hokimoyim nomi bilan ham shuhrat topgan, SHERALIXONNING qirg'iz xotini), So'naoyim (SHERALIXONNING xotini), Norchuchukoyim, Mohlaroyim; Xonposhshaxon, Shaxzodaxon, To'raposhsho, Mohzodaxon, Ozodaxon (Xudoyorxonning qizlari).

3) hokimlar va turli davlat amaldorlarining ismlari, shuningdek, ismi oldida kelgan laqablari: Zuhur devonbegi, Mo'minbek (Olimxonning sarkardalaridan), Musulmonqul, Ernazarbek devonbegi, Xushvaqt qo'shinbegi Shohi qo'shbegi Otaliqbek yuz, Lashkar beklarbegi, Bahodir qo'shbegi, Mullo Qurbon miroxur, Muhammadsharif miroxur, Tillo Qobil (Xo'jand sarkardasi), Tangriquli shig'ovul. Azimboy qo'shbegi, Solih sudur, Muhammadniyoz parvonachi kabilar fikrimizning yaqqol dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mirzo Olim Mahdum hoji. Tarixi Turkiston – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2009. 4-bet
2. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С. 97.
3. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965.
4. Рахимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1998.
5. Хусанов Н.А. XV аср ўзбек адабий ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 1-китоб. – Б. 15.

THE PRINCIPLES OF LINGUISTIC ETIQUETTE IN LANGUAGES

ПРИНЦИПЫ ЯЗЫКОВОГО ЭТИКЕТА В ЯЗЫКАХ

TILLARDA LINGVISTIK ODOQ PRINSIPLARI

Tulyaganova Nargiza Farxod kizi

2nd year master's degree student of Chirchik State Pedagogical University
of Tashkent region, Uzbekistan

Yusupova Shoira Batirovna

Associated professor National University of Uzbekistan, Scientific supervisor

Annotation: We know that before learning any language, it would be better if we find and know some information about culture and customs of the country of the language which is being learned. This not only helps us to know and use the language perfectly, but also facilitates the process of communication. We tried to pay attention to these issues in this article.

Keywords : language etiquette, culture, pragmatics, communication, category of politeness, form of speech.

Аннотация: Мы знаем, что перед изучением любого языка было бы лучше найти и узнать некоторую информацию о культуре и обычаях страны изучаемого языка. Это не только помогает нам в совершенстве знать и использовать язык, но и облегчает процесс общения. Мы постарались уделить внимание этим вопросам в данной статье.

Ключевые слова: языковой этикет, культура, прагматика, общение, категория вежливости, форма речи.

Annotatsiya: Biz bilamizki, biron bir tilni o'rganishdan oldin o'rganilayotgan til mamlakatining madaniyati va urf-odatlarini haqida ma'lumot topib, bilib olsak yaxshi bo'lardi. Bu nafaqat tilni mukammal bilish va undan foydalanishimizga yordam beradi, balki muloqot jarayonini ham osonlashtiradi. Biz ushbu maqolada ushbu masalalarga e'tibor berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: til odobi, madaniyat, pragmatika, muloqot, xushmuomalalik kategoriyasi, nutq shakli.

Introduction. We can say that etiquette is a code of conduct that sets norms for social behavior in accordance with modern traditional norms within a society, social class, or group. Each culture has its own rules of etiquette. This etiquette is accepted and applied by society. Like culture, rules of etiquette are strict, but sometimes change in a way that is acceptable to members of society. The difficult task facing a foreign language teacher is to establish communication between cultures. This requires students to interpret different verbal and nonverbal aspects of a particular cultural environment, such as rules of etiquette, as a result of the development of socio-cultural competence in teaching and learning. While other aspects of language, such as vocabulary, grammar, literature, or the history of the country where the language is taught, can be learned from books, the subtleties of human behavior are largely inherited from childhood.

Discussion. Linguistic etiquette is a set of accepted requirements for forms, content, commands, signs, and speech or expression depending on the situation. It is well known that English people are polite in their speech, so they tend to find different words and phrases, for some unpleasant events.[1] English has been replaced by new forms of linguistic expression that do not harm people's feelings about race, age, gender, health, social status, and so on. The politeness theory of Brown and Levinson is an important branch of Pragmatics . According to Brown and Levinson , there are two main types of politeness , one appeals to the listener's positive face and the next one is negative face .[2] When we appeal to a person's positive face , we want to make them feel good about themselves . For instance , we might compliment someone's outfit ,

congratulate person on their achievements or may agree with something they have said .

Example : Wow , my dear you always wear such lovely , bright clothes ! I'd love to borrow something like this, one day . As you see , the speaker makes the partner or listener feel good about themselves complimenting . People smile when they are absolutely happy in our country . However , this element is just one of the form of being politeness. Language etiquette refers to words and phrases used to greet, ask permission, ask for something, address someone, give the correct intonation to express politeness, and so on. In order to communicate with representatives of other cultures, it is necessary to speak in a foreign language in accordance with the norms of foreign culture as a means of communication. This requires very good adherence to various forms of verbal and non-verbal communication. Regular use of language etiquette in speech is considered the right way [3]. However, the misuse of the etiquette of speech is perceived as a tendency to offend or insult, or a bad manners.

As noted above, etiquette and language etiquette as part of culture are rigid but constantly changing. However, literary language is often more conservative. It involves a long process of selecting and carefully examining language tools. Language etiquette is, as Agyekum described, "an extra series of structures, including as the activity of one person or the interaction of two or more people". Agyekum defined the concept of linguistic etiquette as a series of additional structures that include the activities of one person and the interaction of two or more people. [4] Many of these routines are used during interactions in our daily lives. When a

student begins to learn a foreign language, he or she becomes acquainted with the etiquette of that language in the first lessons, as conversations often begin with greetings, introductions, and so on. Although these are all elements of cultural etiquette. They may differ in the languages being studied and the target language.

It is well known that English people are polite in their speech, so they tend to find different words and phrases, for some unpleasant events. English has been replaced by new forms of linguistic expression that do not harm people's feelings about race, age, gender, health, social status, and so on.

The politeness theory of Brown and Levinson is an important branch of Pragmatics . According to Brown and Levinson , there are two main types of politeness , one appeals to the listener's positive face and the next one is negative face .[5] When we appeal to a person's positive face , we want to make them feel good about themselves . For instance , we might compliment someone's outfit , congratulate person on their achievements or may agree with something they have said . Example : Wow , my dear you always

wear such lovely , bright clothes ! I'd love to borrow something like this, one day . As you see , the speaker makes the partner or listener feel good about themselves complimenting . People smile when they are absolutely happy in our country . However , this element is just one of the form of being politeness.

Conclusion. We all know that language and culture are inextricably linked, inseparable from one another. In fact that Western and Eastern cultures are different. This also has an effect on the process of language learning . Understanding lifestyle is like having a context that permits you to supply the proper that means to each new word you learn. The greater you know about the sociocultural background, the less complicated it is to get concerned and analyze new words, expressions and methods of speaking. In conclusion, English and Uzbek languages differ from each other not only in terms of grammar, but also in terms of the structure of using words and phrases. For this reason, teaching English can be a bit difficult not only in schools, but also in institutions and universities.

REFERENCES :

1. <http://www.academicresearchjournals.org/IJELC/Index.htm>
2. <https://www.grin.com/document/138441>
3. Mirzayev K. Ingliz tili stilistikasi fanidan metodik qo'llanma. – TDPU, 2009.
4. Loae Fakhri Jdetawy , Mohd Hilmi Bin Hamzah , Linguistic etiquette: a review from a pragmatic perspective , scientific article , Universiti Utara Malaysia , 2020 , ISSN : 2668-7798
5. Theories on Politeness by Focusing on Brown and Levinson's

O'ZBEK TILIDA QIZIL VA QORA RANGLARNING SALBIY VA IJOBIY ATTENKALARI

ОТРИЦАТЕЛЬНАЯ И ПОЗИТИВНАЯ ПОСЕЩАЕМОСТЬ КРАСНО-ЧЕРНЫХ ЦВЕТОВ В УЗБЕКАХ

NEGATIVE AND POSITIVE ATTENDANCES OF RED AND BLACK COLORS IN UZBEK

Xrojiddinova Muattar Mansurovna
Qo'qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilimizda ko'p uchraydigan rang-tus sifatlaridan qizil va qora ranglarining tahlili hamda ularning salbiy va ijobiy attenkalari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Maqolada shuningdek, qizil va qora ranglaridan foydalanish hususiyatlari, ularning toponimikasi hamda froziologik tadqiqi ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar. Rang-tus, qizil va qora, salbiy va ijobiy, turkum, tilshunoslik, ma'no, sifat, miqdor, o'rganish, tadqiqot.

Аннотация. В данной статье обсуждается анализ красного и черного, среди наиболее распространенных цветных прилагательных в нашем языке, а также их отрицательные и положительные стороны. В статье также представлены особенности употребления красного и черного цветов, их топонимия и фросологические исследования.

Ключевые слова. Цвет, красное и черное, отрицательное и положительное, категория, лингвистика, значение, качество, количество, обучение, исследование.

Abstract. In this article, the analysis of red and black, among the most common color adjectives in our language, as well as their negative and positive aspects, is discussed. The article also includes the features of using red and black colors, their toponymy and phrosological research.

Keywords. Color, red and black, negative and positive, category, linguistics, meaning, quality, quantity, learning, research.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar turkiy xalqlar urf-odatlarida alohida mavqe kasb etadi. Bir turkum rang-tus bildiruvchi sifatlar borki, ular to'g'ridan-to'g'ri ijobiy yoki salbiy ta'sir bahosi bilan ana shu urf-odatlarni ifodalasa, yana bir turkum sifatlar boshqa turkumdagi so'zlar (ko'proq ot turkumiga mansub so'zlar) bilan qo'shib, qo'shma ot yoki so'z birikmasi shaklida urf-odatlarining ifodachisiga aylanadi. Yoki yana bir turkum sifatlar bevosita otga ko'chib ana shu vazifani ado etishga moslashadi. [1, B.14]

Tilimizda qizil va qora ranglarining salbiy atfenkalari haqida fikr bildirsak, bu haqida juda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan o'tmishda bolalar o'rtasida badaniga **qizil** toshmalar (qizamiq kasalligi) toshishi ko'p kuzatigan. Hozirdagi mavjud vaksinalar – emlash vositalari bo'lmaganidan, bu kasalliklar "**qizil** ko'ylak", "**chekhak**" (ya'ni qizil gul) deb atalgan. Insu- jinslarga ishonish natijasida yoki ayrim irimlar nomida ham rang-tus sifatleri istifoda qilingan.[2, B. 40] Masalan, ketayotgan odamning oldidan **qora** mushuk kesib o'tsa, ishi o'ngidan kelmasligiga sabab qilib ko'rsatilgan. Yoki ba'zi bir ayollar musibatli xonadonlarga bir borib kelsa, kasallikka chalinib qolaverganidan, "**qoramni** sotib kelaman", deya azayimxonlarga qatnashgan. O'g'il bolalarni sunnatga yotqizish paytida "**qora** chiroq" (yog' to'lg'azilgan pilikli idish)ni yoqib, undan ham yoritish maqsadida, ham kulidan malham o'rnida foydalanganlar va buni ham ilohiylik bilan bog'laganlar. Ko'rinib turibtki, qizil va qora ranglari atfenkakalaridan salbiy

jihatlarni ifodalashda ishlatilgan tilizmida ko'plab misollar mavjud.

Ushbu ranglarning jobiy atfenkalariga misol sifatida esa, ro'zg'orni moddiy ta'minlash maqsadini ifodalashda ham rang-tus sifatleri bo'lgan qizil va qora ranglardan foydalanilganini kuzatish mumkin: **Qora** qozonim qaynab turibdi; Uyida **qo'ra** qumg'oni vaqillab turibdi kabilarni bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Ayrim odamlarning fe'l atvori, kishining kishiga zulmini ifodalash, biror tashrifni izohlash maqsadida ham ana shu "**qora**", "**oq**", "**qizil**" sifatlerini istifoda qilish odati bor. Agar birorta odamning xasadgo'yiligini, janjalkashligini ifodalash zarur bo'lsa "ichi **qora** odam" deyiladi. "El o'rtasida yuzi **qora** bo'ldi" deyilganda ham xalqning biror niyati bayon etiladiki, bunda ayrim kishilar yolg'on gapirib yoki nojo'ya ish qilib sharmanda bo'lgani anglashiladi. Uzoqdan tanish yoki notanish kimsa ko'rinsa, "falonchining **qorasi** ko'rindi", "birovning **qorasi** ko'zga tashlandi", deyiladi. Yoki birov birovni vosita qilib bir yumush bilan kelgan bo'lsa, "falonchi Ahmadboyni **qora** qilib kelgan edi" deyiladi. Yana, kishi kishini g'iybat qilsa ham, "shunday odamni **qora** qildi-ya", deyдилar.[3, B.18]

Jamiyatimizda odat tusiga aylangan ba'zi diniy urf-odatlar ham borki, unda rang-tus sifatleri orqai yangi mani ifodalashda foydalanilgan va kundalik turmush tarzida ham muqim o'rin tutib kelmoqda. Diniy qarashlarga nazar tashlansa ham, buning dalilini yaqqol ko'rish mumkin. Xizr

alayhissalomni to davri qiyomatgacha barhayot ekanligini “yashil” sifati bilan ifodalash barcha musulmon mintaqalarga xos. Yoki “qora” rang-tus sifati “ulug'lik” “donishlik”, “buzruklik” ma'nolarida istifoda etilganligi sababidan “qoraxoniylar” saltanati qurilgan va mintaqamizda davlatchilikning ilk ko'rinishlaridan biri sifatida ikki yuz yil davomida barqaror davlat maqomida turgan. Yurtimizning deyarli barcha hududlarida mavjud bo'lgan “Qoratepa”, “Qiziltepa”, “Qizilcha”, “Tepaqora”, “Qorachitol”, “Qirmiz” singari toponimlar ham bejiz qo'yilmagan. Masalan, “Qoratepa” toponimida tuproqning qoralig'i (denotativ ma'no), ham biror ulug' – aziz-avliyo dafn etilgan hududni anglatgan bo'lsa, “Qiziltepa” toponimi tuproqning qizilligi hamda tepaliklardan iboratligini anglatgan. Yoki turkiylarning issiq yoki sovuq ma'rakalarida ayni rang-tus sifatlari ularning ruhoniy holatlarini ham o'zida namoyon qilgan. Masalan, oldilaridan qora mushuk o'tsa, bosh kiyimlarini uch marta aylantirib, kalima o'girish odati yaqin-yaqingacha saqlanib kelgan. Azalarda qora yoki ko'k rangli kiyimlar kiyish, aza nihoyasida oq rangli kiyimlar (yoxud ro'mol o'rash) bilan almashtirish, rang-tus sifatlarini orttirma darajada istifoda qilib, “hayotimning qop-qora kunlari”, “bu odam qip-qizil jinni bo'libdi” deyishlari ham ana

shunday hayotiy jarayonlar bilan bog'lanib ketadi.[4, B. 24]

O'zbeklarning kiyim-kechaklari leksikasida ham rang-tus sifatlari jumladan qizil va qora ranglari bilan bog'liq predmetlar keng istifoda qilingan. Deylik, kiyim qanday matodan tikilgan bo'lsa, o'sha matoning rang-tusi hisobga olinib nomlangan. Chunonchi, “qora chopon” – qora rangli ipdan to'qilgan bo'zdan tikilgan chopon nazarda tutilgan bo'lsa, “qizil chakmon” qizil rangli jun ipdan to'qilgan matodan tikilgan chakmon nazarda tutilgan. Bundan tashqari, kiyim-kechak leksikasida “qizil to'n”, “qora to'n” singari birikmali kiyim-kechak nomlari ham uchraydi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, tilimizdagi rang – tusni ifodalovchi qizil va qora ranglarining atfenkalarining ijobiy ma'noni anglatuvchi so'zlar bilan birga salbiy ma'nolarni anglatuvchi jihatlari ham uchrab turadi. Bugungi kunda ham qizil hamda qora ranglari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab jumalar hamda iboralar, so'z birikmalari kundalik hayotimizda muqim o'rin egallab ulgurgan. Ko'tarilgan muammoni tadqiq etish ularni kelib chiqishi, ijobiy hamda salbiy atfenkalari, qo'llanilishiga doir hali o'z yechimini kutib yotgan boshqa jihatlari kengroq tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol. fan. nomzodi ... diss. avtoref. – T.:2008. – B. 14.
2. Mamadalieva M. Nomlovchi birliklarning ichki ma'nolari // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 2000. – №. 6. – B. 40-42.
3. Mamarajabova Z. O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari: Filol. fan. nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – B. 18.
4. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. T.: Fan, 1074.

ASKIYA JANRINING O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

ИЗУЧЕНИЕ ЖАНРА АСКИА В УЗБЕКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

STUDY OF ASKIA GENRE IN UZBEK FOLKLORE

Xolbo'tayev G'ayrat Oybekovich

ADU doktoranti

Annotatsiya. Askia – bu o'zbek xalqining tafakkuri, dunyoqarashi, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi ma'naviy xazina. Askia – bu ijtimoiy

an'analar bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'zbek yumori; hayotiy kuzatuvlar namoyon bo'ladigan janr. Bu odamlar haqidagi lingvistik va madaniy ma'lumotlarning namoyishi sifatida muhim ahamiyatga ega. Maqolada uzoq vaqt davomida o'zbek xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lib kelayotgan askiyaning o'zbek folklorshunosligida o'rganilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: askiya, xalq og'zaki ijodi, askiyaning o'rganilishi, san'at, askiya payrovlari, etnografik yo'nalishda askiyaning ahamiyati, askiya ijrochilari.

Аннотация. Аския-духовное сокровище, отражающее мышление, мировоззрение, социальные отношения узбекского народа. Аския - узбекский юмор, неразрывно связанный с общественными традициями; жанр, в котором проявляются жизненные наблюдения. Это важно как представление о языковой и культурной информации о людях. В статье рассматривается изучение аския в узбекском фольклоре, издавна являвшемся неотъемлемой частью узбекского фольклора.

Ключевые слова: аския, фольклор, изучение аския, искусство, последователи аския, значение аския в этнографическом направлении, исполнители аския.

Annotation. Askia is a spiritual treasure reflecting the thinking, worldview, social relations of the Uzbek people. Askia - Uzbek humor inextricably linked with social traditions; a genre in which life observations are manifested. It is important as a presentation of linguistic and cultural information about people. The article examines the study of askia in Uzbek folklore, which has long been an integral part of Uzbek folklore.

Key words: askia, folklore, study of askia, art, followers of askia, the meaning of askia in the ethnographic direction, performers of askia.

Jamiyat tarixining turli bosqichlarida odamlarning ruhiy holatini yaxshilash, ularning turmush tarzini ifodalash, hayot mashaqqatlari va ularning echimlarini topish, xalqning orzu umidlari, quvonchu tashvishlari, armonlari og'zaki ijod namunalarida o'z badiiy ifodasini topgan. Xalq o'z eposida orzuidagi qahramon, jasur o'g'il-qizlari obrazini yaratgan bo'lsa, ertaklar va boshqa og'zaki nasriy, lirik, asarlarida ham o'z idealidagi qahramonlarni jonlantiradi. Og'zaki dramalar, xususan, kulgu va yumorga yo'g'rilgan og'zaki asarlarda ham xalqning bu an'anasi davom etib, donishmand, zukko, hozirjavob, mug'ombir kishilar obrazlarini yaratishga intilgan. Xalqning estetik ehtiyojini qondirishga bo'lgan intilishlari hayotimizdagi turli muammo va kamchiliklarni kulgi fonida tanqid qilish, tanqid bilan bir qatorda odamlarning ruhini tinchlantirish, kayfiyatini ko'tarishni maqsad qilib qo'ygan. Ayni shu ezgu maqsad og'zaki adabiyotning gurkirab rivojlanishi, poetik taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Natijada turli zukko kishilar timsolini badiiy ifodalagan latifalar, shingil hazillar va askiya maydonga kelgan. Askianing paydo bo'lishi latifaga nisbatan

biroz keyinroq yuz bergan. Sababi, qadimgi ajdodlarimiz dastlab yakka ijroga asoslangan og'zaki asarlar ijrosini amalga oshirganlar. Keyinchalik ijrochilarning bir necha kishi bo'lishi va musabaqa shaklida amalga oshirilishi bilan bog'liq ijro uslubi shakllangan.

Etnografik yo'nalishda askiya o'zbek xalq teatrining ajralmas bir qismi sifatida A.L.Troitskaya tomonidan tadqiq etilgandi [1.144-151]. Olima o'zining o'zbeklar haqidagi kuzatishlari va dala yozuvlari asosida askiyaning xalq orasida qadimdan qiziqchilar tomondan ijro etilishi, uning ba'zi turlari borasida o'z mulohazalarini bayon qiladi. Tutol askiya shaklini yo'qolib ketgan ko'rinishi sifatida gapirib o'tadi. Ammo, R.Muxammadiyev esa, A.L.Toitskayaning bu fikrlariga e'tiroz bildirib, tutol unitilmagan, aksincha askiyaning murakkab shakli ekanligini qayd etadi [2. 7].

1961-yilda o'zbek folklorshunosligida R.Muxammadevning nomzodlik dissertatsiyasi o'zbek folklorida askiya janrining spetsifikasini tadqiq etishga bag'ishlangan birinchi tadqiqot ishlaridan biri edi. Atoqli alloma Hodi Zarif ilmiy rahbarligida bajarilgan bu tadqiqotda

askiyaning turlari va ularning o'ziga xosliklarini ilmiy asosda tadqiq etishga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

Olim askiyaga bag'ishlangan tadqiqotida xalq milliy urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarining xalq tarixida tutgan o'rnini borasida o'rinli mulohazalarni bildiradi.

R.Muhammadiyev dissertatsiya ishida askiyaning "So'zsiz askiya", "Bir kishilik askiya" kabi turlari haqida ham ma'lumot beradi. Tadqiqotchining yozishicha, so'zsiz askiyada askiyachining laqabi va uning karakteridagi alomatlar harakatlar bilan ifodalanib, atrofdagilarning kulgisini qo'zg'aydi. Masalan, g'ilay laqabli askiyachi so'rida choy ichib o'tirganida, hazilkash do'sti burun laqabli kishining kelayotganini ko'rib, so'rining buchagiga borib o'tirib oladi. Do'stining hazilini tushungan burun laqabli kishi so'rining burchagiga yaqinlashib cho'rttaga qoqilib ketganday dabdiraydi va yig'ilganlarning kulgisini qo'zg'aydi [2. 43]. Ko'rinadiki, askiyaning tabiatida uning nafaqat verbal jihatdan, balki, harakat uyg'unligida ham kulgu qo'zg'ash xususiyati mavjud. Bu esa, og'zaki dramalarning maydonga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Askiyachilarning omma oldida so'z va harakat uyg'unligidagi qiziqchiligi davrlar o'tishi bilan taraqqiy topib, og'zaki xalq teatrining maydonga kelishiga zamin hozirlagan. Sa'atshunos M.Raxmonovning yozishicha, Turkistonda qiziqchilik juda qadim zamonlardan shakllangan bo'lib, hatto islom dinining kirib kelishi va diniy mafkura hukmron bo'lgan paytlarda ham xalq qiziqchilari tomonidan turli tomoshalar, so'z o'yinlari davom etgan. Qiziqchi va masxarabozlarning keyinchalik teatr truppalari tuzganligi ma'lum [3, B. 63-68]. Askianing mimikaga asoslangan "so'zsiz askiya" shakli, shuningdek, "Bir kishilik askiya" ko'rinishlarining xalq teatrining shakllanishiga ta'siri ko'proq bo'lganligini anglashimiz unchalik qiyin emas.

Bundan tashqari, R.Muhammadiyev o'z dissertatsion ishida askiyaning lisoniy xususiyatlari va tilimiz lug'at tarkibining boyishidagi o'rnini borasida ham muhim xulosalarni qo'lga kiritadi.

2018-yilda Farg'ona davlat universitetida X.X.Do'smatov "Askia matnining lingvostilistikasi" mavzusida filologiya bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi. Tadqiqotchi garchi lingvistik rakursda kuzatishlar olib borgan bo'lsa-da, ishning birinchi bobi to'rtinchi faslida "Askianing shakliy-ifodaviy turlari" deb nomlanib, askiyaning turlari borasida zarur ma'lumotlarni keltiradi. Tadqiqotning mazkur faslida X.X.Do'smatov askiya shakllari borasida ma'lumotlarni keltirib, ulardan namunalar bayon qiladi. Shuningdek, ayollar askiyasi borasida ma'lumot beradi [4. 35-41].

Olim askiyaning an'anaviy boshlanmaga ega bo'lgan askiyalar kabi tamoyillar asosida tasniflaydi. Aslida an'anaviy boshlanma va diologik nutqdan iboratlik askiya tabiatiga xos bo'lgan etakchi belgilardan sanaladi. "An'anaviy boshlanmali askiyalar. An'anaviy boshlanmali askiyalarga «Gulmisiz, rayxonmisiz, jambilmisiz?», «Bo'lasizmi?», «Umringizda sartaroshxonaga kirganmisiz?», «O'xshatdim», «Afsona» (og'zaki nutkda «afsana»), «Bilganlar... Bilmaganlar...» kabilar mansub bo'lib, ularda nutq an'anaviy boshlanmalar bilan boshlanadi. Matnning tarkibiy qismi sifatida mikromatnlar boshlanmasi odatiy takrorlanadi" [4. 35]. Tadqiqotchi qayd etib o'tgan: «Gulmisiz, rayxonmisiz, jambilmisiz?», «Bo'lasizmi?», «O'xshatdim», «Afsona» (og'zaki nutkda «afsana»), «Bilganlar... Bilmaganlar...» kabi ko'rinishdagi askiyalar an'anaviy boshlanmaga xos bo'lsa, «Umringizda sartaroshxonaga kirganmisiz?» deb boshlanadigan askiyalar mavzuli payrov sifatida baholanmog'i lozim edi. Negaki, bu sartaroshxona mavzusida askiya qilinganda aytilgan, xolos. Biz ko'p yillik kuzatishlarimizda "Umringizda sartaroshxonaga kirganmisiz" deb boshlanuvchi va shunday boshlanma an'anaga aylangan holatlarni guvohi bo'lmadik. Biz bu holatni tadqiqotchining folklor tabiatidan u qadar chuqur bilimga ega emasligi va ishning asosiy maqsadi

lingvistik muammolarni hal qilishga qaratilganligi bilan bog'liq deb tushundik.

Shuningdek, X.X.Do'smatov dissertatsiyasida R.Muxammadiyevning e'lon qilgan askiya matnlaridan ayollar askiyasi borasida ham ma'lumot keltiriladi. "Askiya mental xususiyatga ega. Uning asosan erkaklar tomonidan ijro etilishi bu janrning gender xususiyatini belgilaydi. (YuNESKO ma'lumotnomasida ham askiya erkaklarga xos janr sifatida keltirilgan) Askiyaning o'zbek ayollari o'rtasida ham kuzatilishi, askiya tabiatida faxsh ifodalovchi unsurlar borligi bilan belgilanadi" [4, B. 42].

Yuqorida qayd etganimizdek, Irma Estrupning nazariy qarashlariga tayangan

holda askiya matnlarida faxsh emas, balki tag ma'no mavjudligi, bu esa, qadimiy og'zaki badiiy an'ana davomi ekanligi va nihoyat o'zbek ayollari ham so'z san'atining nozik jihatlarini mukammal o'zlashtirgan, badiiy hofizasi keng ijodkor sifatida baholanishini alohida ta'kidlamoqchimiz. Zero, askiya janrining eng fidoyi tadqiqotchisi va to'plovchisi R.Muxammadiyev ham uning faxsh bilan yo'g'rilgan matn sifatida baholamagan edi. Bundan tashqari, askiyada faxsh va g'ayri axloqiy iboralar etakchilik qilsa, YuNESKO xalqaro tashkiloti umumbashariy nomoddiy madaniy yodgorliklar sirasiga kiritmagan bo'lardi.

Adabiyotlar:

1. Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане // Восточный сборник. – Л., 1990. Вып. 4.
2. Muxammadiyev R. (O'zbek xalq ijodiyotining janri).Filol.fan.nomz. diss.-Toshkent, 1961.
3. Raxmonov M. O'zbek teatri tarixi. –Toshkent, Fan, 1968.
4. Do'smatov X.X. Askiya matnining lingvostilistikasi. Filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD).diss.– Farg'ona, 2018.

ASARLARDA PSIXOLOGIZM VA MAJOZ UYG'UNLIGI THE HARMONY OF PSYCHOLOGISM AND METAPHOR IN THE WORKS ГАРМОНИЯ ПСИХОЛОГИЗМА И МЕТАФОРЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Qurbonova Feruza Ilhomovna - "TIQXMMI" MTuning Qarshi irrigatsiya agrotexnologiyalar instituti O'zbek tili va adabiyot magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson hayotini turli-tuman narsalarga o'xshatadilar, qiyos qiladilar va har xil ta'riflaydilar. Ba'zilar uni oqar daryo deb atasalar, boshqalar cheksiz ummonga o'xshatadilar. Yana bir guruh donolar hayotini juda murakkab kitobga qiyos qiladilar.

Kalit so'zlar: falsafiy mushohadalar, badiiy tafakkur, savdo-sotiq lavhalari.

Abstract. In this article, human life is likened to different things, compared and described in different ways. Some call it a flowing river, while others call it an endless ocean. Another group of sages compare their life to a very complicated book.

Key words: philosophical observations, artistic thinking, sales pictures.

Аннотация. В этой статье человеческая жизнь уподобляется разным вещам, сравнивается и описывается по-разному. Кто-то называет ее текущей рекой, а кто-то — бесконечным океаном. Другая группа мудрецов сравнивает свою жизнь с очень сложной книгой.

Ключевые слова: философские наблюдения, художественное мышление, продажа картин.

O'zligini anglash—ichki uyg'onishdir, deb yozgandi X.Do'stmuhammad 1983-yildayoq "Anglash lahzalari" maqolasida, — o'zligini—o'z "men"ini anglay boshlagan odam nazarga tez tushadi.

Xarakter va ruhiyatida keskin burilish yasaydigan bunday jarayon zimdan va ayni paytda ochiq, oshkor yuz beradi [7]. Yozuvchi ijodiy kontseptsiyasi va fenomenini belgilash uchun asos bo'lishi mumkin

bo'lgan mazkur fikrlar yozilgan paytda hali adabiyot sinfiylik, partiyaviylik botqog'iga botgan, har qanday erkin fikr ta'qib ostiga olinadigan va jazolanadigan davr edi. X.Do'stmuhammad asarlaridagi o'ziga xoslik, uning mahorat, uslub, badiiy psixologik tasvir usuli, psixologizm va majoz uyg'unligining etakchilik qilishi, voqealar bayonidan ko'ra inson botinini taftish qilish ustuvorligining ildizlari bevosita uning ruhiyatida uyg'ongan yuqoridagi kabi fikrlar bilan bog'liq. Badiiy ijod uni yaratuvchi san'atkorning shaxsiyati bog'liq hodisa, to'g'ri, badiiy asar yaratilgandan so'ng u yozuvchidan ajraladi va o'zining mustaqil hayotini boshlaydi. Ammo asarda yozuvchining ma'lum bir davrdagi hissiyot, kechinma, olam va odamni anglash, ijtimoiy-falsafiy, maishiy-madaniy, adabiy-estetik qarashlari aks etadi. X.Do'stmuhammad o'zining ilk asarlari bilan alohida shaxsning ichki olamini, o'z tasavvuridagi qahramonning ma'naviy dunyosini, insonning o'zi singari tushunarsiz tabiatidagi ziddiyatlarni, bekamu-ko'st, barcha mezonlarga mos keladigan emas, aksincha tirik va fikrlayotgan kishini tasvirlashga intiladi. O'zining va o'zi mansub bo'lgan adabiy avlod vakillarining vazifasini yangicha tushunadi, o'z asarlarining yaratilish jarayonida shularga alohida e'tibor qaratadi. Umuman olganda, har bir adabiy avlod badiiy ijodni, o'zining adabiyot oldidagi burchini turlicha tushunadi, uning yozganlari ham shunga yarasha, estetik ideallariga mos bo'ladi. "Men"ni anglash debochasi inson qalbining ko'z ilg'amas qatlaridan, hissiyotning eng nozik tebranishlaridan boshlanadi. Unga ongning hali mantiq tarozusi o'lchab bilmaydigan ostki oqimlari qo'shilganidan, shu qadar murakkab evrilishlar yuz beradiki, inson ruhiyatidagi bunday teranliklarni zabt etishda hali hikoyachilik, umuman, nasrimiz saviyasini bir necha daraja oshirishni taqozo qiladi [7].

Nazar Eshonqulovning "Xaroba shahar suvrati", "Quyun", "Tobut", "Maymun Yetaklagan odam" Hikoyalari ramziy timsol va tasvirlar badiiy psixologizm bilan to'yingan va muayyan mantiqiy bog'liqlik asosida yuzaga kelgan. Tabiiyligi tufayli

o'quvchini o'ziga tez jalb qiladi, jonli manzaralar kitobxonni voqealar ishtirokchisiga aylantiradi, o'quvchi o'zi sezmaganda qahramonlar birga harakat qiladi, ularga nisbatan munosabatini sezdirib qo'yadi. Kitobxonni to'lqinlantiradigan bunday asarlar milliy nasrimizning yutug'i deyish mumkin. Ularda ilgari surilgan muayyan inson taqdiri va ruhiyatiga uzviy bog'liq holda aks etadi, ammo jamiyatning barcha a'zolariga birdek tegishli bo'lgan ijtimoiy fikrlar yuksak pafosda bayon qilinadi.

Biroq "Istilo" nomli hikoyadagi Turkiston bosqini tarixining turli jarayonlariga mexanik ravishda timsol axtarish, asarning maqsadi, bor-yo'g'i ko'pchilikka ma'lum yaqin o'tmishni boshqacharoq - badiyroq shaklda qayta eslash ekani, muallif o'z-o'zini takror kabi, ijtimoiy-siyosiy xabardorlikning o'zidanoq hikoya yasay beradi. Ko'rinadiki, bu hikoyaning o'rnini yaxshi bir tarixiy-publitsistik maqola bilan bimalol almashtirsa bo'ladi. Holbuki, haqiqiy san'at o'rnini hech narsa bosa olmasligi kerak, aslida san'atning o'zi inson tafakkurining boshqa shakllari eta olmagan, hech qachon eta olmaydigan kenglik va yuksakliklarida yaratiladi, yaratiladi.

80-yillarda yaratilgan qissalarning bosh qahramonlari aksariyat jamiyatning quyi qatlamlaridan, unitilgan, umum diqqatidan panaroqda yashaydigan, o'ylaydigan kishilardan tanlandi. Biroq bu odamlar qalbida yashayotgan tuyg'ular, jo'sh urayotgan to'fonlar tasvir va tahlili shuni yana bir bor isbotladiki, bosh qahramon tanlovida asosiy mezon uning ijtimoiy o'rnini bilan emas, balki ijodkor niyatini to'laroq va ishonarliroq etkazishga yaroqli xarakter bo'lmog'i bilan belgilanishi lozim. Bu qissalar qahramonlariga qo'yilgan ismlar bilan ham go'yo mualliflar ularning taqdiriga ishora qilayotgandek tuyuladi— Elchiev (E.A`zamov. «Javob»), Elomonov (M. Do'st. «Iste'fo»), Ziyodulla Kal, Qoplonbek, Oymomo (T. Murod. «Ot kishnagan oqshom»), «Oydinda yurgan odamlar»), G'ulom (X. Sultonov. «Ko'ngil ozodadir») va boshqalar. Ularning aksariyati u yoxud bu shaklda jamiyatdan xo'rlik, adolatsizlik ko'radilar, aksariyati bu holatga qarshi

ojizgina bosh ko'tarib mag'lub bo'ladilar. Agar halol chavandoz Ziyodulla kuppa-kunduz kunda, hammaning ko'z oldida ro'y berayotgan zo'ravonlikka chiday olmay, bir inson bolasiga yordam bergani uchun o'g'li tengi yigitlar tomonidan tepkilanib, odam bolasidan emas, tilsiz, biroq qalbli hayvon - sevimli otidan najot so'rsa va topsa, «Javob»ning qahramoni Elchievning, hokisori va atrofdagilarga faqat yaxshilik tilagan kimsaning, nafaqat majruh qilingan jismini, balki sha'ni va imonini ham pul va molga chaqishga urinib ko'radilar.

Yuqoridagi qissalarda voqelik va insonga yondashuv an'anaviy nasr uslubida olib borilsa, X.Do'stmuhammadning «Oromkursi» asarida o'zgacha tasvir uslubi, yangicha yondashuvni ko'rish mumkin. Qissa qahramoni qandaydir mavhum, voqealar rivoji davomida unchalik bo'rtib ko'rinmaydigan, ammo butun jarayonni boshqarib turadigan, hatto qahramonning tafakkurini ham o'zining kuchli nazorati ostida ushlab tura oladigan katta ijtimoiy-siyosiy qudratga ega kuchlar tomonidan «kelajagi porloqlar» ro'yxatiga kiritilgan. Agar u qo'yilgan talablarni hech bir e'tirozsiz bajarasa, ishni bajarish vaqtida o'zining faolligini namoyish qila olsa, berilayotgan topshiriqlar va buyruqlarning muhokama qilib o'tirmasdan unga so'zsiz bo'ysunsa, qahramon juda tez orada jamiyatdagi obro'-e'tiborga munosib, hamma ta'zim qiladigan, yuqori nufuzga ega bo'ladi. Aspirant Ko'klam Tongotarovning o'z-o'zi bilan bo'lgan kurashi goh sokin, goh shiddatli tus oladi, uning botinidagi ikki kuch o'zaro to'qnashar ekan, qahramonning ruhiy olami va unga xos jihatlar namoyon bo'ladi. Hatto uning ismida ham ramziylik bor, yozuvchi uning ismi – asli, o'zligi tomon borishini ko'rsatadi. Ismlar osmondan tushadi, deyiladi muqaddas kitobda. Hazrat Navoiy ham «Farhod va SHirin» dostonida shu masalaga alohida diqqat qaratganlar va bosh qahramonning hayoti va ismi o'rtasida bog'liqlik borligini ta'kidlaganlar.

Ko'klam Tongotarov gohida boshqalar qatori xonasiga qo'ltiq-qo'ltiq kitob ko'tarib keladi, tinimsiz o'qiydi, nimalarnidir tushunadi, anglab etadi va oromkursi

xayolidan ko'tarilganidan quvonadi. Shu zahoti, orom kursini eslashi bilan yana o'zini yo'qotib qo'yadi, butun o'y-xayolini, fikru zikrini oromkursi band etadi. Oshiqning xayoli mashuqasida bo'lganidek qahramonning uy-xayoli oromkursida. U oromkursiga boqib, uzundan uzoq xayollar so'radi, o'zining baxti, saodati, iqbolini ana shu jonsiz matohda ko'radi. Asarda oromkursi ramzi faqat mansab, amal, obro'-e'tibor timsoligina emas, u naslga aralasha boshlagan inson erksizligi, ma'naviy-ruhiy qulligi, qiyofasizligining yaxlit timsoli etib gavdalanitiriladi. Sirli paradoks (teskarilik)– shakliy hokimiyat, ko'rinib-sezilib turguvchi kuchga erishmoq uchun ruhiy hokimiyatni, botiniy qudratni, sha'n va shavkatni so'ndirmoq yoxud o'zgartirib–sindirmoq talab etiladi. Qissada bu masala juda keskin qo'yiladi (yo bo'ysunib yashash yoki bo'yin egmay o'lish). Uchinchi–o'rtacha yo'l yo'q! Va qissa qahramoni, umrbod o'zi bo'ysunib o'zgalarni bo'ysundirib o'tgan otasidan farq qilaraq ikkinchi yo'lni tanlaydi. U bu harakati o'z-o'zini qurbon qilishi bilan ajdoddan avlodga o'tib kelayotgan, irsiyatga qadar singib ulgurgan ichki qullik zanjirining o'zi bilan ulanuvchi bir halqasini uzatdi–o'zini emas, hali tug'ilmagan, biroq tug'ilsa baribir qul bo'lajak farzandini o'ylaydi. Tug'ilajak farzandlar qullaridan bunyod bo'lmasligini istaydi. Kezi kelganda shuni aytish joizki, yozuvchi qissa qahramoni ruhiyatidagi ba'zi holatlar talqinida, xususan, o'zini to'qqizinchi qavatdan tashlash oldidadagi holatlar tasvirida mantiqsizlikka yo'l qo'ygan. Adabiyotshunos D.To'raev psixologik tasvirdagi bu mantiqsizlikni yozuvchi kontseptsiyasida ko'radi: «Ehtimol, yozuvchi bu bilan mansabparastlik, kursiparastlik illatidan odam faqat o'lganda qutiladi demoqchi bo'lgandir? SHunday yondashadigan taqdirda ham qahramon ruhiy olamida sodir bo'layotgan kechinmalarni juda ham ishonchli holda tasvirlangan deyish qiyin».[1]

«Yolg'iz» qissasida o'zbek romanchiligining otasi, betakror iste'dod sohibi Abdulla Qodiriyning birinchi marta qamoqqa olinishi bilan bog'liq voqealar tasvirlangan. Ma'lumki, yozuvchi 1926-yilda «Yig'indi gaplar» asari uchun sho'ro rahbarlarini

matbuotda obro'sizlantirdi, degan ayblov bilan hibsga olinadi. Qissada yozuvchining qamoqda kechgan hayoti va u erdan chiqqandan keyingi dunyoqarashida sodir bo'lgan o'zgarish ishonarli ifodalangan.

Abdulla qamoqdan ozod bo'lgach, o'zining sevimli bog'ida tasvirlangan lavha orqali yozuvchi davr kishilarining qiyofasini chizib bergan. Qahramon daraxtning ayri shoxiga qadab qo'yilgan teshanining dastasini silaydi, damini tomosha qiladi. Bog', dov-daraxtlar, o't-o'lanlar– hammasi oldingidek

edi, lekin endi qahramon o'zgargan, yanada yolg'izlangandi. Yozuvchi Abdullaning ichki olami, ruhiyatidagi o'zgarishlarni tasvirlar ekan, ayri shoh, tesha vositasida qahramon psixologiyasidagi hammadan ajralib qolgan, o'zining e'tiqodi bilan yakkama-yakka qolgan, haq so'zi uchun azob va qiynoqqa giriftor bo'lgan, og'ir damlarda eng yaqin do'stlari ham yuz o'girib ketgan inson ruhiyatidagi evrilishlarni ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.To'raev D. Rangin tasvirlar jilosi. T.: Akademnashr, 2014. – 200 b.
- 2.To'raev D. O'zbek tetralogiyasi. –Toshkent: Akademnashr. 2017. –B. 212
- 3.O'zbek adabiy tanqidi: (antologiya). Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi B.Karimov. –T.: TURON – IQBOL, 2011, -544 b.
- 4.Ulug'ov A. Asl asarlar sehri. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 157 b.
- 5.Umurov H. Qahramonning ma'naviy olami va epiklik. –T.: "Fan", 1995. - 46 .
- 6.Umurov H. Saylanma. // Adabiy-tanqidiy tadqiqotlar. 2 – jild. – T.: Fan, 2007. – 206 b.
- 7.X.Do'stmuhammad. Anglash lahzalari. //Yoshlik. 1983. 60-6.

JAHON FOLKLORIDA TOPISHMOQ JANRI VA UNING O'RGANILISH TARIXI

ЖАНР ЗАГАДКА В МИРОВОМ ФОЛЬКЛОРЕ И ИСТОРИЯ ЕЁ ИЗУЧЕНИЯ

THE GENRE OF RIDDLES IN WORLD FOLKLORE AND ITS EFFECTS OF STUDY

Xudoyev Samandar Samatovich
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon folkloridagi topishmoq janri va uning o'rganilish tarixi keng muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: folklor, folklorshunoslik, janr, genesis, mif, afsona, ertak, matal, etnografik realiya, leksema, makropropozitsiya

Аннотация. В данной статье рассматривается жанр загадки в мировом фольклоре и история его изучения.

Ключевые слова: фольклор, фольклористика, жанр, genesis, миф, легенда, сказка, пословица, этнографическая реалья, лексема, макропропозиция.

Annotation. This article discusses the genre of riddles in world folklore and the history of its study.

Keywords: folklore, genre, genesis, myth, legend, fairy tale, proverb, ethnographic reality, lexeme, macroproposition

Kirish. Mif, afsona, rivoyat, ertak, maqol, topishmoq, latifa, alla kabi qator janrlar barcha xalq folklorida borligi, eng muhimi, ularning paydo bo'lish va shakllanish xususiyati deyarli bir xilligi kishini hayratga soladi. Shundan kelib chiqib bunday janrlarning tarixiy ildizlarini,

genetik asosdoshlik sabablarini va ijtimoiy-estetik omillarini maxsus o'rganishga to'g'ri keladi. Bunday o'rganish folklor janrlarining tarixiy taraqqiyoti va badiiyatiga doir yangi nazariy xulosalar chiqarishga asos bo'ishi bilan dolzarblik kasb etadi.

Asosiy qism. F. Gerder topishmoqni “har bir tilning iftixoridir” degan fikrni ilgari suradi. Yana bir qator folklorshunos olim unga qadimiy mifologik va madaniy ong mahsuli sifatida nisbat beradi. A. Jollening fikricha, topishmoq va afsona (mif) o'zaro aloqador tushunchadir, ikkalasi ham “bilim”dan kelib chiqqan: “Afsona (mif) ichida savol saqlovchi javob bo'lsa, topishmoq javob talab qiladigan savoldir” [5]. E. Poykert esa o'z tadqiqotlarida Jollening fikrlarini aniq etnografik realiyalarda ko'rsatishga harakat qiladi va “topishmoq tili”ni “sehrgarlik” yoki “fikir sehri”ga tenglashtiradi [6].

Topishmoq XX asrda ko'pgina xalq uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lib, turli xil ibodat marosimlarining (rojdestvo, cho'qintirish, to'y marosimlari) yoki xalqlarning turli diniy marosimlari (tomoshalari) haqidagi afsonalarning (Sfinks haqida afsona, orakullarning turli jumboqli topishmoqlari, “Injil”dagi Samson topishmog'i) ajralmas qismi bo'lgan. Jumladan, rus xalqi udumlarida kuyov kelinning dugonalari tomonidan beriladigan topishmoqlarni topmaguncha chimildiqqa qo'yilmagan. Qadimgi grek va olmonlarda esa topishmoq aytish duelga tenglashtirilgan. Afsonalarda aytilishicha topishmoq javobini topa olmaganlar hayotni tark etishi kerak ekan. Slavyan xalqlari afsonalarida topishmoqni topolmagan kishini suv parilari halok qilgan [7]. Lekin Ulrix Benttsin topishmoqlarning ibodat marosimlaridagi “taqdirni belgilash” rolini bo'rttirib ko'rsatilgan deb aytadi va unga o'ziga xos fikr bildiradi. Olimning fikricha topishmoqlarga bo'lgan munosabat hozirgi kundagiga qaraganda jiddiyroq bo'lgan. Birinchi navbatda ular turli xil marosimlarning muhim qismi sanalgan, shu bilan birga antik davrda topishmoqlar o'sha davr kishilarining zehni o'tkirligi va dunyoqarashi kengligining ko'rsatkichi hisoblangan. Topishmoq topishda bilim va zukkolikni namoyon qilgan shaxs katta hurmatga sazovor bo'lgan. Qadimgi grek va rimliklarda topishmoq aytish va topish qobiliyati juda yuqori va munosib aqliy faoliyat belgisi hisoblanadi [3], ammo bu

jarayon inson taq-dirini belgilab berish darajasida ahamiyat kasb etmagan.

Topishmoqning eng asosiy vazifasi hisoblangan aqlni charxlash jara-yoni hozirgi kunda nisbatan soddaroq ya'ni o'yin shaklida saqlanib qolgan. Bunda galma-galdan jumboqni echish suhbatdoshning topqirlik va ziyrak-ligini sinaydi. Nafaqat yuz yillar oldin, balki hozirgi kunda ham topishmoq ham mustaqil janr, ham katta hajmli badiiy asarlarning ajralmas bo'lagi sifatida uchraydi. Topishmoq motiviga olmonlarning “Katta Edda” va fin millatining “Kalevala” eposlari yaqqol misol bo'la oladi. Shu bilan birga zamonaviy badiiy adabiyotda ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Topishmoq janri o'rta asrlardagi misteriyalarda muhim ahamiyat kasb etganligini A. Veselovskiy tadqiqotlarida ko'rish mumkin [8]. Shu bilan birga ushbu janr o'rta asr xalq hikmatlari to'plamlarida, Shoh Sulaymon, Aleksandr Makedonskiy, dono Fevroni haqidagi rivoyatlarda ham uchraydi.

Bualo, Russo, Shiller, Gyote, Jukovskiy, Yesenin o'z asarlarida topish-moqlardan mohirona foydalanishgan. Jumladan Gyote “Faust”ining ikkinchi qismida Sfinks Mefistofelni topishmoq yordamida aniqlaydi.

*Dem frommen Sen axir to`g`riyu
Manne nötig wie dem egri uchun ham
bösen, Barobar erursan.
Dem ein To`g`ri har zamon.
Plastron, asketisch To`g`riligin qilish
zu rapieren, uchun namoyon
Kumpan dem Hargiz seni qilar
andern, Tolles zu o`qiga nishon.
vollführen, Egri bo`lar doim
Und beides nur, sen bilan hamdam
um Zeus zu Razolatga
amüsieren. botmoq uchun
chinakam.*

*Bu qilmish bilan
Zevsga mangu
To`g`ri ham, egri
ham bo`ladi kulgu.*

Muayyan bir xalqqa mansub bir folklor janri namunasi boshqa bir millat folklorida boshqacha nom bilan bo'lsa-da uchrashi jahon xalqlari folkloridagi janrlarning mushtarakligini yorqin namoyon

etuvchi asosiy belgilardan biridir. Qolaversa bu yana folklor janrlari tarixiy taqdiridagi mushtaraklikdan ham dalolat beradi. Masalan, topishmoq inson ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichida shakllangan qadimiy janrlardan biridir. Inson va uni o'rab olgan olamning metafora, ya'ni shartli ko'chimlar, turli o'xshatish, qiyoslash, epitet, savol vositasida o'ziga xos badiiy shaklda aks ettirilishi topishmoq janriga xos asosiy janriy belgi bo'lib, mana shu etakchi xususiyat dunyodagi barcha xalq topishmoqlari uchun umumiydir. Shu ma'noda topishmoq "xalqaro janr" hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan belgi esa dunyo bo'yicha tarqalgan xalq topishmoqlarining genetik asosdoshligini bildiradi.

Yuqoridagi fikrimizning isboti sifatida o'zbek, nemis va rus tillaridagi topishmoq (Rätsel, загадка) leksemasiga izohli lug'atlarda berilgan sharhlarga e'tibor qaratamiz. Jumladan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da unga shunday izoh beriladi: Topishmoq o'yinida: topilishi kerak bo'lgan narsa, hodisa va sh. k.ning ramz va o'xshatmalar orqali ifodalangan qisqa tavsifi; jumboq. Tushunilishi qiyin, sirli narsa. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da esa: Topishmoq, topmacha, jumboq, matal – xalq og'zaki poetik ijodining eng qad. va ommaviy janri. Jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydi deyiladi. Nemis tilidagi "Rätsel" leksemasiga aka-uka Grimmning "Deutsches Wörterbuch" kitobida quyidagicha ta'rif keltiriladi. *Avvalambor topishmoq insonning fikrlash va topqirlik qobiliyatini charxlaydi. Qadimgi va o'rta asr nemis adabiyotining vakili sifatida Rätsel (topishmoq) tor va keng ma'noga ega bo'lib, dastlabki ma'noda u o'zidagi tafakkur o'yini orqali ajdodlarga yuqori kayfiyat ulashib kelgan bo'lsa, hozirgi kunda ham fikrlash doiramizni kengaytirib ruhiy va aqliy*

faoliyatimizga ravshanlik olib kirmoqda. Keng ma'noda esa Rätsel (topishmoq) ruhimizni, aqliy qobiliyatimizni noma'lumlikka jalb qilib fikrlash va topqirlikka undaydi.

Yana bir nemis olimi German Paul esa topishmoq janrini sirli dalil (unbegreifliches Faktum) hamda aqliy mashq (Denkaufgabe) sifatida baholaydi. Unga she'riy janr tarzidagi javob talab qiladigan savol deb ta'rif beradi.

Nemis tilidagi izohli lug'at *Dudenda* berilgan topishmoq janri haqidagi ta'riflar ham *German Paul fikrlari bilan hamohangdir. U erda ham topishmoqqa javobi taxmin qilinishi yoki topilishi kerak bo'lgan aqliy mashq sifatida ta'rif beriladi. Inson echim topishga, sirni ochishga inti-ladigan samarasiz harakat sifatida baholanadi.*

Rus tilidagi izog'li lug'atlarda ham zagadka (topishmoq) leksemasiga turli xil ta'riflar mavjud bo'lib, ulardagi makropropozitsiya deyarli bir xillikni tashkil qiladi. Jumladan D.N.Ushakovning "Толковый словарь русского языка" izohli lug'atida topishmoq – topilishi kerak bo'lgan narsa yoki hodisaning ramz orqali ifodalangan qisqa tavsifi; echish lozim bo'lgan jumla sifatida ta'riflansa, S.Ojegovning "Толковый словарь русского языка" sida echim talab qiladigan tasvir yoki ifoda tarzida izohlanadi.

Xulosa. Dunyodagi hamma xalqning topishmoqlarida shakli, vazi-fasi, ish-harakati va holati jihatidan bir-biriga o'xshash belgilar asosida uni topishga mo'ljallangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol yoxud topshiriq tinglovchi e'tiboriga havola qilinadi. Hosil bo'lgan bu adabiy hodisa "topishmoq" deb yuritiladi. Faqat mazkur hodisa har bir xalqning milliy til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda atamalashtirilgani kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳ.ост. 5 томли. – Т.: "ЎМЭ" Давлат илмий нашриёти, 2007. – Т. 4. – Б. 148.
2. Bentzien U. Rat zu, was ist das. Rätsel und Scherzfragen aus fünf Jahrhunderten. Rostock, 1975. – S. 248-249
3. Deutsches Wörterbuch von Jacob und Wilhelm Grimm. - Band 14 R-Schiefe. München, 1984.

4. Duden. Deutsches Universalwörterbuch. 9., vollständig überarbeitete und erweiterte Auflage. – Berlin, 2019. – S. 1445.
5. Jolles Andre. Einfache Formen. Tübingen, 1968. – S. 58.
6. Peuckert Will-Erich. Deutsches Volkstum in Märchen und Sage, Schwank und Rätsel. Berlin, 1938. – S. 3-11.
7. Paul H. Deutsches Wörterbuch: Bedeutungsgeschichte und Aufbau unseres Wortschatzes. Tübingen: Niemeyer, 2002.
8. Ушакова О.Д. Загадки, считалки и скороговорки. СПб., 2016. – С.4.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'ZINI-O'ZI KASBIY RIVOJLANTIRISH MEHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH USUL VA VOSITALARI.

**M.S. Abdullayeva. Qo'qon davlat pedagogika instituti
tayanch doktranti.**

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni o'zini- o'zi kasbiy rivojlantirish, metodik tayyorgarligini oshirishda qo'llaniladigan mavjud usullar va ularga innovatsion yondashish mehanizmlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy tayyorgarlik, o'z- o'zini rivojlantirish, integratsion yondashuv, ta'lim –tarbiya jarayoni.

Аннотация. В статье описаны существующие методы, применяемые в профессиональном саморазвитии будущих учителей, совершенствовании их методической подготовки и инновационные подходы к ним.

Ключевые слова. Профессиональная подготовка, саморазвитие, комплексный подход, образовательный процесс.

Annotation. The article describes the existing methods used in self-professional development of future teachers , improving their methodical training , and innovative approaches to them.

Keywords. Professional training, self-development, integrated approach, educational process.

Shaxs shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri oliy ta'lim davri hisoblanadi. Butun o'qish davrida qadriyat yo'nalishlarining jadal shakllanishi mavjud bo'lib, ular asta-sekin kelajakdagi o'qituvchining faol hayotiy pozitsiyasini ifodalay boshlaydi. Bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini shaxsiy rivojlanish jarayoni va barcha imkoniyatlardan foydalanish jarayoni sifatida tavsiflash mumkin. O'z -o'zini rivojlantirish sifati insonning o'z faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga bog'liq. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish mezonlari sifatida quyidagilar belgilanishi mumkin:

- shaxsiyat va faoliyatdagi sifat o'zgarishlarini o'z-o'zini tashkil etish;
- pedagogik faoliyat tarkibida o'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi yangilashga, ish usullarini o'zgartirishga qaratilgan harakatlarining ustunligi;

-o'ziga va faoliyatiga nisbatan pedagogik, psixologik, tashkiliy, predmetli vazifalarni qo'yish va hal qilish;

-o'qituvchining atrof-muhitning turli ko'rinishlarini idrok etish qobiliyati uning kasbiy rivojlanishi uchun zarur shartlar sifatida.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi rivojlanishini ta'minlaydigan mexanizmlar qatoriga quyidagilar kiradi: o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi belgilash, o'z-o'zini faollik, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi qurish, o'zini o'zi aniqlash, o'zini o'zi qadrlash.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarning o'zini o'zi rivojlantirishga tayyorligi inson faoliyatining hissiy, mehnat, intellektual, kasbiy va motivatsion sohalarini rivojlantirishga yordam beradigan o'zini o'zi anglash, shaxsiy o'zini o'zi belgilashga qaratilgan jarayon sifatida belgilanishi mumkin. O'z-o'zini rivojlantirish jarayonida olingan barcha bilimlar juda uzoq vaqt

saqlanib qoladi va bo'lajak o'qituvchilarning ishida samarali amalga oshiriladi . [1]

Oliy ta'lim tizimida talabalarni jaxon standartlari asosida o'qitish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Kundan kunga rivojlanayotgan axborot asrida yangicha o'qitish tizimlarini joriy etish va amalda qo'llay bilish bo'lajak o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir.

“O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi farmoni”ga muvofiq 2022-2023 o'quv yildan boshlab pedagogika oliy ta'lim muassalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4 bosqich talabalari haftalik o'quv mashg'ulotlari “4+2” tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi ko'zda tutilgan. Bu tizimning talabalarga bir qancha afzalliklari mavjudligi e'tirof etildi. Jumladan talabalar olgan bilimlarini bevosita maktablarda amalda qo'llashni o'rganadilar, oliygoh va maktab o'rtasida doimiy aloqa bo'lib, dars berish va pedagogik jarayonda talaba tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bilvosita tuzatib ketishga imkoniyat bo'ladi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni oliygohlarni bitirib pedagogik faoliyatini boshlashlarida puhta amaliy yordam bo'ladi. Shu bilan birga maktab o'qituvchisining darsida doimo o'rganuvchi va kuzatuvchi shaxsning borligi o'qituvchi o'z ustida mukammal ishlashi, shaxsiy va kasbiy tomondan, kuzatuvchi talabalarga har tomonlama o'rnak bo'lishga harakat qiladi.

O'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor mexanizmlar:

1. O'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishi uchun marshrut xaritalaridan foydalanish (o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini o'zi tashkil etish, o'zini o'zi boshqarish, axborot bilan ishlash qobiliyati kabi fazilatlarini rivojlantirishga e'tibor berish).

2. Faoliyatni rejalashtirishda dastur-loyiha yondashuvini qo'llash (tashkiliy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish: guruhda ishlash qobiliyati, konstruktiv tanqidni qabul qilish, zamonaviylik, ish natijalarini oldindan bilish, yo'nalish hissi, loyihani o'ylash, qobiliyat, mutaxassis lavozimini egallash va boshqalar).

3. Korporativ malaka oshirish.[2]

4. Ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish.

Bugungi kun o'qituvchisi nafaqat bu mexanizmlar asosida ishlashi balki, zamonaviy texnika texnologiyalarni puhta bilishi, chet tillaridan birini mukammal egallashi va darslarida ilg'or chet davlatlar ta'lim dasturlaridan foydalana olishi va har bir darsga innavatsion yondashishi ham talab etiladi. Bu esa oliygohlarda bo'lajak o'qituvchilarni o'z ustilarida ko'proq ishlashga va zamonaviy bilim va dasturlarni o'rganishiga turtki bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy dasturlar birinchi navbatda talabaga qaratilishi kerak. Oliyogohlar talabalarni maktabda duch keladigan narsalarga tayyorlashlari kerak. Dasturlarda muhim o'rinni amaliy kurslarga berish kerak, ular davomida talabalar ilg'or texnikani qo'llashni o'rganadilar.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi integrativ yondashuv nuqtai nazaridan qaralsa, samarali bo'ladi. Bu yondashuv integratsiya kontseptsiyasiga asoslanadi. Ilmiy adabiyotda integratsiya ko'pincha har qanday elementlarni bir butunga birlashtirish jarayoni sifatida tushuniladi, buning natijasida ilgari individual xususiyatga ega bo'lmagan yangi xususiyatlar paydo bo'ladi. Integratsiya - bu ma'lum bir sohadagi umumlashtirilgan bilimlarning bitta o'quv materialiga kirib borishi. Biz metodik va matematika fanlarini (matematika, matematika o'qitish metodikasi, psixologiya, didaktika va boshqalar) integratsiyalashuvini ko'rib

chiqamiz, bu bizning fikrimizcha, kichik yoshdagi o'quvchilarga matematikani o'qitish bo'yicha o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchining rivojlanishi uning bilim darajasini oshirish bilan belgilanadi. Talabalarni o'qitishda tabaqalashtirilgan yondasuv axborotning har qanday birligini o'zlashtirish darajasi bilan belgilanadi:

1-Daraja (tushunilgan, takrorlangan, yodlangan) minimal

2-Daraja (standart vaziyatda o'rganilgan, qo'llangan) majburiy

3- Daraja (nostandart vaziyatda qo'llashni o'rgangan) imkoniyat darajasi

4-Daraja (nostandart muammoni hal qiladi) ijodiy [3]

O'z- o'zini rivojlantirishning mohiyati aqliy mehnatning texnikasi va madaniyatini, muammolarini bartaraf etish, mustaqil ravishda o'z ustida ishlash,shu jumladan kasbiy maxoratini o'zlashtirishdir.

O'rganilgan ilmiy tadqiqot natijalari va tahlillari hamda kuzatishlarimiz natijasida, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarda kasbiy rivojlanishning quyidagi komponentlarining rivojlanishini inobatga olish lozim degan xulosaga keldik:

– pedagogik faoliyatdagi boshqaruvchanlik, texnologik usul va uslublarni ishlab chiqish;

– pedagogik faoliyatning har bir aniq turini loyihalash, tashkillashtirish va amalga oshirish;

– o'qitish jarayoniga mantiqiy yakunlangan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish;

– pedagogik masalalarni ilgari surishda o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlari va bilim darajasini hisobga olish; – o'quvchilarning faoliyati natijalarini baholash va hisobga olish;

– o'quvchining motivatsiyasini rivojlantirish;

– o'quvchi bilan ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlarni shakllantirish;

– o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini va jamiyatning talablarini ko'ra bilish;

– kasbiy kompetensiyaning shakllanish istiqbolini belgilash va uni amalga oshirish;

– o'quvchining samarali ta'lim olishi va natijaga erishishi uchun metodik tizim yaratish[4];

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak o'qituvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishida nafaqat oliygohlar balki oila, maktab, pedagogik jamoa va malaka oshirish markazlarining alohida o'rni va vazifalari beqiyosdir. O'qituvchi hayoti davomida doimo o'rganuvchi bo'lib qolaveradi. Faoliyati davomida tinmay o'z ustida ishlaydi, izlanadi, rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Gushchina I.N. Ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning tarkibiy qismi sifatida o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlik // World of Science Internet jurnali, 2018 yil 2-son, <https://mir-nauki.com>.
2. Sh. Mirziyoyev. " 2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur."
- 3.N. I. Pekarskix. Innovatsion sharoitda o'qituvchining o'zini o'zi rivojlantirish mexanizmlari maktabda o'quv amaliyoti TSPU byulleteni. 2013 yil 1 (129)
4. Onolbaev Melis Bekbolovich / Onolbaev Melis - dotsent, Qirg'iziston Davlat universitetining pedagogika fakulteti I. Arayeva, Bishkek, Qirg'iziston Respublikasi .
5. Shodiyeva Matluba Jo'rayevna, Qashqadaryo viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK JIHATLARI (Zamonaviy ta'lim. 2021. 4-son 58-63 betlar

TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION

M.To'ranazarova- Qo'qon DPI,
tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta'limda samarali, bosqichma-bosqich qo'llanilishi, ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati hamda pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning ahamiyati hamda metodologik asoslari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Innovatsion pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, yangi pedagogik o'qitish usullari.

Аннотация В данной статье говорится об инновационных педагогических технологиях и их эффективном, поэтапном применении в образовании, о значении педагогических технологий в процессе воспитания и обучения, о важности и методологических основах педагогических технологий и педагогического мастерства.

Ключевые слова: инновационные педагогические технологии, инновации, новые педагогические методы обучения.

Annotation. This article talks about innovative pedagogical technologies and their effective, phased application in education, the importance of pedagogical technologies in the process of education and training, the importance and methodological foundations of pedagogical technologies and pedagogical skills.

Key words: innovative pedagogical technologies, innovations, new pedagogical teaching methods.

Pedagogik texnologiya bugungi kunda ta'lim va tarbiyani pedagogik texnologiya sohasiga o'tkazishni bildiradi, ya'ni maktab amaliyotida pedagogik jarayonning ixtiyoriy tuzilishi va uni amalga oshirish hal qiluvchi o'zgarishlarga olib keladi. Pedagogik texnologiya o'quv jarayonining har bir komponenti va bosqichining yagona rejaga (o'quv jarayonining algoritmini yaratish – uni muayyan qismlarga bo'lish orqali maksimallashtirish, aniq komponentlar bo'yicha rasmiylashtirish – ketma-ketlikda tartibga solish) asoslanishiga asoslanadi. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy elementlaridan biri, shubhasiz, yangi, innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali o'qitish jarayonini o'tkazish yoki tashkil etish o'quvchilarning ham erkin, ham innovatsion fikr yuritishi uchun ajoyib vosita bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ko'pchilik metodistlar va pedagog olimlarning fikricha, pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni tarbiyalash maqsadiga erishishni kafolatlaydi. Lekin

bunday g'oyalarni ob'ektiv voqelik o'rnida qabul qilib bo'lmaydi, chunki bu holda ob'ekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif etilayotgan texnologiyani to'liq qabul qila olmaydi, aksincha, uni inkor eta oladi. Binobarin, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga joriy etishda faqat uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchigina ko'zlangan maqsadga erishishning asosiy kafolati bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyalar va uning asosiy negizi bo'lgan axborot-kommunikatsiya (AKT) texnologiyalarini joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchining tayyorgarlik darajasi birinchi o'ringa qo'yilishi kerak. yish kerak. Demak, pedagogik jarayon kun tartibidagi dolzarb masalalarning aksariyatini ijobiy yoki maqsadli hal etish ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga bog'liq.

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish ko'lamini kengaytirish, Pedagogik texnologiyalar

sohasidagi ilg'or tajribalarni qo'llash, har bir fan bo'yicha ushbu yo'nalishda aniq reja, darslik va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek dasturlar va ma'ruza matnlarini elektron disketaga o'tkazish, ular bilan har bir talabani ilmiy va uslubiy ishlarda ta'minlashni ta'minlash. Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etishga erishish, ta'lim tizimini zarur ommaviy axborot vositalari bilan ta'minlash, ta'lim muassasalarini kommunikatsiya tarmog'iga ulash muhim ahamiyatga ega. Fan, texnika va ishlab chiqarishdagi bugungi yuksak yutuqlar avtomatik tarzda kun tartibiga yangi ijtimoiy talablarni qo'ymoqda. Ana shu ijtimoiy talablar qatorida jamiyat va uning tarmoqlarini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Malakali kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj sanoat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan, ammo o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi bilan bog'liq holda yangi yo'nalishlar, mutaxassisliklar paydo bo'lishi, ularda kadrlar tayyorlash zarurati, o'zgaruvchan, tez sur'atlar bilan kechayotgan davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalaridir. bosqichma-bosqich oshirish ehtiyojini shakllantirish, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozorida kuchli raqobatga dosh bera olish qobiliyatiga bo'lgan talabning ortishi. [1] Zamonaviy ta'limning rivojlanishi yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikaning paydo bo'lishiga olib keldi.

"Innovatsion pedagogika" atamasi va uning o'ziga xos tadqiqotlari 1960-yillarda G'arbiy Yevropa va AQSHda paydo bo'lgan. Innovatsiyaning ijtimoiy-psixologik jihati amerikalik innovator E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan.

Unda innovatsion jarayon ishtirokchilarining tasnifi, ularning innovatsiyaga munosabati, uni idrok etishga tayyorligi tekshiriladi.

Pedagogik texnologiya zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llash, ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish

muammolarini texnologik yondashuv asosida o'rganadi.[2]

Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosiga kelsak, bu so'z yunoncha "tehnos" – mahorat, art "logos" – o'qitish, fan – yo'q degan so'zlardan olingan. Bundan kelib chiqadiki, texnologiya so'zi boshqa atamalar bilan birgalikda sohani rivojlantirish, malaka oshirish uchun ishlatiladi. Umuman olganda, texnologiya - bu sifat jihatidan yangi muammolarni hal qilish uchun ta'lim evolyutsiyasi bosqichini tayyorlaydigan ob'ektiv jarayon. Yangi texnologiyalar katta ta'lim imkoniyatlarini ochib berdi. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlari odatiy tushuntirishda "ta'lim" jarayoni o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlaridan tashqariga chiqq boshlaganini ko'rsatadi. Rivojlanayotgan texnik, axborot, bosma, audio va vizual vositalar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib, o'ziga xos tarzda o'quv jarayoniga ko'plab yangiliklarni olib kirdi. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, an'anaviy shakllardan ustunligi, zamonaviy ta'lim muammolarini hal etishning real yo'llari hali to'liq o'rganilmagan.

Bu haqda ko'plab xorijiy va o'zbek mualliflari yozadilar. Ammo kelajakda pedagogik texnologiya ustuvor bo'lishiga hamma ishonadi. Zamonaviy ta'limning rivojlanishi yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikaning paydo bo'lishiga olib keldi. "Innovatsion pedagogika" atamasi va uning o'ziga xos tadqiqotlari 1960-yillarda G'arbiy Yevropa va AQSHda paydo bo'lgan. Innovatsiyaning ijtimoiy-psixologik jihati amerikalik innovator E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. Pedagogik texnologiyaning mohiyati o'quvchilarni ta'lim-tarbiyaga jalb etish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdan iborat. Pedagogik texnologiyani joriy etishdan asosiy maqsad o'quvchilarning mutlaq ko'pchiligi ta'limda beriladigan bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiya asosida o'qitishga qo'yiladigan eng muhim talab - o'quvchining hayotiy tajribasi uning olgan bilim va qiziqishlariga asoslanishidir. Bugungi kunda ta'lim texnologiyasi nafaqat vosita, balki ta'lim

jarayonini rivojlantirishda katta rol o'ynaydigan, uning tashkiliy shakllari, usullari va mazmunini o'zgartiruvchi yangi tizimdir. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga ta'sir qiladi. Unda innovatsion jarayon ishtirokchilarining tasnifi, ularning innovatsiyaga munosabati, uni idrok etishga tayyorligi tekshiriladi. Texnologiyaning bunday tavsifi ta'lim jarayonida barcha ishlab chiquvchilar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirning muhimligini ta'kidlaydi. Passiv ta'lim ob'ektidan o'quvchi ta'lim va tarbiyaning faol sub'ektiga aylanadi va faol sub'ekt sifatida o'qituvchi bilan birga jarayonda ishtirok etadi, mustaqil bilim olishga intiladi.

Pedagogik texnologiya talabalardan salbiy kechinmalarga o'rin qoldirmasliklarini talab qiladi, garchi ular o'qish sohasida etarli bilimga ega bo'lmasalar ham, bu talabning aybi emas. Faollik namoyon bo'lganda, o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishda ishonchga ega bo'ladilar.

Amaldagi pedagogika fanida asosiy e'tibor yangi bilimlarni taqdim etish, yangi bilimlarni mustahkamlash va natijalarni hisobga olishga qaratilgan. Ta'lim jarayonida talabning oldingi bilimi, hayotiy tajribasi etarlicha hisobga olinmaydi. Dars rejasida o'tgan mavzuni yakunlash va diqqatni yangi mavzuga qaratish taklif etiladi. Biroq, bu yangi mavzu bo'yicha talabning bilimni aniqlash, mavzuga xos dastlabki ma'lumotlarni berish etarli emas. G'arb mamlakatlaridagi ta'lim texnologiyasining asosiy g'oyasi dasturlashtirilgan ta'limga asoslangan. Dasturlashtirilgan ta'lim asoschilaridan biri Berres Frederik Skinner ta'kidlaganidek, o'quvchining o'rganishi jarayon. Pedagogik texnologiya shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'quv sohasi bo'yicha bilimlarini esda saqlash va jonlantirish yangi bilimlarni egallashning asosi hisoblanadi. Bilim va tayyorgarlikni aniqlash talabalarning faollashuvi va bilimlarni egallashiga ijobiy turtki beradi. Mavzuni o'rganishni boshlaganingizda uni erkin suhbat, muhokama, aqliy hujum va boshqa shakllarda jonlantirish mumkin.

Pedagogik texnologiya o'quv amaliyotida uch bosqichda qo'llaniladi:

1. Umumiy pedagogik daraja. Umumpedagogik (umumiy didaktik, umumta'lim) texnologiyasi Ta'lim jarayonining yaxlit tuzilmasi, muayyan hududdagi uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bosqichida texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, ta'lim muassasasi, nazariy asoslari, umumiy xususiyatlarini ifodalaydi. Ta'kidlash joizki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichi ta'lim mazmuni orqali aniq maqsad va vazifalarni amalga oshirishni ta'minlaydigan pedagogik texnologiyaning ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasi bilan sinonimdir. Pedagogik texnologiya o'quv amaliyotida uch bosqichda qo'llaniladi: Pedagogik texnologiya talabalardan salbiy kechinmalarga o'rin qoldirmasliklarini talab qiladi, garchi ular o'qish sohasida etarli bilimga ega bo'lmasalar ham, bu talabning aybi emas. Faollik namoyon bo'lganda, o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishda ishonchga ega bo'ladilar. U ta'lim jarayonining maqsad va vazifalari, mazmuni, vositalari va usullari, o'quv jarayonining ob'ekti va predmeti, faoliyat algoritmlarini o'z ichiga oladi.

2. Pedagogik texnologiyaning maxsus metodik darajadagi aniq predmeti. kursni o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish uchun qo'llaniladigan ta'lim mazmuni, o'quv vositalari, usullar va shakllar majmui. Yuqorida tilga olingan pedagogik texnologiyaning uch darajasi bir-birini to'ldiradi va talab qiladi. O'zbekistonda pedagogik texnologiya masalalari asosan ta'lim sohasida o'rganiladi. Ta'lim texnologiyasi - o'quv jarayonidagi o'quvchining holatini - o'quv materialini o'zgartirish, yangilash orqali axborot mazmuni va modellashtirish darajasi. fanni pedagogik qayta ishlash, o'rganilayotgan mavzuni talabning haqiqiy bilish qobiliyatiga moslashtirish. ta'lim natijalarini qabul qilingan standartlarga ko'tarish va baholash usullari. vositalari, biz ta'limning tashkiliy shakllarini tushunamiz. Ta'lim texnologiyasi ta'lim jarayonini boshqarishning hozirgi rahbarlik tamoyilini

